

7A3.5
A81

Q.P.ARSLONOV

**MILLIY KURASH TURLARI
VA UNI O'QITISH
TEXNOLOGIYALARI**

*O'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5112000-jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi
uchun tavsiya etilgan.*

S/P 22225/6

**ТОШКЕНТ
“TURON ZAMIN ZIYO”**

2014

UO'K:342.745(094)

KBK 75.1

M 34

Milliy kurash turlari va uni o'qitish texnologiyalari, Тошкент:
“Turon zamin ziyo” нашриёти, 2014. -208 6.

ISBN 978-9943-335-89-9

УЎК:342.745(094)

КБК 75.1

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Fan va texnologiyalar markazi"ning innovatsion dasturi asosida yaratildi.

O'quv qo'llanmada milliy kurashning paydo bo'lishi, uning sport turlari tizimida tutgan o'mi, tarixiy manbalari, milliy kurash turlari, atamalari, uning texnikasi hamda taktikasi, uni o'rgatishning pedagogik texnologiyalari xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, milliy kurashning maxsus va umumiylaytayyorgarliklari, bajaruvchi mashqar hamda kurash tushishni analda bajarish texnologiyalari "Talim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida yozilgan.

O'quv qo'llanma Oliy ta'lim muassasalarini jismoniy madaniyat fakultetlarining talabalari, o'qituvchilari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quvchilari va jismoniy tarbiya o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

*Ma'murov B.B. BuxDU Jismoniy tarbiya fakulteti dekani,
pedagogika fanlari nomzodi.*

*Salimov G.M. BuxDU Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti
kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.*

*Xo'jayev Sh.X. Buxoro Olimpiya zahiralari kolleji direktori,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi, jahon championi.*

Mas'ul muharrirlar:

*Xo'jayev B.Q., pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Hamroyev A.R., pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

ISBN 978-9943-335-89-9



"Sport – sport uchun emas, eng avvalo, odamlar uchun, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan komil inson etib tarbiyalash uchun, yer yuzidagi barcha kishilarning tinchlik – osoyishtaligi, do'stlik va hamkorligi, baxt – saodati uchun xizmat qilishi darkor".

I.A.KARIMOV

SO'ZBOSHI

Jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – madaniy taraqqiyotining hozirgi bosqichida yosh avlodni voyaga yetkazish, uni barkamol inson qilib tarbiyalash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, keyingi faoliyat samaradorligini oshirish, ruhiy – ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda sport va jismoniy tarbiyaning ahamiyati ortib borayotganligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zero, jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma'nан barkamol avlod kelajak poydevori, ilmiy – texnik taraqqiyotning tayanchidir.

Sport va jismoniy tarbiya – yosh avlod shaxsining jismoniy – axloqiy, ma'naviy – huquqiy sifatlarini rivojlantirish muammosi milliy – tarixiy ildizlariga ega bo'lgan qudrat sifatida milliy urf – odatlar, an'analar, qadriyatlar, xalq pedagogikasi materiallari hamda, Shârq mutafakkirlarining asarlarida o'z ifodasini topgan. Shu boisdan mamlakatimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni asoslarini shakllantirish jadal sur'atlar bilan borayotgan hozirgi davrda yoshlarni ham ma'naviy, ham jismoniy, ham axloqiy jihatdan kamolotga yetkazish masalasi respublikamizda ustuvor vazifa qilib belgilangan. Chunonchi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quvchi-yoshlar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, ularni jismoniy jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalash uchun jismoniy madaniyat asoslarini shakllantirish va uning imkoniyatlaridan to'la foydalanish lozimligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, 2000-yilning «Sog'lom avlod yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan 15-fevral 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sog'lom avlod yili» davlat dasturidagi Qarorida "... ijtimoiy yetuk, har tomonlama kamol topgan va sog'lom avlodning tug'ilishi va tarbiyalanishi uchun

yuksak mas'uliyat psixologiyasini shakllantirishga, sog'lom avlodning tug'ilishi masalalari bo'yicha aholiga yangicha bilim berish tizimini yaratish¹ga yo'naltirilgan talablar belgilanishi bejiz emas. Shu munosabat bilan bu sohada yaratilgan sharoitlardan biri oliv o'quv yurtlarida «Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi» fanining o'quv rejasiga kiritilganligidir. Ushbu fanning maqsadi ta'lim muassasalarida malakali va jismonan baqquvat kurashchilarni taylorlashda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ilmiy-nazariy va amaliy-usuliy jihatdan qurollantirishga xizmat qiladi va o'quv fani sifatida kurashning har xil turlaridan sportchini jismoniy tayyorlash usullari va ularni amalda qo'llash yo'llari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, o'quv qo'llanma kurashchining jismoniy, texnik, taktik va ruhiy-irodaviy tayyorgarligini tashkil etish usullari va vositalari haqida ma'lumot berib, jismoniy tarbiya o'qituvchilar, sport murabbiylari va instruktorlari uchun milliy kurash bo'yicha zamonaviy bilimlarni bayon etadi. Zero, bu bilimlar bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi, murabbiy va sportchilar (kurash tushuvchilar)ning umumiyligi, taktik, texnik va maxsus tayyorgarlik usullari va vositalarini o'z mazmuniga kiritib, mukammal texnik, taktik, ruhiy-irodaviy va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan sportchilarni tayyorlashda aniq tushuncha va tasavvurlarini hosil qilishga amaliy yordam ko'rsatadi.

O'quv qo'llanmada oliv ta'lim tizimida o'qitish texnologiyalari va ularning mazmuni, tasnifi haqida ma'lumot berilib, milliy kurash turlarini o'qitish metodikasining mavzularini o'rgatishga texnologik yondashuv yoritiladi. Bu birinchidan, milliy kurash turlarini o'qitish metodikasining samaradorligini oshirishga yordam bersa, ikkinchidan, jismoniy tarbiya o'qituvchilar, murabbiylarga bolalar, o'smirlar, o'spirinlar va katta yoshdagи kurashchilar bilan mashg'ulotlar o'tkazish jarayonining texnologik jihatlari ko'rib chiqiladi, uchinchidan, oliv ma'lumotli jismoniy tarbiya o'qituvchisi ixtisosligiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash hamda ularni (kurashchilarni) mashg'ulot va musobaqalardagi faoliyatlarini o'rganish, tahlil qilish, ijodiy xulosalarga kelishga oid bilimlar bilan qurollantiradi.

¹ «Sog'lom avlod yili» davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori – «Ma'rifat» gazetasi, 2000-yil 19-fevral soni, 2-bet.

I BOB
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "MILLIY KURASH
TURLARI VA UNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI"
FANINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. «Milliy kurash turlari va uni o'qitish texnologiyalari»
fanining jismoniy tarbiya fanlari tizimida tutgan o'rni va
ahamiyati

*Bugun buyuk ajdodlarimiz
ruhini shod etib, azal-azaldan
xalqimizning milliy g'ururiga aylanib
qolgan o'zbek kurashining jahon
maydoniga chiqishi, uning tan
olinishi barchamizni bag'oyat
qvontiradi.*

I.A.Karimov

O'zbek milliy kurashining jahon arenasiga chiqib, milliy mustaqillik yillrida shiddat bilan bir xalqning ma'nnaviy-jismoniy qadriyatidagi turli xalqlar va millatlarning udumiga aylanganligi olamshumul hodisadir. Zero kurash o'z jangovorligi, go'zalligi, jozibadorligi, halolligi bilan barchaning mehrini uyg'otgan, o'ziga katta qiziqish uyg'ota olgan sport turi hisoblanadi. Kurashda kurash tushuvchilar harom-harishdan, g'irromlikdan, o'g'rilikdan, kashandalikdan yiroq bo'lib, oliyjanoblik, insoniylik, hatto raqibiga nisbatan hurmat ko'rsatadigan insonlar bo'lishi talab etiladi. Kurash insonlarni chiniqtiradi, irodani mustahkamlaydi, xalqiga, Vataniga bo'lgan muhabbatini uyg'otadi va mustahkamlaydi. Shuning uchun ham kurashchilar qat'iy qarorga ega bo'lib, hech qachon do'stlariga, millatiga, Vataniga xiyonat qilmaydilar. Kurash irodani toblaydigan, aniq maqsad sari undaydigan, qiyinchiliklarni chidam va bardosh bilan yengishga o'rgatadigan sport turi hisoblanadi. Shuning uchun ham kurash insonni ma'nnaviy, jismoniy, axloqiy jihatdan kamolotga yetkazuvchitarbiya maktabi rolini o'taydi. Kurash tushuvchilar yakkama-yakka bellashuv natijasid o'zlarida chaqqonlik, epchillik, kuchlilik, tezlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantiradilar, ma'nnaviy-axloqiy kamolotga erishadilar.

Ma'lumki, o'zbek milliy kurashi O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida keng tarqalgan sport turi bo'lib, bu hududlarda kurashning "Buxorocha" va "Farg'onacha" shakllari keng qo'llaniladi. "Buxorocha" kurashda tik turgan holda, beldan pastni ushlamasdan, qalmoqi qilib yiqitish usuli mavjud. Bu kurashning asosiy usullari raqibni oshirib otish, qalmoqi, qoqma, ichki tomondan poypechak qilib ag'darib, raqibning yelkasidan ushlab, tizza tomon bilan ilomoq qilib yelkadan oshirib tashlashdan iborat. Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida "Buxorocha" kurash rasm bo'lgan.

Farg'onacha kurashda raqiblar tik turgan holda, oldinda belbog'idan ushlanadi, bellashuv paytida ham qo'yib yuborilmaydi.

Raqibni yerdan ko'tarib, oyoq harakatlari bilan yiqtiladi. Bu kurashning xarakterli usullari: irg'itish, raqibni, avvalo, yerdan uzib irg'itish, raqibni egib, aylantirib, boshini gilamga tegizmasdan irg'itish, raqibni aylantirib yiqitish, raqibni sonidan ushlab, qayirib yelkadan oshirib yiqitish.

Farg'onacha kurash Farg'ona vodiysi, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari hududida rasim bo'lgan¹.

Ha, kurash xalqimizning qadimiy, hammabop, keng tarqalgan, halollikni talab etadigan, g'irromlikdan yiroq bo'lgan qadriyatlardan biri. U milliy mustaqililik yillarda keng quloch yozdi, keng sarhadlarga ega bo'ldi, u jahonni qamrab olmoqda. Yer kurrasining besh qit'asidagi 100 dan ortiq mamlakatlarida o'zbek kurashining ixlosmandlari, muxlislari va ishtirokchilari mavjud. Milliy g'urur, halollik, fidoiylik, mag'rurlik, jasoratni o'zida mujassamlashtirgan milliy o'zbek kurashi 1992-yildan boshlab nufuzli musobaqalar sababchisi bo'imoqda. Qorako'lida "Tursun ota", Shahrisabzda "Amir Temur", Surxondaryoda "at-Termiziy", Buxoroda "Bahouddin Naqshband", Andijonda "Bobur Mirzo", Xorazmda "Pahlavon Mahmud" xotirasiga bag'ishlab Prezident sovrini uchun o'tkazilgan xalqaro turnirlar o'zbek kurashining yuksak darajaga ko'tarilishida, jahon sport olamiga yangi tur bo'lib kirishiga katta hissa qo'shdi².

¹ Ahshev A.Q. Kurash. O'smir va yoshlarin kurashiga o'rgatishining metod va vositalari. -T.: O'qituvchi, 1987. 35-b.

² O'zbek kurashi dovrug'i Tuzuvchilar: H.Bobobekov, M.Sodiqov, Z.Ro'ziyeva. -T.: Iba Sino nashriyoti, 2002. 9-bet.

Shu bois bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida o'qitiladigan jismoniy tarbiya fanlari tizimidan o'r'in olgan milliy kurash o'quv predmeti yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshiruvchi, ma'naviy-axloqiy salohiyati, irodaviy sifatlarini yuksaltiruvchi, ularni ijtimoiy mehnat va Vatan mudofaafiga tayyorlovchi muhim vosita sifatida keng targ'ib qilinmoqda. Zero, bu fan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqib, o'quvchi yoshlаримизни:

- Jismoniy chiniqqan, barkamollik, baquvvat insonlar bo'lib yetishishga;
- Irodali, matonatli, dovyurak va jasoratli bo'lishiga;
- Mutelik va jur'atsizlikdan xoli, har qanday xavf-xatarni bartaraf qilishga tayyor turuvchi mard o'g'lonlar bo'lishiga;
- Mustaqil fikr, erkin tafakkur, ijodkor, tashabbuskor bo'lib yetishiga;
- O'zligini chuqur anglagan, iymon-e'tiqodli, insof-diyonatli, sabr-qanoatli, mehr-oqibatli, insonlar bo'lib, Vatanimiz sarhadlarining daxlsizligini ta'minlashgan tayyor turishni o'rgatishga;
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ma'naviy merosni asrab-avaylab, ko'paytirishga, xalqini, millatini har qanday nosozliklardan mudofaa qilishga tayyor turishga yo'lovchi fan bo'lib xizmat qiladi.

Bu hol yoshlаримизни bugungi shiddatkor hayot va jamiyat talablariga javob bera oladigan insonlarga, yangi buniyod etiladigan jamiyatning faol ishtirokchilariga aylantirishi tabiiydir. Shu bois, ta'lim muassasalarida, ayniqsa, oily ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Milliy kurash turlari va o'qitish texnologiyalari" fanining nufuzi yanada oshdi. Shuningdek, o'zbek kurashining jahonni qamrab olayotgani, Xalqaro kurash Assotsatsiyasining tuzilishi, kurash bo'yicha xalqaro turnirlarning o'tkazilayotgani, olimpiya o'yinlariga kurash musobaqasining kiritilishi, mazkur fanning o'qitishiga e'tiborni yanada kuchaytirdi.

E'tirof etib o'tish joizki, "Milliy kurash turlari va o'qitish texnologiyalari" fani o'quvchi-yoshlarni chaqqonlik, epchillik, jasurlik, mag'rurlik, jasoratga o'rgatishga, ularda mehr-oqibat, iymon-e'tiqod, insof-diyonat, haollikni tarbiyalashga xizmat qilar ekan, u jismoniy tarbiyaga oid fanlarning ma'lumotlariga ehtiyoj sezadi. Ayniqsa, "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi", "Jismoniy

tarbiya gigiyenasi”, “Jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi”, “Sport o’yinlari va uni o’qitish metodikasi”, “Gimnastika va uni o’qitish metodikasi” kabi fanlardagi ma’lumotlar yoshlarga milliy kurashni o’rgatishi, ularni umumiy va maxsus jismoniy tayyorlash, harakatlar texnikasini singdirish, kurashchilarining kurash jarayonidagi irodaviy, ma’naviy, ruhiy tayyorgarligini ta’minlash, shuningdek kurash mashg’ulotlarini rejalashtirish, tashkilshtirish va o’tkazish masalalarini loyihasida amaliy yordam ko’rsatadi.

Chunonchi, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” fani kurashchilar jismoniy madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini, jismoniy harakat malakalari va ko’nikmalari, ularni tarbiyalash prisiplari, metodlari hamda usullarini insoniyat tamadduni erishgan yutuqlar asosida o’zlashtirishga, jismoniy madaniyat mashg’ulotlarini tashkil etish va o’tkazish masalalarini yoritishga xizmat qilsa, “Jismoniy mashqlar fiziologiyasi va biomexanikasi” fani yoshlari sog’lom, turmush tarzining fiziologik xususiyatlarini, o’quvchi-yoshlari organizmining fuhksional imkoniyatlarini, jismoniy mashqlar tasniflarining fiziologik asoslari va harakat ko’nikmalarining rivojlanishini, muskulular faoliyatini vegetativ ta’minlash, jismoniy yuklamalari, me’yoriy-fiziologik asoslari haqida tushunchalar berishini ta’minlaydi. Bu esa shu sohaga oid bilimlarni kurashchilarining barcha qatlalarini ma’rifli qilish, o’z jismoniy tayyorgarligini bosqichma-boşqich chiniqtirib borishga yordam berishi tabiiyidir.

Ma’lumki, kurash texnikasi va taktikasida kurashchining muvozanatni saqlash, uloqtirish, aylantirish, oyoq bilan ichkaridan ushlab uloqtirish, yon tomondan uloqtirish, oldindan chalib uloqtirish, qoqma, ilish, chalish, siltab yiqitish kabi usullar nihoyatda muhim. Mazkur usullarni mustahkam egallahda umumiy rivojlantiruvchi, muvozanatni saqlab olish, akrobatika, tayanib sakrashlar, bruslarda mashq qilish, turniklardagi mashqlar, uloqtirish, sakrash kabi gimnastik mashqlar nihoyatda zarur. Shu nuqtai nazardan “Gimnastika va uni o’qitish metodikasi” fanidagi ma’lumotlar kurashchiga katta amaliy yordam ko’rsata oladi.

“Yengil atletika va uni o’qitish metodikasi” fanining mazmunidan o’rin olgan yengil atletika mashqlari texnikasi, saf mashqlari, bir joyda turib va harakat qilib bajariladigan umumiy va rivojlantiruvchi

mashqlar kurashchiga taktik va texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, qisqa, o'rtalmasofalarda yugurish, to'siqli yugurish, balandlikka va uzunlikka sakrashlar, nayza, disk uloqtirish kabi mashqlar kurashching umumiyl rivojlanishi va maxsus tayyorgarligini ta'minlashga yordam berib, uning ruhiy va irodaviy tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qiladi. Gigiyenik nuqtai nazardan chiniqish, jismoniy mashqlarni me'yorlashtirish, doimiy maxsus jismoniy harakatlar uchun gigiyenik talablar, dam olish, harakatni tiklash, ovqatlanishni me'yorlashtirish kabi masalalrni o'rganishda "Jismoniy tarbiya gigiyenasi" fanidagi mashg'ulotlar kurash tushuvchiga ham nazariy, ham amaliy yordam beradi. O'zida halollik va poklikni mujassamlashtirgan, yoshlarmizning jismoniy, irodaviy, ma'naviy-axloqiy fazilatlarining tarkib topishiga katta ahamiyat kasb etgan davra kurashi asosida maydonga kelgan va yangi sport turi tarzida tan olingen "O'zbek kurashi" uzoq tarixga ega. O'tmishda ajdodlarimiz milliy udum va urchodat sifatida to'y-hashamlarda, bayramlarda, katta ma'rakalarda va hatto davlatlar, hukmronlar o'rtasiga nizo tushgan paytlarda ham kurash tushishgan. Ikki raqib polvonlari o'rta ga chiqib kurash tushishgan va nizo, qirg'inbarotsiz, urushsiz, qon to'kishsiz hal etilgan. Chunki xalq o'z polvonining mardligiga adolatli ekanligiga, halolligiga ishonishgan va ularga tayanib ish tutishgan. Bu va shunga o'xshash masalalarni kengroq va chuqurroq tahlil qilish, Amir Temur, Pahlavon Mahmud, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Husayn Boyqaro kabi sarkarda va amirlarning kurash o'yiniga bo'lgan behad hurmatlarini bilib olishda "Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish" fanidagi ma'lumotlarga tayanadilar. Mazkur fanni o'rganish jarayonida mamlakatimiz va chet ellarda xalqaro sport harakatlari qatorida kurash turlari ning rivojlanishi, O'zbekiston kurashchilari va sportchilarining Osiyo, jahon va Olimpiya o'yinlarida ishtiroklarini bilib olish imkoniyati yaratiladi. Sportchini, murabbiyni va tashkilotni iqtisodiy-huquqiy statusi, jismoniy madaniyati va kurash sohasida mutaxassislarni tayyorlash istiqbollari, uzoqqa mo'ljallangan maqsad va vazifalar tarzida ("Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimizdir") muayyan sportchi-kurashchilar manfaatlarini himoya qilishning nazariy asosi sifatida qaraladi.

Darhaqiqat, asrlar silsilasidan, dayrlarning murakkab sinovlaridan mardonan o'tgan, chinakam mardlar, munosib raqiblar bahsi bo'lgan o'zbek milliy kurashi mustaqillik yillarda hayotbaxsh ruh kasb etib keng jahon bo'ylab quloch yoyganligi bayramlar, sayllar, turli mahaldagi musobaqalar, Olimpiya o'yinlarida, yana arenalarda paydo bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar, mazkur fan orqali talabalar diqqatiga havola etiladi. Ushbu fan mavzulari o'rganilganda I.A.Karimovning "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanini nazarda tutishimiz kerak! Xotirasiz barkamol inson bo'lmagan singari, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Tarix xotiralari insonni hushyorlikka o'rnatib, mardlikka da'vat etadi, irodasini mustahkamlaydi" –degan nazariy qarashari kurashchi-sportchilarga singdiriladi.

Shunday qilib, barcha jismoniy tarbiyaga oid fanlar yoshlarni jismoniy chiniqishga, sog'lom turmush tarzini qurishga, ularda yengillik, chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, irodaviylik fazilatlarini tarbiyalashga hamda yosh avlodni mehnat faoliyati va Vatan himoyasiga tayyorlaydigan muhim kuch hisoblanadi.

Milliy istiqlol tufayli o'zbek kurashi jahonga tanildi. U o'zining jozibadorligi, go'zal va nafis harakatlarga ega bo'lganligi sababli jahon xalqlarida katta qiziqish uyg'otdi. Bugungi kunda Lotin Amerikasi, Yevropa, Osiyo qit'asining ko'plab mamlakatlari o'zbek kurashiga katta e'tibor qaratib, kurash bo'yicha tashkil etiladigan musobaqalarni, kongresslarni ishtiyoq bilan kuzatmoqdalar.

O'zbek xalqining qadimgi qadriyati, faxri, g'ururi bo'lgan o'zbek kurashi bo'yicha tuzilgan "Xalqaro Kurash Assotsatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Respublika Prezidentining farmoni qabul qilingandan so'ng (fevral, 1999-yil) Respublikada milliy kuraşhga e'tibor kuchaytirildi. Mamlakatda va chet ellarda milliy kurash bo'yicha "Islom Karimov turnir"lari o'tkazila boshlandi.

Respublika ta'lif muassasalari umumiyl o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi, oliy ta'lim maktablarida kurash bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazila boshlandi, seksiyalar tashkil qilindi, turli mavqedagi turnirlar o'tkazilmoqda. Bu esa oliy ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishni yanada takomillashtirish, uni o'rganishning samaradorligini oshirish yo'llarini, qonunlarini, texnologiyalarini ishlab chiqishni

taqozo etadi. Bu talab bizga "Milliy kurash turlari va uni o'qitish texnologiyalari" o'quv qo'llanmasini yaratishga da'vat etdi. Qo'llanmada zamonaviy o'qitish texnologiyalari haqida qisqacha ma'lumot berilib, uni nazariy va amaliy mashg'ulotlarda tadbiq etish yo'llarini ko'rsatishga harakat qilindi.

1.2. O'qitish jarayonini zamonaviy ta'lif texnologiyalari asosida tashkil etish – davr talabi

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy islohotlar, demokratik o'zgarishlar ta'lif-tarbiya samaradorligini oshirishni, oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlarida o'qitiladigan "Milliy kurash turlari" va uni o'qitish metodikasi fanini o'rganishni yanada takomillashtirish va uning o'qitish jarayonida ilg'or ta'lif texnologiyalarini tatbiq etishni talab qiladi. Zero, «Ta'lif O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi»¹.

Ushbu tezisni amalga oshirish uchun «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qayd etilganidek, ta'lif tizimi yangilanib, o'qitish va tarbiyalashning yangi modeli yaratildi. Yangi modelga xos ta'lif mazmuni o'zgartirildi, endi shu mazmun yordamida yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, bilimli, ma'rifatli yoshlarni voyaga etkazishni ta'minlovchi ta'lif texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash ijtimoiy zaruriyatga aylandi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishning ikkinchi bosqichi (2001-2005-yillar)da «Ta'lif muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi», uchinchi bosqich (2005- va undan keyingi yillar)da «Ta'lif muassasalarining resurs, kadrlar va bazalari jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar (ta'kid bizniki –Q.A.) bilan to'liq ta'minlanadi» deb

¹Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. «O'zbekiston», 1998, 62-bet.

ta'kidlanishi bejiz emas. Bu ta'kid ta'limgiz ishlarini yanada jadallashirishni, o'qituvchi-o'quvchi (talaba) hamkorligiga asoslangan o'qish-o'qitish ishlarini yangi pog'onaga ko'tarishni, o'qituvchi-o'quvchi (talaba)larda mustaqil bilim olish hamda ijodiy fikrlashning ko'nikma va malakalarini shakllantirish; o'qitishning zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan shakl, metod va vositalardan to'liq foydalanish yordamida tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yish lozimligini taqozo etadi.

Bu hol uzuksiz ta'limgiz tizimini umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliv ta'limgizning o'quv-tarbiya jarayoni ilg'or ta'limgiz texnologiyalarini qo'shashtirish orqali amalga oshadi. Darhaqiqat, ilg'or ta'limgiz texnologiyasi o'quvchi (talaba)ni o'qitish ob'ektidan, o'qitish subyektiga aylantirib, uni mustaqil, ijodiy fikrlash, masala va muammolarga erkin, o'zining ilmiy ma'lumotlariga asoslangan holda yondasha oladigan bilimdon, ishbilarmon, tadbirkor, tashabbuskor yoshlarni tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Shu o'rinda e'tirof etib o'tish joizki, ta'limgiz texnologiyalari yoki o'qitishni texnologiyalashirish g'oyasi bu yangi g'oya emas. Bundan taxminan 300 yillar oldin yunon faylasufi Arastuning tarbiya inson shaxsimi shakllantirishga qaratilishi lozim, Suqrotning ta'limgiz-tarbiyada izchillik, ketma-ketlik, shaxsiy xulosalarga tayanish, Aflatunning ta'limgiz kasbiy ko'nikma, bilimlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim degan fikrlarni ilgari surgan davrda hamda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning ta'limgiz inson (bola, ta'limgiz oluvchi) tabiatdarli kelib chiqib, umumiy rivojlanish qonuniyatlariga tayanishi, bunda «Hamma narsa aniq va ravshan rivojlanib borishi», shundagina o'qitish jarayoni yaxshi sozlangan soat va avtomat mexanizmi kabi bexato yurishi yo'lga qo'yilib, barcha ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi, bu esa insonga quvonch va yaxshi kayfiyat baxsh etadi¹, degan g'oyani ilgari surgan vaqtidan boshlab qo'llana boshlangan edi. Ammo bu g'oya o'zining ilmiy asosi va amaliy yo'nalishini XX asrning ikkinchi yarmida to'liq topa oldi. Bu g'oya mazmunida:

(a) ta'limgiz maqsadini aniqlashtirish; (b) maqsadga erishishning optimal (eng. qulay) yo'l va vositalarini belgilash; (c) maqsadga

¹ Klarin M. V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsess. - M.: "Znaniye" 1989, S. 5.

erishishni kafolatlaydigan o'qitish modelini (model) - O'zbekiston milliy entsiklopediyasida tavsiflanishicha lotincha "modulus" so'zidan olingan bo'lib, biror ob'ektlarning obrazi yoki namunasi degan ma'noni anglatadi) loyihalashtirish degan fikr yotadi.


XX asning 50-yillariga qadar o'qitish jarayoniga texnologik yondashuvga bo'lgan intilish, an'anaviy o'quv jarayonini texnika vositalari bilan ta'minlash doirasida qo'llanilgan edi. XXI asning dastlabki yillardan boshlab pedagogik matbuotda «Pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiyalar», «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar», «Yangi pedagogik texnologiyalar», «Ta'lim texnologiyalari», «O'qitish texnologiyasi» kabibi so'z birikmalar, pedagogik atamalar tez-tez ko'zga tashlanadigan va mohiyatan hamda mazmunan bir ma'noni anglatadigan tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bunday atalishining ma'lum sababları mavjud.

Ma'lumki, texnologiya tushunchasi asosan moddiy ishlab chiqarish, xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarni qayta ishlash sohalari (sanoat, transport, qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa tarmoqlar)da tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra texnologiya yoki texnologik jarayon, xom-ashyo va boshqa mahsulotlarni qayta ishlov berish jarayoni, usullari, vositalarini ishlab chiquvchi hamda takomillashtiruvchi fan sifatida yuritiladi. Bunday jarayon moddiy ishlab chiqarishda kam vaqt sarflab, sifatlari, tejapli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Mazkur tushunchani o'qitish jarayoniga ko'chirsak, u o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish shakllari, usullari, vositalaridan unumli foydalanib, kam jismoniy kuch va aqliy salohiyat sarflagan holda bilim oluychilarga muayyan sharoitlarda jamiyat uchun zarur bo'lган, oldindan belgilangan ijtimoiy-shaxsiy sifatlarni jadal tarzda shakllantiruvchi jarayon deb jamlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki texnologiyalar har qanday ijtimoiy sharoitga moslasha oladigan hodisa sanaladi. Shu bois, o'quv jarayonida teskari aloqani o'rnatish, xatolarni tezroq tuzatish, maqsadga erishishni tezashtirish mumkin bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha «O'qitish texnologiyasi» ilk bor 1970-yilda YUNESKO konferensiyasida yangradi. Shu tashkilot tomonidan nashr qilingan «Yashash uchun o'qish» nomli ma'ruzada yuqoridaqgi atama ta'limiy jarayonni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuch sifatida aniqlandi. «Qanday o'qitish kerak?»

nomli ma'ruzada esa birinchi marta unga ta'rif beriladi. Unda o'qitish texnologiyasi informatsion inqilob natijasida paydo bo'lgan va didaktikada foydalaniladigan inson o'rasiда aloqa (muloqot) usul va vositalar yig'indisi sifatida tavsiflanadi. Endi YUNESKO bergan ta'rifning mazmunini ko'rib chiqaylik: "*Ta'lism texnologiyasi - ta'lism modellarini optimallashtirish maqsadida, inson va texnika resurslari va utarning o'zaro ta'sirini hisobga otgan holda, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir*" ("Ta'lism samaradorligini oshirish yo'llari", Respublika seminar-trening materiallari. -Toshkent, 2002; 36-bet). Ta'rifa ko'ra, o'qitish shakllari (dars, seminar, ma'ruza va h.k.)larni eng qulay, ya'ni o'qituvchi uchun ham, ta'lism oluvchi uchun ham kam vaqt ichida, ko'zlangan natijaga erishish uchun o'qituvchi o'quvchi faolligi, o'qitishning texnika vositalaridan foydalanishini, avvalo, yaratish (pedagog yaratadi), amalda qo'llab, qo'liga kiritilgan natijani tahlil qilish va yutuq hamda nuqsonlarni aniqlash degan ma'no yotadi. Demak, o'qitish jarayoniga yaxlit, tizimli yondashgan holda maqsadga erishish ko'zda tutiladi. Bunda o'qitish texnologiyasi, ta'lism jarayonining yaxlit ko'tinishi (o'qituvchi-ta'lism oluvchi hankorligi) bo'lib, faoliyat davomida ko'zlangan natijaga erishishni ta'minlaydi. Ber holatni aniqroq va teranreq idrok qilish uchun ishlab chiqarish texnologiyasi bilan o'qitish texnologiyasini taqqoslab chiqaylik. Avvalo, "Texnologiya" so'zining ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'sik, u turli ilmiy va o'quv metodik adabiyotlar, lug'atlarda e'tirof etilishicha yuroncha ikki so'zdan – "texnos" (techne) – mahorat, san'at va "logos" (logos) –fan, ta'limat so'zlaridan iborat bo'lib, xomashyo, materiallar, mahsulotlarga ishlov berish yoki ularni qayta ishlash yo'llari, usullari to'g'risida ma'lumot beruvchi ta'limat yoxud fan degan ma'noni anglatadi. Bunda materiallarni qazib olish, ishlov berish, qayta ishlash, sifatini nazorat qilish, amalda qo'llash yagona jarayonni o'zida aks ettiruvchi muayyan texnologik operatsiyalar yig'indisidan iborat bo'ladi. Bular ishlab chiqarishdan texnologik jarayon, texnologik operatsiya, texnologik mexanizm, texnologik rejim kabi amalgalashuvchi jarayonni tashkil etadi. Mobodo mana shu jarayonning biror-bir holati, masalan, texnologik operatsiya ishlamay qolsa, harakat, ishlab chiqarish yakuniga yetmay qoladi yoki mahsulot brak (yaroqsiz) ishlab chiqiladi. Ma'lumki didaktika, ya'ni o'qitish, ta'lism berish jarayoni ham ma'lum element

(mexanizm)lardan tashkil topgan holda amalga oshadi. Bunda ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilardan iborat bo'ladi. Mazkur ta'lim jarayonning texnologik loyihasini O'.Tolipov, M.Ulmonboyevalar quyidagicha tasvirlaydilar:



Ushbu loyiha o'qitish jarayonining unsurlarini to'liq aks ettirmoqda. Bunda maqsad jamiyatning ehtiyoji, talablaridan kelib chiqib o'quv muassasasi yoki muayyan fanning vazifalarini belgilab beradi va u har bir fanning o'quv mazmunida aks etgan bo'ladi. Ta'lim mazmuni o'z ifodasini davlat muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim standarti, o'quv reja va o'quv dasturlari, hamda darslik, qo'llanmalarda aks ettiriladi. Ta'lim jarayoni (ta'lim shakllari, metodlari, usullari, texnik vositalari)da amalga oshirilishi, nazarda tutilib, pedagogik jarayon (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining) jamiyat tomonidan belgilangan maqsadni ko'zlangan faoliyat)da hal etiladi. Bunda ta'lim jarayoni (shakl, metod, usul, vositalar)ni maqsadga muvofiq, ta'lim mazmunida to'liq yoritishga qaratish va undan unumli, maksimal foydalananish ko'zlangan natijaga erishishni ta'minlashini e'tibordan chiqarmaslik lozim. Demak, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish deganda ishlab chiqarishda texnik unsurlar (elementlар)ning bir maromda aniq ishlashti nazarda tutilganidek,

¹Qarang: Tolipov O'. , Ulmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarining tadbiqiyo anosilari. - T.: "Fan", 2006, 21-bet.

ta'lim jarayonining unsurlari (mexanizmlari)ni ham to'liq ishlashini ta'minlashdan iborat deb tushunsa xato bo'lmaydi. Barcha o'quv fanlari singari, "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'tganishda ta'lim jarayonini aniq tashkil etib, uning unsurlarini to'liq ishlashini ta'minlash, mazkur fanni o'qitishda texnologik yondashuv degan ma'no kelib chiqadi. Shunday qilib, sanoatda, qishloq xo'jaligida va boshqa sohalarda ishlab chiqarish yo'llari, usullari, vositalari texnologik jihatdan yetakchi o'rinn tutganidek, o'qish, o'qitishda ham ta'lim jarayonining unsurlari muhim mavqega ega. Bunda o'qitish va o'rganish jarayoni muayyan tizim asosida kechadi. Chunki u tartib bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda amalga oshadi. Masalan, tikuv mashinasini olaylik. Tikuv mashinasi bir nechta tizimlardan iborat bo'lib, har bir tizim bir nechta mexanizmlardan tashkil topgan. Tikish tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u ipni saqlovchi g'altak, ipni tortib beruvchi, ipni chang-chungdan tozalab beruvchi, tikuvchi igna va h.k. kabi mexanizmlaridan iborat bo'ladi. Mobodo mana shu-mexanizmlarning birortasi ishlamay qolsa tikish jarayoni qoniqarsiz kechib, yaroqsiz tikish amalga oshadi. Ko'rinish turibdiki, tikuv mashinasing yaxshi ishlashi, bu jarayonni to'liq amalga oshishi uchun bu tizimini tashkil etuvchi mexanizmlarining bir maromida, tizimli ishlashni ta'minlashga bog'liq.

O'quv mashg'ulotida o'qitish jarayoni va uni tashkil etuvchilari, ya'ni uning unsurlari: ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim shakli, ta'lim metodlari, ta'lim usullari, ta'lim vositalari, ta'lim oluvchi hamda ta'lim beruvchi, nazorat va baholash bir yo'nalishda ishlashdan iborat bo'lishi kerak. Mobodo mashg'ulotda o'qitish jarayonining yaqorida Ko'rsatib o'tilgan unsurlaridan birortasi e'tibordan chetda qo'sha yoki noto'g'ri qo'llanilsa, tizim ishlamaydi va natijaga erishib bo'lmaydi.

Haqiqatdan ham, ob'yektiv voqelikni tizimli yondashuv asosida idrek e'fis, unni aniq va to'liq anglashni ta'minlaydi va o'qitish jarayonida bilimlarni o'zlashtirish faoliyatini yaratadi, qo'llaydi va aniqlaydi. Qayd etib o'tilgan g'oyalarni nazariy-amaliy assoslashda chet e'llik olimlar D.Blok, B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J. Kerrol, R.Mayttir, T.Gilbert, L.Anderson, T.Sakomato, MDH mammakatlaridan V.P.Bespalko, M.V.Klarin, V.A. Salastenih, T.Shipovalenko, V.M.Monakov, I.Volkov, B.T.Lixachyov, M.A.Chashanov, Ch.Yudit, T.R.Nazarova, P.A.Yutsyavichene,

J.Boysalov, S.K. Islamgulova, G.K.Selevko, O'zbekistonlik pedagoglar B.L.Farberman, N.H.Avliyoqulov, N.Sayidaxmedov, O' Tolipov, U.Nishonaliyev, M.Ochilov, N.Azizzxo'jayeva, K.Zaripov, B.Xo'jayev, Sh.Olimov. A.Ochilovlarning tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Bu olimlar va mutaxassislar tomonidan o'qitish jarayoniga muammoli, texnologik, modulli, tizimli yondashishning nazariy va amaliy asoslari ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan. Xususan, mazkur olim-pedagoglar o'qitish texnologiyalarining ilmiylik, tizimlilik, qayta tiklanuvchanlik, o'qitish va o'qish motivlarining yaxlitligi, axborotlilik, bir butunlik, asoslilik, ta'limga mazmunini insonparvarlashtirish va insoniyashtirish, faoliyatli yondashuv kabi tamoyillarini ishlab chiqib, ularni amalda qo'llash orqali o'qish-o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirish, ko'zlangan natijaga erishishni tezlashtirish imkoniyatlarini yaratadilar.

Shunday qilib, hozirgi davr o'qitish texnologiyalari mazmun va mohiyat jihatidan „majmuaviy integral (butun uzviy bog'liq) tizim bo'lib, unda ta'limga maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi”¹.

1.3. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishda qo'llaniladigan ta'limga texnologiyalari

Hozirgi davrning turli ilmiy-nazariy va o'quv -metodik manbalarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, qayta takrorlanadigan, o'quvchi (talaba)ning o'qish-bjilish faoliigini to'liq ta'minlaydigan, ta'limga shakllarini qulaylashtiradigan, o'qitishda inson salohiyati va texnik vositalarning o'zaro ta'sirini tashkil etadigan, bilim o'zlashtirishda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzata oladigan „...zamonaviy pedagogik ya axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish ya joriy etishni ta'minlash”² vaqtida etib kelganligi qayd etiladi. Chunki ta'limga texnologiyalari o'zlashtirish natijalarini kafolatlaydigan, jamiyat talablariga ko'ra oldindan shaxs shakllanishini kafolatlovchi, ta'limga

¹ Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarining tadbiqi asoslari. – T.: „Fan”, 2006, 53-bet.
² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmeqda. – T.: „O'zbekiston”, 1999, 37-38-betlar.

shakllarini qulaylashtiruvchi o'qitishning metod va vositalarinining yig'indisidan iboratdir.

"Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'qitishda ta'lim jarayoning yo'nalishini muayyan izchillik va yaxlitlikda qurish, o'quvchi (talaba)larning o'quv-biluv faoliyatini aniqlashtirilgan maqsadni amalga oshiruvchi ta'limning shakl, metod va vositalarini tanlash lozimligini taqozo etadi. Buning uchun didaktikaning muayyan qonuniyatlari, qoidalari va o'ziga xos jihatlarini e'tibordan chiqarmaslik lozim. Chunki ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, o'qitish texnologiyasi (natija sifatida)- didaktik jarayonning ilmiy loyihasi modeli bo'lib, faoliyat davomida pedagogik harakatalar muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Xo'sh, o'qitish texnologiyalari mazmunida nimalar mujassamlashgan:

1. Ta'lim standartlari asosida o'qitish jarayonini loyihalash.
 2. Kutilayotgan natijani kafolatlash va kafolatlangan natijaga to'liq erishish.
 3. Kafolatfangan natijani qo'lga kiritishda maqsadni aniq belgilash, ya'ni ta'limning umumiyligi maqsadi va o'quv mavzusining maqsadini hamda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv ma'lumotlarinining maqsadini aniqlashtirish.
 4. O'qitishning didaktik vositalarini aniq tanlash va ulardan maksimal (optimal) foydalanish.
 5. O'qitishning uzlucksizlik, tadrijiylik, ilmiylik, tushunarlik, ko'rgazmalilik, amaliylik, tamoyillariga asoslanish.
 6. O'quv mashg'ulotlarining xaritasini o'zlashtirilishi lozim bo'lgan BKM (bilim, ko'nikma, malakalar) va pedagogik harakatlar (o'qituvchi-talaba faoliyati) asosida ishlab chiqish va rejallarni tuzish.
 7. Ta'lim oluvchilarining mustaqilligi, faolligi, ijodiy kamolotining ta'minlanishiga qaratilgan bo'lganligi.
 8. Ta'lim jarayonining motivatsiya, ta'lim oluvchining o'qish-bilish faoliyati, o'quvchi faoliyati boshqarilishi komponentlaridan iborat bo'lishi va amalg'a oshishi.¹
- Qolaversa, "Milliy kurash turlari va o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda, fan mazmunini talabalarning o'zlashtirishlari uchun ta'limning ilg'or va zamонавиј usullaridan foydalanish, yangi

¹ Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. 28- bej

innovatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlardan ilg'or innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligi qayd qilingan. Shuni inobatga olib biz mazkur fanni o'qitishda foydalanishi mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyalari xususida fikr yuritamiz.

Hozirgi kunda ta'lim maqsadini amalga oshirish ta'lim funktsiyalari, muammoli-modulli xususiyatlari, o'qitish vositalari va ta'lim mazmunini amalga oshirish darajalari, ta'limni jadallashtirish va shaxsga yo'naltirilgan - umumi pedagogik, xususiy pedagogik, lokal (modul)li ta'lim kabi o'qitishning xususiyatlaridan kelib chiqib, A.Ya. Saveiev, S.A.Smirnov, M.A.Chashanov, V.P.Bespalko, V.M.Shatalov, E.N.Shiyanov, M.I.Maxmutov, L.A.Yutsyavichene, D.V.Chernilevskiy va boshqalar tomonidan ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan. Respublikamiz ta'lim muassasalarida esa o'qitishning muammoli, shaxsga yo'naltirilgan, mujassamlashtirilgan, modulli, rivojlantiruvchi, dasturlashtirilgan, differenlashtirilgan, faol, o'yin kabi texnologiyalari N. Avliyoqulov, N. Sayidaxmedov, B. Farberman, O'. Tolipov, M. Usmonboyeva, B. Xo'jayev, Sh.Olimov tomonidan ilmiy nazariy jihatdan asoslanib amalda qo'llanilmoqda.

Xullas, mazkur texnologiyalar mustaqil fikr yuritish, faol o'zlashtirish, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, kafolatli natijaga erishishni yo'lga qo'yishga yordam beradi. Zero, bunda bilish, tushunish, anglash, ajrata olish, o'z-o'zini nazorat qilish, aniqlashtirish o'z faoliyatini baholash kabi amallar doimiy harakatda bo'ladi. Endi qayd etib o'tilgan texnologiyalarning ayrimlari xususida qisqacha tavsif beramiz.

Muammoli o'qitish texnologiyasi – bu muayyan o'quy fanining muhim tomonlarini ijodiy o'zlashtirishga o'quvchilarни muntazam jaib qilishni nazarda tutadigan texnologiyadir. Muammoli o'qitish texnologiyasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ta'lim oluvchilarga ma'lumot, axborotlarni tayyor holda emas, balki muammoli vaziyatlarni yaratish hamda ularni yechishga o'quvchilarни jaib etish orqali bilim o'zlashtirish, ko'nikma malaka hosil qilishga yo'llashni nazarda tutadi. Shuning uchun mazkur texnologiya ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, e'tiqodni tarbiyalaydi.

Darhaqiqat, "Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar

mantiqini namoyish etadi"¹. Zero, muammoli vaziyat – ta'lim oluvchilar fikrlash jarayonining dastlabki bosqichi bo'lib, unda biror narsani tushunish, anglash mantig'i yotadi va u talabani muammoni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkillashtiradi. Bunda o'qituvchi o'quvchi-talabalarga bilim, ma'lumot, axbototlarni tayyor holda taqdim etmaydi, u bilim oluvchilar oldiga muammoli topshiriqlarni qo'yib, ularning yechimini topishga o'quvchi-talabalarning o'zlarini yo'naltiradi.

Muammoli topshiriqlar, bilishga yo'llovchi, tadqiqiy topshiriqlar hisoblanib, ularning natijalarini ta'lim oluvchiga noma'lum bo'lib, ularni yechish yo'llari, vositalarini ularning o'zlarini o'z tayyorgarlik darajalariga tayanib mustaqil hal etishga intiladilar.

Muammoli o'qitish texnologiyasi o'quvchi-talabalarning bilish faolligi va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Natijada o'quvchilar bilimlarni o'z tayyorgarlik darajalariga tayanib mustaqil o'rGANISHGA odatlanadilar, muammo va topshiriqlarni yechishning yo'l va vositalarini izlab topishga intiladilar.

"Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" o'quv fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga kurashchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarliklarini inobatga olib, vaziyatdan kelib chiqib, texnik, taktik mahoratini namoyish qilishda mustaqil qaror qabul qilish yo'llari hamda vositalari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, kurashchilarga hujum harakatlarini mustaqil tanlash, qo'llash texnikasi bilan tanishtiradi. Bu esa o'z navbatida, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va mashqlarini tashkil etish va o'tkazishga texnologik yondashish uchun amaliy yordam ko'rsatadi. Bunda muammoli vaziyatni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat yaratishda:

- a) texnik-taktik tayyorgalikda ziddiyatlarni vujudga keltirish va uning yechimini topishga kurashchining o'ziga taklif etish;
- b) aynan bir xildagi texnik-taktik tayyorgarlikni turli xil yechimini topish;
- c) kurashchilarga holatga turlicha yondashishni o'rgatish;
- d) amalga oshirilgan texnik-taktik holatni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga undashga olib keladi va ularni qo'llash ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

¹ N.H.Aviyoqulov, N.J.Namozova Muammoli o'qitish texnologiyalari. -T. 2004, 12-bet.

Shuning uchun ham “Milliy kurash turlari va uni o’qitish texnologiyalari” o’quv fanini o’qitishda muammoli ta’lim texnologiyasining roli katta.

Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi - o’quvchi-talabalarining maxsus ishlab chiqilgan o’quv materiallari ustida mustaqil ishlashtilarini yo’lga qo’yish texnologiyasi hisoblanadi. Bunda milliy kurash bo’yicha sport kurashining paydo bo’lishi, ularning turlari, usullari, tamoyillari, kurashning texnik-taktik mahorat tamoyillari, sportchining jismoniy tayyorgarligi, ruhiy tayyorgarligi, texnik hamda taktik tayyorgarligi va boshqa o’quv ma’lumotlarini dozalarga bo’lib, ularni ketma-ketlikda, izchillikda bayon etish bilan tavsiflanadi. Chunki bu ta’limda o’quv ma’lumotlarini muayyan dozalarga ajratish, o’qish tempini individuallashtirishi va asta-sekin aniqdan-noaniqqa, oddiydan-murakkabga qoidasiga ko’ra amalga oshirish, o’quv materialini o’rganish nazoratini izchillik bilan o’tkazish, o’tilgan izchilik bilan o’tkazish, o’tilgan mavzuni kichik ulushlarga bo’lib, ularni to’liq o’zlashtirilishini ta’minlagandan so’ng o’quv materialining keyingi ulushini taqdim etishga o’tishni ta’minalash kabi didaktik talablar yotadi.

Bu talabning o’ziga xos tomoni shundan iboratki, talaba fan o’quv materialining oldingisini mukammal o’zlashtirmasa, keyingisini o’zlashtira olmaydi. Aniq va to’g’ri tashkil etilgan individual xarakterdagi talabaning mustaqil ishi o’quv ma’lumotlarini to’liq o’zlashtirishga imkon yaratadi. Yaxshi tashkil etilgan talabaning o’quv-biluv faoliyatini uning ustidan o’rnatilgan doimiy nazorat, talaba bilim olishi va rivojlanishini ta’minalaydi.

Modulli ta’lim texnologiyasi. O’qitishning yangi texnologiyalarini izlab topish borasida olib borilgan tadqiqotlar, ta’lim oluvchilarining mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’limming modulli o’qitish texnologiyasining yaratilishiga olib keldi. Modulli o’qitish texnologiyasi amiq ta’lim oluvchiga mos keluvchi o’qitish usulini tanlashni, o’quv ma’lumotlarini o’quvchi-talabaning tayyorgarligi, o’quv-biluv ehtiyojiga muvofiqlashtirish, o’quv fani bo’yicha bilim va ko’nikmalarini mustaqil ishlashtilar asosida modullar bo’yicha tizimlashtirishni nazarda tutadi.

Professor N.H.Avliyoqulov va p.f.n.N.N.Musayevalar ta’kidlaganlaridek:

- modulli o'qitish didaktik tizimning har bir tizilmasini (komponentini) so'zsiz ishlanishini ta'minlaydi va ularni modulli dasturda va modullarda ko'rgazmali taqdim etadi;

- modulli o'qitish, o'qitish mazmuhini aniq tarkiblash, nazariy materialni ketma-ket bayon etish, o'quv jarayonini uslubiy material bilan ta'minlash, o'qitish jarayoniga tuzatishlar kiritishga imkon beruvchi o'zlashtirilgan bilimlarni baholash va nazorat tizimini toqazo etadi;

- modulli o'qitish o'qitishni o'zgaruvchanligini, o'quv jarayonini o'quvchilarining shaxsiy imkoniyatlari va talablariga moslashni nazarda tutadi.

Modulli ta'lim texnologiyasining mazkur o'ziga xos xususiyatlari Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi o'quv fanini o'qitishda:

- milliy kurash turlarini tartiblashtirish; "milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi"¹ni modulli dastur shaklidagi o'quv ma'lumotlari modullarga (makro-, mikromoddullar tarzida) ketma-ketlikda o'zlashtirishni rejashtirish;

- tashkiliy shakkarda mustaqil bilim oshisida olib borishni yo'lga qo'yish kabi masalalarni yechish amalga oshiriladi.

Shunday qilib, modulli o'qitish texnologiyasi fan ma'ruzalarini modullarga ajratishni, o'qitish, o'zlashtirishni nazorat qilish va baholashni yuqori texnologik jarayon asosida olib boruvchi texnologiya deb xulosa chiqarish mumkin.

Differensiallashgan ta'lim texnologiyasi - bu ta'lim oluvchilarining individual (ruhiy va jismoniy) xususiyatlarini inobatga olib tashkil etilgan ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Ma'lumki, didaktika fani ta'lim oluvchilarini bilim darajasi, fikrlashi, xotirasi, qobiliyatini inobatga olib, ularni a'lo, yaxshi, o'rta va bo'sh o'zlashtiruvchilarga ajratib o'qitish maktabi amaliyotida keng qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotlar mashqlarni tashkil etish odatda differensial ta'lim deb yuritiladi.

Sport kurashida esa kurashchilarining jismoniy, ruhiy, texnik, taktik tayyorgarliklarini inobatga olgan holda ularni guruhlarga ajratib tashkil etiladigan mashg'ulotlarni differensial ta'lim deb aytish mumkin. Bunday yondashish sportchida taktik-texnik tayyorgarlikni

¹ Qarang: N.H.Avliyoqulov, N.N.Musayeva. Modulli o'qitish texnologiyalari. T.: Fan va texnologiyalar, 2007, 27-bet.

oshishida, jismoniy va ruhiy holatini yaxshilashida muhim o'rinni tutadi. Bunday ta'limda sportchi faollashadi, o'zining jismoniy, ruhiy, texnik va taktik tayyorgarligi ustida muntazam shug'ullanadi. Buning uchun jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki murabbiy milliy kurash turlari, milliy kurash mashg'ulotining maqsadi, vazifalari, vositalari, usullari, tamoyillari, kurashchining jismoniy, ruhiy, texnik va taktik tayyorgarligi to'g'risida ham ilmiy-nazariy ham amaliy - usuliy ma'lumotlarni mukammal egallashi talab etiladi.

Shunday qilib, "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda differensial ta'lim texnologiyasidan foydalanish ta'lim oluvchilar yoki bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamda murabbiylarni past o'zlashtiruvchidan qoniqarli o'zlashtiruvchilar darajasiga, qoniqarli o'zlashtiruvchilarni yaxshi o'zlashtiruvchilar darajasiga, yaxshi o'zlashtiruvchilarni a'lo o'zlashtiruvchilar darajasiga ko'tarish mumkinligi amalda tasdiqlangan. Demak, "Milliy sport kurashi va uni o'qitish metodikasi" fani mavzularini o'qitishda differensial ta'lim texnologiyasini qo'llash yaxshi samara beradi. Mujassamlashdirilgan ta'lim texnologiyasi - ta'lim oluvchilarning his qiliш xususiyatlarini, idrok etish faoliyatlarini inobatga olgan mashg'ulotlarni bloklarga biriktirib, egallangan bilimlar samarradorligini oshirish hamda ularni idrok etish qobiliyati, faoliikkari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlarini orttirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasıdir. "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini mujassamlashgan ta'lim texnologiyasi asosida o'qitish sport turkumidagi o'quv fanlarining o'qitishni mujassamlashgan holda o'qitishni nazarda tutadi. Bunda kurashga tayyorgarlik jarayonidagi harakatlar, kuch, tezkorlik, chidamlik, chaqqonlik, vaziyatni to'g'ri tushtinish va unga qarab kuchini taqsimlash to'g'ri ta'minlanadi. Zero, inson ongi sezgisi, ruhiy faoliyati o'zaro mujassamlashgan birliklardan tashkil topgan. "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fani mazmunidagi mavzularni mujassamlashdirilgan ta'lim asosida o'rghanish kurashchilarining bilimdonlik darjasini va jismoniy, ruhiy, texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantiradi, mavzularni hayotiy lavhalar bilan bog'lashni ta'minlaydi. Shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari va murabbiylarning bilish faoliyatini mazmuran boyitadi hamda quydagilarning namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

- a) o'rganilayotgan fan g'oyalarini chuqurlashtiradi va zukkolik, faoliytni oshiradi;
- b) kuchlilik, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, mustaqillikni tarbiyalaydi;
- c) har bir mashg'ulot doirasida faoliyat turlarini almashtirishga yordam beradi;
- d) mashg'ulotlarni ko'rgazmali, illyustrativ, axborotli tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- e) mustaqil, ijodiy fikrash va tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishni yo'lga qo'yadi;

Rivojlantiruvchi ta'limg texnologiyasi- ta'limg oluvchilarining tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida uning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va muammoni mustaqil echa oladigan, fan mazmunini anglash uchun kerakli bilimni qidirib topa olish ko'nkmalarini rivojlantiruvchi ta'limgidir. Bu ta'limg texnologiyasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqadi va jahon standarti talabiga javob beradigan, o'ziga, boshqalarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga, mehnatga, o'zining shaxsiy faoliyatiga to'g'ri munosabati bildira oladigan, ijodkor, tadbirdor kadrlarni tayyorlash va o'z-o'zini takomillashtiradigan shaxsni tarbilashga qaratilgan ta'limg texnologiyasidir. Mazkur ta'limg texnologiyasi ta'limg jarayoni ishtiokchilari (subyektlar)ning harakatlarni faollashtiradi, hamda o'zaro faoliyatni jadallashtiradi, interfaollikni vujudga keltiradi. Bu esa faqatgina axborotlarni shunchaki qabul qilishni emas, balki o'rganilayotgan ob'ektlar yoki jarayonlarning o'zaro harakatlarni tezlashtiradi, ma'lumotlar, axborotlar xususiyatlarini faol tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Demak, rivojlantiruvchi ta'limg o'qitish jarayonini jadallashtirish, bilim oluvchilar faoliyatini faollashtirish, birgalikdagi harakatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan ta'limg hisoblanib, ta'limg va tarbiya vazifalarini oqilona hal qilishga katta imkoniyatlar yaratadi.

Shunday qilib, nazariy jihatdan ishlab chiqilib, amaliy faoliyatda ko'llanilayotgan o'qitishning zamонавиyy texnologiyalari o'zida o'qitishning tashkiliy shakllar tizimi, ta'limg metodlari, majmuasi, vositalari, maqsad, vazifa, ta'limg o'rgatuvchi va ta'limg o'rganuvchining birgalikda, hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil qiluvchi, o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirishda imkoniyatlardan to'liq

foydalauvchi texnologiyadir. Shuning uchun ham u produktiv (mahsuldor) hisoblanadi.

Hozirgi zamон та'lim nazariyasi (didaktikasi)da o'qitishning mazmunini to'ldiruvchi o'qitishning interfaol metodlari mavjud. Bu metodlar o'qitishning samaradorligini oshiradi, o'quvchi-talabalarining ijodiy, mustaqil, tanqidiy fikrashlarini shakllantiradi va qobiliyatini rivojlantiradi, raqobatbardosh yetuk mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

1.4. "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda qo'llaniladigan didaktik jarayonning interfaol usullari

Ma'lumki, milliy kurash uning paydo bo'lishi, takomillashib turlarga bo'linishi haqidagi ma'lumotlar, o'quvchilar, talabalar va murabbiylarga muayyan yo'llar bilan yetkaziladi. Bu didaktika fanida ta'lim metodlari deb nomlanadi. "Metod" so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "tadqiqot", "usul", "maqsadga erishishi yo'li" degan ma'nolarni ifodalaydi. O'qitish metodlari deganda o'qituchining o'quv ma'lumotlarini bayon qilishi va o'quvchilarning o'quv materiallarini egallash hamda turli didaktik masalalar yechimini topish uchun qo'llaniladigan, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo'llari tushuniladi.

"Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'rganishda ma'lumotlarni muayyan ketma-ketlikda o'rganuvchilarning o'quv-biluv faoliyatini mayzu o'zlashtirishga yo'naltirilgan maqsadga mos o'qituvchi -o'quvchi harakati orqali amalga oshiriladi. Mazkur harakatlar aniq tashkillashtirilib, to'g'ri amalga oshirilsa ta'lim samaradorligining oshishi shubhasiz yaxshi bo'ladi. Shunga ko'ra o'qitish metodlarini faol va passivlarga bo'lish mumkin. Professor N.Sayidaxmedov ta'kidlaganidek, "Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'mida ishlatsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchi (talaba)lar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi."¹ Shu bois darsda o'qituvchi, ayniqsa, o'quvchilarning faolligini ta'minlashga qaratilgan ta'lim metodlarini tanlashi va qo'llashi talab etiladi. Bu

¹ Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyat). - T.: "Moliya", 2003; 93-bej.

masalaga xorijiy ta'lim didaktikasida qo'llaniladigan metodlarga murojaat qilish faoliyatni faollashtirishga yordam beradi.

Ma'lumki, chet el dadaktikasida ham o'qitish metodlari mavjud bo'lib, ular interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoxda. Bu metodlar ta'lim o'rgatuvchi va ta'lim oluvchini ortiqcha zo'riqishlarsiz, qisqa vaqtida ijobjiy natijalarga erishishni yo'lga qo'yadi va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Quyida məktəb amaliyotida foydalanilayotgan mana shunday interfaol metodlar va ulardan foydalanish xususida so'z yuritamiz.

1. **"Aqliy hujum" usuli** - masalani mustaqil tushunish va yechish maqsadida tashkil qiladi, ta'lim oluvchilarini ma'lum mavzusi yuzasidan muammo xususida chuqur va har tomonlama fikr yuritishni yo'lga qo'yadi, o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, faoliyati rag'batlantiriladi.

2. **"Fikriy hujum" usuli**. Bu usul ta'lim oluvchilarining ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonidagi faoliyklarini ta'minlash, erkin fikr yuritishlariga imkon yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi (talaba)lar mavzu yuzasidan turlicha fikrlashi uchun sharoit yaratiladi, mustaqil, erkin, ijodkorlik bilan muammoni hal etish jarayonidagi faoliyati rag'batlantiriladi. Natijada har qanday vazifani yechishda ko'proq fikrlar bildirilishiga e'tibor qaratiladi. Har qanday bildirgan fikr tanqid qilinmaydi va mustaqil bildirgan fikr jamoadooshlar tomonidan yodda saqlanadi, yangi bildirilgan g'oyalalar bilan taqqoslanib xulosalarga kelinadi.


3. **"Fikrlarning shiddatli hujumi" usuli**. Mazkur usul guruhlarda muayyan vazifa yoki masalani talabga muvofiq har bir ta'lim oluvchining tayyorgarlik darajasi, layoqati, iqtidori, bilish qobiliyatini ruyobga chiqarish, buning uchun bildirilgan fikr va g'oyalarga o'zining shaxsiy fikr va g'oyasini keltirish imkoniyatini yaratish maqsadida qo'llaniladi. Bu usul o'quvchi (talaba)lar tomonidan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirish, bildirilgan fikrlarni tahlil qilish, vaqtadan unumli foydalanish, g'oyalalar ustidan tanqidiy mulohaza yuritish, o'z xulosalarini dalillash yordamida o'quvchi (talabalar)da erkin, mustaqil, faol fikrash layoqatini shakllantiradi.

4. **"Kichik guruhlarda ishlash" usuli**. O'quvchilarining mashg'ulotlarda faoliyklarini ta'minlash, o'zgalar fikrini qadrlash, boshqalardan o'rganish imkoniyatini yaratish maqsadida qo'llaniladigan usul. Bunda guruh o'quvchi (talaba)lari kichik

guruhlarni tashkil qiladilar, har bir kichik guruh bittadan muammoli vazifa ustida ishlaydi. Navbatma-navbat topshiriqlar almashtiriladi va shu tariqa mavzu yuzasidan barcha vazifalar guruhlari tomonidan yechiladi. Bunda aniq ko'rsatmalar berib boriladi va har bir kichik guruhning javobi muhokama qilinib, to'g'ri hamda asosli yechimga kelinadi. Mazkur usulda amalga oshiriladigan ishlarni quyidagi 2-jadvalda ko'rish mumkin.

Yakuniy xulosa, mashg'ulot boshlanishida tayinlangan ekspertlar yoki o'qituvchi tomonidan chiqariladi. Kichik guruhlarning har bir muammo (topshiriq) bo'yicha javoblari tinglanadi, noaniqliklar bartaraf etiladi, fikrlar jamlanadi, muhokama qilinadi va natija e'lon qilinadi. Aytalmay qolgan javoblar to'ldiriladi. Faoliyat baholanadi va rag'batlantiriladi.

2-jadval



5. "Klaster". (axborotlarni yoyish) usuli. Ushbu usul o'rganilayotgan mavzuni muayyan qismlarga ajratgan holda o'zlashtirishga yo'naltirilgan, mavzu mazmunidagi tushuncha va voqealar ichki va tashqi bog'liqlikda aniqlashni nazzarda tutadi. Bunda ochiq fikrlash, g'oyalarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratish, maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham "Klaster" metodidan foydalanish "Milliy kurash" turlari, sport kurashining asosiy tushunchalari, tayyorgarlik turlari, hujum harakatlari, harakat turlari va h.k.lar to'g'risida ma'lumotlarni yaxlitlash asosida yangi bilimlarni

qo'lga kiritish maqsadida qo'llaniladi. Klaster usulidan foydalanilganda o'quvchi (talabalar) mavzu bo'yicha nimani bilsalar yozib berishlari tavsiya etiladi (o'quv elementlari bo'yicha). O'quv elementlari yoki fikrlar uyg'unfashtiriladi va ular o'rtaсидagi aloqadorlik aniqlanadi. Mutaxassislarning fikricha, "Klaster" usulidan quyidagicha foydalanish mumkin:

1. Mavzu bo'yicha tavsiya etilgan "kalit" so'zlar bo'yicha nimani bilsangiz yozib boring. Fikringizning to'g'riligi haqida o'ylab o'tirmay shunchaki yozib boring.
2. Yozuvning grammatikasiga va boshqa jihatlariga e'tibor bermang.
3. Topshiriqni bajarish uchun belgilangan vaqt tugamaguncha yozishdan to'xtamang. Yangi fikrlar kelguncha mavzu bo'yicha nima haqda o'ylasangiz barchasini qog'ozga yozib boring.
4. Mavzu doirasida nimani eslasangiz, shuncha mos yangi g'oyalarni va ular o'rtaсидagi bog'liqlik, aloqadorlikni asoslashga harakat qiling.

Bunda yozilgan fikrlar yig'indisi va ular o'rtaсидagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratiladi.

Misol uchun "Kurashchining texnik tayyorgarligi" mavzusi bo'yicha klaster tuzish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- kuch va uni rivojlantirish yo'llari;
- tezkorlik, chaqqonlik va ularni rivojlantirish;
- chidamlilik, egiluvchanlik, va ularni rivojlantirish.

Bu misolda "kalit" so'zlar keltiriladi va talabalar ularning o'zaro aloqadorligini, bog'liqlikligini aniqlaydilar va ularni ketma-ketlikda joylashtiradilar.

"Klaster" usuli yordamida o'quv topshirig'ini bajarish ya'ni o'quv elementining mohiyatini aniqlash uchun mashg'ulotda darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, jurnal, gazeta materiallari bo'lishi shart.

6. **Sinkveyn (axborotni yig'ish) usuli.** Bu usul "Milliy kurash turlari va uni o'qitish texnologiyalari" fanidan olgan bilimlarni yig'ish maqsadida o'tkaziladi. Bu usul o'rganilmagan, ammo kurashchi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mavzuni o'rganish jarayonida o'zlashtiriladi va fikrlar kengaytiriladi. Ushbu usul o'quvchi (talaba) larga o'z fikrlarini to'plash, ularni qisqa va aniq ifodalash, muhohazalarini sintezlash hamda o'z mulohazalarini

takomillashtirishga yordam beradi. Asosan “Sinkveyn” usuli jismoni tarbiya darsida olingan ma’lumotlarni to’plash, fikrlarni umumlashtirish, muammoli vaziyatni yechish, tafakkurini rivojlantirish maqsadida tuziladi. Misol uchun, o’qituvchi yozuv taxtasida “Hujum harakatlarini tayyorlash”, “Bellashuvni tuzish”, “Musobaqada qatnashishi” va h.k. kabi savollar nimani anglatishini so’raganida, tinglovchilar va ta’lim oluvchilar bu kurashching taktik tayyorgarligi to’g’risidagi ma’lumotlarni umumlashtiradi va sintezlashtiradi.

7. “Tayanch signallar” usuli. Bu usuldan foydalaniyganda mavzu bo'yicha tayanch manbalar, bilimlarni eslatuvchi signallar yozib qo'yiladi, talabalar shu signallardan foydalaniib savollarga javob topadi va mavzuni to'liq o'zlashtirib oladi. “Tayanch signallar” usulidan foydalaniyganda milliy kurashga doir signallar (belgilari) yozuv taxtasida yoki ko'rgazmali vatmanda yozib qo'yiladi, talabalar shu belgilarni o'rganib qo'yilgan topshiriqlar (savollar)ga javob topadilar va mavzuni to'liq o'zlashtirib oладilar. Bunda milliy kurash turlari belgilari (chizmalar, harflar, kalit so'zlar) yordamida kod bilan ifodalanadi. Mana shu ifodalarga qarab talaba nima to'g'risida so'z borayotganligini anglaydi va uning mazmunini ochib beradi.

8. “Insert” usuli. Bu usul talabalar faolligini yuqori darajada bo'lishini ta'minlash, ta'lim, o'qish, o'rganish jarayonida o'z bilimini, anglab olgan ma'lumotlarini kuzatish orqali o'zlashtirishni yo'lga qo'yadi. Ma'lumki, ko'p hollarda o'quvchi-talabalar mavzu matnni, avvalidan oxirigacha o'qib gap nima haqida borayotganligini eslay olmasliklari mumkin. Chunki ularning diqqati matn mazmuniga qaratilgan bo'lib, yoritilayotgan masalalar mazmunini anglash va uni kuzatish nazarda tutilmagan bo'ladi. Bu usulni qo'llash talabalarini faollashtiradi, ularning o'z fikrlarini, anglab kuzatgan hodisalarini erkin aytib berishlarini ta'minlaydi.

9. “Munozara” usuli. Bu usul o'quvchi -talabalarning o'z fikrlari, nuqtai-nazarlari, g'oyalalarini asoslash, o'zaro fikr almashish maqsadida tashkil etiladi. Buning uchun, avvalo, o'qituvchinining o'zi munozara to'g'risida ma'lum darajada tushunchaga ega bo'lishi kerak. Dastlab munozaraga kirishuvchilarga munozaraning maqsadi tushuntiriladi, ularning mavzudan chetga chiqib ketmasliklari nazorat qilib turiladi. Bunda har bir talaba tomonidan aytigan fikr doskaga

yozib boriladi va munozara oxirida qo'yilgan savollarga berilgan javoblar tahlil qilinib, yagona, to'g'ri xulosaga kelinadi.

Munozaraga barcha o'quvchilar jalb qilinishi, har bir topshiriq bo'yicha barchaning fikrini tinglash yo'lga qo'yilishi lozim. Buning uchun mavzu ishtirokchilarga oldindan e'lon qilinishi va ishtirokchilarning puxta tayyorgarlik ko'rishlari e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Talabalarning mavzu bo'yicha o'z bilimlari va g'oyalarini erkin namoyish etilishi uchun imkon yaratilishi lozim. Boshqaruvchi munozaraning to'g'ri borishini kuzatib borishi, mavzudan chetga chiqiladigan bo'lsa, uni darhol o'z yo'nalishiga solib qo'yishi lozim.

10. "Leksiya" usuli. O'quvchi-talabalarga nazariy ma'lumotlarni berish maqsadida qo'llaniladi. Bunda mavzu bo'yicha 15-20 daqiqada fikrlar bayon etiladi va bayon etilgan fikrlar oldindan tavsiya etilgan adabiyotlar bo'yicha muhokama etiladi. Bunda texnik vositalar yordamida yoki ma'ruzaning qisqa mazmuni yoritilgan kartochkalar tarqatish orqali mavzu mazmuni tinglovchilar e'tiboriga havola etish mumkin. Shuningdek, tayanch iboralar yoki belgilardan foydalanib, mavzuga talabalarni qiziqishi ta'minlanadi. Aniq fikrlar bayon qilinishi munosabatida, talabalar ma'ruzani o'tishga qiziqishlari ta'minlanadi. Nazariy fikrlar, hayotiy lavhalar bilan to'ldirilib borilsa, ma'ruza jonli va qiziqarli o'tadi.

11. Amaliy ish (seminar) usuli. Bu usul mazmuniga ko'ra mavzu va uning mazmunini yorituvchi manbalar oldindan bilim oluvchilarga beriladi. Har bir talaba mavzuga mustaqil tayyorlanib, o'z bilimi, o'z fikrini mustaqil bayon qiladi. Mavzu doirasidagi ma'lumotlarga talabalar o'rganiqan adabiyotlarga tayanib o'z munosabatlarini bildirib, fikr-mulohazalarini tavsiya etsalar, usulning samarasini yaxshiroq bo'ladi.

12. "O'z o'rningni top" usuli. Ushbu usul mavzu bo'yicha muammoli savollarning yechimini topish maqsadida qo'llaniladi. Bu bahs-munozaraga yaqin. Bu usuldan foydalanylinda doska ikkiga bo'linib, bir tomoniga "qarshi emasman, roziman", ikkinchi tomoniga "qarshiman, rozi emasman" deb yozib qo'yiladi. Mavzu yuzasidan fikr bayon qiliringanda, o'quvchi o'zi tanglagan fikrlar yoniga borib turadi va bahs-munozaraga kirishadi. Masalan: "Kurashchi kurashga tushishi uchun jismoniy, taktik-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishi shart, ikkinchisiga esa shart emas" -deb yozib qo'yiladi va har bir

o'quvchi tanlangan fikrni dalillaydi. Bunda muhokama paytida har bir o'quvchiga o'z nuqtai nazarini o'zgartirishga, o'zgargan fikrini asoslashga ruxsat beriladi.

Mashg'ulot so'ngida boshqaruvchi ishtirokchilardan mavzu yuzasidan eng ishonchli fikr bildirganlarni aniqlaydi va ularni rag'batlantiradi.

13. "Rolli o'yinlar" usuli. Bu usul o'quvchi-talabalarning milliy kurash va sport bo'yicha egallagan nazariy bilimlarini amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, kurash musobaqalarida doimiy tayyorgarlikka ega bo'lish, musobaqa mutasaddilari (murabbiylar, sudyalar, qatnashchilar)ga hurmat va e'tiborli bo'lish, o'ziga nisbatan talabchanlikni oshirishni maqsadda tutadi.

"Rolli o'yinlar" usuli kurashga jismoni, ruhiy, texnik, taktik tayyorgarlik jarayonining samaradorligini ta'minlash, kurash fani o'qituvchisiga faoliytni yuzaga keltirish, shuningdek, milliy kurash turlari va uni o'qitish fani bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishga yordam beruvchi muddatni qisqartirish, jismoni tayyorgarlikni jadallashtirishga yordam beradi. Bu, o'z naybatida, ta'lif oluvchilarning nazariy takomillashtiribgina qolmay, balki jismoni tarbiya o'qituvchilari, murabbiylarning ijtimoiy hayotdagi o'rinalarini barqarorlashtirish, shaxsiy imkoniyatlarini to'la namoyish etish, muayyan ijtimoiy-axloqiy, irodaviy sifatlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

14. "Matbuot -konferensiya" usuli. Talabalarning ilmiy-amaliy ma'ruzalari, referat ishlari, musobaqa yoki mashg'ulotda o'tkazgan mashg'ulotlarini muhokama qilish uchun o'tkaziladigan usul hisoblanadi. Mashg'ulotda tadqiqotning natijasi, amalda bajarilgan ishlar, mashg'ulot mashqlari analiz-sintez qilinadi. Xulosalar chiqarilib, yangi ishlar rejalashtiriladi.

15. "Taqnidiy fikrlash" usuli. Ta'lif oluvchilarning o'z bilimi, jismoni, ruhiy tayyorgarlik darajasini tanqidiy o'lchovlar, fikrlar orqali yechish, bahs, munozaraga to'g'ri ishtirok etish ko'nikmasini hosil qiladigan usul. Bu usul o'quvchi-talabalarga o'zgalar fikrini tinglash, o'z fikrlari bilan taqqoslash, muloqot olib borish, yechimlarni to'g'ri topishga yo'l ochib beradi va ularda analistik fikrlash, to'g'ri hukm chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul yordamida talabalar o'z fikrlarini erkin bayon etib, fikrlarini oydinlashtirish, ilmiy-amaliy asoslash, o'zgalar fikrlarini

o'rganish, o'z fikrlarini tahlil qilish to'g'ri xulosa chiqarish va aniq natijani qabul qilishga o'rganadilar.

16. **"Zakovatli zukko" usuli.** Mazkur usul jismoniy tarbiya o'qituvchisi, murabbiy yoki musobaqa ishtirochisiga vaziyatdan kelib chiqib tezkor fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim oluvchi, musobaqa ishtirokchisi yoki murabbiyning o'z xohishi va imkoniyatiga ko'ra qisqa muddatlarda aniq va to'g'ri xulosaga kelish yoki javob qaytarishga malakasini hosil qiladi. O'quvchi-talabalarning shaxsiy imkoniyatlari (bilimi, kuchi, tayyorgarlik darajasi) to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lish ko'nikmasini hosil qiladi.

17. **«Ajurli arra» usuli.** (Ajur frantsuzcha «ajour» so'zidan olingen bo'lib, ikki tomoni ochiq, bir tomondan ikkinchi tomonga o'tish mumkin ma'nosini anglatadi). Bu usulni qo'llashda topshiriq yoki matn bir necha qismga bo'lib beriladi. Ekspertlar belgilanadi. Har bir guruhdagi o'quvchi topshiriqni avval o'z guruhida, so'ngra ekspertlar guruhida o'rganadi. Topshiriq mukammal o'rganilganilgandan so'ng, muhokama qilinadi va fikrlar taqqoslanadi. O'z guruhidagi bildirilgan fikrga qo'shilmagan o'quvchi, ikkinchi guruh fikriga qo'shilsa, u tomonga o'tib fikrini asoslashi mumkin. O'quvchi-talabalar hamkorlikda ishlaydilar va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma'lumotni o'zlashtiradilar.

18. **"5x5x5" yoki "6x6x6" usuli.** Guruh talabalar o'rganilayotgan mavzu (bo'lim, bob) bo'yicha 5 yoki 6 kichik guruhlarga bo'linib, 5 yoki 6 topshiriq oladilar va guruhlarida topshiriqni muhokama qiladilar. Guruh bo'yicha tuzilgan 5 yoki 6 ta topshiriq navbatma - navbat guruhlarga almashtiriladi. Har bir kichik guruhga berilgan topshiriq 5 yoki 6 marta guruhlarda almashtiriladi. Guruhlarning topshiriqqa javobi yozib boriladi va u boshlovchi yoki ekspertga taqdim qilinadi. Har bir topshiriq bo'yicha ishlab chiqilgan javob va xulosalar guruh sardori tomonidan o'qib eshittiriladi. Topshiriqlarga guruhlarning bergan javoblari muhokama qilinadi va aniq xulosaga kelinadi. Bu o'quvechi -talabalarni ham javob qaytaruvchi ham tinglovchi bo'lib ishtirok etishlarini yo'lga qo'yadi. Bunda faollik, hamkorlik, birlashtirish shakllanadi.

19. **"Hamkorlikda ishlash" usuli.** Hamkorlikda o'qitish usuli o'quvchilarning bir-birlariga o'rgatishni, bir-birlaridan o'rganish va jamoa bo'lib ishlashni nazarda tutadi. Hamkorlikda o'qitishda biror

bir vazifa yoki topshiriqni hamkorlikda bajarish emas, balki hamkorlikda o'qitish asosiy hisoblandi. Bu deganimiz har bir ta'lim oluvchining o'zi ham guruhi bilan o'zaro muloqot tarzida bir-biriga o'rnatishi, bir-biriga mayzuni tushuntirishi demakdir. Bu hamkor, ahil jamoa yoki guruhning shakllanishini, o'zlashtirishning yuqori darajada bo'lislini va ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartdir.

20. "Buyuk iftixorlar siyoshi" usuli. Bu usul Vatanimiz faxrini, kuchini, jismoniy tarbiya va sport turlarini jahonga yoya olgan insonlar haqida ma'lumot berishni nazarda tutuvchi usuldir. Jismoniy tarbiya darslarida vatanimiz sporti va jismoniy tarbiya sohasining donishmandlari, olimlar, "O'zbekiston iftixorlari", sport faxriylari haqida ma'lumot yig'ish, ma'lumotlarni tarqatish olib boriladi hamda buyuklar siyoshi teatrlashtirilgan holda namoyish etiladi.

21. "BBB(Bilaman.Bilishni xohlayman. Bilib oldim)" usuli. Mazkur usul "Milliy kurash turlari va uni o'qitish texnologiyalari" fani bo'yicha egallangan bilimlar darajasini aniqlashi imkonini beradi. Bunda o'quvchilar guruh bo'lib yoki jamoada ishlashlari mumkin. Buning uchun yozuv taxtasida ucta chizma aks ettiriladi. Buni 3-jadvalda quyidagicha izohlash mumkin

3-jadval


Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.

Usuldan foydalanish uch bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab talabalar didaktik o'yin-asosida guruhlarni tashkil etadilar. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha har bir guruh o'zaro hamkorlikda "Taxminan nimani bilaman" ustunini to'ldiradilar. Bu ustunga butun jamoaning javoblari mavzu mazmuni bo'yicha mantiqiy ketma-ketlikda jamlanadi. Masalan, "Kurashchining jismoniy tayyorgarligi" mavzusi o'rganilayotganda, javoblardagi kuch va uning rivojlanishi, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va ularning rivojlanishi bo'yicha tushunchalar, ma'lumotlari yoziladi. So'ngra guruh a'zolari muayyan ketma-ketlikda mavzu bo'yicha o'zini qiziqtirgan savollarni, ehtiyojlarini "Bilishni xohlayman" ustuniga yozib chiqadilar. So'ngra talabalarga mavzu yuzasidari ma'ruza matni

yoki qo'llaniluvchi ma'lumotlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Savollarga topilgan aniq javoblar uchinchi "Bilim oldim" usutniga joylashtiriladi. Mobodo talabalarni qiziqtirgan savollarga javob topilmay qolsa, unga javob topish uchun talabalarga qo'shimcha manbalar tavsiya etiladi, yoki o'qituvchining o'zi to'ldirishi ham mumkin. (Izoh: bu usuldan foydalanish yo'li to'liq holda amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi, ya'ni dars ishlanmasida keltiriladi).

22. "Qarorlar shajarasi" usuli. Ushbu usul qiyin va turliha murakkab vaziyatlarda fan asoslari (murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, hamda yakuniy eng to'g'ri fikrga kelish maqsadini oqilonal hal etishga yordam beruvchi usuldir. Bu usul yordamida bir necha ta'lim oluvchilarning to'g'ri javoblarini jamlash va baholash imkonini beradi. Usul mashg'ulot jarayonida bildirilgan fikrlardan oqilona qaror qabul qilish, javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri jihatlarini tahlil qilishga yordam beradi. Mashg'ulotning boshlang'ich bosqichida mavzu mazmuni bo'yicha biror muammo belgilab olinadi va o'quvchilar guruhlarga bo'linib (har guruh 5-6 kishini tashkil qilishi mumkin) muammo yuzasidan o'z javoblari ya'ni fikrlarini bildiradilar va muayyan qarorga keladilar. Bu quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

4-jadval



Mashg'ulotda o'quv-biluv faoliyati quyidagicha bo'ladi.

1. Mavzu bo'yicha muammo belgilanadi.
2. Talabalar guruhi kichik guruhlarga bo'linadi.
3. Vaqt belgilab olinadi.
4. Guruhlarning javoblari guruhdha muhokama qilinadi.
5. Vaqt tugagach har bir kichik guruh sardori o'z guruhning savoli bo'yicha qarorini e'lon qiladi.
6. Javob (fikr)lar muhokama qilinib, yagona qaror qabul qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, olyy, o'quv yurtlarida o'quv fanlarini, ayniqsa, jismonyi tarbiya be'yicha o'qitiladigan fanlarni o'qitishda ta'limning yuqorida tavsiflab o'tilgan texnologiyalari, interfaol usullardan foydalanish talabalar, faolligi, mustaqilligi, ijodkorligi, izlanuvchanligini oshirish bilan birga, ularni barkamol insonlar, ma'naviy-axloqiy hamda intellektual salohiyatini rivojlantiradi hamda ularni kuchli, yetuk kasb egalari qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alma-Ata shahridagi 1990-yilning 15-avgustida o'qitishda ta'limning yuqorida tavsiflab o'tilgan texnologiyalari, interfaol usullardan foydalanish talabalar, faolligi, mustaqilligi, ijodkorligi, izlanuvchanligini oshirish bilan birga, ularni barkamol insonlar, ma'naviy-axloqiy hamda intellektual salohiyatini rivojlantiradi hamda ularni kuchli, yetuk kasb egalari qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1990-yilning 15-avgustida o'qitishda ta'limning yuqorida tavsiflab o'tilgan texnologiyalari, interfaol usullardan foydalanish talabalar, faolligi, mustaqilligi, ijodkorligi, izlanuvchanligini oshirish bilan birga, ularni barkamol insonlar, ma'naviy-axloqiy hamda intellektual salohiyatini rivojlantiradi hamda ularni kuchli, yetuk kasb egalari qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

II BOB

MILLIY KURASH TURLARI VA UNI O'QITISHGA OID TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

2.1 "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanidan nazariy mashg'ulotlarda foydalilanidigan ta'lrim texnologiyalari

Ma'lumki har bir mustaqil fan o'zining mavzusi pedagogik asosi va uni o'qitish metodikasiga ega. Jumladan, "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanni, avvalo, o'quv fani sifatida milliy kurashning paydo bo'lishi uning har xil turlarida jismoniy ruhiy texnik-taktik tayyorgarlikni tahlil etish mazmuni shaklini belgilab beruvchi umumiyl qonuniyatlarni, bunda sport kurashi trenerining kasbiy-pedagogik faoliyatining qirralarini o'rganadi va tadbiq qiladi. Shu bois, ushbu fan bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga, kurash trenerlariga kurashchilarga milliy kurash uning turlari, sport kurashini tashkillashtirishda, kurashchining jismoniy, texnik, taktik, ruhiy tayyorgarligi, trenirovka nagruzkalarini nazorat qilish, yoshlarni barkamol inson qilib, ularning qalbiga Vatan faxrini singdirish, gimnastika vositalardan samarali foydalanim yosh avlodda mos bilim, ko'nikma, malakalarini hosil qilishni maqsad qilib qo'yadi.

Shunga ko'ra "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'rgatish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar trenerlar:

- milliy kurash tushunchasi va uning turlarini;
- milliy kurash turlarining tarixi va davrlarini klasifikatsiyasi;
- milliy kurash turlarining tasnifi;
- milliy kurash turlarining tashkil etish va o'tkazish;
- milliy kurash darslarini trenirovkalarini tashkil etish, unda turli jismoniy hatti-harakatlar, chiniqtiruvchi mashqlarni bajarish usullarini.

Mashqlar tanlash, ularning bajarilishini boshqarish, yanada takomillashtirishni yo'lga qo'yish bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'ladilar.

Shuni e'tiborga olib mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ma'rifiy talablaridan kelib chiqib ushbu fanni o'qitishni ilg'or texnologiyalar asosida tashkil etish hozirgi davr uchun ijtimoiy zarurat hisoblanib, u yuksak kasbiy pedagogik ma'lumotga jismoniy,

taktik, texnik, ruhiy tayyorlarlik, bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lgan jismoniy tarbiya o'qituvchisi, trenerlarni tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, mazkur kursni o'qitish uchun O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'llim vazirligining 2008-yil 23-avgustidagi 263-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturiga binoan 68 (4 soat nazariy 64 soat amaliy) soat ajratilgan. Mustaqil ta'llimga esä 46 soat belgilangan. Ushbu fanning tarkibidan o'rin olgan mavzular bo'yicha o'tiladigan nazariy va amaliy mashg'ulot loyihalari va ularning tuzilishi hamda uni mazmuni haqida so'z yuritamiz.

Ma'ruza mashg'ulotlarining mazmuni:

1-mavzu: "O'zbek milliy kurashining" umumiyligini qoidalari.

Ma'ruza maqsadi:

-o'zbek milliy kurashining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar;

-kurash musobaqalarining umumiyligini qoidalari o'zlashtiradilar;

-musobaqa hakamlari, hay'ati va ularning tarkibi vazifalari, bajaradigan ishlari haqida tushunchag'a ega bo'ladilar;

-bellashuvning boshlanishi va tugashi to'g'risidagi ma'lumotlarni bilib oladilar;

-musobaqa qatnashchilarining huquqlari, musobaqa turlari, o'tkazish qoidalari, qatnashchilarning yosh guruhlari, vazn toifalari haqida tushuncha va uxborotga ega bo'ladilar;

-musobaqada qatnashish sharhlari, tahlablari, qatnashuvchilarning majburiyatini bilib oladilar;

-taqiqflangan harakatlar, bellashuvlardan malrum qilish va hakamlar ishilatadigan iboralarni ularning mazmunini bilib oladilar.

Ma'ruza shakli: Modulli o'qitish.

Ma'ruza metodi: Og'zaki-nazariy, ko'rgazmali, jamoa bo'lib ishslash.

O'qitish vositalari: Ma'ruza matni, slaydlar, informatsion ta'llimot.

Modullarning nomi va tartibi

1. O'zbek milliy kurashining shakllanishi va rivojlanish tarixi mazkur kurashdan o'tkaziladigan musobaqalar va ularning umumiyligini qoidalari.

2. "O'zbek milliy kurashi musobaqalarining umumiy qoidalari"ni o'rGANISHNING zarurligi milliy kurashning jahon hamjamiyatidagi o'mni va ahamiyati.

3. O'zlashtirilgan bilimlar yuzasidan xulosalar.

4. Natijalarni yakunlash va umumlashtirish.

5. Uyga vazifa.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – T.: "Manaviyat", 2008. 146-170-betlar

2. Kerimov F. A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. -T.: "UzDJTI", 2005, 342-b.

3. Kerimov F. A. Kurash tushaman. -T.: "Ibn Sino", 1994. 172-b.

4. Yusupov K. Kurash xalqaro qoidalari texnikasi-va taktikasi. -T.: "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi", 2005. 132-b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ato耶ev A. Q., Jalilov N. S. Yoshlar va o'smirlarni o'zbek milliy kurashiga o'rgatish uslubiyoti. –Qarshi, "Nasaf", 2001. 96-b.

2. Toshmurodov O. E., Ashurov A. S. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi. -Samarqand, 2003. 48-b.

3. Toymurodov A. R O'zbek milliy kurashi. -T: "Ibn sino" nashriyoti, 1990.

"O'zbek milliy kurashining umumiy qoidalari" mavzusi bo'yicha modullar

Modular	Modullarning mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	2	3
O'FE-1	Kirish: O'zbek milliy kurashi haqida qisqacha ma'lumot berib, o'zbek milliy kurashiga qiziqish, havas va ishtiyoq uyg'otish; o'zbek milliy kurashiga muhabbatni paydo qilish	25 min

O'FE-2	Maqsad: o'zbek milliy kurash musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazishning umumiy qoidalari bilan bog'liq ba'zi tushunchalar, hakamlar hay'ati, ularning vazifalari kurashchiga qo'yiladigan talablar; kurashching kiyimi, vazn toifalari; musobaqada qatnashish shartlari; talablar, harakatni baholash mezonlari, hakamlar qo'llaydigan iboralar taqiqlangan harakatlar, musobaqadan chetlatish musobaqa o'tkazish Nizomi bilan tanishtirib qatnashchini musobaqaga tayyorlash .	30 min.
O'FE-3	Mavzu yuzasidan talabalardan tushgan savollarga javob qaytarish va mashg'ulotni xulosalash; ma'ruza mashg'ulotidan olgan biliimlarini umumlashtirish; yagona to'xtamga kelish.	10 min.
O'FE -4	Egallangan biliimlarni, test topshiriqlarini bajarish, oraliq nazorat bo'yicha ballarni e'lon qilish	10 min.
O'FE -5	Uyga vazifa: Toshmurodov A.R O'zbek milliy kurashi kitobidan 5-18-betlarni; O.E. Toshmurodov, A.D. Ashurovlarning Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi kitobidan (Samarqand-2003) 43-47-betlarni F.A. Karimovning Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti kitobidan (Toshkent, 2005) I0-230-betlarni o'qib, konspektlashtirish	5 min.

Mashg'ulotning borishi:

1-modul

Dastlab talabalarga mashg'ulot rejasি e'lon qilinadi va ma'ruza shu reja asosida osib boriladi:

1. O'zbek milliy kurashining shakllanishi va rivojlanishi.
2. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy kurashiga bo'lgan e'tibor.
3. Sport kurashining boshqa turlari va ularning tarixiy manbalari. O'zbek milliy kurashi eng qadimgi davrlardan boshlab shakllanib brogan. Chunki qo'mondonlar, lashkarboshilar o'z navkarlarining jismoniy tayyorgarligi epchilligi, chaqqonligi, jismoniy chiniqishini

kurash bilan rivojlantirgan shu nuqtai nazardan eng qadimgi sport turlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda hozirgi O'zbekiston hududida qadimda sak qabilalari istiqomat qilishgan mazkur qabilada kurash keng shakllangan. Zero, sak qabilasining yigitlari bo'lajak qalliqlarini kurashda yenggan. Shu tariqa o'zbek milliy kurashi shakllanadi. O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida keng tarqalgan Abu Ali ibn Sinoning "Kitob – al qonun fit-tib" asarida, Amir Temur xotiralarida, Firdavsiyning "Shohnoma"sida, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"sida, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida, S. Vamberi, N.S.Lokshinining ocherk va maqolalarida kurash mavzusi yoritilganlagining guvohi bo'lamiz.

Manbalarda yozilishicha, O'zbekistonda qadimdan ikki xil kurash turi shakllangan: "Farg'onacha" va "Buxorocha" usul deb nomlangan.

"Farg'onacha" usulda polvonlar to'n kiyib, belbog'ni oldindan ushlab kurashgan bo'lsa, "Buxorocha" usulda polvonlar kalfa to'n kiyib belbog' bog'lab yoki yaktakda oyoq yalang, yo bo'lmasa mahsi kiyib bellashgan. Kurashishning bu turi hozirgi kunda ham Respublikamizda keng tarqalgan bo'lib, Xalqaro toifadagi musobaqlar o'kazib kelinadi.

Shunday qilib, kurash yosh avlodni jismoniy chiniqtirish vositasi sifatida ommaga kirib kelgan. Xalqlarning doimiy yashash joylarida boshqa hayot ehtiyojlari, turmush normalarini ov qilish bilan birga kurashayotgan insonlarning tasviri tushurilgan suratlar paydo bo'la boshladi. Buni Misr ehromlari devorlaridagi tasvirlarda, qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunonistondagi yodgorliklarda kuzatish mumkin. Bu davlatlarning qadimiy qo'lyozmalarda bellashuv, yakka kurashlarning shakllari tasvirlangan yodgorliklarni ko'rish mumkin.

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti xalqaro va milliy kurash turlari kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor, erkin va yunon-rum kurashi bo'yicha xalqaro hakam F.A.Kerimovning ta'kidlashicha, "Jismoniy tarbiya va kurashning rivojlanishida qadimgi Yunoniston alohida o'rин tutadi. Eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda qadimgi Yunonistonda jismoniy tarbiya tizimi yaratildi va u hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Maxsus maktablarda tajribali o'qituvchilar kurash, shuningdek, qisqa masofalarga yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va disk uloqtirishdan tashkil topgan dastur bo'yicha bolalar tayyorgarligiga alohida e'tibor

berganlar. Shu bilan birga, shug'ullanuvchilar qo'l jangini olib borish, tosh uloqtirish malakasini egallab borganlar.

Qadimgi Yunistonda kurash texnikasi va uning rivojlanishi to'g'risidagi ko'p soni häykallar, amforalar hamda vazalatdagi tasvirlar, qadimgi shoirlar asarlari, tarixchilar, faylasuflar Gomer, Pindar, Platon va boshqa ishlari guvohlik beradi. Masalan, Gomerning "Illiada"sida (eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda) Ayaks va Odissey o'rtasidagi bellashuv shunday bayon etilib, "Kurashchilar belbog'larini taqib, maydon o'rtasiga chiqib, qo'llari bilan mahkam chitmashib, bir-birlarini o'rabi oldilar. Kuchli quchoqlashish ostida qahramonlarning gavdalari qirsilladi, zo'riqdi va ulardan ter quyila boshlaydi. Kurashchilar gavdasidan qonlar sizib chiqsa boshladi, lekin ular olishishni davom ettiraverdilar". Kurashning boshqa jismoniy mashqlar bilan bir qatorda san'atga tenglashtirilishi o'sha davrning o'ziga xos xususiyati edi. Kurash bilan o'sha davrning yirik vakillari olimlari, shoirlar, davlat arboblari, sarkardalar shug'ullangan.

Qadimgi Yunoniston Olimpiya o'yinlari vataniga aylandi (eramizdan avvalgi 766-y.). Birinchi Olimpiya o'yinlari dasturiga kurash mustaqil sport turi (eramizdan avvalgi 708-y.), shuningdek maxsus beshkurashning tarkibiy qismi sifatida (eramizdan avvalgi 708-y.dan boshlab) kiritilgan"¹³.

XIX asr oxiri XX asrlarda Turkiston, so'ngra O'zbekistonda kurashga qiziqish kuchaya bordi. Xonlar, beklar, boy zodagonlar o'z qaramoqlarida kuchli polvonlarni saqlab ular ishtirotida turli musobaqalar, kurash o'yinlarini uyuştirib, xalq o'rtasida o'z obro'e'tiborlarini ko'tarishgan hamda omma ichida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan. A. R. To'ymurodovning yozishicha, 1910-1916-yillarda kurashdan ko'pgina o'zbek polvonlari: Ahmad polvon, Azizzox'ja polvon, Haydar Ali polvon, Abdurahmon Polvon, Tongi polvon A'loyevlar yetishib chiqqan.

Keyinchalik milliy kurash musobaqasi Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarkand, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasida tashkil qilinib mazkur musobaqalarda qatnashgan kurashchilar mam'lakat terma jamoasi tarkibida Yevropa va jahon championasida ishtirot etgan. Shulardan Yevropa va jahon championi Sobir Qurbonov, aka-uka sobiq SSSR sport ustalari Komil,

¹³ Qarang: Kerimov F. A. Sport kurashi nazoriyasi va usuliyoti. - T.: O'ZDJTI nashriyot matbaa bo'limi, 2001, 11-12-b

Nurmuhammad va Jo'ra Yusupovlar, Izzat Xo'jayevlar shular jumlasidandir¹⁴.

Qashqadaryo viloyatida O'zbekistonda sambo kurashidan sobiq birinchi SSSR championi va birinchi xalqaro sport masteri Xushvaqt Ro'ziqulov, ikki marta jahon championi Sayfiddin Hodiyev, SSSR championi, jahon kubogining sovrindori Erkin Xoliqovlar, Qoraqalpog'iston ASSR dan SSSR ning kumush medal sovrindori Saranboy Yusupovlarni aytib o'tish mumkin¹⁵.

'Yosh avlodni har tomonlama chiniqtirish ularning ma'naviy, axloqiy, jismoniy kuchlarini rivojlantirish maqsadida respublika, MDH, jahonda har ikki yilda bir marta milliy kurash bo'yicha musobaqa o'tkazilib turiladi. Bu, ayniqsa, mustaqillik yillarda yanada avj oldi.

Mustaqillik yillarda o'zbek kurashiga e'tibor kuchaydi. 22-fevral 1992-yilda Toshkentda O'zbekiston Kurash Milliy Federatsiyasining me'yoriy hujjatlari tasdiqlandi. 1992-yil 11-martda esa Federatsiya Nizomi ro'yxatga olindi.

Xorijiy mamlakatlarda O'zbek milliy kurashini mammuniyat bilan kutib oldilar. 1999-yil 1-2 -may kunlari Toshkent shahrida O'zbek kurashi bo'yicha birinchi jahon championati bo'lib o'tdi. Unda o'zbek polvonlari o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Dunyoning 50 ga yaqin mamlakatidan kelgan kurashchilar ichida O'zbekistonlik Akobir Qurbanov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhammadiyev o'z vaznlari doirasida o'zlarining kuchli ekanligini namoyish etib, oltin medallarga sazovor bo'lildilar.

1999-yilning oktabr-dekabr oylari O'zbekiston osmonida kurash sadolari yangradi. Dastlab Termiz shahrida "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan xalqaro turnir bo'lib o'tgan bo'lsa, 10-dekabrda boshlanib, 2000-yilning dastlabki kunlarini qamrab olgan "Kurash – milliy iftixorimiz" deb nomlangan kurash oyligida 7-70 yoshgacha bo'lgan polvonlar ishtirop etdilar.

"O'zbek kurashi yosh tanlamaydi-polvonlar qarimaydi" shiori ostida 29-30-yanvar 2000-yilda Toshkentda faxriylar championati o'tkazildi. Unda 77 yoshli Jo'ra polvon Normo'minov, 80 yoshli polvonlar Maximud ota Qalandarov, Bo'ksa Mirzayev, Jabbor Mamasulovlar ko'pchilikni hayratda qoldirib, g'oliblikni qo'lga

¹⁴ To'ymurodov A.R. O'zbek milliy kurashi. –T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990, 12-13- betlar.

¹⁵ To'ymurodov A.R. O'zbek milliy kurashi. –T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990, 13-14- betlar.

kiritdilar. Bu davrga kelib o'zbek kurashining 120 ga yaqin davlat tan olib, qo'llab-quvvatladi. Endi O'zbek Milliy Kurashi jahon keza boshladi.

1998-yilning 6-sentabrida 28 davlat ishtirokida Toshkent shahrida "Xalqaro Kurash Assotsatsiyasi" (XKA) tuzildi. Unga Lotin Amerikasi, Yevropa va Osiyo qit'asidan vakillar qatnashdilar. Uning ta'sis kongressida "O'zbek Kurashi" nomi bilan kurashning Xalqaro qoidalari ma'qullandi. "Xalqaro Kurash Assotsatsiyasi" doimiy Faxriy Prezidenti sifatida Islom Karimov, XKA Prezidenti sifatida Komil Yusupovlar saylandilar.

1999-yilning 1-fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning farmoni bilan "Kurash" oylik adabiy -badiiy, ijtimoiy-publisistik, axborot-reklama jurnali ta'sis etildi. Jurnal rangli -bezakli ko'rinishda o'zida o'zbek, ingliz va rus tillarni ifodalagan holda nashr etilmoqda.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O'zbek kurashi jahon bo'yfab keng quloch yoydi. Jahon bo'ylab "Kurash" bo'yicha chempionatlar tashkil etilmoqda. "Xalqaro Kurash Assotsatsiyasi" tarkibida 1999-yilning oktabr oyida "Xalqaro Kurash Akademiyasi" tashkil qilindi. Akademiya asosan: kurash tarixini ilmiy asoslangan holda yaratish va keng miqyosda jahonga targ'ib qilish, kurashga oid xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, konferentsiyalar, seminarlar o'tkazish va uning materialiali maqolalar to'plami sifatida chiq etish; kurash bilan shug'ullanuvchi mamlakatlar bilan sport, ilmiy-amaliy, madaniy, marifiy va iqtisodiy aloqalarni o'rnatish hamda mustahkamlash; o'sha davlatlarda xalqaro kurash akademiyasining filiallarini ochish; Kurashchi va kurash mutaxassislarini tayyorlashda faoliyat ko'rsatadigan davlat va nodavlat o'quv yurtlari hamda maxsus maktablarini ochish; Xalqaro toifadagi murabbtylar, hakamlar, kurashchilar tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakalarini oshirish; jahonda kurash bo'yicha o'tkaziladigan turli toifadagi musobaqalarni tashkil qilishning targ'ibot qoidalarini ishlab chiqish va bunday musobaqalarni tashkil qilish hamda o'tkazishda bevosita faol ishtirok etish; kurashchi sportchilar, hakamlar va boshqalarning kiyimlari, kurash emblemasi atribut, sport jihozlarini yaratish ishida ilmiy asosda ko'maklashish; boshqa turdag'i sport akademiyalari, institutlari, maktablari (dyuzo, sambo, erkin kurash va boshqalar) bilan ijodiy, ilmiy va uslubiy bog'lanish, tajriba almashish; jahonda

kurashning yagona uslubiy qo'llanma, darslik, yo'riqnomalar va boshqa normativ hujiyatlarini ilmiy asosda ishlab chiqish hamda audio, video, kino va boshqa ko'rgazmali jadvallar yaratish hamda butun dunyo miqyosida kurash bilan shug'ullanuvchi davlatlarga tarqatish; jahon championatida va boshqa Xalqaro toifadagi musobaqalarda, Xalqaro Kurash Akademiyasi tomonidan shu musobaqalarni o'tkazuvchi hakamlar ro'yxatini tuzish va Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasiga tavsija qilish hamda ro'yxatga kiritilgan hakamlarni musobaqadan 2-3 kun oldin yig'ib o'quv seminarlarini tashkillashtirish; musobaqa davomida har bir hakam ishini 10 ballik tizimda Xalqaro Kurash Akademiyasi tomonidan tuzilgan komissiya a'zolari tomonidan baholab borishi va musobaqadan keyin baholangan protokolni Musobaqaning bosh hakamiga topshirish”¹⁶ - kabi vazifalarni bajaradi.

Shunday qilib, qariyb besh ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek kurashi, bugungi kunda xalqaro mavqega ega bo'lmoqda. Zero, milliy kurash millat, xalq madaniyati, ma'naviyati, yashash tarixini jahon xalqlariga tanitadi. Bundan o'zbek kurashi mustasno emas. Buni jahon sportchilari, mutaxassislari fikridan bilsa ham bo'ladi. “Men - deb yozadi yaponiyalik Yoshinori Takauchi, - O'zbek Kurashi bilan ilk bor tanishdim. Bir qarashda kurash bilan dzyu-doning usullari juda o'xshashdek tuyuladi. Ammo O'zbek kurashidagi tik turib olishish, raqibga nisbatan hurmat kabi omillar meni hayratlantirdi. Ushbu kurashning salkam 3 ming yillik tarixi bor ekan. Bizning yaponlarda shunday o'xshatish bor; baliq oqimga qarshi suzadi. Men, o'zbek kurashini shu ibora bilan qiyoslagan bo'lardim. Chunki shuncha yakka kurash turlari orasida o'z o'rnnini topib bormoqda”¹⁷.

O'zbek kurashining yana bir xususiyati, uning kun sayin ommalashayotganligidadir. Bu kurashga jahon xalqlarining qiziqishi ortib borayotganligi joziba, jangovorlik kasb etayotganligidir. Bu to'g'rida mojar olimi shunday yozadi: “Vengriyada shu paytgacha yakka kurash turlari ichida dzyu-do eng ommaviy bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib O'zbek kurashi ham tez rivojlanib, ommaviylashib bormoqda. Bunga sabab, kurashning jozibadorligi va jangovorligi, mojar hamda o'zbek xalqlarining o'zaro jondoshligidir.

¹⁶ O'zbek kurashi dovrug'i. -T: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002, 59-60- b

¹⁷ O'zbek kurashi dovrug'i. Tuzuchilar: H. Bobobekov, M. Soddiqov, Z. Ro'ziyeva va boshqalar. -T: Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002, 62- bet.

Osiyo qit'asida bizning mamlakat bilan eng yaxshi hamkor, yaqin mamlakat O'zbekiston bo'lib qoldi. Buning e'tiborli tomoni ushbu hamkorlik aynan o'zbek kurashi hamdir. Shu o'rinda o'z mulohazamni aytsam, kurashning shunchalik ommalashirgani, rivojlantirgani uchun XKA ni, barcha kurash jonkuyarlarini Ginnesning rekordlar kitobiga kiritish mumkindir¹⁸.

Shuni e'tirof etish joizki, o'zbek kurashi ommaviylashib, rivojlanib yangi joziba va tajriba kasb etib Janubiy Amerika qit'asi mutaxassislari, polvonlari, sportchilarining diqqat- e'tiborini tortmoqda. Bu haqda Boliviyalik mutaxassis Edgar Klaurs quyidagilarni ta'kidlaydi: "Amerika qit'asida, xususan, Boliviya, Paragvay, Chili, Uruguay, Dominikan Respublikasida o'zbek kurashi muxlislari soni kun sayin ortib bormoqda. Birinchi jahon championatida ishtirok etgan polvonlarimiz o'z tajribalarini boyitib borgandan so'ng kurash ommalashuvida astoydil o'z hissalarini qo'shmaqdalar. Dunyo xalqlarini sevimli sportiga aylanib borayotgan o'zbek kurashi Olimpiada o'yinlari safidan joy olishida bor kuchimni ayamayman".

Polvonlari o'zbekning

Bir el borki, dunyoga ko'z-ko'z bo'lgan sultoni,
Elni elga tanitgan baxshi shoir, polvoni,
G'ayrat kamarin boylab, lol qoldirib dunyoni,
Halol kurashib yurar polvonlari o'zbekning.

Aslida eldan elning martabasi kam emas,
Kurash maydonlarida polvonlari g'am emas,
Ammo jahon nigohi o'zgalardan ham emas,
Shohsupalarda turar polvonlari o'zbekning.

To'y-u tantanalari kurashsiz o'tmagan el,
Polvonning sanog'iga yulduzlar yetmagan el.
O'zini er bilsa-da, bir yoqa tugmagan el,
O'zlarni sher bilar polvonlari o'zbekning.

Bu dunyoning shundayin polvonsifat eli bor,
Har bitta polvonini o'rabi solar "Chil" i bor.

¹⁸ O'sha kitob 65-bet

Alpomishdek baquvvat bilagi bor, beli bor,
Yurtga shon olib kelar polvonlari o'zbekning.

G'irromlikni bilmagan qolmagan hech "Dakki" yeb,
"Chala", "G'irrom" kurashni o'zga ko'rmangan ep,
Ko'rmangan bakovullar aytmagancha "Halol" deb,
Mard-u maydon kurashgan polvonlari o'zbekning.

Yurtga fido o'g'lonlar dunyoning pahlavoni,
Kurashlarda qolmagan zara bo'lsin armoni.
Ming shukurki, musaffo o'zbekiston osmoni,
El yurtga yarashgan polvonlari o'zbekning.

Kurashning boshqa turlari, paydo bo'lishi va tarixiy manbalari. Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, kurash eng qadimiyligi, ommabop va O'rta Osiyo, Turkiston, O'zbekistonda xalq o'yinlari sifatida keng tarqalgan sport turlaridan biri hisoblanadi. O.E.Toshmurodov va A.D.Ashurovlarning yozishlaricha, "O'zbek sporti va kurash maktabining muvaffaqiyati barcha respublikalarda milliy kurash turlari: o'zbekcha kurash, gruzinchcha chidaoba, qirg'izcha, moldavancha va boshqalarning keng rivojlanganligi bilan belgilanadi. Milliy kurashning turlari 40 dan ko'proq. O'zbekistonda yunon – rum kurashi va erkin kurash, sambo, dzyu-do, karate bilan bir qatorda o'zbek miliy kurashi ham mamlakatimizda keng rivojlanib bormoqda"¹⁹.

F.A.Kerimovning yozishicha, respublikamizda dzyu-do, sambo, yunon-rum, erkin kurash va kurash keng qo'llanilmoqda²⁰.

Dzyu- do – "yumshoq yo'l" ma'nosini anglatib, u yaponcha djiu - djitsu kurashining asosi hisoblanadi. Tana va ruh uyg'unlashuvi ish olib borgan doktor Dzigaro Kano kurash usullari ichidan xavfli ushslashlar va zarbalarni chiqarib tashlab yangi kurash turi dzyu-doga asos soldi. Bunda eng asosisi kuchi hisoblanmay kurashchining yuqori mahorati va o'tkirlashtirilgan texnikasi ustunlik qiladi. Dastlab Yaponiyada bo'lib o'tgan chempionatdan dunyo mamlakatlari

¹⁹ Toshmurodov O. E., Ashurov A.D. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi. Leksiyalar kursi, - Samargand. SamDU nashriyoti 2003, 14-bet.

²⁰ Kerimov F. A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyoti. -T.: O'z DJTI nashriyot matbaa bo'imi, 2012, 13-20- betlar.

Yevropa (Parijda), Braziliyada, Germaniya (Myunxen)da so'ngra O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Shu tariqa o'zbek dzyu-dechilari xalqaro maydonlarda ishtirok etdilar hamda yaxshi natijalarini qo'lga kiritdilar. Jumladan, o'zbekistonlik Armen Bagdasarov 1996 -yildagi Olimpiya o'yinlarining kumush medalini, F.To'rayev esa 1999-yilda o'tkazilgan jahon championatida faxrli 2- o'rinni egalladi. Mustaqillik yillarda ikki karra jahon birinchiligi g'olib, ikki kara Olimpiya sovrindori Rishod Sobirov, Olimpiya o'yinlari kumush medali sovrindori Abdulla Tangrievlardir.

Sambo kurashi. Bu kurash turiga Rossiyada asos solindi. Bu kurash texnik taktik xarakterga ko'ra dzyu-doga yaqindir. F.A.Kerimovning yozishchicha, V.S.Otchenkov Yaponiyadagi dzyu-do kurashi maktabi "Kadokan"da bo'lib, 1931-yilda Moskva davlat jismoniy tarbiya institutida sambo kurashiga alos soldi. U dastlab kurashchilarning kiyimlarini, sport oyoq kiyimini, texnik xarakterlarni o'zgartirdi.

Sambo kurashiga tashlashilar, oyoqlardan ushlab yiqitish va oyoqlarga og'riq beruvchi usullarini kiritdi va bo'g'ib ushlab olish usullarini bekor qildi. Sambo kurash turi sifatida 1938 -yilda tan olindi. 1947- yilda sambo qurolsiz o'z-o'zini himoya qilish (samozashita bez orujiya) nomi bilan mazkur kurash turi atala boshlandi va u jahonning bir qator mamlakatlari- Mongoliya, Yaponiya, Angliya, AQSh, Bolgariya, Ispaniya, Italiyada katta qiziqish uyg'otdi.

Sambo bo'yicha jahon championati 1973-yilda Tehronda bo'lib o'tdi. Bu kurash turi ham erkaklar ham ayollar o'rtasida keng tarqaldi. Bu kurash turi o'zbekcha milliy kurashiga yaqin bo'lib O'zbekistonga ham keng tarqaldi va o'zbek sportchilaridan Sayiddin Hodiiev, Sobir Qurbanov, Bobomurod Fayziyev, Vyacheslav Yelistratovlar sambo kurashi bo'yicha jahon championlari bo'ldilar.

Yunon-rum kurashi. Mazkur kurash Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa Fransiyada XVIII-XIX asrlarda paydo bo'lib, uning asosini texnik chaqqonlik ya go'zallik qamrab olgan. Bu kurash turi dastlab Fransiya keyinchalik Italiya, Shvetsiya, Germaniya, Turkiya, Rossiya mamlakatlarida turli xalqaro musobaqalar o'tkazish bilan boshlanib, xalqaro maydonda tanilib va "Fransuzcha kurash" nomini oldi. Mazkur kurashning qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimda

rivojlanganligini hisobga olib, "Fransuzcha kurash" aytilgan bo'lsada, unga "yunon-rum" kurashi nomini berdilar.

Keyinchalik bu kurash turi ham Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. O'zbek kurashi maktabi tarbiyalanuvchilari mazkur kurash turi bilan yuqori yutuqlarni qo'lga kirtdilar. Shulardan Rustam Kazakov 1969-yildagi jahon championati va 1972-yilgi olimpiya o'yini g'olib, Komil Fotkulov esa jahon championati sovrindori bo'ldi.

Mustaqillik yillarda Mixail Doktarashvilli Gretsiyada bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlari g'olib bo'ldi.

Erkin kurash. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, erkin kurash qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Chunki yunonlar yoshlarning umumiy jismoniy tayyorgarligiga e'tibor qaratganlar. Shu bois, erkin olushuvda kurashchi o'z raqibini safdan chiqarib yuborishi mag'lub bo'lganligi tan oldirishi lozim bo'lgan va bu hol g'alaba mezoni bo'lib xizmat qiladi.

XVIII asrda erkin kurash Angliyada keng tarqalgan bunda kurashchilar hujum vositasini erkin tanlaganlar.

Keyinchalik Shimoliy Amerikada erkin kurash bilan shug'ullanuvchi to'garaklar paydo bo'lgan va, nihoyat, 1904-yilda AQShda o'tkazilgan olimpiya o'yinlarida erkin kurash musobaqalari Olimpiya o'yinlariga kiritilgan. F.A. Kerimovning yozishicha, VII Olimpiya o'yinlaridan boshlab (Belgiya, 1920 y.) erkin kurash doimiy ravishda Olimpiya o'yinlari dasturiga kirtdi. Bu Olimpiya o'yinlari turli mamlakatlar erkin kurashchilarining o'z kuchlarini sinab ko'radian yagona musobaqalar edi. Boshqa hech qanday xalqaro musobaqalar u vaqtda o'tkazilmasdi. Erkin kurash bo'yicha birinchi Yevropa championati 1929-yilda Parijda, birinchi jahon championati esa 1951-yilda Tokioda o'tkazildi.

O'zbekistonlik kurashchilar xalqaro maydonda katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Bular ikki marta Olimpiya championlari, bir necha bor jahon championlari Arsen Fadzayev va Maharbek Xadarsov, shuningdek uch karra jahon championi Aslan Xadarsevlardir. Shular qatorida E. Abdurahmonov, E. Yusupov, L. Shepilov, A. Xaymovich, R. Ataulin, X. Zangihev, R. Islamov, A. Ochilov, D. Zaharitdinov va R. Xinchagovlar ham katta yutuqlarga erishganlar. Mustaqillik yillarda ikki karra jahon championi D. Mansurov, uch karra Olimpiya o'yinlari g'olib Artur Taymazov, Olimpiya o'yinlari sovrindorlari M.

Ibragimov, S. Tigihev, Osiyo championi Ixtiyor Navro'zov, Adham Ochilovlardir²¹.

Kurash. O'zbek kurashi o'z ifodasini tarixiy yodgorliklarda topgan. Kurashda musobaqalar kurashchilar belbog'idan yoki ustki kiyimining biror joyidan ushlab oyoqlarni chalish, yerga tashlash usulidan foydalanishgan. Musobaqadan oldin uloqtirish, sakrash, kuchni namoyish qilish kabi badan qizitish mashqlari bajarilgan. Hozirgi O'zbekiston sarhadlarida qadimda "Milliy kurash" usuli – ya'ni raqibni belbog'idan ushlab olish amal qilgan. "Milliy" usulda raqibni erkin ushlab olish amal qilgan. Bu kurash 1998-yilda xalqaro kurash assotsatsiyasi Toshkentda tashkil qilingandan so'ng, 1999-yilning 1-2-may kunlarida jahon championati o'tkazildi. Akobir Qurbanov 73 kg vaznda, Kamol Murodov 90 kg vaznda, Toshtemir Muhammadiyev o'ta og'ir vaznda championlik unvonini qo'lga kirtidilar.

2- modul.

Ma'ruzada quyidagi masalalarni yechish nazarda tutiladi:

1. Kurash musobaqalarining umumiyligini qoidalari.
2. Kurashning umumiyligini qoidalari.
3. Professional kurashchilar.
4. Musobaqa qatnashish shartlari, talablari, vaznni aniqlash tartibi va qatnashchilar majburiyatları.
5. Musobaqa jihozlari, gilandagi kurashni boshqarish anjomlari, hakamlar ishlatajigan iboralar.
6. Musobaqa o'tkazish tartibi va musobaqa nizomi.

1. Kurash musobaqasining umumiyligini qoidalari.

Har bir musobaqada muayyan tartibga, qoidaga rioya qilish lozim. Bu tartib va qoidalari har bir mamlakatda o'tkaziladigan xalqaro turnirlar, qit'alalar, birinchiliklari, jahon birinchiligi va olimpiya o'yinlari da'sturiiga kurash musobaqalari Xalqaro kurash assotsatsiyasi tomonidan tasdiqlangan hakamlar tomonidan amalga oshiriladi. Biz yuqorida hakamlar hay'atining tarkibini keltirdik, ularning faoliyat mazmuni quyidagilardan iborat:

²¹ Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. -Toshkent , 2005, 19-bet

1. BOSH HAKAM:

1.1. Bosh hakam yordamchilari, ularning soni gilamlar sonidan bir kishiga ko'p:

- bosh kotib va gilaflar kotiblari;
- gilamdag'i hakamlar va gilam chetidagi hakamlar;
- hakam sekundameristi;
- tablodagi hakam;
- hakamlarni almashtiruvchi hakam gilamlar soniga qarab belgilanadi;
- shifokor;
- e'lön qiluvchi hakam;
- musoboga komiendanti.

1.2. Bellashuvni boshqaruvchi hakamlar:

- bellashuvni olib boruvchi hakam, bosh hakam yordamchisi;
- gilamdag'i hakam;
- gilam chetidagi hakamlar, ikki kishi;
- hakam sekundameristi;
- kotib;
- tablodagi hakam;
- hakamlarni almashtiruvchi hakam;
- e'lön qiluvchi hakam;
- nazoratchi hakam.

1.3. Ba'zi bir hollarda o'rtadagi hakam, chetdagi bir hakam bilan yoki uning o'zi gilamdag'i kurashni boshqarishi mumkin.

1.4. Har bir hakam hakamlik guvohnomasiga, hakamlik kiyimiga, oq yaktak, qora shimga ega bo'lib, kurash qoidalarini mukammal bilishi shart.

2. HAKAMLARNING VAZIFALARI

2.1. Musobaqada hakamlar kurash gilamga chiqqanlarida, o'rtadagi hakam qo'llini ko'ksiga qo'yishi bilan chetdagi ikki hakam ham qo'llini ko'ksiga qo'yish barobarida torioshabinlarga va bosh hakamiga qarab egilib ta'zim qiladilar.

2.2. Hakamlar harakati bosh hakam va hakamlar hay'ati tomonidan nazorat qilib boriladi. Agar ular musobaqaning o'tkazish Nizomiga yoki kurash qoidalariga rioxva qilmasalar hakamlik huquqidan mahrum qilinib, ushbu musobaqadan chetlatiladi va ular xatti-harakatlari hakamlar hay'atida ko'rib chiqilib, hay'at qarori tegishli tashkilotlarga ma'lum qilinadi.

3. BOSH HAKAM

3.1 Bosh hakam musobaqaning rahbari hisoblanadi va musobaqaning belgilangan Nizom va qoidalariga amal qilgan holda musobaqalarning o'tkazilishiga javobgardir.

3.2. Bosh hakamning vazifalari:

- musobaqa anjomlari, inshoot va gilamlar tayyorlanganligini tekshiradi;
- qur'a tashlash jarayonida kuchli kurashchilarни ikki guruhg'a bo'лади;
- hakamlarni gilamlarga taqsimlaydi;
- musobaqa o'tkazish jadvalini tuzadi;
- kurashchilarni taroziga tortish uchun hakamlar tarkibini belgilaydi;
- har bir bellashuv uchun hakamlarni tayinlaydi va ularning harakatlarini nazorat qilib boradi;
- musobaqa boshlanishidan oldin hakamlar hay'atining majlisini o'tkazadi, har kuni musobaqadan so'ng hakamlar hay'ati oldida musobaqa natijalari haqida hisobot berib boradi, lozim bo'lgan taqdirda hakamlar hay'ati majlisini har vaqtida o'tkazishi mumkin.

3.3. Hakamlarning musobaqaga tayyorgarligini va musobaqa jarayonini baholab boradi.

3.4. Musobaqa o'tkazish yuzasidan hisobot bayonini to'ldirib boradi va topshiradi.

4. BOSH HAKAM HUQUQLARI

1. Musobaqa o'tkazish inshooti va anjomlari tayyorlanmagan bo'lsa musobaqa o'tkazishni taqiqlashi mumkin.

2. Musobaqa jarayonida favqulotda vaziyat yuz bersa, musobaqani vaqtincha to'xtatishi mumkin.

3. Musobaqa o'tkazish tartibi yoki jadvaliga o'zgartirish kiritishi mumkin.

4. Hakamlar hay'atiga ma'lum qilgan holda, noto'g'ri hakamlik qilgan hakamni musobaqadan chetlatishi mumkin.

5. Musobaqada ishtirok etishga ruxsati bo'lmagan kurashchilarни musobaqadan chetlatishi mumkin.

6. Qo'pollik qilgani uchun guruh boshliqlarini, hakamlarni, murabbiylarini va kurashchilarni ogohlantirishi mumkin.

7. Bosh hakam ko'rsatmalarini kurashchilar, guruh boshliqlari, murabbiylari, hakamlar va barcha qatnashchilar bajarishlari shart.

5. BOSH HAKAM YORDAMCHISI

5.1. O'rtadagi hakamlarni, kotibni, vaqtini tekshiruvchi hakamni, tablodagi hakamni nazorat qilib turadi.

5.2. Bellashuv natijasini va keyingi olishuvga tayyorlanib turuychilarni e'lon qilib boradi.

5.3. Agar musobaqa jarayonida bosh hakam ma'lum bir sababga ko'ra ishtirok qilmayotgan bo'lsa, bosh hakam vazifasini bajaradi.

6. BOSH KOTIB VA KOTIBLAR

6.1. Bosh kotib hakamlar hay'atining majlisini, musobaqa qarorini, kurashish tartibi hamda boshqa hujjatlarni yozib boradi.

6.2. Kotiblar o'z gilamidagi qarorlarni yozib boradilar.

6.3. Bellashuv baholarini, ogohlantirishlarni nazorat qog'oziga qayd qilib boradilar.

7. O'RTADAGI HAKAM

7.1. Kurashning qanday borishini, qoidalarga qat'iy rivoja qilinishini kuzatib boradi.

7.2. Qaysi kurashchi haqiqatda kurashayapti, qaysisi kurashmayotganligini kuzatib boradi va hamma qoidalarga amal qilib, ikki kurashchini chaqqonrok kurashishga chaqiradi hamda tablodagi bahoni kuzatib boradi.

7.3. Bellashuv vaqtida ikkita yoqtirgan yon tomondagi hakamlarning baholarini kuzatib boradi.

7.4. O'rtadagi hakam belgilangan kurashish vaqtini tugashi bilan shartli "vaqt" iborasini aytib, ishorasini qo'l bilan ko'rsatadi. Bu paytda kurashuvchilar kiyimlarni to'g'irlab o'z joylarida turishlari lozim.

7.5. O'rtadagi hakam kurashchi tomonidan har bir qo'llanilgan usulni baholashi va shu zahoti kurashni to'taxib "to'xta" qaytadan "kurash" deb boshlashi shart.

8. YON TOMONDAGI HAKAM

8.1. Yon tomondagi hakam o'rtadagi hakamga yordam beradi. Kurashchilarning harakatlarini baholab boradi.

8.2. Yon tomondagi hakamlar bir-biriga qarama-qarshi tomondagi kursilarga o'tirishadi. Kurash jarayonida zarurat tug'ilsa yon tomondagi hakam bellashuvni tik turib kuzatishi ham mumkin.

8.3. Agar kurashchilarning biriga gilamdan chiqish zarur bo'lsa, yon tomondagi hakamdan biri unga hamrohlik qilishi shart.

9. VAQTNI KUZATUVCHI HAKAM

9.1. Bellashuv vaqtining har bir daqiqasini nazorat qilib, hisoblab boradi. Agar kurashchi shirofokorga ketib qolsa, kiyimini to'g'irlasa yoki boshqa sabablar bilan kurash to'xtatilsa; sekundomerni to'xtatib, bayroqchani ko'taradi, kurash boshlanishi bilan bayroqchani tushiradi va bellashuv vaqtini yana nazorat ostiga oladi.

9.2. Vaqtini kuzatuvchi hakam kurashchini gilamga chaqirgandan keyin, uning kechikish vaqtini nazorat qiladi. Agar kechikish belgilangan vaqtdan oshib ketsa, kurashchini bellashuvdan chetlashtiradi.

9.3. Vaqtini belgilovchi hakam baland ovoz bilan o'tgan va qolgan vaqtini e'lon qiladi.

10. TABLODAGI HAKAM

10.1. O'rtadagi hakam ko'rsatilgan ogohlantirish yoki baholarni tabloda ko'rsatib boradi.

10.2. Agar o'rtadagi hakamning ko'rsatgan bahosini ko'rolmasdan qolsa, yon tomondagi hakamlardan aniqlab oladi.

10.3. Tablodagi qo'yilgan baholar kim g'olib chiqqanini e'lon qilguncha turishi kerak.

11. MUSOBAQA SHIFOKORI

11.1. Kurashchilar sog'ligi haqidagi hujjatni, qo'yilgan imzolarni va muhrlarni tekshirib chiqadi.

11.2. Vazni o'lchanayotgan kurashchilarning har birini ko'zdan kechirib boradi.

11.3. Musobaqa o'tadigan maydonning tozaligini nazorat qiladi.

11.4. Musobaqa davomida olingan jarohatlarni davolab boradi.

12. E'RON QILUVCHI HAKAM

12.1. Musobaqaning kun tartibini, qaysi kurashchilar kurashishini, kim tayyorlanishini e'lon qilib, har bir kurashchi xaqida ma'lumot berib boradi.

12.2. Kurashga taalluqli bo'limagan e'lonlar faqat bosh hakam yoki uning yordamchisi ruxsati bilan beriladi.

13. MUSOBAQA KOMENDANTI

Musobaqa o'tadigan sport maydonining tayyorligini, shu maydonda musobaqaning tinch o'tishini ta'minlaydi va bosh hakam topshirig'iga ko'ra ish olib boradi.

14.GILAMDAGI HAKAMLARNING FIKR ALMASHISH TARTIBI

14.1. O'rtada faoliyat olib borayotgan hakam va yon tomondagi hakamlar o'z fikrini shartli ishorat belgisi bilan bildiradi. Agar ularning fikri bir-biriga to'g'ri kelmasa, unda yon tomondagi hakamlar orinlaridan turib o'rtaadagi hakamlar bilan bir fikrga kelishib, maslahatlashib olishlari mumkin.

15.NAZORATCHI HAKAM

15.1. Musobaqa qatnashchilarining hujjatlarini nazorat qilib boradi.

15.2. Kurashchilar kiyimining kurash qoidasiga to'g'ri kelishini nazorat qiladi va ularni belbog'lar bilan ta'minlaydi.

16. KURASH QOIDASIDAN TASHQARI FAVQULOTDA BO'LIP QOLGAN VAZIYAT

Agar kurash qoidasida ko'satilmagan vaziyat ro'y bersa u holda gilamdagи hakam - gilam chetidagi hakamlar bilan maslahatlashishadi. Bunda ham bir qarorga kelinmasa, bu vaziyat bosh hakamlar hay'ati orqali yechilishi lozim.

II. KURASHNING UMUMIY QOIDALARI

2.1 . Milliy kurashda faqat tik holatda va qabul qilingan usullarni qo'llash orqali kurashadilar.

2.2 . Usul qo'llash orqali raqibning biror joyi gilamga tekkizilsa, ushbu harakat hakamlar tomonidan baholanadi.

2.3 . Agar kurashchi usul qo'llasa, o'zi ikki kuragi bilan gilamga yiqilsa, u holda uning raqibiga sof g'alaba beriladi. Boshqa hollarda, ya'ni usul qo'llagan kurashching o'zi yonbosh yoki chala yiqilsa, bu harakat baholanmaydi.

2.4 . Agar o'rtaadagi hakam g'olib chiqqan kurashchini ko'setmasdan boshqasini ko'rsatsa, unda yon tomondagi hakam darhol undan qilgan xatosini tuzatishni so'rashi kerak. Chunki bellashuvlar natijasini hakamlar hal qilganlaridan keyin shikoyatlar qabul qilinmaydi.

3. BELLASHUVNING BOSHLANISHI VA TUGASHI

3.1. Bellashuv boshida kurashchilar gilamda bir-biriga qarab 4m masofada turadilar. O'rtaadagi hakam qo'l bilan ko'satishi bilanoq kurashchilar bir-birlariga o'ng qo'llarini ko'ksilariga qo'yib turgan

joylarida egilib salomlashadilar va o'rtadagi hakam "KURASH" so'zini aytishi bilan bellashuv boshlanadi.

3.2 Bellashuvni o'rtadagi hakam shartli so'zlar orqali boshqaradi. Agar to'xtatilgandan keyin raqiblar tomonidan usul qo'llanilsa, bu harakat hisobga olinmaydi. Agar usul qo'llanilgandan keyin bellashuv shu holatda to'xtatilsa, unda qo'llanilgan harakat baholanadi.

3.3. Bellashuv tugashi bilan kurashchilar o'z o'rinalarida kiyimlarini to'g'irlab turadi va natija e'lon qilingandan keyin, qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, xayrlashadilar va gilamni tark etadilar.

4. QATNASHCHILAR KIYIMI

4.1. Bellashuvda kurashchilar oyoqyalang, yashil havorang yaktak, qizil belbog' va oq shimda bo'ladi.

4.2. Kurashchilar kiyimi pishiq ip gazlamadan bo'lib, did bilan va tez yirtilib ketmaydigan qilib tikilgan bo'lishi shart.

4.3. Yaktakdan 20 sm balandda, yengi uzun (uzunligi qo'l tirsagidan 15-10 sm pastda) bo'lishi va yengining ichidagi qo'l oralig'i 5sm bo'lishi kerak.

4.4. Kurash shimplari uzun, oyoqning pastki to'pig'iga barobar qo'yilganda juda holi turadigan bo'lishi lozim. Ishton va oyoq oralig'i 8 sm bo'lishi shart.

4.5. Kurash belbog'i juda qalin qilib tikilgan bo'lishi kerak. U bog'langandan keyin har qaysi uchi 25 - 30 sm osilib turishi lozim.

4.6. Qatnashuvchilarning ko'rinishi kurash kiyimlari toza bo'lib, sochlari, kalta va tirnoqlari olingan bo'lishi shart, shuningdek, bellashuyga taqinchoqlar taqib gilamga chiqish man etiladi.

4.7. Agar kurashchining kiyimi yuqorida kayd qilingan talablarga mos kelmasa, o'rtadagi hakam kurashni to'xtatib, tezda kurashchidan kiyimni almashtirishni talab qiladi.

5. MUSOBAQA QATNASHCHILARINING HUQUQLARI

5.1. Hakamlarga murojaatini o'zining jamoa boshlig'i orqali etkazadi.

5.2. Shifokor maslahatiga muhtoj bo'lgan takdirda unga 5minut vaqt beriladi.

5.3. O'z vaznini bilish uchun musobaqada qo'llaniladigan taroziga musobaqa boshlanishidan 1 soat oldin, ya'ni rasmiy o'lchash marosimi boshlagunga qadar kelib o'lchashga haqli.

6. JAMOA RAHBARLARI, MURABBIYLARI VA BOSHLIQLARI

6.1. Bosh hakam uning yordamchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri maslahatlashish huquqiga faqat jamoa rahbari, murabbiyi yoki boshlig'i egadir.

6.2. Jamoa rahbari kurashchilarning kiyimiga va ularning o'z vaqtida gilamga chiqishiga hamda umumiy tartib intizomiga javobgardir.

6.3. Bosh hakam va hakamlar qatoriga jamoa boshlig'i ham qur'a tashlashni o'tkazishda qatnashadi.

6.4. Kurash jarayonida jamoa rahbarlari uchun joy ajratilib, o'rinalarda bo'lishlari shart.

6.5. Jamoa rahbarlari yoki murabbiylari hakamlik guvohnomasi bo'lgan takdirda musobaqa hakami vazifasini ham o'tashlari mumkin.

6.6. Yuqoridagilarga amal qilmagan rahbarlar o'z vazifasidan bo'shatilib, bu haqda tegishli tashkilotlarga xabar qilinadi.

6.7. Guruh murabbiyi bellashuv vaqtida belgilangan joyda yoki gilam atrofida 2 metr masofada turishi mumkin.

6.8. Guruh murabbiyi o'z kurashchisi tan jarohati olgan vaqtida belgilangan tartibda shifokor tomonidan tibbiy yordam ko'rsatayotgan vaziyatda hozir bo'lib turishi mumkin, amimo gilam chetidagi va o'rtasidagi hakamlar qaroriga itoat qilmasligi yoki ularni haqorat qilishi ta'qilanganadi.

6.9. Yuqoridagilarga guruh murabbiyi itoat etmasa, o'rtadagi hakam bellashuvni boshqaruvchi hakamdan murabbiyiga "DAKKI" ogohlantirishni berishni tafab qilishi mumkin, bu hol yana qaytarilsa, bellashuvni boshqaruvchi hakam "G'IRROM" ogohlantirishni e'lon qilib, ularni bellashuvdan chetlatishi mumkin.

7. MUSOBAQA TURLARI VA O'TKAZISH QOIDALARI

7.1. Musobaqa turlari:

a) shaxsiy birinchilik:

b) jamoalar birinchiligi va shaxsiy birinchilik:

c) mustaqil jamoalar birinchiligi:

d) ochiq gilam birinchiligi:

e) matloq birinchilik:

f) professional kutashchilar birinchiligi:

g) professional kutashchilar birinchiligi:

7.2. Shaxsiy birinchilikda bir toifa vaznda bir kishi g'olibligi aniqlanadi.

7.3. Jamoa orasidagi kurashda jamoalar g'olibligi aniqlanadi.

7.4. Shaxsiy birinchiligi aniqlanadi.

7.5. Ochiq gilamda har bir xohlovchi kurashchi o'zi uchun kurashishi mumkin.

7.6. Mutloq birinchilikda vazn toifasidan qat'iy nazar (bos hakam ruxsati bilan) xohlovchilar kurashishi mumkin.

8. PROFESSIONAL KURASHCHILAR

Professional kurashchilar tarkibiga musoboqalarga qatnashish imkoniyati mavjud bo'lganlar professional kurashchining g'alaba bahosi va kurashchilarga taqdim etiladigan unvon, musoboqaga kimlar ishtirok etishi mumkinligi va vazn toifalari kiradi.

8.1. Professional kurashchilar musobaqalarga qatnashish imkoniyati ma'lum bo'lgan professional kurashchilarga g'alaba va kurashchiga taqdim etiladigan unvon, musobaqalarga kimlar ishtirok etish mumkinligi vazn toifalari kiradi. Musobaqaga milliy kurash qoidasini biladigan, millati va yashash joyidan qat'iy nazar bir kurashchi qatnashishi shart.

8.2. G'alaba faqat "HALOL" bahosini olgan kurashchiga, ya'ni raqibining ikkala kuragini gilamga barobar tekkizganga beriladi. Qolgan boshqa harakatlar baholar hisobida jamlab boriladi. Agar umumiy belgilangan vaqtda g'olib aniqlanmasa, kurash to'xtatiladi va g'alaba ko'p ochko to'plagan kurashchiga beriladi.

8.3. Musobaqa finalida olishgan palvonlar "professional kurashchi" deb O'zbekiston kurash milliy federatsiyasi tomonidan ro'yxatga olinadilar.

9. MUSOBAQA QATNASHCHILARI

Musobaqa qatnashchilarining yoshlari quyidagilardan iborat:

-bolalar 12-13 yosh

-o'smirlar 14-15 yosh

-yoshlar 16-17 yosh

-kattalar 18 va undan yuqori yosh.

Kattalar o'rtaida O'zbekiston birinchiligidagi qatnashuvchilarning yoshi chegaralanmaydi.

10. VAZNALAR

25.1. Musobaqa qatnashchilarini quyidagi vaznlarga bo'linadilar:

- bolalar(12- 13 yosh)-33, 36,40,44,48, 52,60,65, 70 kg va

undan yuqori: 14-15 yoshda 40, 42, 46, 50, 54, 60, 65, 71, 76, 81 kg va undan yuqori:

- yoshlari va katta yoshdagilar -60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va undan yuqori:

25.2. Yoshlari va katta yoshdagi polvonlar qaysi vaznda qatnashishlaridan qat'iy nazar (bosh hakam ruxsati bilan) mutloq vaznda kurashishlari mumkin.

25.3. Federatsiya bilan kelishilgan holda xaqaro musobaqalar qatnashchilarning yoshiba qarab quyidagi vazn toifalarida o'tkazilishi mumkin:

18-35 yoshdagilar 60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va undan yuqori;

36-45 yoshdagilar 60, 70, 80, 90 kg va undan yuqori;

45-60 yoshdagilar 60, 70, 80, 90 kg va undan yuqori;

60 yoshdan yuqori — 60, 70, 80, 90 kg va undan yuqori;

11. MUSOBAQAGA QATNASHISH SHARTLARI VA TALABLARI

Musobaqa qatnashish shartlari va talabalari bo'limida musobaqa qatnashchilariga qo'yiladigan talablar vaznlarni aniqlash tartibi, kurashchilarining tan jarohati o'tkazishga olib keluvchi harakatlarga hakamlarning bahosi, taqiqlangan harakat va bellashuvdan mahrum qilish, musobaqalardan chetlashish ogohlantirish va gilamdan tashqari holat kabi masalalar o'rinn olgan.

11.1. Musobaqa qatnashchilaridan quyidagilar talab qilinadi:

- shaxsini va yoshini bildiruvchi hujjat, yuqorida zikr etilgan maxsus liboslar, kurashchining mahorat darajasini aniqlovchi guvohnoma;

- qaysi jamoaga mansubligi haqida muhriqangan guvohnoma va bildirishnomasi, shifokor ruxsati haqida ma'lumot.

Yuqorida ko'rsatilgan hamma hujjatlar musobaqadan oldin mandat komissiyasida ko'rilib, bosh shifokor va komissiya a'zolari tamonidan tasdiqlanadi. Yuqoridagi shartlar va talablarning bajo keltirilishi uchun jamaoa rahbarlari javobgardiolar.

11.2. Bosh hakam ruxsati bilan yosh kurashchilar (16-17 yoshlari), katta yoshdagi polvonlar orasida musobaqalarda ham qatnashishi mumkin.

11.3. Musobaqada bir vaznda bellashgan polvonlar ikkinchi

vaznda qatnashishi man etiladi, lekin ular mutloq vaznda (bos hakam ruxsati bilan) kurashishlari mumkin.

12.VAZNLARNI ANIQLASH TARTIBI

12.1. Musobaqaning birinchi kunida qatnashuvchi vaznlar shu kuni kurash boshlanishidan 2 soat oldin o'lchanadilar. O'lchanish vaqt 1 soatdan ko'p bo'lmasligi kerak. Shu kuni bir necha vazndagi kurashchilar o'lchanishi mumkin. Bellashuvda qatnashuvchi hamma polvonlar bir tarozidan o'tkazilishi shart.

12.2. Vaznnini o'lchatmagan kurashchi musobaqaga qo'yilmaydi.


12.3. Polvonlar o'lchanish paytida surati yopishtirilgan hujjat orqali nazorat qilinadi.

12.4. O'lchanishda bosh hakam yordamchisi kotib, shifokor va 2.-3. hakam bo'lishi lozim. Qatnashuvchilar qarorda qayd qilib boriladi.

12.5. O'lchanish jarayoni kiyimlarsiz amalga oshiriladi.

13. QATNASHUVCHILAR MAJBURIYATI

Musobaqa qatnashchilari quyidagi larga amal qilishlari lozim:



- a) musobaqa boshlanishidan oldin bir-birlari bilan egilib salomlashish:
- b) kurash qoidasiga, musobaqa qonun-qoidalariiga qat'iy rioxva qilish:
- c) hakamning topshiriqlariga bo'ysunish:
- d) musobaqa davomida o'zini to'g'ri tuta bilish:
- e) qatnashuvchi hakamlar tomonidan chiqarilganda, tezda chaqirilgan joyga borish:

14. BELLASHUV VAQTI

- 14.1. Bellashuv vaqtı öldindan kelishib olinadi, lekin 3 minutdan kam, 20 minutdan ko'p bo'lmasligi kerak. Bunda "TO'XTANG" va "KURASH" shartli iboralar oralig'idagi vaqt bellashuvning umumiy vaqtiga kirmaydi.
- 14.2. Respublika, Osiyo va xalqaro musobaqlarda yoshlari kattalar o'rtasidagi bellashuv 5 minut. O'smirlar va 35 yoshdan yuqoridagilar uchun 4 minut qilib belgilanadi, bolalar va 60 yoshdan yuqoridagilar uchun bellashuv vaqt 3 minutdan iborat bo'lishi kerak.
- 14.3. Bellashuv boshlanishidan to tugagunga qadar kurashchilar o'rtadagi hakamning ruxsatsiz gilamdan chiqib ketishi man qilinadi.
- 14.4. Agar bellashuv vaqtida kurashchi jarohatlansa, unga tibbiy yordam ko'rsatish uchun 5 minutgacha vaqt beriladi va bu jarayon 5 minutdan ortib ketsa, u kurashchi musobaqadan chetlatiladi.

14.5. Musobaqa yarim final bellashuvlari vaqt 7 minut qilib belgilanadi. Agar g'oliblar aniqlanmasa hakamlar hay'ati bilan kelishilgan holda boshqa kunga ko'chiriladi.

14.6. Muchoq birinchilikning final qismi bellashuvlari vaqt 3 raund qilib belgilanadi. Har bir raunddan so'ng qaysi kurashchi ustun ekanligi e'lon qilinib borilishi shart. Agarda bu kurashchi ketma-ket 2 raundda g'olib chiqsa, unga g'alaba beriladi.

15. BELLASHUV NATIJASI

15.1. Bellashuvda bir kishi g'olib bo'lishi yoki kuchlar teng kelishi mumkin.

15.2. Bellashuvda kurashchilar harakati quyidagicha baholanadi:

Sof g'alaba "HALOL"	—	10:0
Yarim yutuq "YONBOSH"	—	5:0
4 ta "CHALA" yonboshga teng	—	5:0
Eng kichik yutuq "CHALA"	—	3:0
"G'IRRROM"	—	10: 10
"DAKKI"	—	0:5
"TANBEH"	—	0:3
"TANBEH"- "CHALA"	—	0:1
"DAKKI"- "YONBOSH"	—	0:1
"CHALLA" - "DAKKI"	—	0:3

Izoh: Agar bir kurashchi bellashuv vaqtı ichida "**TANBEH**" ogohlantirishni va "**CHALA**" bahosini olsa vaqt tugagandan so'ng bir ochko hisobida g'olib deb topiladi. Baholar teng bo'lga taqdirda ogohlantirish natijasida olingen bahoga qaraganda ular usul qo'llab olingen baho yuqori deb topiladi.

15.3. Sof g'alaba - "**HALOL**"ga beriladigan holatlar:

Usul qo'llab, katta kuch ishlatib tezlik bilan raqibning ikki kuragi ham to'la gilamga tekkizilsa:

Raqibni ikki marta "**YONBOSH**" bahosini olib yiqitilsa:

Sof g'alaba bilan g'olib chiqqanda 10 baho, mag'lub bo'lganda 0 baho beriladi.

15.4. Yarim yutuq "**YONBOSH**" beriladigan holatlar:

kurashchi o'z raqibini katta kuch ishlatib tez usul qo'llab gilamga yiqitganda uning ikki kuragi to'la tegmasdan, faqat bir kuragi to'la tekkizilsa: kurashchining biriga "**DAKKI**" ogohlantirishi berilsa, uning raqibiga 0:5, ya'ni g'alaba beriladi: agar kurashchilarning birida "**YONBOSH**" bo'lib, uning raqibida bellashuv davomida olingen bir necha "**CHALA**" bo'lsa, g'alaba "**YONBOSH**" olgan kurashchiga beriladi. "**YONBOSH**" bahosini olganda 5 baho, mag'lub bo'lganda 0 baho beriladi.

15.6. Eng kichik yutuk "**CHALA**" beriladigan holatlar:

kurashchi o'z raqibini kuch ishlatib, usul qo'llab, orqasi yoki qorni bilan yiqitsa "**CHALA**" bahosini olganda 3 baho, mag'lub bo'lganda 0 baho beriladi.

15.7. Baholar hisobida tenglashganda: agar ikkala kurashchida baholar hisobi teng bo'lib qolsa, so'nggi marta usul qo'llab baho olgan kurashchiga g'alaba beriladi. Kurash davomida har ikkala kurashchida birorta ham baho bo'limgan holatda g'olib qur'a tashlash yo'lli bilan aniqlanadi.

16. BELLASHUVDAGI SUSTKASHLIK

16.1. Quyidagi harakatlar bellashuvdagi sustkashlik deb baholanadi: bellashuv vaqtida usul qo'llanmasdan, raqibga tutqich bermasdan qochib yurish; butun bellashuv davomida birorta ham usul qo'llanmaslik; raqib harakatlarini jismoniy kuch ishlatib qaytarish bilan chegaralanib yurish: ikki kurashchi ham usul qo'llashga harakat qilmasligi;

16.2. Kurashchilarining tez-tez gilamdan chiqib ketishlari; o'z raqibini texnik harakat, usul qo'llashiga qo'ymaslik uchun uni bir

yoki ikki qo'llidan ushlab turish; o'z raqibini gilam chekkasiga turtib chiqarish; o'z raqibini gilam o'tasiga tortib boraverish; sustkashlik va gilam chetiga qochishga hakamlar hay'atining bildiradigan fikri;

16.3. Agarda kurashchi gilamdan chiqib ketaversa, o'rtadagi hakam bellashuvini to'xtatib unga ogohlantirish e'lon qilinadi; agarda kurashchi gilamdan aniq, oshkor chikaversa yoki raqibini gilamdan qochayotgan qilib ko'rsatish uchun undan turtib chiqaraversa, o'rtadagi hakam gunohkor kurashchiga ogohlantirish e'lon qiladi.

17. KURASHCHILARNING TAN JAROHATI O'TKAZISHGA OLIB KELUVCHI HARAKATLARIGA HAKAMLARNING BAHOSI

17.1. Tan jarohatini olganlik, uning qay darajada og'irligi va bellashuvni davom ettirish yoki to'xtatishni musobaqa shifokori belgilaydi;

bellashuvdan ozod qilishga esa faqat bosh hakam yoki bosh hakam yordamchisi musobaqaning bosh shifokori xulosasi asosida huquqlidir.

17.2. Taqiqlangan usul qo'llash natijasida bir kurashchi tan jarohati olsa va shu tufayli bellashuvni davom ettira olmasa gunohkor kurashchiga "G'irrom" mag'lubiyat e'lon qilinadi, musobaqadan chetlatilsa, jarohat olganga sof g'alaba beriladi:

17.3. Agar kurashchi bellashuv davomida tan jarohati olsa va bunda raqibining aybi bo'lmasa unga mag'lubiyat, bellashuvni davom ettira olmay qolsa raqibiga sof g'alaba beriladi:

17.4. Agarda ikki kurashchi ham bir vaqtida tan jarohati olsalar va bellashuvni davom ettira olmasalar ularning har ikkisiga ham mag'lubiyat e'lon qilinadi:

17.5. Bellashuvlardan chetlatilsa, kurashchilar yarim final va final bellashuvlaridan ma'mur etiladilar.

18. TAQIQLANGAN HARAKATLAR VA BELLASHUVDAN MAHRUM QILINISH

18.1. Kurashtus ob'ektida quyidagilar taqiqlanadi: raqibni boshi bilan uloqtirish, raqibni uloqtirayotgan vaqtida uning butun tanasi bilan yiqilish; raqibni qo'l-oyoqlar bilan urish, tershish va tishlash; raqibning bo'yinini qaytarish, qo'l bilan boshini siqish yoki gilamga bosish;

- raqibni yiqitgan vaqtida uning yuziga qo'l, oyoq va boshi bilan

tayanish;

- raqibning ustiga tizza yoki tirsak bilan yiqilish;
- raqibning barmoqlaridan ushlab usul qo'llash;
- raqibning ishtonidan ushlab usul qo'llash;
- raqibni gilam chetiga tutrib chiqarish;
- belbog'dan ushlash vaqtida o'ng oyoqni orqaga tashlamaslik;
- belbog'dan ushlashga qo'ymaslik;

Eslatma: Yuqoridagi taqilangan harakatlarni qo'llaganlik uchun "**DAKKI**" ogohlantirish beriladi, agar ana shu holat takrorlansa, oxirgi ogohlantirish "**G'IRROM**" beriladi va kurashchi musobaqadan chetlatiladi.

19. MUSOBAQADAN CHETLATISH

19.1. Agar kurashchi kurash qoidalariga bo'ysunmasa yoki taqilangan usul qo'llasa;

19.2. Hakamlarni, tomoshabinlarni yoki raqibini haqorat qilsa, bunda qoida buzgan kurashchini "**G'IRROM**" deb bellashuvdan chetlashtiriladi;

19.3. Agar kurashchi 3 minut ichida gilamga kelib, tayyor bo'lib turmasa;

19.4. Yarim final yoki final chog'ida "**G'IRROM**" berib chetlashtirilgan kurashchiga medal ham, sovrin ham berilmaydi:

Bunday hollarda raqibga 10 baho, chetlashtirilganga 0 baho beriladi.

20. SUST KURASHISH

20.1. Agar 20-25 sekund ichida kurashchilardan biri yoki ikkalasi ham kurashmasdan tursa, shu payt chetda o'tirgan hakamlar qo'l bilan ko'rsatib, biriga yoki ikkalasiga ham tegishli ogohlantirish beriladi;

20.2. Agar bu hol yana takrorlansa, bunda ham shunday qo'l ko'rsatib, "**TANBEX**", "**DAKKI**" berib keyin esa kurashchi "**G'IRROM**" deb bellashuvdan chetlashtiriladi.

21. OGOHLANTIRISH

21.1. Eng kichik ogohlantirish - "**TANBEH**":

- a) yaktak ushlatishga bermasdan qochib yursa;
- b) o'zi ham kurashmasdan raqibini kurashishiga qo'ymasa;
- d) ikki yoqasidan, belbog'idan yoki yengidan ko'p ushlab tursa;
- e) ishtonidan ushlab usul qo'llasa;
- f) kurashmasdan gilamdan chiqib ketsa;

g) raqibi kiyimini tishlab tursa, oyog'i yoki tirsagi bilan raqibining yuziga temsa yoki urşa.

21.2. Ikkinchı ogohlantirish - "DAKKI":

- a) usul qo'shmasdan, erga tizza bilan cho'kka tushib, kurashmasa, shu holat takrorlansa;
- b) gilamdan tashqarida kurashsa yoki kurashchini surib chiqarsa va usul qo'llab, raqibning buyniga tushirsa va shikast etkazsa;
- c) o'rtaida həkamga qulq solmasdan kurashni davom ettirsa, o'rtaida baqirsa, haqoratlasa yoki həkam ko'rsatgan ko'rsatkichga bo'y sunmasa;

e) raqibni bo'g'ish yoki bo'g'ib azob berish usulini qo'llasa.

21.3. Uchinchi va oxirgi ogohlantirish - "G'IRROM":

- a) yiqilgan raqibning ustiga tizzasi bilan o'zini tashlasa yoki og'ir jarohat etkazadigan usul qo'llasa;
- b) boshi bilan raqibning yuziga ursa, usul qo'llab o'zi boshi bilan gilanga urilsa yoki bilib turib raqibning boshiga ursa;
- d) 3 minut ichida gilamga kelmasa;
- e) kurashmasdan gilamdan chiqqani uchun oldin "DAKKI" olgan bo'lsa.

22. GILAMDAN TASHKARIDAGI HOLAT

- a) gilam chetidan tashqariga usul qo'llanilsa ü baholanmaydi;
- b) agar gilam chizig'i ichida usul qo'llanilib, gilamdan tashqariga yiqtilsa, bunda hisobga olinadi.

23. MUSOBAQA JIHOZLARI

23.1. Modulning musobaqa jihozlari bo'limi gilam, uning hajmi, bellashuv maydonning hajmi, gilam uning anjomlaridan iboralar, uning ko'rinishi va mazmuni musobaqa o'tkazish tartibi va mazmuni musobaqa o'tkazish tartibi va musobaqa o'tkazish nizomi kabi masalalardan iborat.

23.2. Gilam.

- a) musobaqada Yapon tatamasi yoki boshqa kurashlar gilami bo'lishi kerak;
- b) respublika miqyosidagi, Hamdo'stlik Davlatlari orasidagi hamda xalqaro musobaqalar 14x14 m yoki 16x16 m andazadagi gilamda o'tkaziladi. Bu andazadagi gilamlarning bellashuv maydoni 10x9 metrdan kam va 10x10 metrdan ko'p bo'limasligi lozim.

24. GILAMDAGI KURASHNI BOSHQARISH ANJOMLARI

24.1. Har bir gilam oldida bosh hakam yordamchisi, kotib va sekundomerist, hakam uchun stol va kursi bo'ladi. Stolda zang, kurashning vaqtini boshqarish uchun ikki sekundomer soat bo'ladi;

24.2. Gilam chetidagi hakamlarga qarama-qarshi tomonlarda bellashuvni yaqqol ko'rish uchun kursi va hakamlar uchun kurashchilarning belbog'i rangiga mos keladigan bayroqchalar bo'lishi shart;

24.3. Har bir gilam oldida hakamlar ko'rsatgan baholarni osib qo'yish uchun tablo bo'lishi kerak;

24.. Gilamning tayyorligini bilish hakam, shifokor va musobaqa o'tkaziladigan inshoot vakillari ko'rib baholaydilar. Gilamning tayyor yoki tayyormasligi dalolatnomada ko'rsatiladi.

25. HAKAMLAR ISHLATADIGAN IBORALAR



1. «**TANISHING**» - kurashchilar gilamga chiqib kelganlaridan keyin o'rtadagi hakam chap yoki o'ng qo'lini kurashchi tomoniga qaratib «tanishing» degan iborani baland ovozda aytadi. E'lon qiluvchi hakam esa kurashchilarni tanishtiradi. (Bu ishora olishuvda g'alaba qilgan kurashchiga nisbatan ham ishlataladi).



2. «**TA'ZIM**» — kurashchilar o'ng qo'llarini chap ko'ksida tutgan xolda bir-birlariga bo'yin va gavdani egib salomlashish uchun ishlataladigan ibora. Bu iborani ishlatganda hakam ikkala qo'llini kaftlari bilan oldinga qaratgan holda yon tomonga ochib, keyin barmoqlari yuqoriga qaragan holda balanddan bukib, qo'llarini ichkariga aylantirish ishorasini qiladi, bu vaqtida ikkala qo'lning barmoqlari bir-biriga uchma-uch holga kelishi kerak.

3. "O'RTAGA" — bu so'z ikkala kurashchini bir-birlariga yaqinlashib, halol, mardona olishishlariga undovchi so'z. Hakam qo'llarini ikki tomoniga yoygan holatda va shu holatni to'xtatmasdan o'rta ga ishorasini ko'rsatadi, ya'ni qo'l kaftlarini bir-biriga qaratib, yelka kengligiga olib keladi.

4. "KURASH" — kurashchilar bir-biroylariga ta'zim qilib salomlashgandan keyin olishuvni boshlash uchun hakam tomonidan ishlataladigan ibora. Hakam o'ng qo'lini kaftlari bilan yon tomonaga qaratgan holda tirsakdan bir oz bukib ishora qiladi.

5. "TO'XTA" — olishuv davom etayotgan vaqtida olishuvni to'xtatish uchun ishlataladigan ibora. Bu vaqtida hakam o'ng qo'lini kafti bilan oldinga qaratgan holda (barmoqlar bir joyga jipslashgan) oldinga cho'zib ishora qiladi.

6. "HALOL" — kurashchilardan birovi sof g'alaba qilgan vaqtda ishlataladigan ibora. Hakam qo'lini kafti bilan oldinga qaratgan holda yuqoriga ko'tarib (barmoqlar jips holda) ishora qiladi.

- a) ikki "YONBOSH" bahosi olsa;
- b) raqibga usul ishlatib o'zi ikkala kuragiga yiqilsa;
- d) raqibiga "G'IRROM" berilsa;
- e) "YONBOSH" olgan holda raqibida "DAKKI" bo'lsa;
- f) raqib 3 minut ichida gilamga chiqmasa beriladi.



7. "YONBOSH" — hakam qo'lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda (barmoqlar bir joyda jips) yonboshta urib, yon tomonga cho'zib (90°) ishora qiladi.

- a) kurashchilardan biri usul qo'llab raqibini tezlik bilan bir kuragiga yiqitsa;
- b) yoki raqibiga "DAKKI" e'lon qilinsa beriladi.



8. "CHALA" — kurashchilardan biri usul qo'llab, usulni oxirigacha to'liq bajara olmasa ishlataladigan ibora. Hakam qo'lini kafti bilan yoniga qaratgan holda tirsagidan bukib (90°) ishora qiladi.

- a) kurashchilardan biri usul qo'llab to'lig'icha bajara olmasa, raqibining beli yoki undan yuqori qisimni gilamga tekkizsa;
- b) raqibiga "TANBEH" e'lon qilinganda beriladi;
- d) nechta "CHALA" bahosi berilishidan qat'i nazar ularning umumiy soni jamlanmaydi.
- e) agar ikkala kurashchida ham bir nechtadan "CHALA" bo'lsa, g'oliblik ko'p "CHALA" olgan kurashchiga beriladi.



9. "TANBEH" — birinchi ogohlantirish. Hakam kurashchi tomonga burilib, qo'lini oldinga cho'zgan holda barmog'i bilan tanbeh olgan kurashchini ko'rsatib, ishora qilib shu iborani ishlatadi.

"TANBEH" — ogohlantirish unchalik katta bo'limgan xatolarga yo'l qo'ygan kurashchiga beriladi.

- a) kurashchi ataylab qochayotib, raqibga ushlab olishga yo'l qo'ymasa;
- b) ataylab raqibni gilamndan itarib chiqarsa yoki o'zi gilamning xavfli maydoniga chiqib ketsa;
- c) d) ataylab o'zining kiyimini, ishtonini hakam ruxsatsiz yechib yuborsa;
- e) ataylab raqibning ishtoni yoki oyoqlaridan ushlasa;
- f) ushlab olgandan keyin 8—10 sekund vaqt davomida usul qo'llamasra, beriladi.



10. "DAKKI" — ikkinchi ogohlantirishda ishlataladigan ibora. Hakam qo'lini musht qilib tirsagidan bukib (90°) ishora qiladi (Qo'l barmoqlar musht holiga kelgan va kaft old tomonga qaragan bo'lishi kerak).

(DAKKI) — "TANBEH"dan keyin ikkinchi, unchalik katta bo'limgan xatoga yo'l qo'ygan kurashchiga e'lon qilinadi.

- Dakki qachon birdaniga berilishi mumkin?
- a) kurashdan bosh tortib, ataylab tizzaga ko'p marotaba o'trsa;
 - b) hakamning buyruqlariga rioya qilmasa; noma'qil so'zlarni gapirsa yoki baqirsa.



11. “G’IRROM” — oxirgi ogohlantirishda ishlataladigan ibora. Hakam kurashchi tomonga burilib, qo’lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda yon tomonga cho’zib ikki-uch marta pastga silkitib ishora qiladi.

“G’IRROM” — katta xatoga yo’l qo’ygan (yoki “DAKKI” jazosini olgan va keyingi paytda unchalik Katta bo’lmagan yoki o’rta toifadagi xatoga yo’l qo’ygan) kurashchiga e’lon qilinadi.

- a) olishuv davomida raqibning, hakamlarning sha’niga noma’qil so’zlarni ishlatsa, baqirsa, har xil imo-ishoralar qilsa;
- b) agar kurashchi olishuv davomida raqibiga bila turib jarohat yetkazsa, unda raqibga “G’IRROM” e’lon qilinib, shikastlangan kurashchiga “HALOL” beriladi.



12. “BEKOR” — olishuv to’xtatilganda keyingi harakatlar uchun yoki bajarilgan usul, baholashga noloyiq deb topilgan vaqtida ishlataladigan ibora:


Hakam qo’lini kafti bilan yon tomonga qaratgan holda (barmoqlari jipslashgan) oldinga, cho’zib ikki-uch bor chapga va o’nga harakatlantirib ishora qiladi.




13. “VAQT” — olishuv vaqtida tugaganligini ko’rsatish uchun ishlataladigan ibora. Hakam ikkala qo’lini yuqoriga ko’tarib kaftlarini bir-biriga qadagan holda bilakdan qo’shib ishora qiladi.

Izoh: Ishoralar o'rtadagi hakamning ikki tomonida turgan kurashchining yaktagi rangiga qarab o'ng yoki chap qo'l bilan ko'rsatiladi. O'rtadagi hakam qo'l ishoralarini ko'rsatish bilan bir vaqtda gilam o'rtasida tik holatda iboralarni baland ovoz bilan aniq aytib borishi shart.

26. Olishtuv natijalarini qayd etish



BAHO	OGOHLANTIRISH
HALOL	0:0
YONBOSH	0:0
CHALA	0:0
DAKKI-YONBOSH	0:10
TANBEH-CHALA	0:3
YONBOSH-YONBOSH	0:1
CHALA-CHALA	0:1
VIRROM	0:10
DAKKI	0:5
TANBEH	0:3
YONBOSH-DAKKI	10:0
CHALA-TANBEH	3:0
DAKKI-DAKKI	1:0
TANBEH-TANBEH	1:0



1991-yil KURASH qoidalari K.Yusupov tomonidan ishlab
chiqildi. KURASH Xalqaro ASSOTSIATSIYASINING 1 - TA'SIS
KONGRESSIDA XALQARO KRIDA SIFATI BIR OVOZDAN
TASDIQANDILDI.

27. MUSOBAQA O'TKAZISH TARTIBI

27.1 Musobaqalar olimpiya tizimi bo'yicha o'tkaziladi: hamma polvonlar orasida kuchlilarini hisobga olib, ikki A va B guruhlarga bo'linadi:

Polvonning tartib raqami qur'a tashlash yo'li bilan b'lgilanadi va musobaqa tugagunga qadar saqlanib qoladi:

juft raqamli povonlar A guruhiga, toq raqami polvonlar B guruhiga yoziladilar:

A va B guruh g'oliblari finalga chiqadilar va 1-, 2-o'rinalar uchun kurashadilar. Finalga chiqqan kurashchilarga boy bergan kurashchilar uchinchi o'rinn uchun kurashni davom ettiradilar.

27.2. Kurash bo'yicha bir vazn toifasidagi polvonlarning musobaqalari bir kunda o'tkaziladi.

27.3. Musobaqaning turi, albatta, ushbu musobaqa o'tkazish nizomida ko'rsatilishi kerak.

28. MUSOBAQA O'TKAZISH NIZOMI

Kurash bo'yicha musobaqalarni o'tkazish haqidagi majburiy hujjat musobaqa o'tkazish NIZOMI bo'lib, bu musobaqa o'tkazayotgan tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.

NIZOMda quyidagilar qayd etilishi lozim: musobaqa turi; maqsadi va vazifalari;

-qatnashuvchi tashkilotlar va qatnashchilar (yoshi, saviyasi, klassifikatsiyasi);

-musobaqa o'tkazish mas'uliyati yuklatilgan tashkilot;

-musobaqa o'tkazish joyi va vaqt;

-musobaqa o'tkazish tartibi: bellashuv vaqt;

-musobaqada ishtirok etish shart-sharoitlari;

-tibbiy nazorat va tozalikni ta'minlash tartibi;

-hakamlar hay'ati tarkibi;

-ishtirok etish uchun bildirishnomalarni berish muddati va tartibi mandat komissiyasiga tavsiya etiladigan hujjatlar ro'yxati;

-kurashchilar va jamolarni qabul qilish shart-sharoitlari;

-noroziiliklar bildirish e'tirozlarini ko'rib chiqish tartibi;

-musobaqa o'tkazishning aniq kuni va har bir vazn toifasida bellashuvning vahti belgilangan dasturi.

3-Modul

Mashg'ulotni xulosalab aytish mumkinki, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatni

asoslarini qurish sharoitida o'zbek milliy kurashi va uning turlari, yosh avlodning jismoni y sifatlarini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, jamoalarda mukammal ruhiy muhitni yaratishda jahonshumul ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o'zbek milliy kurashining jahon sport arenalarida nufuzining oshishi, dunyo xalqlarining o'zbek milliy kurashiga qiziqishining oshishi, 1999-yildan boshlab O'zbekiston, Turkiya, Venqriya, Armaniya, Mangoliya, Dominakan, Hindiston mamlakatlarda o'tkazilgan jahon championati dasturiga mazkur kurash turining kiritilishi qalbimizni faxr va iftixorga to'ldiradi. Xususan, Milliy kurashning umumiyligini qoidalari O'zbekistonda yaratilishi, Xalqaro Kurash Assotsiyasining O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan tashkil etilishi, uning faxriy Prezidentligiga Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov va Prezidenti etib Komil Yusupovning tayinlanishi jahon sportsevar xalqlarining O'zbek milliy kurashiga bo'lgan katta hurmat namunasidir.

Ko'rib o'tganimizdek, O'zbek milliy kurashining umumiyligini qoidalari asosida turli mavqedagi turnirlar, musobaqalar, jahon championati o'tkazilmogda.

Mashg'ulot jarayonida sizlar bergen savollar va unga hamkurslaringiz, ma'ruzachi tomonidan berilgan javoblar o'zbek milliy kurashiga u bo'yicha o'tkazilgan turli musobaqaqlarga va bu musobaqaqlarning O'zbekistonlik olimlar tomonidan tuzilgan milliy kurash qoidalari asosida o'tkazilishi hammamizga katta qiziqish hamda faxr uyg'otadi. Chunki milliy kurash xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, har bir xalqning umumiyligini madaniyatini, jumladan, jismoni y madaniyatining mazmunini teranroq anglashi hamda mukammalroq bilish uchun hayot tarziga aylanib ulgurgan holatdir.

4-Modul

Bu modulda o'qituvchi ma'ruza mashg'ulotlaridan ma'lumotlarni qanchalik egallab olganliklarini aniqlash maqsadida talabalarni jamoalarga guruhlarga ajratadi va oldindan tayyorlab qo'ygan topshiriqlar bo'yicha test savollari, insert usulidan foydalaniib, bahs-munozarali savol-javobni tashkil qilish yordamida olib boradi. Taxminan test va bahs-munozara savollari quyidagicha bo'lishi mumkin.

TEST

"Milliy kurash" qayenda tashkil topgan.	Buxoro Farg'ona	Toshkent – Buxoro	Qarshi- Namangan	Samarqand - Navoiy
1999-yil Toshkent shahrida bo'lgan birinchilikda medali g'olib kim solishi to'ldi?	Toshtemir polvon	Kamol polvon	Ural polvon	Rustam polvon
2001- yilda o'tkazilgan milliy kurash bo'yicha jahon championatining g'olib kim?	B.Avazov	R.Rajabov	R.Saidov	B.Ergashev
Birinchi jahon birinchiligi qachon o'tkazildi va qayenda?	1999-yil Toshkent	2000-yil Armaniston	2001-yil Budapest	2002-yil Boiviya
Butun jahon kurashni rivojlantirish jamg'armasi qachon tuzilgan	1999-yil aprel	2000-yil fevral	1998-yil mart	1998-yil mart
Ikki karta jahon championi kimlar?	Baxrom Avazov	Akobir Qurbanov	Kamol Murodov	Toshemir Muhammad Iyev
Qaysi yili o'zbek kurashini jahon tan oldi	1998-yil	1997-yil	1994 -yil	1999-yil
Qaysi yili Afganistanning Betfort shahrida I.Karimov tumrida necha medal obib kelindi?	2000 -yil 4 ta oltin, 1 ta kumush, 1 ta bronna	2003 -yil 5 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronna	2004 - yil 4 ta oltin, 1 ta kumush, 2 ta bronna	2002-yil 3 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronna
Qaysi yili Andijon shahrida Zahreddin Muhammad Bobur xalqaro	1996 - yil 15- 18 avgustda	1995 -yil 18- 20 avgustda	1997 -yil 17- 20 avgustda	1987 - yil 18-20 avgustda

turnirida milliy kurashning yangi qoidasi muhokama qilindi?				
Qaysi yili birinchi bor umumta'lim maktablarining dasturiga milliy kurash darsi kiritildi?	1969-yil	1975-yil	1950-yil	1980-yil
Qaysi yili Namangan shahrida Mustaqilligimizni 4 yilligiga bag'ishlab "Belbog'li" kurash turi bo'yicha xalqaro turnir o'tkazildi?	1995- yil	1999-yil	1997 -yil	1998- yil
Qaysi yili xalqaro kurash assotsasiyasi tashkil etildi?	1998- yil 6-sentabr	1999- yil 5-sentabr	1997-yil 6-mart	1995- yil 13- aprel
Kim tomonidan va kaysi yili jahon andozalariga mos keladigan konunkoidalar joriy etildi?	K.Yusupov tomonidan 1992 -yili	Maxsudov tomonidan 1982- yili	N.Azizov tomonidan 1994- yili	M.Hasanov tomonidan 1995- yili
Kurash Akademiyasining birinchi Prezidenti kim?	J.Tursunov	F.Karimov	R.Axmedov	X.Mirzayev
Kurash assotsiyasi faxriy prezidenti etib kim va qachon saylangan?	1998- yil 6 -sentabr I.A.Karimov	1997 -yil 3-sentabr E.I.Karimov	1991- yil 3-novabr K.Yusupov	1989- yil 1-dekabr A.I.Xudobedriyev
Kurash buyicha Turkiyaning	Maxtumquli Mahmudov	Furqat Mamatov	Dilmurov Mavlonov	Alloyev Odil

Antalya shahrida o'tkazilgan 2 -chi Jahon championatida 73 kg vaznda kim champion bo'lgan?				
Kurash bo'yicha Uzbekiston birinchiligi qachon o'tkazilgan?	1937- yil	1932- yil	1935- yil	1938- yil
Kurash bo'yicha birinchi jahon birinchiligi qayerda bo'lib o'tdi?	Toshkent	Budapesht	Yerevan	Antalya
Kurash bo'yicha ikkinchchi jahon championati qaysi davlatda o'tkazildi?	2000- yil Turkiyada	2001- yil Xitoyda	2003- yil Pekinda	2005- yil Angliyada
Kurash bo'yicha to'rtinchchi jahon championati qaysi davlatda o'tkazildi?	2001- yil Armaniston	2000- yil Turkiya	2003- yil Kirg'iziston	2004- yil Kitoy
Kurash gilamining minimal o'lchami necha metr bo'lishi kerak?	10x10	6x6	8x8	5x5
Kurash zalining harorati doimiy ravishdar.....	+18 - +22 daraja	+26 - +28 daraja	+16 - +18 daraja	+28 - +30 daraja

Bahs-munozara savollari:

1. Milliy kurash va uning turlari O'zbekiston hududlarida qachon paydo bo'lgan va rivojlangan?
2. Hozirgi kunda sport kurashi turlarining paydo bo'lishi va rivojlanishini gapirib bering?
3. O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida milliy kurash qanday mavqega ega?
4. Dzyu-do va sambo kurashining asoschilari kim va bu sport kurashi turlari haqida nimra bilasiz?
5. Yunon-rum va erkin kurash qaysi davlat kurashi hisoblanadi? Ular qanday kurash turlari hisoblanadi?
6. O'zbek milliy kurashining qoidalari kim tomonidan va qachon, qærda ishlab chiqilgan?
7. O'zbek milliy kurashi musobaqasi shartlari, talablarini tushuntirib bering?
8. Musobaqa qatnashchilarining huquqlari, kiyimlari, vazn toifalarini aytib bering?
9. Musobaqa hakamlari hay'ati, ularning vazifalari, huquqlarini aytib bering?
10. O'zbek milliy kurashi bo'yicha birinchi jahon championati qachon va qaerda bo'lgan? Kimlar uning mutloq g'olibli hisoblanadi?
11. Milliy kurash bo'yicha kattalar o'rtasida jahon championati qachon va qaysi mamlakatda o'tkazilgan va uning g'oliblari kimlar?
12. Yoshlar o'rtasida, kurash bo'yicha jahon championati qaysi mamlakatda o'tkazilgan va ularning g'oliblari haqida nimalarini bilasiz?
13. Kurash faxriylari o'rtasida jahon championati qachon va kaysi yillarda o'tkazilgan? Ularning g'oliblari kimlar bo'lgan?
14. Xalqaro Kuraš Assotsiatsiyasi qachon tashkil topgan? Uning Faxriy Prezidenti va Prezidenti etib kim saylangan?
15. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi qachon tuzilgan va uning asosiy vazifalarini aytib bering?

5-Modul

Uyga vazifa berishdan oldin ma'ruza o'qigan o'qituvchi test topshiriqlari va bahs-munozaralari uchun tavsiya etilgan savollarga olingan javoblarning natijalari haqida gapirib, taxminan quyidagilarni aytish, bayon etishi mumkin.

Test topshiriqlari va savollarga berilgan javoblardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ba'zi talabalar mashg'ulotda e'tiborsizlik bilan o'tirganlari sababli ayrim savollarga javob berishga qiyndlilar. Shu sababli bilimlarni to'g'ri o'zlashtirish va o'zlashtirganlar bilimlarini yanada chuqurlashtirishlari uchun, uyd A.R.Kerimovning "Sport kurashi nazariyasi va usuliyati" kitobining (Toshkent, 2001. O'z DJTI nashrif-yot-matbaa bo'limi) 10-23-betlarini; A.R To'yumurodovning "O'zbek miliy kurashi" kitobining (Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990) 5-18- betlarini o'qib quyidagi insert jadvalini to'ldirishlari lozim.

"V"	" "	"+"	"?"
"Ha" O'qiganlarimdan mening bilganimga mos keladigan ma'lumotlar	"maxfiy" o'qiganlarim, bilganlarimga mos kelmaydigan ma'lumotlar	"musbat" o'qiganlarim orasida men uchun yangi bo'lgan ma'lumot	"savol" o'qiganlarimdan tushunarli bo'limganligi bu haqda ko'proq bilishni xohlaganim haqida ma'lumot

O'qituychi talabalarning konspekt daftarlardan insert jadvalini to'ldirganligini va berilgan savollarga javoblarini o'rganib guruh jurnalidagi reyting varaqasiga ballarni qo'yadi.

2-MA'RUA MASHG'ULOTI

Mavzu: Erkin kurash qoidalari.

Mashg'ulotda talabalar oldindan ko'rilgan tayyorgarliklari bo'yicha quyidagi topshiriqlar ustida ish olib boradilar:

1. Har xil kurash turlari, jumladan, erkin kurash turi paydo bo'lishining tarixiy manbalari.
2. Erkin kurash etikasi va uning mazmuni.
3. Erkin kurash bo'yicha musobaqa tashkil etish va ularning o'ziga xos xususiyatlar.
4. Erkin kurash musebaqalarining maqsadi va vazifalari, o'tkazish shartlari.

5. Musobaqa qatnashuvchilarining xulqlari va vazni toifalari.
6. Hakamlar hay'ati to'g'risida tushuncha:

1. Ma'ruba mashg'ulotining texnologik xaritasi

Mavzu: Erkin kurash qoidalari

Vaqti: 2 soat	Talabalar soni 50 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli:	Axborot vizual, ma'ruba, BBB texnologiyasidan foydalangan holda "Aqliy hujum" metodi
Ma'ruba mashg'ulotining rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Erkin kurashning qisqacha tarixi 2. Musobaqa o'tkazish xususiyati. 3. Musobaqa qatnashchilarining yosh guruhlari. 4. Kurashchining vazn toifalari. 5. Tarozidan o'tishi va chek tashlash. 6. Hakamlar hay'ati. 7. Musobaqa qoidalari.

Ma'ruba mashg'ulotining maqsadi: Erkin kurash qoidalari, musobaqa xususiyatlari, ishtirokchilarining yosh xususiyatlari, vazn toifalari, hakamlar hay'ati va musobaqa qoidalari haqida bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lish.

Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyatining natijalari:
<ul style="list-style-type: none"> - erkin kurashning qisqacha tarixini so'zlab berish; -musobaqa o'tkazish usuli va xususiyatini tushuntirish; -talabalarga musobaqa qatnashchilari, dasturi, kurashchining vazn toifalari haqida ma'lumot berish; -ta'lim oluvchilarga tarozidan o'tish, chek tashlash, qatnashchilarining vazifasi va huquqlari bilan tanishtirish; -hakamlar hay'ati, ularning vazifalari, bosh hakam, yordamchi hakam, kotibi haqida talabalarda tushuncha hosil qilish; -musobaqa qoidasi, ya'ni erkin kurashning boshlanishi, davom etishi, natijalari haqida bilim oluvchilarga tushuncha berish. 	<ul style="list-style-type: none"> Talaba: - erkin kurashning paydo bo'lishi, uni olimpiada o'yinlariga kiritilishi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi; -musobaqda ishtiroy etish uslubi, xususiyatlarini bilib oladi; -musobaqa qatnashchilari, musobaqa turi, vazn toifalari haqida ma'lumotlarni bilib oladilar -tarozidan o'tish, o'z haq-huquqlari va vazifalarini bilib oladi, chek tashlashni o'rganadi; -hakamlar hay'ati tarkibi, ularning huquq, burchlari va tarkibini bilib oladi; -musobaqa qoidalarini bilib, ularga rioxqa qilish va natijaning holatini tushunib oladi.
O'qish metodi va texnikasi	Ma'ruba, "Aqliy hujum", vizuallashtrish, muhokama. Texnikalari: test so'rovi, grafik organayzer: B/B/B.
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, slaydlar, o'quv qo'llanmalari, videoproyektor, informatsion ta'minot.
O'qitish shakli	Frontal jamoa bo'lib ishslash, alohida topshiriq ustida ishslash, juftliklarda ishslash.
O'qitish shart-sharoiti	Informatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan auditoriya.

Faoliyat mazmuni

Faoliyat bosqichlari	Pedagogik faoliyati	Talaba faoliyati
1-bosqich tashqiliy qism (5 min)	1.1. Mavzu mazmunini o'rganishning maqsadi, natijani, o'tkazish rejasini e'lqn qiladi.	Eshitadi va yozib oladi
2-bosqich Bilimlarni faollashtirish (15 min)	2.1. Ekranda BBB jadvalini chiqaradi va uni izohlaydi. (1-ilova). Topshiriq beradi: talabalar jadvalni chizib oladi va o'qigan adabiyotlardan o'rgangan ma'lumotlarni ma'ruza matni asosida 2-ustunni to'ldiradi. Talabalarni juftliklarga ajratadi, savol topshiriqlarini tarqatadi va ularga juftliklarda muhokama qilishi hamda javob tayyorlashni tavsiya qiladi: 1. Erkin kurash haqida nimalarni bilasiz? 2. Fikringizcha, ushbu mavzu yuzasidan nimalarni bilih kerak? Bu o'yin texnologiyasini o'tkazadi. BBB jadvalining 3-va 4-ustunini to'ldirish bo'yicha topshiriq beradi.	2.1. Jadvalni chizadi va 2-ustunni to'ldiradi. Juftliklarga bo'linadi va berilgan savollarni muhokama qiladi hamda javoblarni tavsiya qiladi. BBB jadvalining 3- va 4-ustunini to'ldiradi.
3-bosqich Bilimlarni o'zlashtirish (55 min)	3.1. Mavzu bo'yicha ma'ruza matnnini tarqatadi. Vizual materiallardan foydalanib ma'ruza o'qydi. Erkin kurashning qisqacha tarixini so'zlab beradi. Erkin kurash bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini, musobaqa qatnashchilari, dasturi, vazifasi,	3.1. Eshitadi, o'zaro muhokama uyuştiradi: Erkin kurash tarixi, musobaqa tartibi, uni o'tkazish, unda ishtirok qilish qoidalar, hakamlar hay'ati, uning tarkibi

	<p>huquqlari kiyim, vazn toifasi, tarozidan o'tish, chek tashlash, komanda vakili, murabbiy, sekundant va komanda sardorining huquqlari haqida to'liq ma'kumot beradi; hakamlar hay'ati, uning tarkibi va ularning vazifalari, huquqlarini tushuntiradi; kurashning boshlanishi, tugash vaqtisi, davom etish vaqtisi va kurash natijalari haqida tushuncha beradi.</p> <p>3.2. Ma'ruzada o'rgangan bilimlarni mustahkamlash uchun test savollarini tavsiya etadi. Muammoli vaziyat yaratib topshiriqlarni havola qiladi. Testlarni, muammoli savollarini ekranda namoyish etadi. Muhokama bo'yicha yakuniy xulosa chiqaradi.</p> <p>3.3. Topshiriq BBB jadvalining 5-ustunini jamoa bo'lib, yakka tartibda to'ldiring "blits o'yin" o'tkazadi.</p>	<p>to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.</p> <p>3.2 Test savollarini muammoli topshiriqlarini jamoa bo'lib yechadi va javobini asoslaydi.</p> <p>3.3 BBB jadvali 5-ustunini jamoada va juftlikda</p>
--	--	---

		to'ldiradi. "Blits o'yini"da ishtirok etadi.
4-bosqich Yakunlash (5 min)	<p>4.1 Mavzuga oid ma'ruza matni asosida yakun yasaydi. Natijalarini umumlashtiradi. O'r ganilgan ma'lumotlarni kelajak uchun ahamiyatini tushuntirib beradi.</p> <p>4.2 Talabalarning mustaqil ishlarni yo'lga qo'yadi. Buning uchun quyidagi topshiriqlarni e'lon qiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Erkin kurashning boshqa kurash turlaridan farqi va ahamiyatini izohlang. 2. Erkin kurash bo'yicha musobaqa qoidalarni asoslang. 3. Erkin kurashdagi hakamlar hay'ati tarkibi, vaznları, huquqlarini tushuntiring. 	<p>4.1. Eshitadi va kerakli ma'lumotlarni yozib oladi.</p> <p>4.2 Topshiriqlarni yozib oladi va bajaradi.</p>

O'quv materiallarini to'liq o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida "Bilaman. Bilishni xohlaymanman. Bilib oldim" metodlaridan foydalilanildi.

1-ilova B.B.B Jadvali

Mavzu bo'yicha savollar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
2	3	4	5

Jadvalni to'ldirish bo'yicha ko'rsatma.

1. Ma'ruza rejasiga mos holda 2-ustunni to'ldiring.
2. O'ylang, jamoa va juftlikda hal eting, javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilasiz, 3-ustunni to'ldiring.

3. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilish kerak, 4-ustunni to'ldiring

4. Ma'ruzani tinglang.

5. 5-ustunni to'ldiring.

Ma'ruza mashg'ulotining borishi

Vizual materiallardan foydalanib ma'ruza mazmuni talabalar diqqatiga havola etiladi. Ma'ruza rejasining birinchi punkti.

1.Erkin kurashning qisqacha tarixi

Professor F.A. Kerimovning yozishicha, "Erkin kurash tarixining ildizi Qadimgi Yunonistonga borib faqaladi. Ma'lumki, har xil sport turlari bo'yicha kopmeks sinovlar qadimgi yunonlar umumiyl jismoniy tayyorgarligi asosini tashkil qilgan. Erkin usulda kurashish hamma sport turlari katta ahamiyatga ega bo'lgan". Kurashchilar bellashuvlarida, hozirgi qoidalardan farqli o'laroq, raqibni safdan butunlay chiqarib yuborish yoki uni mag'lub bo'lganligiga tan olishga majbur qilish g'alaba mezoni bo'lib xizmat qilgan. Kurashda bunga raqibni bellashuvni davom ettirishdan mahrum qiluvchi samarali usullarni o'tkazish, eramizdan avvalgi VIII asrdan boshlab esa uni tizzada tutishga majbur qilish yo'li bilan erishilgan»²².

Hozirgi kunda erkin kurash muayyan texnik harakatlardan iborat bo'lib, bu harakatlar hujumga o'tish, himoya qilish va qarshi hujumga o'tish harakat turlari bilan tavsiflanadi. Bu kurash turida oyoqdan ham olinadi va oyoq yordamida usullar qo'llaniladi. Bu kurashda ham kurashchining vazifasi raqibni ikkala yelkasini gilamga tegizishdir. Erkin kurashning vatani Angliya hisoblanadi. XVIII asrda Angliyada bu kurash bilan kurashchilar olishib oyoq yordamida usullar qo'llaganlar. XIX asrga kelib Erkin kurash Amerika davlatida professional kurashga aylanib ketdi. Amerikada shu davrga kelib yoshlar tugaraklari tashkil etilib, ko'pgina yoshlar shu erkin kurash bilan shug'ullana boshladilar. 1904-yili Amerikaning Sent-Luiss degan shahrida hozirgi zamон III olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Shunda Amerika birinchi bo'lib erkin kurashni Olimpiada dasturiga kiritdi.

IV Olimpiada o'yini 1906- yili Afina (Gretsiya)da bo'lib o'tdi. Shunda greklar erkin kurashni dasturdan olib tashlab "Greko-rim" kurashini dasturga kirdilar.

²² Kerimov F.A. Kurash tushaman. –Toshkent, "Ibn Sino". 1994. 172 b.

1908-yili bu kurash turi bo'yicha Olimpiada o'yinlari Angliyada bo'lib o'tadi, shunda angliyaliklar erkin kurashni ham dasturga kiritdilar. Shundan beri Olimpiada o'yinlarida kurashning 2 turi o'tkazila boshlandi.

1920-yili Parijda Evropa birinchiligi bo'lib o'tdi. Oxirgi marta Yevropa birinchiligi 1937-yili Germaniyaning Myunxen shaxrida o'tkazildi. 1945-yil Ikkinci jahon urushidan keyin 1964-yili Stokholmda /Shvetsiya/ o'tkazildi, Jahon championati esa 1951-yilda Tokioda o'tkazildi.

Hozirgacha dunyoda Olimpiada o'yinlari, Yevropa birinchiligi, Jahon birinchiligi, Jahon kubogi, Xalqaro turnirlar kabi musobaqa dasturida erkin kurash turi mavjud bo'lib, o'tkazib kelinmoqda.

Erkin kurash bo'yicha o'zbek polyofilar Yevropa championati va Jahon championatlarida ishtirok etib katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Bu haqda biz oldingi ma'ruzalarda gapirib o'tgan edik.

Ma'lumotlarga qaraganda zamonaviy etkini kurashda hujum qilishning xilma-xil usullari mavjud. Bular Jahon xalqaro erkin kurashi qoidalariiga kiritilgan, hozirgi kunda shularning 11 tasi mavjud. Bular raqibni dast ko'tarib aylantirish, o'zi aylanib turib raqibni ham aylantirib ag'darish hamda cho'qqayib o'tirgan holatda raqibga tashlanish, engashib "Sho'ng'ish" holatiga o'tib turib tashlanish, o'zi aylanib turib raqibni o'z kuragiga olib turib oldinga ag'darish, raqibga engashib turib tashlamish, raqibni siltab turib yiqitish, uning qo'llarini burab qayirish yo'li bilan yiqitish va yelkadan oshirib ag'darish va h.k. Quvonarlisi shundaki, Xalqaro kurashning umurniy kurash qoidalari singari erkin kurash qoidalari ham, O'zbekistonlik olim, sport kurashi mutaxassisi Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan va 1991-yilning 14-15-iyunda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston ilmiy konferentsiyasida muhokama qilinib, tasdiqlangan kurash qoidalari asosida olib borildi. Endi shu haqda so'z yuritamiz.

FILA federatsiyasining ish faoliyati.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlariда kurash jahon bo'ylab yoyila boshladi. Jahonning ko'plab mamlakatlarda to'garaklar ochilib yetuk murabbiylar rahbarligida kurash sirlarini o'rgatish yo'lga qo'yildi. 1912-yilda Xalqaro kurash federatsiyasi tuzildi /FILA/ va hozirgi davrgacha u ish olib

bormoqda. 1966-yil Amerikaning Tolida shahrida FILAning "Sambo" kongressida kurash sport kurashining uchinchi turi deb tan olindi. "FILA"ning qonun qoidalariiga rioya qilish (qaysi mamlakat a'zo bo'lsa) xalqaro musobokada (FILA)ning vaqili ishtirok etmasa, bu musobaqa qonuniy deb tan olinmaydi.

"FILA"ning eng katta yig'ini bu kongressdir, u har ikki yilda bir marta o'tkaziladi.

Hozirgi paytda FILAning Prezidenti Yugoslaviyalik Milan Ersigandir.

Musobaqa o'tkazish xususiyatlari va uslublari.

1. Musobaqa o'tkazish xususiyati:

Yunon-rum va erkin kurashlarda musobaqa o'tkazish xususiyati quyidagilarga bo'linadi:

- a) shaxsiy birinchilik;
- b) komanda birinchiligi;
- v) shaxsiy va komanda birinchiligi;
- g) tasnifnomma birinchiligi;

"Shaxsiy birinchilik"da har bir kurashchining o'z vazn og'irligidagi o'rni belgilanadi;

"Komanda birinchiligi"da komandaning olgan o'rni aniqlanadi;

"Shaxsiy va komanda birinchiligi" da kurashchining olgan shaxsiy o'rni ya komandaning olgan o'rni belgilanadi;

"Tasnifnomma birinchiligi"da kurashchilarning o'rni aniqlanmaydi, ular ko'satilgan razryad to'ldirish yoki oldindan to'ldirgan razryadlarni tasdiqlash uchun o'tkaziladi.

2. Musobaqa o'tkazish uslublari:

Musobaqalar quyidagi uslublarda o'tkazilishi mumkin:

- a) yutqazgan chiqib ketish uslubi;
- b) aylanma uslubi, ya'ni bir vaznda 15 kurashchi bo'lsa 14 kishi bilan uchrashadi, agar komandalar orasida ham shunday musobaqa o'tkazilsa komandalar ham bir-biri bilan uchrashadilar;
- v) aralash usuli, ya'ni bunda birinchi davrada yutqazgan chiqib ketish uslubida o'tkaziladi. Keyingi davalarda bu uslubda musobaqalar kamdan-kam o'tkaziladi. Musobaqaning qay tarzda o'tkazish usullari musobaqaning Nizomida ko'rsatiladi.

Musobaqa qatnashchilar.

Kurashchilar tarozidan o'tayotganda qur'a tashlanadi hamda kurashchi birinchi davrada "A" guruhda kurashadilar. Yutqazgan kurashchi "B" guruhga o'tib yana bir marta yutqazmagunicha kurashadi.

Musobaqaning dasturi.

a) hamma musobaqa 3 soat davom etishi kerak;
b) musobaqalar 2 kun davom etishi zarur;
v) har bir kurashchi bir kunda 4 marta olishishdan ziyod kurashmasligi kerak.

1. Kichik yoshdagagi o'quvchi-o'g'il bolalar (13-14 yosh);
- 2.O'rta yoshdagagi o'quvchi- o'smirlar (15 - 16 yosh),
- 3.Katta yoshdagagi o'smirlar (17 - 18 yosh),
- 4.Katta yoshdagagi guruh (20 yoshdan yuqori).

Kattalar guruhi musobaqasiga o'spirin (yuniior)lar qo'yiladi. Agar kattalar musobaqasiga katta yoshdagagi o'smirlar guruhidan 18 yoshga etib, shu musobaqaga tushmoqchi bo'lsa, o'tkazayotgan tashkilotning ruxsati hamda kurashchi texnik va jismonan yaxshi tayyorlangan bo'lishi kerak.

18 yoshga to'lgan katta yoshdagagi o'smirlar guruhi garchi buyurtmaga kiritilgan bo'lsa ham, hakim va murabbiyning tasdiqlangan ma'lumotnomasi bo'lishi kerak. (maxsus tibbiy guruh).

Kurashchilarning vazn toifalari

Nº	O'quvchi o'g'il bolalar	Kadeti: O'rta yoshdagagi o'spirin	Katta yoshdagagi o'spirin	Kattalar
1.	32 kg	38	57	57
2.	35 kg	42	61	61
3.	38	46	65	65
4.	42	50	70	70
5.	47	54	74	74
6.	58	58	86	86
7.	63	63	97	97
8.	69	69	+125 gacha	+125
9.	76	76		
10.	76+	76+		

Tarozidan o'tish va qur'a tashlash.

Kurashchilarning tarozidan o'tishi musobaqa o'tkaziladigan joyga kelgandan 5 soat o'tgandan so'ng boshlanadi. Kurashchilarning tarozidan o'tishi uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Kurash bir necha kun davom etishidan qatiy nazar kurashchilarning tarozidan o'tishi har kuni kechkurun 15:00 dan 20:00 gacha kunlik musobaqa tugagandan so'ng o'tkaziladi. Qatnashuvchilar yalang'och holatda tarozidan o'tishlari kerak.

Kurashchilar tarozidan o'tish davrida musoboqaga kech qolsalar yoki ularning vazn toifalari belgilangandan yuqori bo'lsa, u holda ular musobaqadan chetlashtiriladi va olgan o'rirlari hisoblanmaydi.

Komanda birinchiligi musobaqalarida kurashchi o'zining vazn toifasidan bir vazn yuqori bo'lsa, u kurashishi mumkin. 96-120 kg vazndan yuqori bo'lsa kurashishi mumkin emas. Vazn toifasi 96-120 kg dan yuqori bo'lган kurashchilarga, qachonki kurashchining vazn toifasi 96 kg bo'lган taqdirda ruxsat etiladi.

Izoh: agar kurashchi bir vazn yuqori kurashchi bilan kurashmoqchi bo'lsa, unda u bu to'g'rida musobaqani o'tkazayotgan tashkilot rahbarlari va hakamlar guruhiga xabar berishi kerak. Shundan keyingina bosh hakam yozma ravishda texnik hujjat yurituvchi kotibga ruxsat beradi. Kurashchilarning vazn toifalarini tarozidan o'tkazishga doir boshqa masalalar musobaqaning nizomida ko'rsatiladi.

Qatnashuvchilarning vazifasi va huquqlari.

Qatnashuvchining vazifasi:

- a) musobaqa qatnashuvchisi muşobaqa nizomi, qoidalari, dasturiga qat'iy rioya qilishi kerak. Sochini taralgan, tirnoqlari olingan hamda badaniga har-xil yog'lar surtilmagan bo'lishi kerak;
- b) musobaqa qatnashchisi kurash boshlashidan oldin raqib bilan, kurashdan keyin esa gilam hakami va sekundant bilan qo'l berishib xayrashishi lozim;
- c) kurashchi mabodo kurashni davom ettira olmasa yoki shifokor tomonidan olingan jarohat uchun musobaqadan chetlashtirilgan bo'lsa, u holda 30 minut ichida shifokor taqdim etgan ma'lumotnomani hakamlar hay'atiga topshirishi kerak.

Kurashchilar o'z vazn toifalarini tekshirishlari uchun musobaqaning birinchi, ya'ni tarozidan o'tish kunida tarozilar musobaqa boshanishidan 1 soat oldin tayyorlab qo'yilishi kerak.


Qatnashuvchilar kiyimi.

Kurash qoidasiga muvofiq kurashchilar ko'k yoki yashil yaktak, qizil belbog' va oq rangli ishton kiyishlari shart. Bu holda birinchi kurashchi ko'k yaktakni kiyadi, ikkinchisi esa yashil yaktakni kiyadi. Ranglarning raqamlari: ko'k - 5 3 M, yashil 4-KX.

Kurash kiyimi paxtadan tayyorlangan bo'lishi, yaxshi holatda bo'lishi, mato o'ta qattiq bo'lmasligi shart.

Kurash kiyimining belgilari quyidagicha bo'lishiga ruxsat etildi:

- davlat gerbi (chap ko'krakda, maksimal o'chami 10x10 sm);
- ishlab chiqarilgan savdo belgisi (3x3 sm, yaktakning old pastki qismida);
- yelkadagi belbog' (25 sm dan ko'p bo'lmasligi, 5 sm eniga);
- tikishlar (25x25 sm, orqa tarafda ruxsat beriladi, sportchining familiyasini joylashtirish mumkin). Yaktakning uzunligi tizzadan 10-15 sm balandda bo'lishi kerak. Yaktak ustidan bel atrofida ikki marta o'rab bog'langan belbog'ning tugundan uchigacha bo'lgan qismi 20 smdan kam bo'lmasligi, yaktak yenglarining uzunligi ko'pi bilan qo'l tirsagidan 20-25 sm pastda bo'lishi, qo'l va yeng orasi 5 sm bo'lishi, ishton uzunligi oyoq to'pig'igacha bo'lishi, oyoq va ishton orasidagi bo'shilq butun uzunligi bo'yicha 10-15 sm, belbog' 4-5 sm eniga, rangi qizil bo'lishi kerak. Yaktak kiyish va belbog'ni bog'lash tartibi 9-rasmda ko'rsatilgan.



9-rasm: Kurashchilar kiyimi

Jamoa vakili, murabbiy va jamoa sardorining huquqlari.

Musobaqa davrida mehmonxonada, jamoat joylarida va boshqa joylarda kurashchilarning tartib intizomi uchun yuqorida ko'satilgan komanda vakillari javob berishadi. Komanda vakillari hakamlar yig'ilishida kurashchilarni kurashga tushishlari uchun chek tashlash va yozma ravishda rozilik yoki norozilik bildirishga haqlari bor. Kurash tugagandan keyin ular 30 minut ichida yozma ravishda hakamlar hay'atiga norozilik bildirishi mumkin.

Komanda vakillari:

- hakamlar ishiga va shu musobaqani o'tkazayotgan tashkilot ishlariga aralashishga haqlari yo'q;
- o'z vazifasini bajarmagani uchun komanda vakili, murabbiy va komanda sardori rahbarlik qilishdan chetlashtiriladi va bu haqda yuborgan tashkilotiga yozma ravishda ma'lum qilinadi;
- komanda vakili, murabbiy va sekundantlar shu muşobaqaning hakamlik ishiga qo'yilmaydilar;
- kurash davom etayotgan paytda kurashchiga ko'sratmalar berish qat'iy man etiladi;
- kurashchining yonida murabbiy, sekundant yoki massajchi (sport uqalovchisi) bo'lishi kerak.

Hakamlar hay'ati

Hakamlar hay'ati quydagilarni amalga oshiradilar:

- musobaqani o'tkazish hakamlar hay'atining tarkibini va kurash uyushmasini müsobaqa o'tkazish sport tashkiloti tasdiqlaydi;
- hakamlar hay'ati tarkibiga quydagilar kiradi:
 - bosh hakam, yordamchi hakam, bosh kotib (kotiba), gilam rahbari, kurash hakami (arbitr), vaqt o'ichovchi (sekundametrish), texnik kotib, axborotchi (informator), vrach va musobaqa komendanti.

-hakamlar (gilamdag'i birinchi juftlikda kurash tushayotgan kurashchilarni 3 kishidan iborat hakamlar guruhi baholashadi: kurash hakami, yon tomondagi hakam va stolda o'tirgan gilam rahbari.

-kurashning natijalarini texnik kotib va vaqtning natijasini o'ichovchi hakam olib boradi.

Izoh: gilamda bir juft kurashchilar, kurashayotgan paytda, kurash hakamlarining bo'lishlari man etiladi. Xalqaro musobaqalarda bosh hakam va uning yordamchisi Xalqaro toifadagi

hakam bo'lishi talab qilinadi. Respublika musobaqalarida esa jumhuriyat toifasidagi hakam bo'lishi mumkin.

Bosh hakam:

- bosh hakam musobaqaning o'tkazilishi uchun, o'tkazilayotgan tashkilot va kurash uyushmasi (Federatsiya) oldida javob beradi;
- musobaqa o'tkazadigan joyini ko'rib, uning yaroqli yoki yaroqsiz ekanligi uchun akt tuzishi kerak;
- juft kurashchilar tarkibini tekshirib va uni tasdiqlashi kerak;
- ikkita gilamda musobaqa o'tayotgan bo'lsa har ikkita gilam uchun hakamlarni teng ikkiga bo'lishi kerak. Bularning ichida gilamda rahbarlik qila oladiganlar ham teng ikkiga bo'linadilar;
- arizalar tushsa o'z vaqtida kurashning ikkinchi davrasini boshlangunga qadar qaror chiqarishi lozim;
- kuraşhning birinchi kuni - tugagandan keyin hakamlar guruhining yig'ilishini o'tkazib birinchi kun musobaqasining yakunini baholashi lozim;
- musobaqa tugagandan keyin bosh hakam va yordamchi hakamning imzosi bilan hujjatlarni musobaqa o'tkazayotgan tashkilotga uch kun ichida topshirishi kerak;
- musobaqa o'tkazadigan joy tayyor bo'lmasa va gigiyenik talablarga javob bermasa bosh hakam mušobaqani to'xtatishga haqqi bor;
- ob-havo sharejtlari va biron bir boshqa sabablarga ko'ra bosh hakam musobaqani vaqtincha to'xtatib, keyin davom ettirishga, dasturga o'zgartirishlar kiritishga haqqi bor;
- musobaqa davomida hakamlarni almashtirishga haqqi bor;
- musobaqa davomida qo'spol xatolikka yo'lli qo'yilgan yoki o'zining vazifasini uddasidan chiqal olmagan hakamni musobaqadan chetlashtirib hakamlar hay'atiga ya kurash uyushmasiga (Federatsiya) xabar berishi kerak;
- musobaqa davomida tartib intizomni buzgan, texnik jixatdan yaxshi tayyorlanmagan kurashchi, o'zbek sportchinining sha'tniga salbiy je ta'sir ko'rsatgani uchun kurash musobaqasidan chetlashtiriladi;
- murabbiy, komanda sardori va komanda vakilini ham musobaqadan chetlashtirishga haqqi bor.

Izoh: **Musobaqa o'tkazayotgan tashkilot** tomonidan ishlab chiqilgan musobaqa nizomiga bosh hakam o'zgartirishlar kiritishga haqqi yo'q.

Bosh hakam yordamchisi

Yordamchi shakam ham xuddi bosh hakamdek singari musobaqani yaxshi o'tishi uchun javob beradi. Bosh hakam yo'g'ida uning vazifasini bajarib turadi.

Bosh kotib

Bosh hakamning ruxsati bilan musobaqa to'g'risidagi axborotni og'zaki tarzda komanda vakillari va ommaviy axborot vakillariga berishi mumkin.

Gilamdag'i boshqaruvchi hakam

Gilamda bo'layotgan kurash musobaqasi qoidasiga asosan javob beradi. Boshqa hakamlarning vazifalari:

Kurash hakami. Og'zaki gapirish kerak.

Yon tomondagi hakam. Og'zaki gapirish kerak.

Texnik kotib (hujjat yurituvchi texnik). Og'zaki gapirish kerak.

Vaqt o'lchovchisi. Og'zaki gapirish kerak.

Axborotchi. Og'zaki gapirish kerak.

Musobaqa o'tkazadigan joyning javobgar shaxsi (komendant). Og'zaki gapirishi kerak.

Musobaqa shifokori (hakim).

-shifokor (hakim) hakamlar hay'atining guruhiiga kirib musobaqani o'tkazishda shifokorlik nazoratini oshiradi;

-musobaqa hujjatini (buyurtmani) tekshiradi;

-kurashchilar har kuni tarozidan vazn toifalarini tekshirayotgan paytda ularni kuzatib borishi lozim;

Kurashning boshlanishi va tugash vaqt.

a) bir kurashchi gilamning qizil burchagida, ikkinchi kurashchi esa gilamning ko'k burchagida turishadi. Kurash boshlashdan oldin raqib va gilamdag'i hakam bilan ko'rshiladi, kurash tugagandan keyin raqib bilan hamda raqibning murabbiyi va sekundanti bilan qo'l berib xayrlashishi kerak.

b) kurashga chiqmagan kurashchi musobaqadan chetlashtiriladi va unga o'rin belgilanmaydi. Gilamga chaqirganda kurashchilarga 3 minut vaqt beriladi, bu faqatgina musobaqaning birinchi davrasiga taalluqli. Musobaqaning ikkinchi davrasida qisqa-

qisqa 30 sekund oraliq tanaffus bilan chaqiriladi. Uchinchi chaqirilganda esa kurashchi gilang'a chiqmasa, u musobaqadan umuman chetlashtiriladi va unga o'rinn belgilanmaydi; *o'stosh*.
v) har bir uchrashuvdan keyin to 2-uchrashuv boshlangunga qadar kurashchilar 30 minut dam olib keyingi uchrashuvga chiqishi lozim.

Kurashning davom etish vaqtini

- o'quvchi o'g'il bolalar uchun 4 minut dam olishsiz;
- katta yoshdag'i o'smirlar va kattalar uchun 5 minut dam olishsiz;
- qo'shimcha vaqt 3 minutdan oshmasligi kerak.
- Agar kurash davomida birorta kurashchi jarohat olsa yoki sport kiyimi talabga javob bermasa hamma vaqtning jamg'artmasi 2 minutdan oshmasligi kerak.

Ma'lumot beruvchi qancha vaqt o'tganligini har 30 sekundda e'lon qilib borishi lozim. Agar shu 2 minutning ichida kurashchi kurashni davom ettira olmasa, unga musobaqaning shu davrasida mag'lubiyat yoziladi.

Kurash natijalari

- Kurash natijalari quyidagicha bo'lishi mumkin:
 - a) sof g'alaba;
 - b) harakat usullarining ustunlik darajasi asosidagi g'ataba;
 - d) ballar hisobidagi g'alaba;
 - e) kurashchining faoliiksiz harakati uchun musobaqadan mahrum etish g'alabasi;
 - f) kurashchining qo'pol ravishda musobaqa qoidalarini buzganligi uchun musobaqadan mahrum etish;
 - g) ikkala kurashchining qo'pol ravishda musobaqa qoidalarini buzganligi uchun musobaqadan mahrum etish;

Ma'ruza tugagach talabalar guruhlarga b'o'llinadilar va B.B.B jadvalining 3,4,5 ustunini to'ldiradilar hamda javoblarni muhokama qildilar.

Muhokama va diqqatni jamlash hamda fikrlarni umumlashtirish uchun talabalarga quyidagi muammolli savollar berailladi:

1. Erkin kurash qanday kurash, u sport kurashining boshqa turlaridan farqlanadimi?
2. Hujumga o'tish, himoya qilish, qayta hujumga o'tish qaysi turdag'i sport kurashiga xos usul?

3. Erkin kurash turini dastlab qaysi mamlakatlar tan olgan va unga qanday munosabatda bo'lishgan?
 4. Erkin kurash musoboqa qoidalari haqida so'zlab bering.
 5. Erkin kurash musoboqasi qatnashchilarining kiyimlari haqida nimalarni bilasiz?
 6. Komanda sardori, vakili, murabbiyning huquqlari haqida nimalarni ayta olasiz?
 7. Hakamlar hayati, uning tarkibi va ularning vazifalarini huquqlarini gapirib bering.
 8. Musoboqa shifokorining vakolati doirasiga kiradigan vazifalarni tushuntiring?
 9. Qora kostyum va shim, qora paypoqlar, oq ko'yak va qora galstuk kim uchun mo'ljallangan?
 10. Erkin kurash qoidalari bilan milliy kurash musoboqalari qoidalari o'rtaсидиги farq va birliklarni izohlang?
- Talabalar maruzadan so'nggi bahs-munozaralarda ishtirok etish va B.B.B jadvalining 3,4,5 ustunini to'ldirish uchun juftliklarni tashkil qiladilar.

Juftliklarda ishlash qoidalari

- juftlikda o'zaro hurmat, hamfikirlilik, qo'llab quvvatlash, do'stining fikrini qadrlash;
- berilgan topshiriqni hamkorlikda, ma'suliyat va faol ishlash asosida bajarish;
- muammo tug'ilganda o'qituvchiga murojaat qilish;
- boshqa juftliklarga yordam kerak bo'lsa ko'mak berishlari mumkin;
- har bir juftlik baholash jarayonida ishtirok etish va o'z fikr mulohazasini bildirishi mumkin.

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmash kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008.
2. Atoyev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. – T: O'z DJTI nashriyoti-matbaa bo'limi, 2005.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti –T: O'z DJTI nashriyoti-matbaa bo'limi, 2005.
4. To'yumurodov A.R. O'zbek milliy kurashi. –T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990.

5. Tursunov J. Kurashchilar haqida // "Sog'jom avlod uchun" jurnali, 1996, 5-6 sonlar.

6. O'zbek kurashi dovrug'i: — T.: "Abu Ali Ibn Sino", 2002.

7. Yusupov K. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa uyi, 2005.

Yuqoridaq adabiyotlardan foydalaniib, talabalar "Erkin kurash qoidalari" yuzasidan juftliklar o'zaro hamkorlikda dastlab "Bilaman" ustunini to'ldirishadi. Sinf taxtasi (doskasi)ga chizilgan jadvaldagi uchinchi ustunga barcha juftliklarning javoblari umumlashtirilgan holda shu ustunda jamlanib, so'ngra tasviya etilgan adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida o'zaro fikrashib, "Bilishni xohlayman" ustunini to'ldiradilar. So'ngra talabalar "Erkin kurash qoidalari" bo'yicha tuzilgan ma'ruba matri, K. Yusupovning "Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi" kitobidagi kurash qoidalariiga, oid ma'lumotlar bilan tanishib chiqadilar va o'zları bilishni xohlagan savollarni 2-ustunga yozib chiqadilar hamda javoblarni 5-ustunga joylashtiradilar. (3.2.1-jadvalga qarang)

3.2.1-jadval

"Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" texnologiyasi

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1. Erkin kurash dastlab Yunoniston, keyin Angliya va AQShda paydo bo'lgan.	1. Erkin kurashda qo'llaniladigan texnik harakatlarga nimalar kiradi?	1. Erkin kurashning raqibning kuragini yerga tegizishdir. Texnik harakatlarga: hujumga o'tish, himoya, qilish va qarshi hujumga o'tish kiradi.
2. Erkin kurash musobaqalarining maqsad va vazifalari	2. Erkin kurashining o'zi qanday sport kurashi? U qanday qoidalarga amal qiladi?	2. Erkin kurash milliy kurash sirasiga kirib. U sambo, dzyu-do, kurash qoidalariiga amal qiladi,
3. Olimpiya o'yinlarida birinchi Erkin kurash kiritilgan vagti.	3. Erkin kurash bo'yicha ilgari ham musobaqalar	3. Erkin kurash bo'yicha Buxorolik Ismoil Turob 1957-yilda Tbilisi shahrida o'tkazilgan
4. VII OLIMPIYA o'yinlari 1920 yilda bo'lib o'tgan va ushbu Olimpiya o'yinlarining turiga Erkin kurash musobaqasi kiritilgan.	4. Erkin kurash bo'yicha o'tkazilgan musobaqa xususiyatlari va uslublari nimalardan iborat?	musobaqada g'olib bo'lgan. 1958-1969 yillar erkin kurash
5. Hozirgi O'zbekiston mamlakati hududida ikki kurash turi kiritilgan,		

<p>bular raqib belbog'ini oldindan olish va raqibni erkin ushlab oltish. Birinchisi "Belbog'li" kurash, ikkinchisi "Milliy" kurash deb atalgan. Ular hozir ham O'zbekiston hududlarida keng tarqalgan.</p>
<p>6. O'zbekiston kurashchilar xalqaro maydonda katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Ayniqsa, A.Fayziyev, M.Haydarov, E.Abduramонов, E.Yusupov, A.Qayimovich, R.Islamov va boshqalar katta yutuqlarga kiritib, ayrimlari championlikka erishganlar.</p>
<p>7. Hakamlar hay'ati kurash federatsiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Ular bosh hakam, uning yordamchisi, kotiblar, hakamlar, komendant kurash musobaqasini olib boradilar.</p>
<p>8. Musobaqa qatnashchilari bilan jamaoa rahbarlari, murabbiylar, boshliqlar ham ishtirok etadilar.</p>
<p>9. Musobaqada hakamlar kurashda "ta'zim", "kurash", "HALOL", "yonbosh", "chala", "to'xta", "tanbeh", "dakki", "g'irrom", "bekor", "teng", "vaqt"</p>
<p>5. "FILA" nima va u qachon tuzilgan?</p>
<p>6. Kurashchilarning vazn toifalari nimalarga asoslab belgilanadi?</p>
<p>7. Erkin kurash musobaqasi o'z mazmuniga nimalarni qamrab oladi?</p>
<p>8. Musobaqa qatnashchilarining vazifalari va huquqlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishni istardik.</p>
<p>9. 14-15-iyun 1991-yilda tasdiqlangan va Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro kurash qoidalari, avvalgi qoidalardan qanday farqlanadi?</p>
<p>10. Musobaqalarda kurashchilardan talab qilinadigan qoidalar haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishni.</p>
<p>11. Musobaqa o'tkazish tartibi qanday va kim tomonidan belgilanishini to'g'risida?</p>
<p>12. Hakamlar hay'ati, kurash ishtirokchilarini kiyimlari va kurash gilami qanday bo'lishi kerak va u kim tomonidan belgilanishini.</p>
<p>bo'yicha O'zbekiston championi.</p>
<p>4. Erkin kurash bo'yicha o'tkaziladigan musobaqa shaxsiy birinchilik, jamaoa birinchiligi, shaxsiy va jamaoa harnda tafsifnomalarini birinchiliginib uslublari: yutqazgan chiqib ketadi, aylanma, aralash.</p>
<p>5. FILA xalqaro kurash federatsiyasi, u 1912 yilda tuzilgan.</p>
<p>6. Kurashchilarning vazn toifalari, yoshi va jinsiga asoslanib bellashadilar.</p>
<p>7. Erkin kurash dasturiga musobaqa vaqtining davomiyli, kunlar, kurashchining bir kundagi ishtiroki va kurashchilarning toifalari, yoshlari kiritiladi.</p>
<p>8. Kurash ishtirokchilari musobaqa nizomi, qoidalari, dasturini bilishi lozimligini, sochi taralgan, tirnoqlari olingan, raqibi, gilam hakami, sekundnomer bilan qo'l berib xayrlashish, agar kurashni davom ettira olmasa shifokorga murojaat qilish, tarozidan o'tishini.</p>
<p>9. K.Yusupov</p>

kabi ishlatadilar.	iboralarni	tomonidan ishlab chiqilgan va 14-15-iyun
10. Kurash bo'yicha musobaqa K. YUsupov tomonidan ishlab chiqilgan "Xalqaro kurash qoidalari" asosida olib boriladi.	10. Kurash bo'yicha musobaqa K. YUsupov tomonidan ishlab chiqilgan "Xalqaro kurash qoidalari" asosida olib boriladi.	1991-yilda muho kamadan o'tkazilib, tasdiqlangan kurash assotsiyasi qoidalari, talablar asosiga mos keladi va u asosan milliy kurash qidalarini tafsiflaydi.
11. Musobaqalar olimpiya turi bo'yicha o'tkaziladi. Polvonlar A va B guruhi darga bo'linadilar. A guruha juft raqamalar, B guruha toq raqamlar kiritiladi. Bular XKA tomonidan belgilanadi.	11. Musobaqalar olimpiya turi bo'yicha o'tkaziladi. Polvonlar A va B guruhi darga bo'linadilar. A guruha juft raqamalar, B guruha toq raqamlar kiritiladi. Bular XKA tomonidan belgilanadi.	10. Kurashchilarning yosh vazn toifalari xalqaro kurash assotsiyasi qabul qilgan tartib asosida belgilanadi.
Kurashchilar o'z huquqlarini, ularning musobaqalarda ishtirok etishlari uchun musobaqa nizomini bili shlari lozim.	Kurashchilar o'z huquqlarini, ularning musobaqalarda ishtirok etishlari uchun musobaqa nizomini bili shlari lozim.	11. Musobaqalar olimpiya turi bo'yicha o'tkaziladi. Polvonlar A va B guruhi darga bo'linadilar. A guruha juft raqamalar, B guruha toq raqamlar kiritiladi. Bular XKA tomonidan belgilanadi.
12. Hakamlar hay'ati, kurash ishtirokchilarining kiyimlari, kurash gilamining, o'Ichami, kurash musobaqasi uchun kerak bo'lgan asbob-uskunalar xalqaro qoidalarga asosan ishlab chiqiladi va qo'llaniladi.	12. Hakamlar hay'ati, kurash ishtirokchilarining kiyimlari, kurash gilamining, o'Ichami, kurash musobaqasi uchun kerak bo'lgan asbob-uskunalar xalqaro qoidalarga asosan ishlab chiqiladi va qo'llaniladi.	12. Hakamlar hay'ati, kurash ishtirokchilarining kiyimlari, kurash gilamining, o'Ichami, kurash musobaqasi uchun kerak bo'lgan asbob-uskunalar xalqaro qoidalarga asosan ishlab chiqiladi va qo'llaniladi.

Shunday qilib, "Erkin kurash qoidalari" mavzusi bo'yicha o'tkazilgan ma'ruba yakunlanadi, o'qituvchi faol qatnashgan juftliklarni rag'batlantiradi. Baho asosli bo'lishi lozim, bu talabalarning mustaqil ishlashi, mustaqil va ijodiy fikrashi uchun lozim.

Uyga vazifa. Tavsiya etilgan adbiyotlarni o'qib ma'ruzani to'ldiring. Referat yozing: Mavzu: "Erkin kurashning O'zbekistonda rivojlanishi".

2.2. AMALIY MASHG'ULOTLARDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH

"O'zbek kurashi turlari va uni o'qitish metodikasi" fanidan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar mazkur fandan o'zlashtirgan nazariy ma'lumotlarni, bilimlarni mustahkamlash, takomillashtirish hamda ko'nikma, malakalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladi.

Amally mashg'ulotlar mashqlar, amaliy qo'l ishlari, mustaqil topshirijlar, o'yinli mashqlar, pedagogik vazifalar, seminarlar, munozaralar, treninglar, annotatsiyalar tuzish, adabiylotlarni konseptlashtirish, jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish, referatlar yozish namunaga qarab mashqlarni ijro etish, ko'rsatmalarni bajarish kabilardan iborat.

Shuning uchun amaliy mashg'ulotlarga nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llashda quyidagi ko'rsatmalar beriladi.

- mavzu yuzasidan nazariy ma'lumotlarni chuqur o'rganib chiqish;

- tavsiya etilgan adabiylotlarni ko'rsatmalar asosida diqqat bilan o'qib chiqish;

- manbalarda ko'rsatilgan qonunlarning to'g'riliqi, ishonchlilagini aniqlash;

- tavsiya etilgan ma'lumotlarni taqoslash, muhimlarini ajratish, umumlashtirish;

- o'rganilgan materiallarni kuzatish va tajribadan o'tkazish, qo'llash va h.k.

Amaliy mashg'ulotlarda o'qitishning faol metodlaridan unumli foydalanishi maqsadga erishishni osonlashtiradi. Olingan bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylantirishni tezlashtiradi. Shu sabab qo'llaniladigan metodlar o'quv materiallarini aniq takrorlashga, esda saqlashga, to'g'ri bajarishga qaratilgan bo'lmos'hish lozim.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari

1-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar.

Mashg'ulotning maqsadi: umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar to'g'risida talabalarga ma'lumotlar berish, kurashchining umumjismoniy tayyorgarligini ta'minlash va harakatlantriruvchi jismoniy sifatlarni rivojlantirishni, talabalarda milliy iftixon va g'ururni shakllantirish, tafakkur va irodani mustahkamlash.

Mashg'ulot jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

1. Milliy kurashning xususiyatlari va kurashchining individual qobiliyatining rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarligi haqida ma'lumot berish.
2. Talabalarning mavzu mazmunini mukammal o'zlashtirishlariga erishish.
3. Umumrivojlantiruvchi mashqlar - kuch, tezlik, chaqqonlik, cho'ziluvchanlik, egiluvchanliklarni amalda bajarishni o'rgatadi.
4. Kurashchining jismoniy tayyorgarligini ta'minlovchi vositalar va metodlarni tushuntirish.
5. Kurashchining jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullantrish.

Mashg'ulot jihози: ma'ruza matni; mashqlar tasvirlangan plakatlar, adabiyotlar: A.Q.Atoyev. Kurash -T.: O'qituvchi, 1987; 95-125-betlar; Kerimov F.A. Sport 'kurashi' nazariyasи va usuliyati -T: 2005; 90-108-betlar;

Mashg'ulot jarayonidagi qo'llanuvchi interfaol metodlar: suhbat, savol-javob, 5x5x5 hamda "Keys stadi" metodi.

Mashg'ulot shakli: seminar-amaliy.

Ajratilgan vaqt: 4 soat.

O'tkaziladigan joy: - amaliy mashg'ulot xonasi.

Mashg'ulotning rejisi:

1. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar va maxsus jismoniy tayyorgarlik.
2. Kuch va uni rivojlantirish.
3. Chaqqonlik, egiluvchanlikni rivojlantirish.
4. Maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari va metodlari.

Tajribaning ko'rsatishiga talabalarning mashg'ulotlarda faolliklarini oshirish, mustaqil ishlash va mustaqil fikr oshirishlarida "Keys stadi" metodidan foydalanish samarali bo'ladi. Zero, "Keys

stadi” yoki vaziyatni oddiy tafsilotdan farqli o’laroq, o’quv materialarini o’zlashtirish uchun ko’maklashtiruvchi axborotni o’z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning yechim yo’llarini izlash orqali erishifladi”.

Mashg’ulotlar “Keys stadi” metodi bo'yicha tashkil qilinganda talabalarda fikrlash, mulohaza yuritish, voqealarni taqqoslash, tezkor xulosalar chiqarish rivojlanadi. Bu mashg’ulot quyidagicha:

Mavzu: “Umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqolar.

Mashg’ulotning tekhnologik xaritasi.

Ish voqealari	Faoliyat mavmuni		
	Pedagogik faoliyat	Talaba faoliyati	
1	2	3	
Tayyorlov bosqichi (5 daqiqa)	Talabalarni mavzular rejasini bilan va keys savollari, vazifalarini ma'lum qilish, topshiriqlarni tarqatish,	Tinglashdilar, mavzu va rejani yozib oladilar, keys materialash va topshirish bilan tanishdilar.	
1-bosqich kirish (10 daqiqa)	1.1 Mavzu bo'yicha matnni tarqatadi va mavzuning maqsad va vazifalarini yoritadi, o'quv natijalari bilan tanishtiradi. 1.2 Ishlash lozim bo'lgan keysning pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini tushuntiradi. 1.3 Talabalarni guruhlarga ajratadi va guruhlar uchun topshiriqlarni tarqatadi. 1.4 Amaliy mashg’ulotning ish tartibini, baholarni va uning reyting darajalari hamda mezonlarini tushuntiradi.	Matn bilan tanishadilar, maqsad vazifalarini eshitadilar, savollar beradilar, reyting ballari va baho mezonlarini bilib oladilar.	
2-bosqich asosiy qism (65 daqiqa)	2.1 Mavzu yuzasidan talabafarning fikrlarini eshitadi. 2.2 Talabalar diqqatini bayon etilayotgan fikrlarga qaratib mavzu bo'yicha ma'lumotlardan zarurini ajratishga yo'llaydi. 2.3 Berilgan topshiriqlarni avval Topshiriqlarni	Mavzu bo'yicha fikrlarini bayon qiladi. Eshitadi va tushunmaganlarni aniqlaydi. Topshiriqlarni	

	<p>yakka tartibda, so'ngra guruhda bo'linishini kuzatadi.</p> <p>2.4 Topshiriq bo'yicha taqdimot tayyorlashni elon qiladi.</p> <p>2.5 Taqdimotda "Yakka baho", "Guruh bahosi"ni belgilab, natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>2.6 Taqdimotdan so'ng savol-javob va babs munozara o'tkazadi.</p> <p>2.7 Yakka va guruh xatolari bo'yicha tushuncha beradi va baholarni e'lon qiladi.</p>	<p>yakka holda, so'ngra guruhlarga bajaradi.</p> <p>Topshiriqlar bo'yicha taqdimotlarni guruhda tayyorlaydi va tahsil qiladi.</p> <p>Echim variantlarini qog'ozlarda qayd qiladi. Savollarga javob beradi, guruhlarda javoblarini tahsil qiladi.</p> <p>Taqdimot baholarni eshitadi va o'z fikrini bayon qiladi.</p>
3-bosqich yakunlash, tahsil va baholash (15 daqiqa)	<p>3.1 Berilgan javoblarni, ilgari surilgan fikrlarni tahsil qiladi va umumlashtiradi.</p> <p>3.2 Guruhlarning har bir talabalarini faoliyati alohida baholaydi.</p> <p>3.3 Talabalarni keys yechishda qiyinchilikka uchraganlarni, bundan so'ng nimalarga e'tibor berishlari, qaysi yo'nalishga ma'lumotlarni oshirish lozimligini, qanday adabiyotlarni o'qishni maslahat beradi.</p>	<p>Eshitadi, fikr bildiradi, mulohazalarni bayon qiladi.</p> <p>Kamchiliklarni ish daftariga yozib oladi.</p>

Mashg'ulotlarning axborotli-metodik ta'minoti

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori -T.: "Sharq" nashriyoti matbaa kontserni, 1997, 3-19-bet.
2. Atoyev A.Q. Kurash, -O'smir va yoshiarni kurashga o'rnatishning metod va vositalari. -T.: O'qituvchi, 1987. 95-124-betlar.

3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -T: 2005.
90-108-betlar.

4. To'ymurodov A.R. O'zbek milliy kurashi. -T: "Ibn Sino"
nomidagi nashriyot, 1990. 44-104-betlar.

5. Arslonov Q.P. Kurash. (ma'ruzalar matni). – Buxoro, 2011.

Mashg'ulotning borishi:

I 5x5x5 metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirish. Guruh talabalari 5 nafardan 5 ta guruhga bo'linadilar. Mavzuning umumiy matni 5 qismga bo'linib, har bir qism bir guruhga beriladi va guruhlarda o'rganib chiqish vazifasi topshiriladi.

Topshiriqlar:

I. Guruhda mavzu matnining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi haqida tushuncha.

2-guruhga - kurashchining jismoniy tayyorgarligi vositalari va metodlari.

3-guruhga - kurashchilarda kuch, tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish.

4-guruhga - chidamlilik va uni rivojlantirish mashqlari.

5-guruhga - cho'ziluvchanlik va egiluvchanlikni rivojlantirish.

Mavzu matni guruhlarda muhokama qilingandan so'ng guruhlarga topshiriqlar ajratiladi. Masalan, birinchi guruhni topshirig'i ikkinchi guruhga, ikkinching topshirig'i uchinchisiga va h.k. shunday qilib topshiriqlar ketma-ketlikda besh marta almashtiriladi. Har bir almashinish jarayonida guruhlar tarkibi ham o'zgartirilib har bir guruhda oldingi guruhnинг bir a'zosi qoladi va u oldingi guruhnинг o'zlashtirgan ma'lumotlarni qolgan o'quvchilarga so'zlab beradi. Shu tarzda mavzu mazmuni barcha o'quvchilar tomonidan berilgan topshiriqlar asosida o'zlashtiriladi.

II. Guruhlarning topshiriqlariga bergen taqdimotlari taxminan quyidagi mazmunga ega.

1- guruhnинг taqdimoti.

A) kurashchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi haqida tushuncha. Kurashishdan asosiy maqsad o'z raqibining kuragini yerga tekkizishdir.

Buning uchun kurashchi muayyan tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Bu tayyorgarlik kurashchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi, texnik tayyorgarligi, taktik tayyorgarligi va ruhiy tayyorgarligidan iborat.

Bu tayyorgarliklar mazmunida kurashchining jismoniy tayyorgarligi muhim hisoblanib, u kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Manbalarda qayd qilinishicha, jismoniy tayyorgarlik sportning barcha turlari uchun muhim bo'lib, u umumiy va maxsus tayyorgarlikka bo'linadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik snaryadlarda va snaryadlar bilan bajariladigan mashqlar, sherik bilan maxsus trenajorlarda bajariladigan mashqlar, Shuningdek: akrabatika, yengil atletika, sport o'yinlari, suzish va boshqa sport turlaridan olingan umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan iborat.

Kurashchining maxsus jismoniy tayyorgarligi harakatlanish sifatlaridan iborat bo'lib, kurashchilarning musobaqa jarayonida kerak bo'lgan kuchlarini rivojlantirishga qaratiladi.

Kurashchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligi asosan kurash gilamida o'tkaziladigan harakat malakalari tarkibidagi eng muhim harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikni asosiy vositalari sifatida musobaqa jarayonida qo'llaniladigan mashqlar kiradi. Bunday murakkablashtirilgan mashqlar kurashchi organizmiga bo'lgan ta'sirni kuchaytiradi. Masalan, og'ir vazn toifasidagi sherigini tanlash, sheriklarini almashtirgan holda o'quv mashq bellashuvlari bajariladi. Bu barcha mashqlar kuch ta'minotining u yoki bu mexanizmlarini rivojlantirish imkonini ta'minlaydi va kurashchining mashqlanganligiga yaxlit holda ta'sir ko'rsatadi hamda bir vaqtning o'zida uning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini ta'minlaydi.


Jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Mashg'ulot jarayonida ko'rsatilgan jismoniy tayyorgarlik turlariga to'liq rioya qilish juda muhimdir. Uning son jihatdan ifodasi doimiy o'lcham hisoblanmaydi, balki kurashchilar malakasi, ularning alohida xususiyatlari, mashg'ulot jarayoni davrida va organizmnning shu paytdagi holatiga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Shunday qilib, milliy kurash mashg'ulotlarida o'qituvchi jismoniy (umumiy va mahsus) tayyorgarlikka doir mashg'ulot yuklamasini to'g'ri rejalashtirish hamda ularning hajmi va tezligini o'zarboq lab olib borishi lozim. Buning uchun o'qituvchi jismoniy tarbiya vositalari va metodlaridan xabardor, ularni qo'llash yo'llarini mukammal egallagan bo'lishi kerak.


2-guruhnning taqdimoti.

1. Kurashchi jismoniy tayyorgarligining vositalari va metodlari. Kurashchinining har tomonlama rivojlanishiga, maxsus sifatlarining takomillashishiga, kurashchining boshqa faoliyatga o'tishiga hamda jismoniy tayyorgarlikning ko'nikma va malakalarini egallashlariga yordam beradi.

1-rasm (Izoh. Rasmilar A.Atoyevning "Kurash" (O'smirlar va yoshlarni kurashga o'rnatishning metod va vositalari. -T.: O'qituvchi, 1987. Kitobidan olindi)



Maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari.




2-rasm.Just tushadigan umbaloq oshish mashqlari.

Bu rasmda tortib o'tkazish, itarib o'tkazish va ushlashish elementlari bo'lgan yakkama-yakka olishuv mashqlarini amalga oshirish texnikasi tasvirlangan. Bunda kurashchi dastlab qo'llari bilan manevr qilib, bir qo'lli bilan shergining bir qo'lli panjasidan ushlab oltsh (2- a rasm). Qo'llari bilan xuddi shunday manevr qilib, ikkala qo'lli bilan shergining bir qo'lli bilagidan (2-a rasm) yoki bo'ynidan (2-b rasm) ushlab olish.

Sherigini ushlab olish va yerdan ko'tarish (3-*g* rasm). Qo'llari bilan manevr qilib, sherigini ushlab olish va uni orqasi bilan o'ziga o'girib olish (3-*d* rasm).

Qo'llari bilan manevr qilib, sherigining to'ni yoqasidan




3-rasm. Qo'l, bo'yin, to'nni ushslashga doir yakkama-yakka kurash elementi bo'lgan mashqlar

ushlab olish (3-*e* rasm). Xuddi shunday harakat qilib, qo'llarini sherigi qo'ltig'idan o'tkazib ushlab olish (3-*j* rasm). Xuddi shunday harakat qilib, qo'llarini sherigi qo'ltig'idan o'tkazib, uning orqasiga birlashtirish (3-*z* rasm)²³.

Qo'llariga tayanib yotgan holatdan murabbiyning ishorasiga binoan o'midan turish va to'ldirma to'pni egallab olish (4-a rasm). Murabbiyning «To'ldirma to'pni ikki qo'llab ushlab ol!» ishorasiga binoan, oyog'ini turgan joyidan qimirlatmay, to'pni egallab olish (4-*b* rasm).

Cho'qqayib o'tirgan holatdan, oyoqlar yelka kengligida, o'ng (chap) qo'lini to'ldirma to'pga qo'yish, murabbiyning ishorasiga binoan to'pni birinchi bo'lib oyoqlari orasidan o'tkazib yuborishga harakat qilish (4-*v* rasm).

²³ Atoyev A.Q. Kurash. -T.: "O'qituvchi", 1987. 117-b.




4-rasm. Predmet bilan bajariladigan mashqlar.

Kurashchi tik-turgan holatdan murabbiyning ishorasiga binoan oldinga dadil qadam tashlab va birinchi bo'lib to'ldirma to'pni egallab olishga harakat qilishi lozim (4-grasm). Yana bir holat. Bunda kurashchi cho'qqayib o'tirgan holda, ikkala qo'llarini tizzada saqlaydi va murabbiyning ishorasiga binoan birinchi bo'lib to'ldirma to'pning yuqori aylanasini kafsi bilan bekitadi (4-d rasm). Xuddi shunday cho'qqaygan holatda, murabbiyning ishorasiga binoan birinchi bo'lib biror kichik buyumni egallab oladi (4- e rasm).

Tulum bilan bajariladigan mashqlar

Mashg'ulotlarda jismoniy chiniqishni kuchaytirish maqsadida tulumlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda tulumlar turli og'irlilikda va turli shaklda bo'lishi mumkin. Masalan, gavdasi uzunroq qilib ishlangan, bosh va qo'lli, ammo oyoqsiz tulum, xuddi shunday



6-rasm.



7-rasm. Rezina bovliq bilan mahkamlangan tulumni uloqtirish mashqi.

Kurashchi rezina bovliqqa mahkamlangan tulumni qo'ltiqlab oladi va uni uzoqqa uloqtirishga harakat qilishi lozim. Rezina bovliqqa mahkamlangan tulum kurashchi tomonidan mahkam qo'ltiqlab olinadi va bor kuchi bilan uloqtiriladi. Bunday mashqlar qo'l, oyoq muskullarini mustahkamlash uchun ham ancha foydalidir (7- a, b, v, rasmlar). Bunda tulum bilan mashq qilganda sherigi bilan to'qnashib ketmaslik va o'zini jarohatlamaslik uchun rezina bovliq bilan mustahkamlangan tulumni to'shakning qayeriga qo'yib mashq bajarish, qaysi yo'nalishda uloqtirish to'g'risida murabbiydan ko'rsatma olish zarur bo'ladi.

Kurash yuklamasi me'yorlarini murabbiy vaqtga qarab yoki uloqtirishlar soniga qarab belgilashi lozim. Odatda bir to'shakda 8—

10 kishi tulum bilan shug'ullanadi. Mashq'ulotlarda mashqlar bilan shug'ullanuvchilar navbatil bilan almashinib turadilar va oyoqni ma'lum tomonga faol harakatlantirib, bir zarb bilan ko'tarib uloqtirishga odatlanadilar.


Bir zarb bilan ko'tarib uloqtirish raqibni to'nidan, belbog'idan, qo'llar bilan ikkala ko'lin ushlab olgandan keyin, qo'llarni keskin siltab tortib va gavdani faol burib raqibni orqasiga yiqitish bilan bajariladigan mashqlar kurashchini jismonan chiniqtiradi (7-a, b rasm)

3-guruh taqdimoti: kurashchilarda kuch, tezkorlik va chaqqonlikni rivojlantirish. "Kuch" – bu kurashchining raqib qarshiligini yengib, mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko'rsatishini anglatadigan jismoniy sifatdir. F.A.Kerimovning ta'kidlashicha, kurashchining kuchi umumiyl va maxsus mutloq va nisbiy, tezkor va portlovchan kuch chidamliligi kabi turlarga bo'linadi. F.A.Kerimovning ta'kidlashicha: "Umumiyl kuch bu kurashchining maxsus harakatlarga taalluqli bo'lмаган holda sportchi tomonidan namoyon qilinadigan kuch. Maxsus kuch musoboqa harakatlarida sportchi tomonidan namoyon bo'ladi. Mutloq kuch sportchining juda katta xususiyatga ega harakatlarida namoyon bo'ladiyan kuch imkoniyatlari bilan tavsiflandi. Kurashda u kuch yordamida yakkama-yakka olishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Nisbiy kuch, ya'ni sportchining 1 kg vazniga to'g'ri keladigan kuch kurashchining shaxsiy eg'irligini yengib o'tish imkoniyati ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu usullarning tezkorlik bilan bajarilishi muhim ahamiyatga ega. Tezkor kuch mashqlarining nişbatan kichik tashqi qarshilikni yengib o'tish bilan bog'liq harakatlarni tez bajarishga bo'lgan qobiliyatda aks etadi. Portlovchi kuch qisqa vaqt ichida o'z shiddatiga ko'ra katta kuchlanishlarni namoyon qilish qobiliyatini tavsiflaydi. Kuch chidamliligi bu sportchining nişbatan uzoq vaqt davomida mushak kuchlanishlarini namoyon qilishga bo'lgan qobiliyatdir".²⁴

Kuchni rivojlantirish uchun bir necha mashqlar va uslublar mavjud. Avvalo mashqlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak bu mashqlar qo'llar, oyoqlar, gavda uchun mo'ljallangan bo'lib, ular kurashchining kuchini rivojlantirishga qaratiladi.

²⁴ Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -T.: 2005. 92-bet.


Bular:

8-rasm. Cho'ziluvchanlik va egiluvchanlikni rivojlanltirish mashqlari.

Tezkorlikni oshirish uchun kurashchi o'ziga-o'zi buyruq berib turishi lozim. Bu gavda holatini o'zgartirishga mo'ljallangan bo'lib, o'tirish, turish, yotish, yugurishdan iborat. Mashqlarni tezkorlik bilan bajarish uchun kurashchi bir harakatni tugaqtmasdan ikkinchi harakatni bajarishga o'ziga buyruq berishi kerak bo'lgan o'rtaqa to'siqlar qo'yib 20-30 metrlik to'siqlardan sakrab yugurish yoki oddiy yugurish o'z ichiga oladi. Bu tezkorlikni oshiradi.

Chaqgonlikni oshirishda akrobatik mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda toshni yerga qo'yib yotgan holda oldinga

va orqaga umbaloq oshish, chalqancha yotgan holda gavdani burib turib ketish; qo'lni yerga tirab oldinga umbaloq oshish yoki boshni yerga qo'yib oldinga umbaloq oshish. Bularga quyidagi mashqlar kiradi:



3-rasm

4-guruh taqdimoti. Chidamlilikni rivojlantirish mashqlari.

Kurashda yakkama-yakka olishish jarayonida raqibining ta'siriga turli xil qarshilik ko'rsatib o'zini himoya qilishi kuch chidamlilikini talab qiladi. Kuch chidamlilik-bu butun bellashuv davomida o'z harakatlarini yo'qotmay yuqori suratda saqlashi, musobaqa davomida bir necha bellashuvlarni bardosh bilan o'tkazish imkoniyatini beradi. Odatiy chidamlilik yugurish mashqlari yordamida yaxshi rivojlanadi. Zero, bunda, ya'ni yugurishda yurak-qon va nafas olish sistemalari mustahkamlanadi, gavda og'irligini normallashtiradi hamda nerv

faoliyatini yaxshilaydi. F.A. Kerimovning yozishicha, kurashda chidamlilik umumiyligi va maxsusligi bilan farqlanadi.

"Umumiy chidamlilik deganda sportchining sust shiddatdagi ishni uzoq vaqt bajarishga bo'lgan qobiliyati tushuniladi. Maxsus chidamlilik kurashchining musobaqa bellashuvi davomida turli xususiyatdagi harakat va amallarni har xil kuchlanishlari bilan hamda gavdaning turli holatlarida yuqori sur'atda bajarish qobiliyati orqali tavsiflanadi.

Kurashchining musobaqa faoliyati ko'p qirrali va mushak tizimining ulkan ishi bilan bog'liq (kurashda statik va dinamik tartibda ishlovchi deyarli hamma mushak guruhlari qatnashadi). Shuning uchun chidamlilik nafaqat ishlayotgan mushaklarga yetkazib beradigan kislorod miqdori bilan, balki mushaklarning o'zining uzoq vaqt davom etadigan kuchli zo'riqishli ishga bo'lgan moslashishi bilan aniqlanadi. Sportchi mashg'ulot va musobaqa faoliyatida ma'lum bir toliqishni engib o'tgan taqdirdagina uning chidamliligi takomillashadi".

Chidamlilikni rivojlantirishda kurashchi ~~odam~~-qo'g'irchoq bilan kurash tushib, uni o'z ustidan otish, uni turg'izib qo'yib, yana ustidan oshirib otish kabi mashqlarni doimiy bajarish yaxshi samara berishini tajriba tasdiqlagan.

Chidamlilikni rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi:
imitatsion mashqlar, o'zgaruvchan, oraliqli, o'zgaruvchan oraliqli.

Imitatsion uslub shunday uslubki, u jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida mashg'ulotdan mashg'ulotga rivojlanib boradi. Bu uslubda mashg'ulotlar soni ko'payib boradi.

O'zgaruvchan uslub shunday uslubki unda, jismoniy mashqlar har xil sur'atda bajariladi. Past sur'atdagi mashqlar mashg'ulotdan mashg'ulotga kamayib baland sur'atda o'tkaziladiganlari ortib boradi.

Oraliqli uslub shunday uslubki, bunda jismoniy mashqlar sust va faolga bo'linib oraliqlarda dam olish sharti bilan bajariladi. Mashg'ulot vazifalari mashqlarni bajarish sur'ati va davomiyligi, shuningdek kurashchining mashqlanganlik darajasi hamda kayfiyatga qarab, ish hamda dam olish oraliqlari davomiyligiga ko'ra har xil bo'lishi mumkin.

Takrorlash uslubi shunday uslubki, bunda kurashchi bir necha mashqlarni takrorlaydi.

Mashg'ulotlarda yuqorida qayd etib o'tilgan, chidamlilikni rivojlantirish mashqlari bir-biri bilan uyg'unlashtirish natijasida yaxshi samara beradi. Ko'rib o'tilgan mashqlarni muayyan ketma-ketlikda, o'zaro ijobiy ta'sirini inobatga olib bajartirish chidamlilikni tarbiyalaydi.

5-guruh taqdimoti. Epchillik va egiluvchanlik mashqlari. Bunda qo'llar va oyoqlarni epchil harakatga keltira olish orqali jismoni tayyorgarlik rivojlanadi. Epchilli kni rivojlantirishda tayoqqa yoki bir metrli arqoncha bilan (20-rasm) mashq qilish, qo'l bilan bo'g'lnarni mustahkamlaydi va epchil harakat qilishni rivojlantiradi. Bunda oyoqlar uchun mo'ljallangan mashqlar (21-31 rasmlar) muhim aharniyat kasb etadi.

Oyoqlarni keng ochgan holda oldinga engashiш, kaftlarni oyoqlar orasidan yerga tegizish, chap qo'lni orqa tomonдан o'ng oyoq to'pig'iga tegizish mashqlarni kurashchining egiluvchanligini rivojlantiradi. Professor F.A.Kerimov yozganidek, "Egiluvchanlik bu kurashchining katta ampulatudada harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Egiluvchanlik bo'g'imlardagi harakatchanalik bilan aniqlanadi. U, o'z navbatida, bir qator omillarga bog'liq bo'g'im suyaklarining tuzulishi, paylar, mushaklar cho'ziluvchanligi va ularning cho'zilish qobiliyati. Bir necha egiluvchanlik turlari mavjud:

Faol egiluvchanlik - bu shaxsiy mushak kuchlanishlari hisobiga harakatlarni katta ampulatudada bajarish qobiliyatidir.

Sust egiluvchanlik - bu tashqi kuchlar: og'irliklar, raqib harakatlari hisobiga harakatlarni katta ampulatudada bajarish qobiliyatidir. Sust egiluvchanlik hajmi faol egiluvchanlikning tegishli ko'rsatgichlaridan yuqori.

Dinamik egiluvchanlik - dinamik xususiyatlarga ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Statik egiluvchanlik - statik egiluvchanlikka ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Umumiy egiluvchanlik turli yo'nalishlarda eng yirik bo'g'imlarda katta ampulatuda bilan harakatlarni bajarish qobiliyatidir.

Maxsus egiluvchanlik — Kurashchining texnik-taktik xususiyatlariiga tegishli bo'g'imlar va yo'nalishlarda harakatlarni katta ampulatuda bilan bajarish qobiliyatidir. Cho'ziltiruvchi mashqlar: oddiy, purjiunali harakatlar, o'zini ushlagan holda sultanishli, tashqi

yordam bilan bajariladigan harakatlar egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy vositalari hisoblanadi".

Bunday mashqlarni bajarish uchun:

- badanni qizdirish;
- maqsad qo'yib uni bajarish;
- yoq gavda, qo'l uchun cho'ziltirish mashqlarini bajarish;
- bo'shashtirish mashqlarini bajarish;
- mashqlarni bajarishni murakkablashtirib borish;
- bajarilgan mashqlarni takrorlab borish va h.k.

III. Savol-javob, bahs-munozara tashkil etiladi. Buning uchun talabalarga quyidagi savollar beriladi:

1. Kurashching jismoniy tayyorgarligi nimani anglatadi?
2. Kurashchi jismoniy tayyorgarligi qanday tayyorgarliklardan iborat? Ularni izohlang.
3. Kuch nima va u qanday mashqlar asosida rivojlanadi?
4. Kurashching tezkorligi va chaqqonligi deganda nimani tushunasiz va ular qanday rivojlanтирiladi?
5. Chidamlilik nima va u qanday rivojlanтирiladi?
6. Epchillik va egiluvchanlik mashqlarini tushuntirib bering?
7. Kurashching umumiyligi va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlanирish vositalari kurashchiga nima uchun kerak?
8. Mashqlar va jismoniy harakatlar davomiyligini aytib bering?

IV. "Qora quti" metodi yordamida o'zlashtirilgan bilmalarni mustahkamlash.

Ushbu metod vositada quyidagi harakatlar tashkil etiladi. Talabalar juftliklarni tashkil etadilar va ularga turli ko'rinishdagi bajarilayotgan mashqni tasvir, sur'atlar ko'rsatiladi va talabalar suratlarga qarab bajarayotgan mashqning nomini kartochkalarga yozadilar. O'qituvchi juftliklar tomonidan topshiriqni bajarilganligini tekshiradi va juftliklar o'z javoblarini birin-keyin yozuv taxtasiga yozadilar. Bular:

Jismoniy tayyorgarlik, umumiyligi jismoniy mashqlar, maxsus jismoniy mashqlar, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, epchillik, egiluvchanlik, chidamlilik, jismoniy tayyorgarlik vositalari, jismoniy tayyorgarlik metodlari.

So'ngra talabardan ushbu tushunchalar nimani anglatishi so'raladi, to'g'ri javoblar doskaga yoziladi va tahlil qilinadi. Ular talabalar tomonidan bajarilib ko'rsatiladi.

V. Juftliklar tavsiya etgan taqdimotlar, berilgan javoblar joriy nazorat ballar bo'yicha o'qituvchi tomonidan e'lon qilinadi va guruh jurnalining reyting baholash ro'yxatiga kiriladi.

VI. Uyga vazifa: Umumiy va maxsus rivojlantiruvchi mashqlar bo'yicha amaliy ishlarni bajarish: F.A.Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -T: 2005, darsligining 90-108-betlarini va A.Q.Atoev. Kurash -T "O'qituvchi", 1987, o'quv qo'llanmasining 95-122-betlarini o'qib "Mening umumiy va jismoniy tayyorgarligim" mavzusida uy ishi yozish.

2-AMALIY MASHG'ULOT.

MAVZU: TEKNIK TAYYORGARLIK.

Mashg'ulotning maqsadi: kurashchining texnik tayyorgarligi haqida ma'lumot berish; maxsus tayyorgarlikning umumiy, maxsus tayyorgarliklarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning farqini o'rgatish; kurashchi texnik tayyorgarligini bosqichlari, vazifalarini tushuntirish; kurash texnikasi usullari, qarshi va himoyalanish usullari haqida tushuncha berish va texnik tayyorgarlikni tarbiyalash.

Dastlabki tayyorgarlik: Talabalarga mavzu yuzasidan quyidagi topshiriqlar beriladi:

- a) mavzu bo'yicha adabiyotlar bilan ishlash:
 1. A.Q.Atoev. Kurash. -T: "O'qituvchi", 1987, 125-130, 154-188- betlar.
 2. A.Q.Atoev. Yosh-o'smirlarda o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. -T: 2005, 33-51- betlar.
 3. F.A.Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -T.: 2005, 109-117-betlar.
 4. A.R. To'ymurodov. O'zbek milliy kurashi. -T.: "Ibn Sino" nashriyoti, 1990, 61-81- betlar;
- b) "Texnik tayyorgarlik" mavzusi bo'yicha texnik tayyorgarlik bosqichlari, uning vazifalari va texnik harakatlarini yengillashtirish usullarini tushuntirish;
- c) texnik harakatlarni amalga oshirishning asoslarini talabalarga o'rgatish; kurashchining texnik mahoratini rivojlantirish yo'llarini ayтиб berish va h.k.

Mashg'ulotning mazmuni:

- a. Mashg'ulotning shakli – amaliy, muammoli.
- b. Mashg'ulotning o'tish joyi – amaliy mashg'ulot xonasi.

c. Ajratilgan vaqt – 4 soat.

d. Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod va vositalar – tushuntirish, namoyon etish, o'quv adabiyotlari va ma'ruzalar matni bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, slaydlardan foydalanish.

e. Maqsadning natijalanlanganligi – talabalarda kurashchining umumrivojlantiruvchi mashqlar tizimida texnik tayyorgarlikka ega bo'lish ehtiyoji yuzaga keladi va texnik tayyorgarlikka ega bo'lish mashqlarni egallashga bo'lgan qiziqish yuzaga keladi, faolligi oshadi va munosabati ijobji bo'ladi.

f. Nazorat va baholash usullari – yakka tartibda, juftlikda, guruhli so'rovlari, test asosida butun guruh talabalarining o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Mashg'ulot muammoli o'qitish texnologiyasi asosida olib boriladi va uning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi.

Mavzuni muammoli o'qitishning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
Tayyorlov bosqichi (5 min)	Mavzuning nomini, texnik tayyorgarlikni o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan muammoli vaziyatni, talabalarining bajarishi kerak masalalarni, kutilayotgan natijani va baho mezonlarini tushuntiradi.	Eshitadilar, yozib oladilar
Tashkiliy, ya'ni muammoning qo'yilishi yoki da'vat bosqichi (30 min)	<p>Yuqorida qayd etilgan mashg'ulotlarning maqsadini e'lon qiladi. Mavzuga oid quyidagi savollarni o'rtaqa tashlaydi.</p> <ol style="list-style-type: none"> Umumi rivojlantirish bosqichida texnik tayyorgarlik nimani nazarda tutadi? Texnik tayyorgarlik nima, texnik mahoratchi? Usullar, qarshi usullar, himoyalanishning texnik tayyorgarlik bilan aloqadorligi nimada? Texnik harakatlar kurashchi egallashi lozim bo'lgan qoidalarni nazarda tutadimi? Texnik harakatlarda xato ham yuzaga kelishi mumkinmi? Kurashda orqaga, oldinga, yon tomonga yiqilish harakatlari nimani anglatadi? 	O'quv maqsadini tinglaydi, qo'yilgan muammoli savollarni, avval juftlikda, so'ngra gurihda yechish yo'llarini muhokama qiladi, javoblarni tahlil qilib aniqlarini topadi, o'zaro fikirlashib yagona xulosaga keladi.
Talabalarning	Talabalarga mavzu mazmunini	Tavsiya etilgan

<p>mustaqil ishlash jarayoni. Mavzu mazmunini anglash va fikrlash bosqichi. (35 min)</p>	<p>anglatuvchi matn va kerakli adabiyotlarni taqdim qiladi. Guruh talabalarini kichik guruhlarga ajratib, mavzu mazmunini anglashlari uchun aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, munozara usullaridan foydalanadi. Texnik tayyorgarlik bo'yicha talabalar taqdim etgan javoblarni qabul qiladi va guruhning faoliyatlari bilan tahlil qiladi.</p>	<p>ma'ruza matni va adabiyotlardan foydalaniib, mavzu mazmunini diqqat bilan o'rganadi. Qo'yilgan texnik tayyorgarlikni juftlikda, kichik guruhlarda yechishning turli yo'llarini ishlab chiqadi, guruhlarda muhokama qiladi. Kurashchining texnik tayyorgarligi bo'yicha yagona fikrga keladi.</p>
<p>Natijalarni xulosalash (6 min)</p>	<p>Talabalar tomonidan taqdim etilgan texnik tayyorgarlik, kurashchilarning umumiyligi va maxsus texnik tayyorgarligi, texnik tayyergarlik bosqichlari, vazifalari, usullari, zaruriy qoidalar, texnik harakatlar va ularga o'rgatish yo'llari, yo'l qo'yilgan xatolar to'g'risidagi ma'lumotlarni tinglaydi, fikrlarni aniqlashtiruvchi, tasdiqlovchi savollar beriladi.</p>	<p>Kurashchining texnik tayyorgarligiga oid barcha savollarni yechimlarini bayon qiladi, o'z fikrlarini boshqa juftlik guruh bayonlari bilan taqqoslaydi, savollar berish yo'lli bilan kurashchining texnik tayyorgarligi mavzusi bo'yicha tushunchalarini mustahkamlaydi.</p>
<p>Yakunlash va umumlashtiris h bosqichi (4 min)</p>	<p>Kurashchining texnik tayyorgarligi, uning bosqichlari, vazifalari, usullari, texnik harakatlari, egallash bo'yicha qabul qilingan asosiy qoidalar, harakatlardagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarning sabablарини o'rganish usullarini to'g'rilashni tushuntiradi, aniq va to'g'ri javoblarni ko'ssatadi hamda talabalarning fikrlarini, to'g'ri javoblarni baholaydi.</p>	<p>Mavzu yuzasidagi xulosalarni tinglaydi va kurashchining texnik tayyorgarligiga oid yakuniy fikrlarni yozib oladi. O'zi va juftliklar, guruhlar javoblariga baho beradi.</p>

Mashg'ulotning borishi

O'zbek milliy kurashida samaradorlikning oshishi texnik harakatlarning bajarilishini mahorat bilan amalga oshirish hamda ularni takomillashtirib borishga bog'liq. Shunday ekan, texnik tayyorgarlik mavzusini o'qitishda dastlab pedagog mashg'ulotni muammoli o'tkazishning texnologik xaritasida ko'rsatilgan mavzuni o'rGANISH bosqichiga amal qilib "Tayyorlov bosqichida" nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirib da'vat bosqichiga o'tadi. Pedagog "Kurashchining texnik tayyorgarligi" muammosini tavsiflash uchun quyidagi muammoli savollarni talabalarga tavsya qiladi.

I. "Aqliy hujum"

1. Kurashchining mashg'ulot jarayonida yuqori sport natjalariga erishishni ta'minlovchi harakatlari nima bilan tavsiflanadi?
2. Mashg'ulotlar jarayonida ma'lumotlarni idrok etish, anglash, tushuncha hosil qilish, mustahkamlash, amaliy ishga joriy etish texnik tayyorgarlikning qanday usuliga kiradi?
3. Kurashishda harakat malakalarini yuksak barqarorligini hamda oqilona variantivligini ta'minlashga erishish, harakat malakalarini qisman qayta qurish usullarining ayrimlarini takomillashtirish nimani anglatadi?
4. Kurashchining hujumlari, himoyalanish usullari, bevosita nimaga qaratilgan va u texnik tayyorgarlikda nimani anglatadi?
5. Kurashishda tik turish, raqib, ko'pchik nima va ularni bajarish ko'rinishi qanday.
6. Kurashchining texnik mahoratini oshirish yo'llari tizimida orqaga yiqilish, yon tomonga yiqilish, oldinga yiqilish nimani anglatadi?

Mavzu mazmunini mukammalroq anglash va qo'yilgan savollarga javob topish uchun talabalarga quyidagi matn tavsya etiladi (Matn A.Atoyevning "Kurash", -T.: O'qituvchi, 1987; A.Nurullayev. O'zbek kurashi uslubiyoti. -Navoiy, 2011. Kitoblari asosida tayyorlandi).

II. Mavzu: Kurashchining texnik tayyorgarligi (mavzu bayoni).

Hozirgi zamон kurashida texnik tayyorgarlik kurashchi tomonidan yuqori sport natjalariga erishishni ta'minlaydi. Kurashchining texnik tayyorgarligi umumiyligiga maxsus texnik tayyorgarlikka ajratiladi. Umumiyligiga texnik tayyorgarlik - bu kurashchining yordamchi harakat texnikasini hamda tezligini

egallahga va maxsus texnik tayyorgarlikni ta'minlaydi. Milliy kurashda texnik tayyorgarlik bir qator murakkab vazifalarni hal etadi: Maksimal kuchlanishdan foydalanish samaradorligini oshirish:

- ish kuchlanish samarasini tejash;
- mashg'ulot jarayonida;
- harakatlanish tezligi va aniqligini oshirish.

Milliy kurash texnikasini rivojlantirish kurashchilarining ko'p yillik tayyorgarligi davomida amalga oshiriladi va u istalgan kurash turida texnik mahoratga yordam beradi.

Texnik mahorat milliy kurashda eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallahni ta'minlaydi. F.A.Kerimovning ta'kidlashicha, texnik mahoratni takomillashtirishning uch bosqichi mavjud. Bular:

1. Izlanish.
2. Barqarorlashtirish.
3. Moslashishni takomillashtirish.

Birinchi bosqichda texnik tayyorgarlik kurashchi, harakatlarining texnikasini shakllantirish, uni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarni yangilashga, mashg'ulot jarayonida qo'llovchi ayrim harakatlarni o'rGANISHGA qaratiladi.

Ikkinci bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining butun malakalarini chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga qaratiladi.

Uchinchi bosqichda texnik tayyorgarlik shakllangan malakalarini takomillashtirish, ularning asosiy musobaqalar sharoitlariga mos holda maqsadga muvofiq variativliligi, barqarorligi, ishonchlik chegaralarini kengaytirishga qaratilgan.

Har bir texnik tayyorgarlik bosqichining asosiy vazifalariga quydagi larni kiritish mumkin.


1. Kurash texnikasi asosini tashkil etadigan harakat malakalarining yuqori barqarorligi hamda oqilona variativligiga erishish, musobaqa sharoitida ularning samaradorligini oshirish.

2. Harakat malakalarini qisman qayta qurish, musobaqa faoliyat talablarini hisobga olgan holda usullarning ayrim qismlarini takomillashtirish.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun tashqi vaziyatni murakkablashtirish hamda texnik harakatlarni engillashtirishga yordam beruvchi quydagi mashqlarni bajarish maqsadga muvofiq.

Orqaga yiqilish²⁵.

Oyoqlar va gavda egilgan holda orqaga yiqilish. Bunday paytda bir-ikki kichik qadam orqaga qilinib, shu vaqtini o'zida oyoq egiladi. Bu mashqlar bajarilganda, orqaga umbaloq oshib o'tirgan holarda muvozanat saqlanib oyoqqa uriladi. Orqaga yiqilishda qo'l qanday holatda bo'lishni o'rghanish: gilamga orqa bilan yotadi. Oyoqlar juftlanib olinadi, iyak ko'krakka siqib olinadi. qo'llarni yuqori ko'tarib gilamga uriladi. Qo'llar gilamga urilish paytida oldinga qo'lning kafti esa yerga qaratilgan. Barmoqlar jipishashgan bo'ladı. Gavda va qo'l oralig'idagi burchak 45° — 50° tashkil qiladi.



9-rasm

Orqaga yiqilish: Bunda oyoqlar va gavda egilgan holda mashq bajariladi. 1-2 kichik qadam orqaga qo'yilib muvozanatni saqlab oyoqqa uriladi va yiqilishda qo'l qanday holatda bo'lsa, oyoq yuqoriga ko'tariladi. Gilamga urilish paytida qo'llar gilamga yoyilib oyoqlar yuqoriga ko'tariladi. Uning balandlik burchagi 45° - 50° tashkil qiladi.

Yon tomonga yiqilish: Kurashda yon tomonga yiqilish tez-tez takrorlanadi, bunda bir oyoq oldinga ikkinchi oyoq esa tizzada egiladi, qo'lni gilamga urg'an holda yon tomonga yiqiladi. Bunda qo'l gilamga gavdadan oldinroq urilishi kerak. Yon tomonga yiqilishda o'ng oyoq ko'krak tomon tortiladi, chap oyoq esa o'ng boldir oldidan gilamga qo'yiladi, iyak ko'krak tomon tortilib, gavda oldinga buklandi. Chap tizza iloji boricha yuqori ko'tariladi va o'ng tizza gilamga qo'yiladi.


O'ng qo'l buklanmagan holda kaft gavdaga nisbatan 45° — 50° daraja pastga qaratib gilamga qo'yiladi va chap qo'l yuqori ko'tarilgan

²⁵ A.Nurullayev. O'zbek kurashi uslubiyoti. —Navoiy, 2011.13-21-betlar.

Izoh: Qu'llanmadagi ayrim ma'lumotlar va rasmlar A.Nurullayev kitobidan olindi. Qarang.



holatda bo'ladi. Yon tomonga yiqilish shunday ketma-ketlikda bajariladi. Yon tomonga yiqilishda tizza va qo'llarga tayaniladi. Bunda chap qo'l bilan raqib yaktagining elka qismidan ushlab, o'ng oyoq, oldinga uzatilgan holda ko'tariladi, bu paytda o'ng qo'l oldinga cho'zilgan bo'ladi.

Belni bukkancha orqaga yiqilishda, gavda gilamga yaqin bo'ladi, o'ng qo'l esa yiqilayotgan gavdadan oldinga o'tkaziladi, yiqilayotgan vaqtida qo'llardan keyin gavda va oxirida oyoqlar gilamga uriladi.



10-rasm. Orqaga yiqilish mshqi.
Oldinga yiqilish. Bu yo'nalishdagi yiqilishning ikki xil ko'rinishi mavjud.

- A) oldinga umbaloq oshish;
- B) yon tomonga umbaloq tushish. (qarang 11- rasm)



11-rasm. Oldinga yiqilish


Ushlashlar: kurashda raqibni ushlashning xilma-xil turlari mavjud, bular: kurashchining usul bajarishi uchun qulay ushlashi va kurashchining himoyalariishi uchun ushlashiga bo'linadi. Usul bajarish uchun qulay ushlashda raqibning holatini nazarda tutib u qulay ushslash imkoniyatidan foydalanganiga qadar kurashishi qulay ushslashni bajarishi lozim. Himoyalanish ushlashishda raqibning usul bajarishga imkon bermay unga halaqit beradigan noqulay ushslash amalga oshiriladi.

Ushlashlar jarayonida qo'yidagi qoidalarga qat'iy rioxqa qilinishi shart:

1. Ushlash paytida qo'llar erkin saqlanadi, bunda qo'llar toliqmaydi va chaqqonlik bilan raqibga ta'sir ko'rsatiladi.
2. Ushlashning eng qulay usuli bajariladi va tezkorlik bilan raqibning himoyalanishiga yo'l qo'ymay tez bajariladi.
3. Kurashchi ushslashlarning har xil usullarini puxta bilishi va qo'llashi shart.

Texnik usullar – bu maqsadga yo'naltirilgan kurash qoidalari asosida tashkil etilib, raqibni qiyin holatga tushurib ustunlikka erishishni ta'minlaydigan harakatlardir. Erkin kurash, dzyu-do, sambo va kurashda qo'llaniladigan usullar quyidagi oyoqlar bilan amalga oshiriladigan harakatlarni ko'rsatish mumkin. Oldindan supurib tashlashlar, yon tomonidan supurib tashlashlar, tashqaridan oyoq yuzasi bilan ildirish, chil usullaridir. Bu usullarning bajarilishini quyidagi supurib tashlashlarda:

A. Oldindan supurib tashlashlar: Raqib oldinga bukilgan yoki harakatda bo'lган paytlarda бу usul qulay. Bunda kurashchilar olishuvni boshlash



12-rasm. Oldindan supurib tashlashlar.

holatida bo'ladi, kurashchi esa raqibni ikki tirsagi ostidan ushlab, o'ziga tortadi. (12-rasm)

1-ko'inishida kurashchi tayanch oyog'i bilan yon tomonga qadam qo'yadi va qo'l bilan raqibni qattiq siltab, oyoq orqali raqibning oyoqlarini chaladi hujumdag'i oyoq orqali uning oyoqlarini chalish.

2-kurashchi silkitishni davom ettigan holda, raqibning yelkalarini burcha, va oyog'i bilan raqib oyog'i boldiriga qoqadi.

3-ko'inishida kurashchi raqibning yelkalarini burgan holda, uning gavdasini gilamdan uzadi.

4-ko'inishda raqibning yiqilishini aniq bilgandan, so'ng bir qo'lini pastga tushirib, raqibni va o'zini ehtiyyot qilishga harakat qiladi²⁶.

Texnik usullarni yorishida A. Nurullaev materiallaridan foydalanildi. Bunda ushslash variantlari ikki engidan va yoqasidan: ikki yengidan; yengidan va yoqasidan; yengi ichidan; bir yengi va belbog'idan ushslash amalida bajariladi.

Qershi-usullar esa raqibga qo'llar bilan qarshilik ko'rsatib, uning hujumdag'i oyog'iga urish; raqibning hujumdag'i oyog'inining ustidan o'zining hujumdag'i oyog'ini o'tkazib raqib oyog'ini supurib tashlash.

Himoya- raqibni og'irlik markazidan chiqarib yuborishga yo'l qo'ymaslik; usulni bajarish uchun unda qulay ushslashga imkon bermaslik; raqib bilan o'ta yaqin masofada bo'lish.

B. Qadam bilan yon tomondan supurib tashlash.


Yon tomondan supurib tashlashda raqib yon tomonlarga harakatlansa qulay bo'ladi.

Olishuv quyidagi holatda boshlanadi (qarang 13-rasm).


1 – yon tomonga qadam qo'yib, qo'llar yordamida raqibni o'zi bilan barobar qadam tashlashga majbur qilish; 2- kurashchi raqibning gilamga oyoq qo'yishi bilan qo'llarini harakatga keltirib oyog'ini hujumiga tayyorlaydi, tanasi og'irlikdan bo'shab raqib tirsaklarini ichkariga va yuqoriga ko'taradi, yon tomondagi hujum qilayotgan oyoqni boldiri bilan raqibning oyog'ini supurib tashlaydi; 3- 4 – kurashchi hujumdag'i oyog'i bilan raqibning ikki oyog'iga urib gillamdan uzadi, qo'llarining kuchi yordamida raqibni yelkasidan oshirib gilamga tashlaydi.

²⁶ A.Nurullayev. O'zbek kurash uslubiyoti. –Naveiy, 2011.24-25-betlar.

5-6- kurashchi raqibning yiqlishini sezib uzoqdagi qo'liga tayangan holda hujumdagi oyog'ini gilamga mustahkamlaydi.



13-rasm. Yon tomondan supurib tashlashlar



14-rasm. Qadam bilan hamohang yon tomondan supurib tashlash

Ushlash variantlari: ikki yengidan; yengdan va yoqadan; yengidan va yeng ichidan:

Aldamchi harakatlar: yon tomonidan urishlar; old tomonidan urishlar.

Himoya: raqibining hujumdagi oyog'ining ustidan, hujumdagi oyog'i ustidan; o'zining hujumdagi oyog'ini o'tkazish.

Qarshi usullar: hujumdagi oyoq, bilan hamohang yon tomondan supurish; yon tomondan hujumdagi oyoq bilan supurish; tayanch oyoq bilan oldindan supurish.

Uchraydigan xatolar: qo'l harakati keragidan bo'sh, sust; raqibining tayanch oyog'iga etarli darajada ta'sir ko'rsatib, supura olmaslik; qo'llarning tortuv kuchi yo'nalishini almashtirib turmaslik.

D. Oyoq kaftidan va tovonidan supurish.

Kurashchi raqibining oyoqlarini keng qo'yanini kuzatib orqaga siljiydi va raqibni o'ziga tortadi hamda qulay usulni amalga oshiradi

(qarang 16-rasm). 1- kurashchi chap yoki o'ng yoqadan ushlashni amalda bajaradi.

2-3- kurashchi katta qadam qo'yib raqibiga yaqinlashadi va uning oyog'ini tovonidan o'rab olib gilamdan uzadi.

4-5- Kurashchi oldinga harakatlanib, raqibining hujum oyog'iga urib uni gilamga quyishga imkon bermaydi va raqibini yelkasi bilan gilamga yiqitish.

Ushlashlar variantlari: yengi va yeng ichkarisidan; yeng va yoqadan; ikki yengdan; belbog'idan.


Aldamchi harakatlari: ichkaridan, oyoq boldirini gilamdan uzb olgan holda: tashqaridan, oyoq tovonini ildirgan holda.

Himoya: hujumdagi oyoqni raqibning hujumkor oyog'i ustidan o'tkazish; tana og'irligini raqibning hujumkor oyog'iga o'tkazib, uni orqaga qo'yish va gavdani oldinga egish.

Qarshi usullar: hujumdagi oyog' bilan oldindan supurish; hujumkor oyog'ini raqibining hujumdagi oyog'i ustidan o'tkazib, qo'llar yordamida burash; qarama-qarshi tomonga burash.

E. Tashqaridan oyoq yuzasi bilan ildirish. Bu usulda kurashchi raqibining bir tomonlama turganini ko'rib ushlashini yeng va oyog'idan amalga oshiradi.

Bu usulni qo'llash qulay qachonki, raqib bir tomonlama turgan bo'lsa, bunda kurashchi bir tomonlama turib yeng va yoqadan ushlaydi. (15-rasm).



15-rasm. Raqibning hujum qilgan oyog'inin urish



16-rasm. Oyoq kaftidan va tovonidan supurish.

1. Shu bilan bir vaqtning o'zida tayanch oyoq bilan raqibga yaqinlashib raqibning hujumkor oyog'ini tashqi tomonidan oyoq yuzasi bilan ildirish.
2. Qo'llar bilan muvozanatdan chiqara turib, raqibga bo'sh oyog'ini orqaga qo'yishga majburlash.

Aldamchi harakatlar: orqadan chalish; oyoq yuzasi bilan ichkaridan o'rab olish; Oyoq, uchini pastki tovonidan ildirish.

Himoya: hujumdagi oyoqni orgada qoldirmoq; hujumkor oyog'ini raqibning hujumkor oyog'i ustidan o'tkazish; oldinga egilgan holda, hujumdagi oyog'ini gilamdan uzishga imkon bermaslik. **Qarshi usullar:** Ichkaridan ilib ko'tarish; oyoq tovonining orqasidan supurish.


CHIL USULLARI

Kurashchi raqibining qulay joyini ushlab, muvozanatdan chiqarib, o'ziga ishonch hosil qilib, chap yoki o'ng oyog'i bilan raqibining chap yoki o'ng oyog'idan ildirib qilinadigan barcha usullar «Chil» deb nomlanadi.

Oyoq boldiri bilan ichkaridan bir xil nomli oyoqni ilib olish.

Raqib oyoqlarini keng qo'yan holda orqaga siljisa yoki o'ziga tortsa, yigitish qulay hisoblanadi.

DX — Kurashchilarning olishuvni boshlash holati. Raqibning chap yoki o'ng yoqasi va yengidan ushlanadi (17-rasm).



17-rasm. Oyoq boldiri bilan ichkaridan ilib olish.

1,2. Raqibni siltab oldinga tortib, uni oyoq uchlariga turishda majurlash va bir vaqtning o'zida hujumchi oyoq bilan raqibning oyog'ini o'rav olish.

3. Boldir bilan raqibning chap yoki o'ng oyog'ini ichkaridan ilib olib, shu vaqtda qo'l harakatini o'zgartirib, raqibni orqa va yon tomonga itarish. 4,5. Raqibning hujumdagi oyog'ini ilib olib, orqaga itarib yiqitish. **Ushlash variantlari:** yengdan va oyoq qaytarmasidan; yengdan va yoqadan; yengdan va yaktakning orqa tomonidan; bitta yengdan.


Aldamchi harakatlar: boldirni ichkaridan o'rav olish; ichkaridan ilib ko'tarish; sondan oshirib tashlash; beldan oshirib tashlash.

Himoya: hujumdagi oyoq bilan raqibning hujumchi oyog'ini ustidan oshib o'tish; raqib hujum qilmoqchi bo'lgan oyog'ini orqaga olib, oldinga egilish; tayanch oyoqni orqada qoldirish.

Qarshi usullar: chap yoki o'ng boldirdan ilib olish; tizzaning ostiga oldindan urish; ikkala oyoq oldidan mindirma qilib uloqtirish.

Raqibning chap yoki o'ng oyog'ini boldir bilan tashqaridan ilish. Raqib o'ziga tortgan vaqtda yoki orqaga qadam qo'ygan vaqtda bu usulni bajarish qulay.

DX — Kurashchilarining olishuvni boshlash holati. Raqibni yoqasidan va yaktagining orqasidan ushlanadi (18-rasm).



18-rasm. *Raqibni oyoqlar bilan tashqaridan ilish.*

1,2,3. Raqibni siltab tortib uning tayanchini hujumdagi oyog'iga o'tkaziladi va usha oyog'i boldir bilan tashqi tomondan ilib olinadi.

4,5. Raqibni qattiq quchoqlab olgan holda hujumdagi oyoqni gilamdan uzib, raqib yelkasi bilan gilamga yiqtiladi. Raqib yelkalari bilan gilamga tegishi bilan hamohang ravishda ko'krak bilan bosiladi. Bu uning yelkasiga tekis yiqilishiga imkoniyat yaratadi.

Ushlash variantlari: yaktakning yoqa va orqa qismidan; belbog'ning orqadagi qismi va yoqadan; yengni yuqorisidan va yoqasidan; raqib gavdasini qo'lli bilan qo'shib quchoqlab ushslash.


Aldamchi harakatlar: beldan uloqtirish; orqadan chalish.

Himoya: hujumdag'i oyoqni orqaga qo'yib turib, hujumchiga boshqa yon bilan burilish; raqibni qo'yib yuborib, tizzalab yiqilish; usul oxiriga yetayotganida hujumchiga ko'krak bilan burilib, o'zining tagiga tortish

Kurash usullar: ichkaridan mindirma qilib uloqtirish; beldan oshirib uloqtirish; ichkaridan oyoq boldiri bilan o'rab olish; yondan chalish.

Boldir bilan ichkaridan chil solish: raqib oyoqlarini keng qo'yan holda o'ziga tortgan paytda chil solish usulini qo'llash qulay.

DX — Raqibning olishuvni boshlash holati, uning chap yoki o'ng yoqasi va yenglaridan ushlanadi (19-rasm).



19-rasm. Raqib yegasidan ushslash.

1.2. Oyoq yuzasini ichkariga qaratgan holda hujumchi oyoq bilan raqibga yaqinlashadi. Raqibni siltab tortib, uni og'irlik tayanchini hujum qilish ko'zda tutilgan oyog'iga o'tkazishga majbur qilish. 3,4,5 Raqibning chap yoki o'ng oyog'idan o'rab olib uni orqaga-pastga itarib yiqitish. Raqibning qarama-qarshi oyog'ini hujumchi oyog'i bilan ichkaridan yilib olib, qo'l bilan itargan holda yelkasi bilan gilamga yiqitish.

Ushlash variantlari: oyoq va yengdan; ikki oyoqdan; oyoq va yeng umizidan; ikkala yeng umizidan; oyoq va yaktakning orqa-bel qismidan.

Aldamchi harakatlar: yelkadan oshirib tashlash; oldindan chalish; orqadan chalish; beldan oshirib tashlash; ichkaridan, oyoq tovonidan supurish.

Himoya: hujumdagi oyoqni orqada qoldirib, yon bilan burilish; hujumdagi oyog'ini raqibning hujumkor oyog'i ustidan oshirib o'tkazish; hujumchini qo'llar bilan itarib, oyoqlarini ilib tortishiga yo'l bermaslik; tayanch oyog'ini orqada qoldirish.

Qarshi usullar: L. Hujumdagi oyog'ini yon tomondan supurish; qo'yan holda uloqtirish; tayanch oyog'ini oldindan urish; quchoqlab, songa mindirib, orqaga tashlash.

Mashg'ulotlarda texnik tayyorgarlikda kurashchining texnik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kurashda ko'pincha oddiy hujum harakatlari emas, balki puxta ishlab chiqilgan murakkab hujum harakatlari muvaffaqiyat keltiradi. Odatda bu harakatlar qulay dinamik vaziyatni vujudga keltirish usullari hamda yagona harakat usullariga bo'linadi. Bunday harakat usullarini mustahkam egallash va ulardan unumli foydalanish uchun texnik harakatlarning qoidalariga amal qilish talab etiladi. Sport kurashi nazariyasining yetuk mutaxassislaridan biri, professor F.A.Kerimov ushbu qoidalarni quyidagicha tavsiflaydi:

- amaldagi musobaqa qoidalarda qaysi biri texnik harakat muvaffaqiyatli hisoblangan o'sha texnik harakatlarni egallash;
- texnikaning hamma turlari ichidan sportchining alohida xususiyatlariga eng yaxshi javob beradigan usullar, qarshi usullar va himoyalanishlarning variantlarini egallash;
- asosiy raqobatchilarning mahorati xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan kurashda yaxshi natija beradigan texnik harakatlarni tanlash;
- avval o'r ganilgan usullar va qarshi usullarni qo'llash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo'lgan texnik harakatlarga ko'proq e'tibor qaratish;
- kurashchi zahirasida mavjud bo'lgan usullar bilan kombinatsiyalar hamda bog'lanishlarda qo'llash mumkin bo'lgan texnik harakatlarni o'r ganish;
- harakat vazifasini eng oqilona hal etish xususiyatiga ega bo'lgan harakat texnikasiga o'rgatish lozim; bu kelgusida qayta o'r ganishdan xalos qiladi;
- kerak bo'limgan harakatlar va ortiqcha mushak zo'riqishini bartaraf etib, texnika asoslari hamda umumiy harakat maromini egallash;


-usulkarga o'rgatishi vaqt oralig'ida jamlangan bo'lishi zarur, chunki mashg'ulotlar orasidagi uzoq tanaffuslar uning ta'sirini pasaytiradi. Boshqa tomondan bitta mashg'ulot darsi davomida usullarni juda tez-tez takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki yangi koordinatsiyaharni yaratish asab tizimini tez toliqtiradigan qiyinchilikni yengib o'tish bilan bog'liq;

-jismoniy shart-sharoitlar yetarlicha bo'lmasligi oqibatida yuzaga keladigan texnik holatlarni oldini olish maqsadida harakatarning dinamik tavsiflariga mos keladigan yuqori darajadagi maxsus jismoniy talyorgarlikni tashkil etish lozim.

Mazkur qoidalarni biz kurashchi texnik-taktik mahorati tizimidagi "Kurash usullari" ko'rinishlari misolida kuzatishimiz mumkin. Mazkur usullar kurashchining ushlash variantlari, aldamchi harakatlar, himoyaga qarshi usullar, uchraydigan xatolar kabi variantlarni o'ziga qamrab olgan.

KURASH USULLARI: Kurashchi raqib yaktagini qulay joyidan ushlab, muvozanatdan chiqarib, o'ziga ishonch hosil qilib, har tomondan to'xtamasdan oyoq bilan urib bajaradigan barcha usullar «Qo'shsha» deb nomlanadi.

Orqadan, tashqaridan qo'shsha qilish: raqib orqaga olgan paytda tashlash usulini bajarish qulay. DX — kurashchilarning olishuvni boshlash holati. Ushlash yenglarning ikki umizidan olingan (20-rasm):



1. Hujumchi oyoq bilan raqibni tayanib turgani oyog'iga yaqinlashib, chil solish.

2,3,4,5. Raqibning oyog'i tomonga uning tayanchini o'tkaza borib, o'sha oyog'iga hujumchi oyoq, bilan silkitib va shu oyoqqa

raqibning chap yoki o'ng oyog'ini mindirib, uni burab, orqasi bilan gilamga uloqtirish.

Ushlash variantlari: yengdan va oyoq qaytarmasidan; yengdan va oyoqdan; yengdan va umizidan; ikkala umizidan; yengdan va yaktakning yelka qismidan; belbog'dan va oyoq qaytarmasidan.

Aldamchi harakatlar: ichkaridan supurish; oldindan chalish; tovon bilan ichkaridan ilib olish; orqadan chalish.

Hinoya: qarshilik ko'rsatayotgan tomondan qarama-qarshi tomonga egilish; hujumdag'i oyog'ini orqaroqqa qo'yib, raqibga ko'krak bilan burilish; raqibning orqa tomoniga qadam qo'yish; hujumchini hujum qilgan oyog'i tomonga burab yiqitish.


Qarshi usullar: hujumdag'i oyoq yordamida oldidan supurish; hujumchini hujumdag'i oyoq yordamida beldan oshirib uloqtirish; ko'krakdan oshirib, orqaga qayishib uloqtirish.

Ikki oyoq pastidan qo'shsha: raqib oldinga bukilgan yoki harakat qilayotgan paytda bu usulni bajarish qulay; DX — Raqibning olishuvni boshlash holati. Ushlash yengdan va oyoq qaytarmasidan bajarilgan.

1. Raqibga qarab yarim qadam qo'yib, oyoq yuzini ichkariga burib, shu vaqtning o'zida raqibning tayanch nuqtasini qo'llar yordamida chap oyoq tovoni uchiga o'tkazish;

2. Raqibni muvozanatdan chiqarayotib, chap oyoqda o'tirib va oyoqni ozroq egish bilan raqibga yaqinroq qo'yish. (21-rasm. 1,2,3,4,5,6 ko'rinishlar).

3, 4, 5, 6. Raqibning chap yoki o'ng oyog'ini pastdan urib ko'tarib yuborib, qo'shsha qilib uning gavdasini aylana shaklida yonga, oldinga, pastga burab yuborib yelkalari bilan gilamga uloqtirish.



21-rasm. Ushlash variantlari.

Ushlash variantlari: yeng umizidan va oyoq qaytarmasidan; yengning ikki umizidan.


Aldamchi harakatlar: orqadan chalish; tashqaridan oyoq tovonini ildirib tashlash;

Himoya: raqibning orqasiga o'tib olmoq; chap yoki o'ng oyoqni tovon bilan ililib olmoq; raqib burilgan tomoniga hamohang holda yurmoq; raqib qo'llariga tiralib, biroz pasaymoq; gavdani rostlamoq va hujumda bo'lmanagan oyoqni oldinga qo'ygan holda raqibga yon tomon bilan turmoq.

Qarshi usullar: ko'krakdan oshirib uloqtirish; orqa bilan keskin burlish.

Uchraydigan xatolar: hujumchi oyoqni raqibga yaqin qo'yilishi; raqibning muvozanati yetarli kuch bilan hujumchi oyog'iga o'tkazilmagan; kurashchi tayanch oyog'ini yetmagan va gavdani pasaytirimagan.

Ichkaridan qo'shilish: raqib oyoqlarini keng qo'yib oldinga egilganda yoki harakatlanguanda usulni bajarish qulay; DX - raqibning olishuvni boshlash holati. Ushlash chap yoki o'ng yengdan va oyoq qaytarmasidan.



22-rasm. Uloqtirish variantlari.

1. Hujumchi oyog'ini yarim qadam oldinga qo'yib, oyoq yuzini ichkariga burish

2. Bir vaqtning o'zida raqibning muvozanatini hujumdagi oyoq tovoni uchiga keltirish, raqibni muvozanatdan chiqara turib, hujum-

dagi oyoqda aylanib, tayanch oyoqni raqibga yaqin qo'yib, tayanch oyoq'ini biroz bukish. 3,4,5,6. Raqibni hujumchi oyoqqa mindirgan holda qo'llar yordamida uning gavdasini o'ngga, pastga, yonga, ostiga burab yelkasiga uloqtirish.

Ushlash variantlari: yengdan va oyoq qaytarmasidan; yengdan va oyoqdan; yengdan va yaktakning yelka qismidan; ikkala yengning umizidan.

Aldamchi harakatlar: tashkaridan oyoq'oz bilan ildirish; ichkaridan oyoq kafti bilan supurma qilish; ichkaridan boldir bilan ildirib olish; muvozanatdan chiqarish.

Himoya: raqib orqasiga o'tib olish; raqib burilgan tomonga o'tib olish; hujumchi ustidan o'tib olish; qo'llar bilan hujumchini itargan holda o'tirib olish.

Kurash usullar: boldir bilan bir xil nomli oyoqni tashkaridan ildirish; hujumchi oyog'i ustidan oyog'ini tortib olib, gavdasini oldinga burib yuborish; orqaga qayishgan holda hujumchini uloqtirish; yengi va belbog'idan ushlab oldinga aylantirib, (yuklama) usulini qo'llab uloqtirish.

III. Juftliklar, kichik guruuhlar ishini tablil qilish.

Talabalar juftliklar va guruuhlarda ishlab kurashchining texnik tayyorgarligi mavzusi bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni taqdim qiladilar.

Taqdimot jarayonida quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- texnik tayyorgarlik, umumiyligining maxsus texnik tayyorgarlik bilimlarini tizimli shakllantirish;
- texnik harakatlarni tashkil qilish va amalga oshirishning umumiyligining asoslarini o'rganish;
- kurashda texnik harakatlarni egallash, qoidalari, usullari, bosqichlarini bilish, amalda qo'llay olishning zarurligi;
- kurashda texnik mahoratni oshirish yo'llarini mukammal egallash;
- kurash jarayonida texnik harakatlarni engillashtirishga oid mashqlarni bajara olish malakalariga ega bo'lish;
- kurashda kurashchining himoyalanish ushlashlari, oldindan supurib tashlashlar, yon tomonidan supurib tashlashlar, tovonidan

supurishlar, oyoq yuzasi bilan ildirishlar, chil usullari, kurash usullari texnik tayyorgarlikning muhim omillari ekanligini bilib olish; kurashdagi g'alaba «Vatan iftixori», yurt quvonchi, millat sog'inchisi ekanligi xususida talabalarda his-tuyg'u hosil qilish.

Mashg'ulot oxirida "Vatanimiz iftixorlari" nomli fotohujjalardan, videoko'rsatuvlardan, hujjal filmlardan foydalananildi. Uyga vazifa: "G'alabada kurashchining texnik tayyorgarligining o'rni" mavzusida referat yozish.

3-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: KURASHCHINING TAKTIK

TAYYORGARLIGI

Mashg'ulotning maqsadi: talabalarga taktik tayyorgarlik, uning maqsadi, vazifalari, bo'limlari, hujum harakatlarini tayyorlash taktikasining mazmuni, kurashchi taktikasining xususiyatlari xaqida ma'lumot berish; ularda vatanparvarlik his-tuyg'ulari va barkamollikni rivojlantirish.

Mashg'ulot jarayonidagi talabalar:

- "kurash taktikasi" tushunchasining mazmuni-mohiyatini bilib oladilar;
- kurashchi taktik tayyorgarligining maqsad va vazifalarini tushunib etadilar;

- kurashchi taktik tayyorgarligining o'rta asosiy bo'limlaridan xabardor bo'ladilar;

- hujum taktikasini tayyorlashda kurashchining harakatlari, bellashuv kurash taktikasining xususiyatlarini tushunib oladilar;

- milliy kurashda hujum harakatlarini tayyorlash taktikasini o'rGANADILAR;

- kurashda taktik tayyorgarligikning kurashchi texnik tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lgan tomonlari bo'yicha ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Mashg'ulotning shakli: Kichik guruhlarda ishlash (5 kishilik 5 ta guruh).

Mashg'ulot usuli: Interfaol.

Mashg'ulot jihizi: taktik ko'rinishlar tasvirlangan lavhalar, insert jadvali, guruhlar uchun mo'ljallangan topshiriqlar to'plami, kurashni aks etdiruvchi video lavhalar, darsliklar.

Ajratilgan vaqt - 4 soat.
O'tish joyi: Amaliy mashg'ulot xonasi.

Mashg'ulotning borishi:

1. **Tashkiliy qism** (salomlashish, mashg'ulot maqsadini e'llen qilish, vazifalarini tushuntirish, guruhlarni tashkil qilish (5-kichik guruh).

2. **Kichik guruhlarda ishlash.** Guruh-talabalari besh nafardan bo'lib, 5 ta kichik guruh ajratiladi. Mavzuning umumiy matni har bir topshiriq uchun 5 tadan o'quv elementi tashkil etilib va bu o'quv elementlarini o'rganib chiqish vazifasi kichik guruhlarga topshiriladi.

3. Mavzu bo'yicha hal etilishi zarur bo'lgan topshiriqlar:
1-topshiriq. "Milliy kurash taktikasi"ning bo'limlari va hujum harakatlari.

Topshiriq bo'yicha 5-o'quv elementi guruhga beriladi va kichik guruh a'zolari navbatma-navbat bu o'quv elementlarini yechib chiqadilar.

1-o'quv elementi: "Kurash taktikasi"ning maqsadi va vazifalari.
2 o'quv elementi: taktik tayyorgarlikda hujum harakatlari.
3- o'quv elementi: hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi.

4- o'quv elementi: bellashuvni tuzish taktikasi.
5- o'quv elementi: taktik tayyorgarlikda hujum harakatlarining o'mni.

2-topshiriq. "Milliy taktik harakatlar tasnifi va mazmuni".
1- o'quv elementi: milliy kurashda tayyorlovchi va asosiy taktik harakatlar.

2- o'quv elementi: kurash taktikasi va hujum, himoya va qarshi hujum harakatlari.

3- o'quv elementi: taktik harakatlarda tayoqlar bilan bajariladigan mashqlar.

4- o'quv elementi: taktik harakatlarda arzoncha bilan bajariladigan mashqlar.

5-o'quv elementi: taktik harakatlarda rezina bovliq bilan bajariladigan mashqlar.

3-topshiriq. Hujum harakatlarini tayyorlash va o'tkazish taktikasi.

1- o'quv elementi: milliy kurashda masofani tanlash va muvozanatni chiqarish taktikasi.

2- o'quv elementi: milliy kurashda raqibga yaqinlashish taktikasi.

3- o'quv elementi: milliy kurashda uloqtirish usullarini qo'llash taktikasi.

4- o'quv elementi: belbog'dan ushlab chalish usullarini qo'llash taktikasi.

5- o'quv elementi: qo'llar bilan qo'lini ushlab uloqtirish usulini qo'llash taktikasi.

4-topshiriq. Oyoq bilan chalib uloqtirish usullarini qo'llash taktikasi.

1- o'quv elementi: oyoq bilan chalish taktikasi.

2- o'quv elementi: ikki oyoqni orqadan chalib uloqtirish taktikasi.

3- o'quv elementi: oldindan chalib uloqtirish usulini qo'llash taktikasi.

4- o'quv elementi: ilish va tovon bilan ilish usullarini qo'llash taktikasi.

5- o'quv elementi: yaqinlashtiruvchi va imitatsion usullarini qo'llash taktikasi.

5-topshiriq: "Bellashuvni tuzish va musobaqalarda qatnashish taktikasi".

1- o'quv elementi: bellashuvni tuzish taktikasi.

2- o'quv elementi: taktik reja va uning tarkibiy qismlari.

3- o'quv elementi: bellashuvda turli usullar va vositalarni tafsiflovchi harakatlar.

4- o'quv elementi: musobaqalarda ishtirok etishda taktik mahoratga o'rganish yo'llari.

5- o'quv elementi: musobaqalarda qatnashish taktikasi.

Guruhlarning topshiriqlar ustida ishlashlari uchun tavsiya qilinadigan adabiyotlar:

1. Atoev A.Q., Yosh o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. – T.: O'ZDJTU nashriyot matbaa bo'limi. 2005, 65-86-betlar.

2. F.A. Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyoti. – T.: O'ZDJTU nashriyot matbaa bo'limi. 2005, 118-139-betlar.

3. Toymurodov A.R. O'zbek milliy kurashi. – T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot. 1990, 38-105-betlar.

4. Kurash. (Ma'ruzalar matni). – Buxoro, 2011. Tuzuvchilar: katta o'qituvchi Q.P.Arslonov, o'qituvchilar J.R.Jo'raev, R.S.SHukurov.

1-topshiriq bo'yicha:

Kurashdagi muvaffaqiyatlar kurash texnikasini yaxshi egallashga bog'liq. Kurashdagi texnik usullar esa taktik harakatlarni ustalik bilan amalga oshirish bilan belgilanadi va u **kurash taktikasi** deb nomlanadi. Milliy kurash taktikasi mavzusi o'tilganda kurash musobaqalarida yuzaga keladigan tayyorgarlik va asosiy harakatlardan iborat muayyan sharoitdagi texnik, jismoniy, irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq foydalanilgan holatlar tushuniladi. Taktik tayyorgarlikda kurashchi, avvalo sport kurashi turini, unga oid bilim, ko'nikma, malakalarni va jismoniy texnik mahoratni egallagan bo'ladi.

Olimlar va tajribali kurashchilarning fikrlariga ko'ra kurashchi taktik tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun kurashchi uning maqsad va vazifalarini egallagan bo'lishi kerak. Kurashchi taktik tayyorgarlikni **maqsadi** g'alabaga yoki yuqori natijani qo'liga kiritish uchun o'z qobiliyatini, jismoniy-irodaviy tayyorgarligini to'g'ri tashkil qilishi va uni olib borishga yo'naltirishi hamda tarbiyalashi kerak. Bu maqsadni amalga oshirish uchiun milliy kurash taktikasini egallash jarayonida quyidagi **vazifalar** hal qilinadi:

- taktik harakatlarning-tayyorlovchi, asosiy va ayrim harakatlarni bajara olish; qobiliyatiga ega bo'lish;
- musobaqada yoki mashg'ulotda vaziyatni aniq va tezkor ko'ra biliш; tahlil qilish orqali harakatlarni to'g'ri amalga oshirish;
- o'z kuchi; qobiliyati, jismoniy va texnik tayyorgarligini aniq hisobga olib g'alabaga ishonchini to'liq safarbar qilish;
- vaziyatni aniq baholab mustaqil qarorlar qabul qilishi, buning uchun:
 - taktik bilimlarga ega bo'lish;
 - taktik ko'nikmalarini egallah;
 - taktik malakalarga ega bo'lish;
- qat'iy belgilangan harakatlar tuzilmasi, jismoniy sifatlar, texnik holatlar yig'indisidan iborat harakatlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

Buning uchun taktik tayyorgarlik bo'limlarini tashkil etishi ya'ni:

- hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi;
- bellashuvni tuzish taktikasi;
- musobaqlarda qatnashish taktikasi.

Taktik tayyorgarlikda hujum harakati muhim ahamiyatga ega. Odatda taktik harakatlarning uch guruhi tavsija etiladi:

1) tayyorlovchi harakatlar-bunda asosan kurashchi o'z raqibining zaif tomonlarini axtarib topishi (razvedka); 2) asosiy taktik harakatlar -hujum, himoya harakatlari va qarshı hujum harakati; 3) ayrim usul va harakatlar (kurashish mashqlar kurashi, musobaqa kurashi va h.k.) larni bilish kirdi. Bu harakat turlarini professor F.A.Kerimov quyidagicha tavsiflaydi.

Milliy kurashda musobaqa faoliyatining tahlili hujumning ikkita turini aniqlab beradi: 1) oddiy qachonki hujum darhol asosiy usuldan so'ng boshlansa va murakkab ikkita yoki uchta turli harakatlarni qo'llasa (birinchisi keyingi harakatlar bilan hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yaratadi). Ularning ikkalasi to'xtovsiz bir butun harakat sifatida bajariladi va g'alabaga erishiladi. Bu murakkab hujum harakatlari ikkala turga ajratiladi.

-Qulay dinamik vaziyatni tayyorlashning maxsus usuli va (u bilan o'zaro bog'liqlikda) hal qiluvchi usulni o'z ichiga oluvchi hujum.

Bir necha usullardan iborat kombinatsiyali hujum¹. Kurashching taktik tayyorgarligida hujum usullarini esdan chiqarmaslik kerak. N.M.Galkovskiyning (1972) fikricha, kurashda ko'pincha oddiy usul harakatlari emas, balki murakkablar muvaffaqiyat keltiradi. Bu o'tkazgan tadqiqotlar natijasida shu narsalar aniqlandiki, usul tuzilmasidan darhol boshlanganidan to'g'ridan-to'g'ri hujum kamdan-kam maqsadga erishiladi. Odatda qulay dinamik vaziyatni tayyorlash uslubi hamda hujum usuli tuzilmasi yaxlit harakatga, ya'ni harakat ansambliga qo'shilib ketadigan hujum harakatlari muvaffaqiyat keltiradi. Usulni amalga oshirish uchun taktik tayyorgarlik usullarini gunohlarga tasniflashni birinchi bor 1967-yilda A.N.Lens ishlab chiqqan. A.N.Lensning fikricha, usullar uchta guruhga bo'linadi:

-bu usullar yordamida kurashchi o'ziga zarur bo'lgan raqibning himoya reaksiyasiga;

-kurashchi uchun foydali bo'lgan raqibning chorlovini ta'minlaydigan usullar;

-bu usullar yordamida kurashchi o'z raqibining ma'lum harakatlariga e'tibor qilmaydi, yoki bo'sh himoya bilan javob beradi.

¹ Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usulbiyoti. -T. O'zDJTI, 2005.120-bet.

Texnik usullarni qo'llashda hamma usullar uyg'unlashgan holda qatnashadi.

Bunda dinamik vaziyat murakkab hujumning yaratilishi bilan bog'liq bo'ladi. Taktik tayyorgarlik jarayonida hujum harakatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

-birinchi harakat, hujumchiga zarur bo'lgan raqibning himoya reaksiyasi bilan bog'liq. Bu reaksiya hujum harakatini amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, hujum qiluvchi yelkasidan oshirib tashlashni amalga oshiradi, raqib, himoyalanib gavdasini to'g'rileydi, bu bilan qo'lni va shunga mos bo'lgan oyoqni ichkaridan ushlab olib zarba bilan ag'darishni amalga oshirishga yordam beradi;

-ikkinchi harakat usul raqibning faol reaksiyasiga erishish maqsadida amalga oshiriladi, ya'ni: raqib qarshi usul qo'llaydi, undan so'ng hujum qiluvchi ikkinchi harakat amalga oshiradi. Masalan, hujum qiluvchi oyoqni ushlab olib ag'darish, raqib- uzoqdagi sondan teskari ushlab olib ag'darishni amalga oshiradi;

-hujum qiluvchi vaziyatdan foydalanib, qo'ldan ushlab oladi va yelkadan oshirib tashlashni bajaradi;

-uchinchchi harakatda hujum qiluvchi birinchi usulni amalga oshirish natijasida raqibni shunday holatga solib qo'yadiki, u yoki bu himoya, bo'shashish bilan javob qaytaradi, yoki javob qaytarmaydi. Masalan, qo'ldan siltab, gilamga tushirish-oldidan qoqish; teskari oyoqni tashqaridan ilib olib, qo'l va gavdani ushlab olgan holda zarba bilan ag'darish-qo'l va gavdani ushlab olib egilib tashlash.

Murakkab hujum harakatlari bilan muvofaqiyatli hujum qilish shunga asoslanadiki, raqib kuch berish yo'naliishini o'zgartirib bajariladigan dasturlangan murakkab hujum harakatiga ikki-uch marta javob qaytarishga majbur va har safar hujum qiluvchining harakatlanish xususiyati hamda yo'naliishini oldindan bilish uchun unga javob qaytarish vaqtidan yutqazadi, chunki unda bitta yoki ikkta reyaksianing latent davri yuzaga keladi.

N.M.Galkovskiy (1971) hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatlarning beshta guruhidan foydalanishni tavsiya etadi:

- qachonki, raqib gavdasi yenga olmaydigan muvozanat burchagini ag'darishning nisbatan tanlangan tomoniga ega bo'lsa;

- qachonki, umumi og'irlik markazidan (UOM) tayanch maydonining chetiga harakatlanishi natijasida mustahkamlik burchagi ag'darish yo'naliishiga qarab kamaysa;

- qachonki, raqibning umumiy og'irlik markazi tezlik bilan yuqoriga o'tsa (ko'chsa);
- qachonki, raqib tayanchini osonlikcha bartaraf etish mumkin bo'lsa;
- qachonki, raqib "o'lik nuqta" holatida turgan bo'lsa (uning reyaksiyasining latent davri).

A.N. Lens (1972) usulni amalga oshirish taktikasini quyidagi ketma-ketlikda egallashni tavsiya etadi;

- usulni bajarishning taktik shart-sharoitlari bilan tanishish;
- usulni qulay vaziyatlarda bajarish;
- qulay sharoitlarni yaratish usullarini egallash, ularda raqib aldamchi harakatga javoban oldindan belgilangan himoyalanish bilan javob qaytarishi lozim.
- texnik harakatning optimal variantini tanlash va muayyan dinamik vaziyatga muvofiq holda uni bajarish tuzilmasiga ayrim o'zgartirishlarni kiritish.

Asosiy usulni samarali bajarishda tayyorlov harakatlari katta ahamiyatga ega, shuning uchun ular uzviy bog'iqlikda takomillashtirilishi lozim. Takomillashtirishda asosiy qiyinchilik harakatning bir turidan ikkinchisiga o'tish fazasida yuzaga keladi (A. A Novikov, 1966). Mahorat darajasi qancha yuqori bo'lsa, bunday bog'iqliklar ham ko'zga tashlanadi (A. V Rodionov, 1971)¹.

Hujum harakatlari tayyorlash taktikasi – hujum harakatini ma'lum bir usul bilan taktik tayyorlash murakkab usulning bir qismi bo'lishi lozim. Bunda u hujum usuli bilan uzlusiz ravishda bajariladi. Aldamchi harakatdan (Shaxsan hujum bajarishni taktik tayyorlashdan) murakkab hujum hatakatining (MHH) hal etuvchi yakuniy harakatiga o'tish paytiga alohida e'tibor qaratish lozim. Turli hujum usullariga eng maqsadga muvofiq bo'lgan taktik tayyorgarlik usullarini tanlash lozim. Shu maqsadda kurashchilar taxmini MHH bilan tanishgandan so'ng quyidagi topshiriqni oladilar; ma'lum bir usulga mustaqil ravishda tayyorgarlik usullarini tanlash va ularni hujum usullari bilan MHH birlashtirish.

Murakkab hujum harakatlari takomillashtirishda pedagogik jarayon yangi malakani tarbiyalashga qaratilgan. Yangi MHHni muvofaqiyatli egallash faqat avval o'rganilgan usullar asosida amalga

¹ O'sha kitob, 121-b.

oshirilishi mumkin. MHHni o'rganish jarayonida MHHni shakillantirishda qiyinchiliklarni ketma-ket yengib o'tish talabiga ryoja etish lozim.

Ma'lum bir usulga nisbatan hujum harakatlari qo'llanilishini o'rganishda raqib harakatlarida "O'lik nuqtani" (harakatsiz holat va ma'lum bir vaqt ichida himoyalanish harakatlarni bajara olmaslik) yaratib, usul harakatini yo'nalish tomonga kabi qarama-qarshi tomonga turli taktik usullarini tanlash zarur.

Kurashda oyoqni ushlab olish bilan bajariladigan usullar ko'p qo'llanilishi sababli o'smirlarni ko'p sonli hujumini taktik tayyorlash usullariga o'zgartirish zarur. Buning asosiy maqsadi — o'smirlar o'zlariga yoqadigan murakkab hujum harakatlarni mustaqif yarata olsinlar. Bundan tashqari o'smir turli raqiblarga qarshi tanlab qo'llay olishi mumkin bo'lgan turli MHHni egallashi lozim.

Hujum harakatlari taktikasiga keyinchalik o'rgatish turli usullarda kombinatsiyalar tuzish va ular bilan hujum qilishni egallash yo'li orqali olib boriladi. Kombinatsiyalar shunday tuzilishi kerakki, birinchi usul bilan bajariladigan hujum raqibning himoyalanish harakatlari natijasida keyingi usul bilan hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yaratishi lozim. Kombinatsiyalar to'xtovsiz bajariladigan uchta, to'rtta usullardan tashkil qilinishi mumkin. Bunda oxirgisidan oldingi hujum usulini oxirgi (yakuniy) usul uchun qulay dinamik vaziyatni yaratishi zarur. Bunday kombinatsiyalar bilan hujum qilish misollarini o'qituvchi ko'rsata olishi hamda o'smirlarni bunday hujumlarini mustaqil o'ylab topishiga o'rgatish lozim.

2-topshiriq bo'yicha

Qayd qilinganidek milliy kurashda kurashchilarning bellashuv'i tayyorlovchi, asosiy taktik harakatlar va turli holatda turli masofada turib harakatlarni amalga oshirishni o'zida qamrab oladi. Bu taktik harakatlar tayyorlovchi, razvetka va hiyla ishlatish harakatlaridan iborat bo'ladi.

Tayyorlovchi harakatlarga musobaqa qoidalarida nazarda tutilgan hujum va himoya harakatlanishning muvaffaqiyatini ta'minlashga yo'naltirilgan harakatlari kiradi. Bular raqibning zaif tomonlarini qidirishi razvetka, hiyla ishlatishi (manyovr qilishi) va o'z rejalar, harakatlari, holatlaridan iborat bo'ladi. Raqibning zaif tomonlarini qidirish (razvedka), hiyla, ishlatishi (manyovr qilish) va o'z rejalar, harakatlari, holatlaridan iborat bo'ladi.

Raqibni aniqlash professor A.Q.Atoyev ta'kidlaganidek, bellashuvga va bellashuv vaqtida bo'lishi mumkin¹. Bellashuvgacha tayyorgarlikda raqibi haqida umumiy ma'lumotga, uning familiyasi, millati, malaka-mahorati, tashqi ko'rinishi, taktik harakatlarini aniqlashi talab etiladi.

Bellashuv vaqtida kurashchi psixolog bo'lishi-raqibining eng yaxshi ko'rgan turish holati, masofadagi holati, ushslash usullarini fiziolog bo'lisch-harakatlari, kuchini, usulni bajarishdagi tayyorgarligini niyatlarini, qanday hujum intilishini, himoyalanish usullari, qarshi hujum harakatlarini, artist bo'lishi raqibni sohta harakatlar bilan o'z raqibni aldashi, o'z kurash rejasiga kurashishga raqibni majbur qilishi, g'alabaga erishuvchi mard irodali kurashchi bo'lishi talab etiladi.

Manevr ya'ni hiyla ishlatishda raqibni ushlab turli holdagi holda siljitimishlarini, soxta harakatlarini undashi, taklif qilish usulini qo'llab o'z kurash usuliga taklif qilish, qarshi hujum harakati, himoya harakatini qarshi hujumga o'tish harakatlarini mukammal bilishi kerak.

Turli holatda va turli masofada turib harakatlarni amalga oshirish aldamchi sohta harakatlar bo'lib raqibini nequlay holatga solib qarshi hujumga o'tish uchun ishlatiladi. Bu raqibdan o'zining haqiqiy niyatlarini yashirish, uning xushyorligini yo'qotish, chalg'itish uchun eng qulay bo'lib hisoblanadi. Bu har bir kurashchining yashirish uslubi hisoblanib, uning haqiqiy niyatlarini amalga oshirishda yaxshi imkoniyatlarni yaratib beradi.

Asosiy taktik harakatlar, mudofa, himoya va qarshi hujumdan iborat bo'lib, o'zi uchun qulaylik yaratuvchi, bir maromda bajariladigan taktik harakatni to'liq amalga oshirish va niyatga erishishni osonlashtiradi. Odatda mudofaa harakatlari himoya va qarshi hujum harakatlarini tashkil etadi.

Himoya harakatlarida raqibning qo'llaydigan usulidan, qarshi hujum uyuştirish bilan hujumdan qutilish va undan qochish amalga oshiriladi bu qarshi hujum uchun qulaydir.

Qarshi hujum harakatlari raqib hujumiga qarshi hujum javobi bo'lib, raqib harakatlarini oldindan payqab tashabbusni o'z qo'liga olishi degan manodir. Bu ma'lum ma'noda taktik tafakkur, taktik usul


¹ O'sha kitob, 122-bet.

va harakatlarni tezkor amalga oshirishni tarbilaydi. Shuning uchun asosiy taktik harakatlarni mukammal bilish va undan foydalanishni to'g'ri bajarish kurashchining muvaffaqiyat garovidir¹.

Kurashda hujum, himoya va qarshi hujum harakatlari muhimdir. Hujumda oldindan hech qanday tayyorgarlik ko'rmasdan vaziyatdan kelib chiqib taktik-texnik harakat qilish ko'zga tashlanadi. Bunda oldindan ko'lligan tayyorgarlikka asosan oyoqlar oldidan chalish, oyoqlar yonidan qoqish va oyoq oldidan oyoq bilan qoqish usullaridan foydalaniadi. Bunday usul qo'llanilgan vaqt, tayyorgarlik vaqt mashg'ulotlarda belgilab qo'yilib, maqsadni amalga oshiradigan harakat usulini o'zgartirish vaqtin belgilab qo'yiladi.


Qarshi hujumga o'tish-maqsadni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit raqib tomonidan amalga oshirilayotgan yoki taklif qilinadigan harakatlar bilan hosil bo'ladi. Birinchi holatda kurashchi dastlab himoya harakatlarini amalda qo'llaydi va qarshi hujumga o'tadi. Ikkinci, holatda kurashchi raqibni muayyan usulni, qo'lashga davat etuvchi harakatlarni bajaradi. So'ngra hujumga o'tadi. Har ikki holatda ham bajarish uchun sarf etilgan vaqt hisobga olinishi va belgilab qo'yilishi zarur. Hujum va qarshi hujumning oyoqlar oldidan chalish, oyoqlar oldidan qoqish va oyoq oldidan oyoq bilan qoqish harakatlari quyidagi ko'rinishlarda berilgan (Rasm va ma'lumotlar A.Toymurodovning O'zbek kurashi. – T.: Ibn Sino, 1990. Qo'llanmasi asosida tayyorlandi.):

- Bunda:
 - a) oyoqlar bilan oldindan chalish;
 - b) oyoqlar bilan yonidan qoqish;
 - c) oyoq oldidan oyoq bilan qoqish. Bular:



23-rasm. Oyoqlar oldidan qoqish.

¹ A.Atoev. Kurash. –T.: O'qituvchi, 1987. 134-bet.




24-rasm. Oyoq oldidan oyoq bilan qoqish.

Shu amalni raqib yonga, oldinga, orqaga yurganda va joyida turgan paytlarda ham qo'llashi mumkin:

Hujum, qarshi hujum harakatlari bilan birga himoya harakatlari ham amalga oshirilidi. Himoya harakatlari odatda raqib tomonidan ma'lum hujum harakatlarini o'tkazish uchun hujum qilingan paytidan boshlanadi. Hamda himoya harakatlarini amalga oshirilishi bilan tugallanadi.


Bunda oldingi mashg'ulotlar vaqtida tayyorgarlik ko'rildi. Bu tayoqlar bilan ishlash yoki arqoncha va rezina bovliklar bilan bajaradigan mashqlardan iborat bo'ladi.



Tayoqlar bilan bajariladigan mashqlar

Tayoqlar bilan bajariladigan mashqlarini jismoniy tarbiya o'qituvchisi A. Nurillaev quyidagicha tavsiflaydi. Bu mashqlar, asosan, qo'lning panja muskullari kuchini rivojlantirish, harakatlar sur'ati va ritmini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Ularни yakka holda va shergi bilan bajarishi lozim. Mashqni bajarishda qo'llaniladigan tayoqlar: gimnastika tayoqchasi; yog'och, metall va sintetik materiallardan tayyorlangan tayoqlardan iborat bo'lib ularning diametri 2-2,5 sm, uzunligi 80-90 sm bo'ladi.

Yakka holda bajariladigan mashqlar: o'ng va chap qo'l panjalari bilan tayoqni yuqoriga, pastga siljitim tayoqni yuqoriga otib bir qo'llab ilib olish, tayoqni bir qo'lidan ikkinchi qo'lga tashlab uning ma'lum bir joydan ushlab olish.



25-rasm. Tayoq bilan bajariladigan mashqlar.

Juft-juft bo'lib bajariladigan mashqlar: tayog'i bilan sheringining tayog'iga o'ng tomonidan yuqoriga, chap tomonidan yuqoriga; o'ng tomonidan pastga, chap tomonidan pastga. Avval sekin asta muayyan kuch bilan keyin esa tez va maksimal tezlik bilan uriladi (25-a rasm). Mashq bir-ikki minut uzlusiz, navbat bilan bajariladi keyin esa qo'llar bo'shashtiriladi ikki tayoqni shergiga dioganal bo'yicha navbat bilan o'ng qo'li bilan o'ng qo'liga, chap qo'li bilan chap

qo'liga irg'itish va ushlab olish (25-b-rasm). Mashq dastlab sekin, so'ngra chaqqoni va maksimal tezlikda bajariladi.

Xuddi shunday ammo endi bir yo'la ikkita tayoqni irg'itish va ushlab olish va so'ngra goh ikki tayoqni goh bir tayoqni galam-galdan irg'itib olish. Mashq tezligini oshirish hamda uni oldinga va orqaga harakatlani bajarish hisobiga murakkablashtiriladi. Bunda sherigi oraliq masofani saqlashga harakat qilishi kerak.

Tayoqni vertikal holatda ikki qo'l bilan ushlab turib, sherigini oraliqdagi chiziqdan tortib o'tkazish mashqi (25-v rasm). Xuddi shu mashqni tayoqni gorizontal holda ushlab bajarish (25-g rasm).



26-rasm. Arqoncha bilan bajariladigan mashqlar.

Arqoncha bilan bajariladigan mashqlar kurashchining chidamlilagini va chaqqonligini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Bunda arqonchada o'ng va chap oyoqda navbatil bilan sakralash (26-rasm); arqoncha har bir aylanib kelganda avval faqat bir oyoqda keyin ikkinchi oyoqda sakrash; shundan so'ng ikki oyoqlab sakrab o'tish; so'ngra bir sakraganda arqonchan ni ikki-uch marta aylantirish harakatlari amalga oshiriladi. Mashqlar turgan joyda va harakatda 2-3 minutda bajariladi. 1 minut pauza qilib, yana 3-4 marta takrorlanadi.




27-rasm. Rezina bilan bajariladigan mashqlar.

Shuningdek rezina bovliq (lenta) bilan bajariladigan mashqlar ham kurashchining chidaqonligini va chagqonligini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda rezina bovliqni muskamlab qo'yish hamda navbatma-navbat o'ng va chap qo'l bilan yoki bir yo'la ikkala qo'l bilan bovliqni cho'zish va qo'yib yurorish (26-a rasm) amalga oshiriladi. Mashqni 1-2 minut mobaynida turli tezlik bilan so'ngra qo'l muskullarini bo'shashtirish va siljitim bajariladi. Bovliq old old tomondan va orqasidan bir oyoq bilan bosib oldin o'ng, keyin chap qo'l bilan tortib cho'ziladi. Asosiy mashqlar rezinani ikki qo'llab ushlab, ko'krakni oldida cho'zish, rezinaning bir uchini oyog'iga mahkamlab, yelka tomondan bitta (o'ng yo chap) qo'l bilan tortish. (27-b rasm). Xuddi shu harakatlarni yotgan holda bajarish mumkin.

3-topshiriq bo'yicha


Kurashda hujum harakatlarini tayyorlashda masofani tanlash juda muhim. Buning uchun mashg'ulotlarda yakka holda siljishga o'rgatish lozim. Fazle natijadarga ko'ra siljish masofani tanashdan boshilanadi. Harakat uchun yaqin o'rta va uzoq masofalardan turib o'tkaziladi. Buni quyidagi rasmlarda ko'rish mumkin. Bu rasmlarda kurashchilarining oraliq (uzoq, o'rta, yaqin) masofalari tasviriangan.

Kurashchilarining oraliq, masofalari 5 xil bo'ladi: 3-topshiriqning 1-elementlari




28-rasm. Kurashchilarining uzoq masofada turishlari.

1. Ushlashsiz masofa — kurashchilar bir-birlarini biron joyidan ushlamasdan, ammo ushlash uchun qulay fursatni poylab har xil harakatdagi holatlari (28-rasm).




29-rasm. Kurashchilarning o'rta masofada turishlari.

Kurashchilar bir-birlarining yaktagini bir qo'llari bilan yaktakning gavda qismidan, ikkinchi qo'l bilan yengidan ushlab turishlari.



30-rasm. Kurashchilarning yaqin masofasi.


Kurashchilar bir qo'l bilan gavdani yoqa yoki yengidan qismidan, ikkinchi qo'l bilan belbog'ning old yoki yon tomondan ushlab turgan holatlari (30-rasm).



31- rasm. Kurashchilarning o'ta yaqin masofasi.

- kurashchilar bir-birini quchoqlab olib, gavda bilan bir-birlariga qisilib yoki oyoq bilan ichkaridan chil solib turgan holatlari (31-rasm). Raqibni muvozanatdan chiqarish usulining asosiy qismi hisoblanadi. Muvozanatdan chiqarishning quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

1. Oldinga — ikki qo'l harakati bilan raqib oldinga tortiladi, gavdasi oldinga buqilib, oyoqlar poshnasi gilamdan uzliladi va raqibning umumiy og'irlik markazi (UOM) oldinga intiladi (32-rasm).



32-rasm. *Orqaga va oldinga sittash.*

2. Orqaga — ikki qo'l harakati bilan raqib orqaga sitanadi, gavdasi orqaga bukilib, oyoq uchlari gilamdan uzliladi va UOMning vertikal chizig'i orqaga siljiydi (32-rasm).



33-rasm. *O'ziga tortib sittash.*

3. O'ngga — chap qo'lning harakati o'ngga-pastga, o'ng qo'l harakati o'ngga-yuqoriga, raqibining o'ng oyog'ining tashqi tomoniga, chap oyoq bilan ta'sir ko'rsatiladi. UOMning vertikal chizigi o'ng oyoqda o'tadi.

4. Chapga — o'ng tomonga qilingan harakatlar simmetrik ravishda amalga oshiriladi, faqat UOMning vertikal chizig'i chap oyoqqa o'tadi.

5. *O'ngga-oldinga* — chap qo'l bilan o'zidan yuqoriga, o'ng qo'l yordamida yuqori-o'ngga harakat bajarilib, raqibning o'ng oyog'iga ta'sir ko'rsatiladi (34-rasm).

6. *Chapga-oldinga* — o'ngga-oldinga usulidagi barcha harakatlar simmetrik ravishda bajarilishi shart.



34-rasm. *O'ngga-oldinga tortish.*



35-rasm. *Chapga-orqaga tortish.*

7. *O'ngga-orqaga* — chap oyoq, bilan raqibga yaqinlashadi, chap qo'l harakati o'zidan o'ngga-pastga yo'nalgan, o'ng qo'l esa o'zidan o'ngga va raqibning o'ng oyog'iga ta'sir ko'rsatiladi (35-rasm).

8. *Chapga-orqaga* — o'ngga-orqaga usulidagi barcha harakatlar simmetrik ravishda amalga oshiriladi. Faqat raqibning UOMning vertikal chizig'i chap oyog'iga o'tadi.


Kurashchi raqibini muvozanatdan chiqarar ekan, o'zi mustahkam turgan bo'lishi va taktik-texnik usullar ko'rsatishga shay bo'lishi shart.

Kurashchi gilamda harakatda bo'lgan paytda uning og'irligi chap yoki o'ng oyog'iga o'tadi va o'z mustahkamligini yo'qotib turadi. Olishuv paytida bunday harakatlar yashin tezligida bajarilishi shart. Muvozanatdan chiqarish, raqib harakati qaysi tomonga yo'naltirilgan bo'lsa yoki yuzi yo'naltirilgan tomonga bajarilsa qulayrok, hisoblanadi. Muvozanatdan chiqarish texnikasini bir joyda mustahkam tuxtagan holda o'rGANISHNI boshlash kerak. Bular asta-sekinlik bilan yaxshi o'zlashtirgandan keyin, harakat paytida muvozanatdan chiqarish usullarini o'rGANISH lozim. Bunday maqsadlarga faqat tinimsiz va muntazam mashqlar va mehnat orqali erishish mumkin.

Raqibga yaqinlashish uslublari:

Kurashda usullar bajarilishi uchun gavdani tez va yengil har tomoniga burilishiga qo'shiq chayyat beriladi. Bu hujumda ham, himoyalash ham o'ta zarur burilishning bir nechasi asos shakllari mavjud.

Jumladan o'ngga:



36-rasm

a) kurashchi raqibining oldida to'g'ri turgan holat. O'ngga burilish uchun kurashchi o'ng oyog'ini oldinga quyishi zarur, raqibning o'ng oyog'i oldida, bosh barmog'i uchida, keyin yelkani raqibga o'girib, chap oyog'ini raqibning chap oyog'i oldiga qo'yib, so'ng 180° burilib, o'ng oyoqni uchida burib, qulay holatni egallashi lozim.


b) kurashchi raqib oldida to'g'ri turgan holat (36-rasm).

O'ng tomoniga burilish uchun u chap oyog'ining uchini raqibning chap oyog'i oldiga quyishi lozim, keyin raqibga yelkalarini bura turib, bir siltash bilan o'ng oyog'ini o'zining chap oyog'i va raqibning chap oyog'i o'rtafiga qo'yishi zarur.

Chapga:

a) Kurashchi raqib ro'parasida to'ppa-to'g'ri turgan holat. U chap oyog'ining uchini raqibning chap oyog'i oldiga qo'yishi lozim, unga perpendikulyar holatda ichga qarab qo'yiladi. Keyin uni oldinga holatidan 180° burib, raqibga yelkalar bilan buriladi, bir vaqtning o'zida chap oyoq uchida burilib, kurashchi uchun qulay holatni egallashi shart, oyoq uchini yon tomoniga qaratgan bo'lishi kerak;

b) kurashchi raqib qarshisida tikka turgan holat. Chapga burilish uchun kurashchi o'ng oyog'ining uchini raqibning o'ng oyog'i oldiga quyadi — yon tomoniga qaratilgan holda. Unga yelkasi bilan burilar ekan, bir siltab o'zining chap oyog'ini, o'zining va raqibning o'ng oyoqlari o'rtafiga qo'yishi shart.



37-rasm

4-topshiriq bo'yicha

Mutaxassislarning fikricha, kurashchining taktik mahoratiga uning mo'ljal ola bilishi, himoyalanishda uloqtirish mashqlarida taktik harakatni tog'ri tanlash muhimdir. Avvalo, o'zi uloqtirishdan himoyalanish, ikki qo'li bilan qo'llini ushlab uloqtirish va oldinga yoki yon tomonga yiqitishga erishish. Uloqtirish harakatlarini izohlashda biz professor A. Atoyev ko'rsatmalariga asoslanamiz. (38-a rasm)



38- rasm. Ikki qo'li bilan qo'llini ushlab uloqtirish va oldinga — yon tomonga siltab yiqitish.

Bir zarb bilan ko'tarib uloqtirishdan himoyalanish: ushlab olish imkonini bermaslik va qo'llarni bo'shatishga harakat qilish; (38-b rasm)

yaqin masofadan uzoq masofaga o'tish;
orqa tomonga og'ish va oyoqni oldinga chiqarish;
qarshi harakatlar xuddi avvalgi usullardagidek.

Oyoq chalish bilan uloqtirish

Oyoq chalish — ko'pgina usullarning muhim elementi —


hujum qiluvchining oyog'ini raqibning bir yoki ikki oyog'i tagiga faol harakat bilan olib borishida bajariladi. Shundan so'ng raqib qo'yilgan oyoqdani yiqiladi.

Oyoq chalish usulida chalish uchun qo'yilgan oyoqqa qarshi tomonga qo'l va gavda harakatlantirilib, raqib siltab ko'tarish hisobiga uloqtiriladi.

Oyoq chalish usulini bajarishda eng gulay vaziyat va harakat shartlari quyidagilardan iborat:

Dastlabki holat: ikkala kurashchi o'ng stoykada. Hujum qiluvchi o'ng qo'li bilan shergining to'nini yoqasidan ushlab oladi.

Hujum qiluvchi shergining gavda og'irligini o'ng oyoqqa o'tkazishga majbur etish uchun uni o'ziga, chapga tortadi va shundan keyin o'ng oyog'i bilan ikkala oyog'ini chaladi (39-a rasm) va uni orqasiga yiqitadi (39-b rasm).




39-rasm

Dastlabki holat: kurashchilar o'ng stoykada turadilar. Hujum qiluvchi o'ng qo'lini shergining o'ng yelkasidan o'tkazib, uning belbog'idan ushlab oladi, chap qo'li bilan esa belbog'ii oldindan ushlaydi.

Hujum qiluvchi shergini o'ziga tortib, o'ng oyog'i tovonini shergining tovoniga to'g'rilib, yon tomondan chalayotgandek harakat qiladi, ayni vaqtida chapga aylana borib, shergini o'ziga bosib yiqitadi. So'ngra o'ng yonboshiga yiqilayotib, uni orqasi bilan tashlaydi.

Hujum qiluvchi gavdasini burish, qo'li va tanasini chapga siltash bilan shergini o'z gavda og'irligini oyoq uchlariga o'tkazishga majbur etadi. So'ngra chapga tez aylanib, chap oyog'ini yon bo'ylab orqaga chapga olib boradi. Shu bilan bir vaqtida, chap oyoq uchini aylantira borib, uni shergining chap oyoq uchi yo'nalishida turadigan

qilib gilamga qo'yadi. O'ng oyog'ini oldindan chaladigan qilib shunday qo'yadiki, uning tizza ostidagi bukilishi shergining o'ng tizzasiga tayansin. Bunday holatda gavda og'irligi chap oyoqqa o'tkaziladi, bunda o'ng oyoq esa to'la rostlanishi va butun oyoq tagi to'shakka tegib turishiga ahamiyat berish kerak.



40-rasm. Yelkasidan va chap yoqasidan ushlab oldidan chalish bilan uloqtirish.



41-rasm. To'n yelkasi yoki ikki qo'lini ushlab oldingan chalish bilan uloqtirish.

Dastlabki holat: hujum qiluvchi chap oyoq bilan tik turadi, o'ng qo'li bilan sheri belbog'ining yon tomonidan (shergining chap qo'li tagidan) ushlab oladi, chap qo'li bilan esa belbog'i o'ng tomondan yelka yonidan ushlaydi. Shergi o'ng qo'lini hujum qiluvchining o'ng yelkasidan o'tkazib, uning belbog'ini yelkasi yondan, chap qo'li bilan esa belbog'ni o'ng yonidan ushlab oladi. So'ngra o'ng oyog'i bilan hujum qiluvchining chap oyog'ini ichki tomondan o'rabi oladi.

Hujum qiluvchi gavdani oldinga siltab, shergining gavda og'irligini uning chap oyog'iga o'tkazadi. Uni qo'llari bilan o'ziga tortib, «orqadan chalish» usulini qo'llash uchun o'zining o'ng oyog'ini sheri oyoqlari orasiga qo'yadi, ayni vaqtda butun gavdasi bilan oldinga tashlanib, uni kuragi bilan yiqitadi.

V. Ilib uloqtirish


Ilib — usulning shunday bir elementiki, bunda kurashchi bukilgan oyoq, boldir, oyoqning yuzi yoki tovon bilan raqibining oyog'ini ushlab turadi yoki o'ziga tortadi.

Bunda kurashchi oyog'ini tizzadan bukib, bukilgan oyog'ini raqibi oyog'ining tizzadan pastki qismiga qo'yadi, oyoq yuzi bilan esa

uning boldirini pastki tomonidan siqadi hamda qo'lli va gavda harakati bilan raqibni to'shakka yiqitadi.

Ilish bilan uloqtirishni quyidagi hollarda qo'llash quay:

- a) raqib oyoqlarini keng ochib turganda;
- b) raqibi bir zum bir oyoqda turib qolganda. Bu holda, hujum qiluvchi raqibni qo'li va gavdasi bilan itarib, uni muvozanatdan chiqaradi va yiqitadi;
- c) raqibi gavda og'irligini oyoq uchiga o'tkazayotgan vaqtida;
- d) raqibi oyog'ini bukish vaqtida, engashganda yoki oyog'ini orqaga uzatganda;
- e) hujum qiluvchi oldinga qadam tashlab.



42-rasm. To'n yelkasi va oyog'ini raqibining oyoq belbog'ini ushlash, oyoqlari bilan ichkaridan ilish usullari orasiga qo'yganda


Ilish variantlari juda ko'p. Ulardan bazilarini keltiramiz: hujum qiluvchi qo'llarini raqib qo'llari tagidan o'tkazib, uning gavdasini ushlaydi, oyoqlari bilan esa raqib boldirini tashqaridan ilib oladi (43-a, b rasm);



43-rasm

polvon raqibini uloqtirish uchun bir qo'li bilan uni to'nining elkasidan va ikkinchi qo'li bilan belbog'idan ushlab, uning boldirini ichki tomondan ilib oladi (44-a, b rasm). Oyoqni tizzadan bukib, raqib tizzasini ichki tomondan ilishning asosiy varianti oldinga chapga uloqtirish (45-a, b rasm). Oyoqning ustki tomoni va tovon bilan ilish mumkin.

- a) oyog'ini orqaga surib qo'yish yoki yon tomonga olish
- b) qo'llari bilan yoniga yoki gavdasiga tayanish;
- c) ilish vaqtida raqibini o'ziga tortish va uni muvozanatdan chiqarish;
- d) gavda og'irligini hujum qilayotgan oyoqqa o'tkazish va hokazo.



44-rasm




45-rasm. Oyog'i bilan tashqi va ichki tomondan ilish va ulardan himoyalanish variantlari.


Javob usullari: hujumchining ilib olishga urinishiga qarshi ilish, ya'ni u ishlatgan usulni qo'llash.

Bunda oyog'i bilan hujumchining oyog'ini ichki tomondan ilib olish; turli usulda qoqib yiqitish va chalish. Raqib oyoqlarini ichki va

tashqi tomondan ilish variantlari quyidagi rasmlarda ko'rsatilgan.
 Har qanday ilish va uloqtirishda ham shetigini to'nidan,
 belbog'idan, qo'llaridan ushlab ehtiyojlash kerak.




46-rasm. Oyog'i bilan ichki va tashqi tomondan ilish va undan himoyalanish.




47-rasm. Belbog'ini ushlab olib oyog'i bilan tashqi tomondan ilish variantlari va ulardan himoyalanish.

Sport kurashining taktik tayyorgarlik tizimida yaqinlashtiruvchi mashqlarni bajara olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu harakatlarda engashib turib otish, tegirmondek aylantirish taktikasini ko'rsatish mumkin. Bularga tik turib sheringining yordamida orqa bilan yig'ilib ko'prik hosil qilish. Oyoqlarni rostlash qerin bilan oldinga itarib yuborish va engashish, gantellar bilan oyoq tizani toshga yoki qopga urib bajarish. Cho'qqayib o'tirish qo'g'irchoq odamni tegirmon toshi kabi aylantirib, raqibni ushslash va h. k.




Umumrivojlantiruvchi harakatlarda raqibni belidan yoki gavdasini boshqa joyidan ushlab ag'darish mumkin. Bunday mashqlar muskullar kuchini rivojlantirish uchun taktika ishlataladi. Bunda raqibni yotgan joyda belidan ushlab ko'lidan, boshidan ushlab qo'lidan bo'ynidan ushlab ag'darish siltab tortish yoki o'z belidan oshirib otish hq'arakatlari amalga oshiriladi. Qarang:




50-rasm.

Kurashda bukilib turib ag'darish va uzatilgan oyoqni ilib olish yo'li raqibni ag'darish quyidagicha amalga oshiriladi.



51-rasm.

Ko'rinib turibdiki yerda yotgan sherigini qo'l va oyoqlaridan ushilab ko'krakdan balandga ko'tarish so'ng ag'darish harakatlari mumkin qadar tezlik bilan amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Kurashda chalqancha yotgan holda ko'priq holatiga o'tish, oyoqlarini tizzadan bukishi, quoqlarga yaqin joyga keltirish harakatlarini bajarishga odatlanish musobaqada qarshilik ko'rsatishga tayyor turish uchun juda muhim.



52-rasm.

5-topshiriq bo'yicha

O'rganilgan manbalarga asoslanib, aytish joizki, musobaqada bellashuvni tuzish taktikasi muayyan tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun u taktik tayyorgarlikning turli usullarini, ko'p sonli hujum harakatlarini bilishi va bellashuvdan oldin taktik rejani ishlab chiqishi talab etadi. F. Kerimovning yozishicha taktik reja quyidagi tarkibli qismlardan iborat.

1. Bellashuv maqsadi va unga erishish uslublari. Maqsad kurashchi va raqibning imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Nisbatan bo'sh raqib bilan bo'ladigan kurashda kurashchining maqsadi – sof g'alabaga, kuchli raqib bilan esa - ochkolar bo'yicha g'alabaga erishishdan iborat.

2. Texnik harakatlarni tanlash. BG' kurashchi o'z tayyorgarligini hisobga olgan holda belgilangan maqsadga to'liq mos keladigan va muayyan raqib bilan kurashishda samarali bo'lgan texnik harakatlar

hamda ularni tayyorlash usullarini (MHH) tanlaydi. Usullar va MHH raqibning bo'sh tomonlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

3. Bellashuvni tuzishdan umumiy yo'nalishi bellashuvning birinchi davridanoq g'alabaga erishish yoki ballarda ustunlikka ega bo'lishga qaratiladi.

4. Bellashuv surati. Yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan kurashchi yetarlicha chidamlilikka ega bo'lмаган, lekin kuch va texnikada undan ustun bo'lgan raqib bilan uchrashuvda bellashuvni yuqori suratda olib borishni rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Chidamli raqib bilan bo'ladigan bellashuvda o'z energiyasini tejab sarflash lozim. Raqibga bellashuvni yuqori sur'atda olib borishga yo'l qo'ymaslik maqsadida uning harakatlarini cheklab qo'yish, o'z esa qarshi hujum uchun eng kichkina imkoniyatdan foydalanib qolishga tayyor turishi lozim.

5. Tik turish va masofani tanlash. Tik turish va masofani tanlashda shuni hisobga olish lozimki, ular belgilangan hujum harakatlarini bajarishga yordam berishi hamda raqib "yaxshi ko'rGAN" hujumlarni qiyinlashtirishi lozim. Kurash davrlari o'rtasidagi tanaffuslarda bellashuvning borishini tanqidiy baholash hamda tuzatishlar kiritish, ya' ni uni qanday olib borilganinligini baholash, raqibning bo'sh tomonlarini aniqlash, nimadan ehtiyyot bo'lishni belgilab olish, kurashning qolgan vaqtidagi hatti harakatlarni aniqlab olish zarur. Masalan, g'alaba keltiradigan holatga erishgandan so'ng bellashuv taqdiri hal etilgan deb hisoblash mumkin emas. Arbitirning final hushtagi yangramaguncha, diqqatni jamlab turish, e'tiborli bo'lish va raqibning hujum harakatlariga tayyor turishi zarur. Chunki raqib, yutqaza turib, o'z kuchini safarbar etadi va har doim ham hujumni oqilona tashkil qilmaydi. Bu paytda manevr olib borish, aldamchi hujumlar hamda harakatlarni cheklaydigan ushlab olishlarni qo'llash zarur.

Bellashuvni tashkil qilishda holatni o'rganish, hujumga o'tish, qarshi hujumni amalga oshirish, himoyalanishni to'g'ri tanlash, faoliyin namoyish etish, kabi vositalarni tavsiflovchi taktik harakatlar, ustunlikni ushlab qolish, kuchni tiklash, gilam chetida ushlab qolishni to'g'ri bajarish, xavfli holathni bartaraf etish kabi hujum usullarining boshlang'ich harakatlarini to'g'ri tashkil qila olish muxim. Bu mashg'ulotlar jarayonidagi mashqlarda bajariladi. Shulardan kelib chiqib, bellashuvni tashkil etish taktikasini amalgalash zarur.

oshirishda mashg'ulotlar, mashqlar jarayonida kurashchi dastlabki minutda holatni o'rganish, hujum, gilam chetida ushlab olishlar, faollikni namoyish etish; uchinchisida himoyalanish, kuchni tiklash, qarshi hujum; to'rtinchisida — hujum, qarshi hujum, faollikni namoyish etish, gilam chetida ushlab olish va x.k. hujum harakatlarini bajarishi maqsadga muvofiq. Buning uchun taktik tayyorgarlikni takomillashtirish vazifalari, usullari vositalarini o'quv-mashqlari va mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Bu vazifalar, usullar va vositalar qayd etganimizdek holatni o'rganish ustunlikni ushlab qolish, faqat himoyalanish, himoyalanib turib qarshi hujum qilish, kuchni tiklash, "ko'prik" holatidan bosib turish, "ko'prik"dan chiqib ketish, faollikni namoyish etish, gilam chetida ushlab olishni bajarish (F.A.Kerimov).

Musobaqalarda faol ishtirokini amalga oshirish uchun texnik, taktik usullardan, jismoniy va ruhiy tayyorgarlikdan foydalanishi, raqibining texnik-taktik tayyorgarligi, yaxshi ko'rgan usullari, kurashish harakatlari, ustunlik va zaif tomonlari to'g'risida oldindan ma'lumotlar bilan qurollanib olishi lozim. Musobaqalarda qatnashishdan oldin yuqorida qayd etilgan taktik rejani yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib tuzib chiqish maqsadga erishishini osonlashtiradi.

Topshiriqlar bo'yicha guruqlar yuqoridagi fikrlarni aytib, tahlil qilib o'tganlaridan so'ng talabalarga quyidagi savollar beriladi va ulardan yakka tartibda javoblar olinadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Taktik tayyorgarlik nima? Uning mazmunini tushuntirib bering.
2. Kurashchi taktik tayyorgarligining maqsadi, vazifalari, vositalarini izohlang.
3. Kurashchi taktik tayyorgarligining bo'limlari haqida nima bilasiz? Fikringizni asoslang?
4. Taktik tayyorgarlikda ushslash va ulardan qutulishning qanday usullari mavjud?
5. Raqibning muvozanatdan chiqarish va yiqtish usullarining taktikasini tushuntiring.
6. Oyoqlar bilan chalish va qoqish taktikasining tushuntiring.
7. Uloqtirish va ulardan himoyalanish taktikasini tushuntiring.
8. Hujum harakatlarining tayyorlash taktikasi mazmuni nimadan iborat?
9. Bellashuvni tuzish taktikasini izohlang?

10. Musobaqalarda qatnashishning taktik rejası nima? Uning möhiyatini tushuntiring.

Mavzu mazmunini takrorlash va qo'yilgan savollarga javob berish uchun adabiyotlar:

1. Atoev A.Q. Kurash. -T.: O'qituvchi, 1987.
2. Platonov V.N. Obshaya teoriya podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporre. -Kiev, 1997.
3. Toymuratov A.R. O'zbek milliy kurashi. -Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990.
4. Abdusatarov A.A., Istomin Dzyu-do kurashi. Fizkultura institutlari talabalari uchun o'quv qo'lanma -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Taktika, taktik tayyoragarlik, taktik tayyorgarlikning maqsadi, vazifalar, usullar, vositalar, hujum harakatlari, taktik tayyorgarlik bo'limi, bellashuvni tuzish taktikasi, musobaqa, taktik reja.

4-AMALIY MASHG'ULOT


MAVZU: KURASHCHINING RUHIY TAYYORGARLIGI

1. **Mashg'uotning motivatsiyasi:** ruhiy tayyorgarlik kurashching jismoniy, texnik, taktik tayyorgarligini o'zida umumlashtirgan holda uning g'alaba sari mas'uliyat bilan, Vatan, xalq, millat oldidagi burchni chuqur xis etgan holda intellektual (tez va aniq fikr yuritish), axloqiylik (or-nomus, shaxsiy va ijtimoiy manfaat, raqibga xurmat, jasurlik, mardlik), irodaviy (maqsadga qaratilganlilik, dadillik, sabot-matonat, o'zini tuta bilish) sifatlarini to'la namoyish etishga qaratilgan faoliyat.

2. **Mashg'uotning maqsadi:** Kurashching jismoniy texnik, taktik tayyorgarligida ruhiy tayyorgarlikning o'mini ko'rsatish, umumiy ruhiy tayyorgarlik tizimida, axloqiy, irodaviy, estetik, intellektual tayyorgarlikning rivojlanish qonuniyatlari haqida ma'lumot berish, musobaqalar va mashg'uotlarda ruhiy tayyorgarlik hamda texnik-taktik mahoratning rivojlanishida ruhiy tayyorgarlikning ahamiyatini ko'rsatish. Kurashchi talabalarda axloqiy-estetik, intellektual – irodaviy sifatlarni tarbiyalash.

3. Ajratilgan vaqt: 4 soat
Ruhiy tayyorgarlikni o'rganish jarayonida quyidagi vazifalarni echiishga e'tibor qaratiladi:

1. Talabalarda kurashchi umumiy ruhiy tayyorgarligi to'g'risida tushuncha hosil qilish va umumiy ruhiy tayyorgarlikka o'rgatish.
2. Muayyan musobaqalarda ruhiy tayyorgarlik bo'yicha bilim berish va uni ko'nikma, malakalarga aylantirish.
3. Kurashchining axloqiy sifatlarini va ularning mazmunini anglab olish.
4. Irodaviy sifatlar va ularning kurash musobaqasidagi ahamiyatini tushuntirish.
5. Ruhiy tayyorgarlik va texnik-taktik mahorat xaqida ma'lumot berish.



Mavzu	Kurashchining ruhiy tayyorgarligi
Ko'zlangan maqsad va vazifa	O'quvchi-talabaga kurashchining umumiy ruhiy tayyorgarligi, axloqiy-irodaviy sifatlarni tushuntiradi. Muayyan musobaqalarda umumiy ruhiy tayyorgarlik va uning vazifalari xaqida ma'lumot beradi. Ruhly tayyorgarlik va texnik taktik mahoratni anglatuvchi tarqatma materiallar beradi. Har bir talabaning shu materiallar asosida, umumiy ruhiy tayyorgarlik, muayyan musobaqalarda kurashchining ruhiy tayyorgarligi va texnik taktik ma'lumotlar asosidagi tushunchalari, bilimlari, ko'nikma va malakalari tekshiriladi.

Mashg'ulot jarayonining mazmuni	Talabaning ruhiy tayyorgarligida kurashchining axloqiy sifatlari, sport jamoasi va undagi ruhiy muhit, irodaviy sifatlari, raqibni his qilish, "vaqt-va maklonni his qilish" kabi umumiy ruhiy tayyorgarlik, texnik-taktik mahoratni anglab yetishi zarurligini aniqlaydi hamda bunday tayyorgarlikni amalga oshirishni rivojlantiradi.
Mashg'ulot jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Metod: - suhbat-munozara, bahs, aqliy hujum Shakl: amaliy, kichik guruhlarda jamoa bo'lib ishlash Vosita: - adabiyotlar, ma'ruzalar matn, ko'rgazmali materiallar, plakat, videotasvir Nazorat: - og'zaki va amaliy. Savol-javob, o'z fikrida va o'rtoqlarining fikriga baho berish. Baholash: - jamoa bo'lib baholash, rag'batlantirish, o'z-o'zini va jamoa ishini baholash (5 balli tizim asosida)
Kutilishi mumkin bo'lgan natija	O'qituvchi: "Kurashchining ruhiy tayyorgarligi" mavzusini 4-soatlik mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. Interfaol metodlardan foydalanib talabaning faoliygini oshiradi. Talabaning mashg'ulotga nisbatan qiziqishi, erkin fikrashi, mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yadi. Talabalar ishini nazorat qiladi va baholaydi. O'z oldiga qo'yan maqsadga erishadi hamda faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Talaba: "Kurashchining ruhiy tayyorgarligi" mavzusi bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'ladi, jamoa bo'lib guruhlarda ishlashni o'rganadi. O'z fikri, nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi; fanga qiziqish, milliy kurash musobaqalariga jismoniy, axloqiy-irodaviy, ruhiy tayyorlanishi o'sadi.
Kelgusi mashg'ulotni rejalashtirish	O'qituvchi: "Kurash mashg'ulotlarida tiklanish vositalari" mavzusini yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'rganishni rejalashtiradi, o'z pedagogik faoliyati ustida mustaqil ishlab mahoratini takomillashtiradi. Talaba: "Kurashchining ruhiy tayyorgarligi" mavzusi bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o'rganib, mustaqil ish-yozadi va mavzuga oid qo'shimcha materiallar to'playdi.
YAkuniy natija	"Milliy kurash turlarini o'qitish metodikasining texnologiyalari" fanining har bir mavzusini imajovatsion texnologiyalar asosida o'qitishga yordam beradi.

Mashg'ulotning jihizi: Milliy kurash mashqlarini aks ettiruvchi videotavhalar, ruhiy tayyorgarlik uchun plakatlar, yozuv taxtasi.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

A.Q.Atoev "Kurash" (O'smirlar va yoshlarni kurashga o'rnatishning metod, vositalari) o'quv qo'llanma. —T.: "O'qituvchi", 1987. 211-215-betlar.

Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyoti. —T.: O'zDJTI nashriyot matbaa bo'limi, 2005. 140-149-betlar.

Toymurotov A.R. O'zbek milliy kurashi. — T.: "Ibn Sino" nomidagi nashriyot, 1990.

Mashg'ulotning borishi

1. **Tashkiliy qism:** Psixologik muhit yaratish, talabalarni mashg'ulotga tayyorlash.

2. **Mashg'ulot rejasi:**

a) o'qituvchining kirish shubbati. Mavzu to'g'risida qilinadigan ishlar bo'yicha vazifalarni e'lon qilish.

b) "Aqliy hujum". Savollar berish. Guruhlarni tashkil etish

d) Taqdimot o'tkazish.

3. **Uyga vazifa;** referat mavzusini tarqatish va referat yozish tartibini tushuntirish. Referat mavzusi: Musobaqada kurashchining ruhiy tayyorgarligining o'rni.

4. **G'olib guruhlarni aniqlash va ularni rag'batlantirish:**

Mashg'ulot bayoni:

a) guruhlarda ishlash. Topshiriqlar

1-guruh uchun: kurashchining umemiy ruhiy tayyorgarligi.

2-guruh uchun: kurashchining mashg'ulot va musobaqaga axloqiy tayyogarligi.

3-guruh uchun: kurashchining irodaviy sifatlari, va uni tarbiyalash yo'llari.

4-guruh uchun: kurashchining aniq musobaqalarga ruxiy tayyorgarligi.

5-guruh uchun: ruhiy tayyorgarlik va kurashchining texnik-taktik mahorati.

Talabalar guruhlarda tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanib, topshiriqni bajaradilar va yozganlarini muhokama qiladilar. Fikrlarini umumlashtirib, muhokama uchun ajratilgan vaqt tugagandan so'ng spiker (guruh fikrini bayon qiluvchi talaba) yordamida javoblarini taqdim qiladilar.

Taqdimot:

1-guruh. Ilmiy nazariy ma'lumotlariga ko'ra sport kurashlari ishtirokchilarining ruhiy tayyorgarligi mashg'ulot va musobaqalarda g'alaba uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ruhiy tayyorgarlik kurashchining intellektual axloqiy, estetik, sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan jismoniy tayyorgarlik harakatlari hisoblanadi. Zero, ruhiy tayyorgarlik bu kurashchining ruhiy-pedagogik tadbirlar va sportchilar faoliyati hamda hayotiga muvofiq sharoitlar yig'indisini tashkil etuvchi holatdir. Ruhiy tayyorgarlik kurashchilarda mashg'ulot va musobaqada qatnashish vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlaydigan jarayonlar, holatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Sport kurashida kurashchining "Kurashchining ruhiy tayyorgarligi" iborasi umumiylu ruhiy tayyorgarlik va muayyan musobaqaga ruhiy tayyorgarlikni o'z ichiga oladi.

Umumiylu ruhiy tayyorgarlik buturi sport rivojlanishi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan birgalikda olib boriladi. Uning yordamida quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Kurashda kurashchining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.
2. Sport jamoasi va jamoadagi ruhiy muhitni shakllantirish.
3. Iroda sifatlarni tarbiyalash.
4. Ilg'ab olish jarayonlarini rivojlantirish, xususan, "raqibni his qilish" vaqt va makonni his qilish kabi ilg'ashning maxsus turlarini takomillashtirish.
5. Kurashda diqqatning mustahkamligi, to'planishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga o'tishini rivojlantirish.
6. Taktik fikrlashni rivojlantirish.
7. O'z hayajonlarini boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lish. Kurashchining ruhiy tayyorgarligi kurashda taktik-texnik tafakkurni, muvofiqlashtirishni, tezkorlikni, his-tuyg'ularini tartibga keltirish, uni boshqarishni rivojlantiradi. Chunki kurashda vaziyatdan kelib chiqib to'g'ri qarorga kela olish va qarorni to'g'ri hamda tezlik bilan amalga oshirish mahorati kurashchilarni ruxiy jixatdan tayyorlashning muxim tomoni hisoblanadi. Ruhiy tayyorgarlik jismoniy tayyorgarlik mahorati, texnik-taktik harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. U to'rt xil variantdan iborat bo'lib, shulardan biri kurashchining axloqiy tayyorgarligidir.

2-guruh javobi: kurashchining mashg'ulot va musobaqa jarayoniga ruhiy-axloqiy tayyorgarligi uning bilan tavsiflanadi. Chunonchi, kurashchini musobaqaga tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarni tarbiyalash va texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish bilan yonma-yon shaxsning axloqiy xususiyatlari hamda kurashchining shaxsiy sifatlarining shakllanishi muhimdir. Sportchini o'z ustiда ishlashga, madaniyati va tafakkurini oshirishga muntazam yo'naltirib turishi lozim. Mashg'ulot jarayonida va musobaqalarda shaxsiy sifatlarni shakllantirishni izchil yo'lga qo'yib, jamoa yordamida salbiy holatlarni to'g'ri bartaraf etib borish zarur hisoblanadi. Bunda quyidagilarni hisobga olish muhim.

a) sport jamoasini shakllantirish. Ma'lumki, jamoa orasida yashash hissiyoti, do'stona munosabatlar, kurashchilarining birdamligi mashg'ulotlarda va musobaqalardagi yaxshi ruhiy iqlim uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.

b), axloqiy tarbiyada kurashchi xulq-atvorining yaxshilik bilan yomonlik, haqqoniylig, vijdon bilan or-nomus, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar to'g'risidagi tasavvurlari tarbiyalanadi. Zero, axloq va axloqiylik asosini kishilarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi normalar, qoidalar, baholar tashkil etadi.

Hozirgi davrda axloqiy tayyorgarlikning negizida demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini asoslarini shakllantirishning axloq kodeksida ifodalangan milliy mustaqillikka sadoqat, insonparvarlik, vatanparvarlik, mexnatsevarlik, Vatan ravnaqi, el farovonligi uchun vijdonan va HALOL mehnat qilish, diniy eksterizm va aqidaparastlikka murosasizlik kabi prinsiplar asos qilib olingan. Bular milliy kurash o'qituvchisi va kurashchi qalbida Vatan iftixori, millat g'ururi, xalq quvonchi kabi histuyg'ularning kamol topishida yordam beradi.

3-guruh javobi: irodaviy sifatlari va ularning tarbiyalash milliy kurash, mashg'ulotlari va musobaqalarda kurashchining irodaviy tayyorgarligi juda muhim shahmiyat kasb etadi. Chunki iroda kurashchining maqsadga erishishida va qabul qilgan qarorining amalga oshishida, o'zining intellektual, emotsional va harakat faoliyatlarini, o'zining xulq-atvori, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari va kechinmalarini ongli ravishda boshqarishni yo'lga qo'yadi.

Sportchining iroda sifatlari mashg'ulotlarda va musobaqalarda iroda harakatlarining maqsad va sabablarini anglashda sportchining

dunyoqarashi, qat'iy e'tiqodlari hamda axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishida, katta irodali kuch talab etiladigan o'ta og'ir mashqlarni bajarish jarayonida tarbiyalanadi.

Jasurlik va qat'iyatlilikni tarbiyalash uchun milliy kurash mashqlarini bajarish jarayonida kurashchilar tavakkalchilik va qo'rquv hissini yengib o'tish bilan bog'liq bo'lgan mashq elementlaridan foydalanish zarur.

Milliy kurashda maqsadga yo'nalganlik va qat'iyatlilik muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, maqsadga yo'nalganlik va qat'iyatlilik kurashchilarda mashg'ulot jarayonida va kurash texnikasi hamda taktikasini egallash, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, milliy kurash mashqlarini bajarish hamda kurashga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish jarayonlarida tarbiyalanadi.

Milliy kurashga qiziqishni uyg'otish uchun iroda sifatlarining quyidagi turlarini bilish va kurash jarayonida ulardan o'rini foydalanish kurashchiga g'alabaga erishishni ta'minlashini tajriba ko'rsatmoqda.

Chidash va o'zini tuta bilish bu kurashchining o'ta muhim sifati hisoblanib, u bellashuvdan oldin va bellashuv jarayonida salbiy emotsiunal holatlarni (o'ta qo'zg'aluvchanlik va jahdorlik, o'zini yo'qotib qo'yish, tushkunlikni yengib o'tish) orqali shakllantiriladi.

Mashg'ulotlarda bu sifatlarni tarbiyalash uchun milliy kurashning kuchli toliqishni yuzaga keltiruvchi va og'riq beruvchi mashqlari kiritiladi. Mashqlarda vaziyat to'satdan o'zgaradigan murakkab holatlar modellashtirilib shart-sharoitlar yaratilib, salbiy hayajonlarni jilovlovchi harakatlarini bajarish yordamida erishiladi.

Tashabbuskorlik va intizomlilik mashg'ulotlarida musobaqa faoliyatida kurashchining faoliqi namoyon bo'ladi. Tashabbuskorlik o'quv-mashg'ulotlarida bellashuvlarda murakkab texnik-taktik harakatlarni amalga oshirish yo'li orqali tarbiyalanadi. Bunda maqsadga erishish uchun kurashchilarga andozadan xoli hamda kutilmagan harakatlarni qo'llash hamda mustaqil qaror chiqarish taklif etiladi.

Kurashda ilg'ash va diqqatni rivojlantirish muhim. Ilg'ash jarayonlari kurash bellashuvining har qanday vaziyatlarida harakat qila olish malakasidir. U ko'p jihatdan raqib harakatlarini vaqt va makonda to'g'ri ilg'ab olishga bog'liq. Buning uchun nozik mushak harakati va harakatni muvofiqlashtirish yotadi.

Diqqatni rivojlantirish esa kurashchining texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish orqali qo'lga kiritiladi. Bunda diqqatning hajmi, shiddati, mustahkamligi, taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o'tishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda diqqatning biridan-ikkinchisiga o'tishni belgilash muhim. Bular kurashchiga raqibning murakkab va tez o'zgaruvchan harakatlarda ko'p sonli turli texnik-taktik harakatlarni ilg'ab olishini yo'lga qo'yadi. Diqqatning bu xususiyati uning hajmi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga kurashda kurashchi o'z diqqatini jamlashni o'rganishi tozim. Bu diqqatsning shiddatiga taalluqlidir, har xil chalg'itishlar va aldamchi omillar ta'siriga qarshi turish malakasi diqqatning mustahkamligidan dalolat beradi. Biroq kurashda diqqatning eng muhim xususiyatlaridan biri uning taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o'tishi, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta ob'ektlar (qo'llar, oyoqlar, gavda harakatlari, raqibning joy, o'zgartirish tezligi va x.k.)ni nazorat qilish hamda diqqatni biridan ikkinchisiga tez o'zgartirish qobiliyati hisoblanadi.

Taktik fikrlashni rivojlantirish. Taktik fikrlash bu kurashchining raqib bilan oqilona kurashish yo'lini topishga qaratilgan jarayonlarning maqsadga tez ko'chishidir.

Taktik fikrlash musobaqa faoliyatining ijodiy xususiyatini belgilaydi va u turli murakkab holatlarini tartibga soladi hamda musobaqa mashqlari yordamida shuningdek o'quv-mashq bellashuyalarida rivojdantiriladi. Bunda raqibning taktik o'ylanmalarini topish, uning ehtimoldagi harakatlarni oldindan ko'zlay bilish, asosiy vaziyatlarni ajratib, ularni tez va to'g'ri baholash muhim. Bunday holatda kurashchi tez sur'atda oqilona yechimlarni topadi va muayyan musobaqa vaziyati uchun eng samarali texnik-taktik harakatlarni qo'llaydi.

O'z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish. Kurashchilarning o'z hayajonli holatlarini boshqara olish malakasi ko'p jihatdan ularning sport mahoratini oshishiga yordam beradi. Mashq yoki musobaqaning ayrim vaziyatlari, lahzalariga ijobiy va salbiy munosabatda bo'lish hayajonlar bilan birga kechadi. Ular sportchiga subyektiv va ob'ektiv qiyinchiliklarni engib o'tishini engillashtirishi yoki qiyinlashtirishi mumkin. O'z hayajonini boshqarish musobaqada ko'zlangan maqsadga erishishni osonlashtiradi.

4- guruh javobi: muayyan musobaqaga ruhiy tayyorgarlik professor F.A.Kerimov ta'kidlagandek oldinda turgan musobaqaga ruhiy tayyorgarlik umumiy ruhiy tayyorgarlik asosida tashkil qilinadi va u quyidagi vazifalarni hal etishga qaratiladi:

- 1) kurashchilarning oldinda turgan musobaqalar ahamiyatini anglashi;
- 2) oldinda turgan musobaqalar sharoitlari (o'tkazish vaqt, joyi)ning xususiyatlarni o'rganish;
- 3) raqibning kuchli va bo'sh tomonlarini o'rganish, ularni o'zining hozirgi holatdagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish;
- 4) oldinda turgan musobaqalarda g'alabaga erishish uchun o'z kuchi va imkoniyatlariga mukammal ishonchni shakllantirish;
- 5) oldinda turgan musobaqalar tufayli yuzaga kelgan salbiy hayajonlarni yengib o'tish va tetik emotsiyonal holatni yaratish.

Birinchi to'rtta vazifalar raqib to'g'risida turli, mumkin qadar to'liq ma'lumotni to'plash hamda ishlab chiqish asosida murabbiy tomonidan hal etiladi.

Raqib to'g'risidagi hamma ma'lumotlarni o'rganib chiqib, uning imkoniyatlarini o'z Kurashchisi imkoniyatlari bilan solishtirish, murabbiy oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifani yechish uchun murabbiy bellashuvning rejasini oldindan ishlab chiqadi. Uni amalga oshirish o'quv-mashqlari mashg'ulotlarida modellashtiriladi hamda bat afsil aniqlanadi.

Beshinchi vazifani hal etish uchun quyidagi uslubiy usullardan foydalanish mumkin:

- o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini ma'qullah yordamida sportchi tomonidan salbiy hayajonlarni ongli ravishda bostirish;
- kurashchilarning alohida xususiyatlari va ularning emotsiyonal holatiga qarab, badan qizdirish mashqlari vositalari hamda uslublaridan maqsadli foydalanish;
- autogen va ruhiy boshqarish mashg'ulotlari vositalaridan hamda uslublaridan foydalanish¹. Shunday qilib, yosh kurashchilar faol harakatlarni amalga oshirishlari uchun ruhiy jihatlarini doimo tarbiyalab borishlari lozim. Bu esa tajribaning ko'rsatishicha, hujum harakatlarini to'liq bajarish uchun qulay dinamik vaziyatni vujudga

¹ Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -T.: O'z DJTI, 143-144 bedar.

keltirishga yordam beradi va kurashda ustunlikka erishish hamda sof g'alabani qo'lga kiritishga yordam beradi.

Kurash musobaqalarida tobora kuchayib borayotgan raqobatchilik kurashchilardan nafaqat jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikni, balki musobaqa jarayonda o'z his-tuyg'ularini, emotsional-irodaviy holatini, axloqiy xatti – harakatlarni boshqara olish mahoratiiga ega bo'lishni talab etadi. Zero, musobaqadagi keskin vaziyatlar: salbiy emotsiyalar, his-tuyg'ular, xatti-harakatlar, musobaqalar davomida vujudga keladigan ob'ektiv va subyektiv to'siqlar yosh kurashchilarning texnik-taktik mahorat samarasini kuchaytirishi, yoki pasaytirishi mumkin. Shuning uchun musobaqalarda ruhiy jihatdan tayyorlanish nihoyatda zarur.

S-guruhi javobi: respublika ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatishlar musobaqalar arafasida va musobaqalar o'tkaziladigan kuni texnik-taktik mahoratning ruhiy tayyorgarlikdan ajralmas ekanligini ko'rsatdi. Chunki kurashchining texnik-taktik harakatlari, ya'ni taktik fikrlash, tezkorlik, koordinatsiyalash emotsional holat va egiluvchanlikni rivojlantiradi.

Jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik harakatlarni aniq amalgaga oshirishda ruhiy tayyorgarlik qo'l keladi. Zero, ruhiy tayyorgarlikda taktik qaror muhim hisoblanib, fikrlash faoliyatini yo'lga qo'yib qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi va harakatlarni yuzaga keltiradi. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasida bunday harakatlarning to'rt varianti farqlanadi.

Birinchi variantda kurashchi o'z raqibining muayyan usulini bajaryotganda uni qo'lga tushirishni mo'ljallab, o'sha paytning kelishini poylab, hujumga o'tish uchun imkoniyatning boshqa variantlarini tan olmaydi.

Ikkinci variantda kurashchi taktik harakatining oldindan tayyorlab qo'yan taktil harakatlar: modeli bo'lib, o'z qarorini "yo unisini qo'llayman, yoki bunisini qo'llayman" degan prinsip-asosida ish yuritadi.

Uchinchi variantdagi kurashchilar o'z xatti-harakatida mulohaza bilan ish yuritib vaziyatga qarab ish tutadilar.

To'rtinchi variantdagi kurashchi o'z raqibini vaziyatga tayyorlaydi, va hujum qilish uchun qulay vaziyatni oldindan amalgaga oshirishni mo'ljallaydi.

Shunday qilib, kurashchi ushbu varintlarni inobatga olib kurashga o'zini ruhan tayyorlasa, raqibining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirib borsa, musobaqalarda o'z emotsional holatini boshqara oladi va g'alabaga erishishni ta'minlaydi.

Ruhiy tayyorgarlikda uzoq davom etadigan badanni qizdirish mashqlarida, o'z-o'zini ishontirish, so'z yordamida o'zini tayyorlash, musobaqa oldidan ruhiy zo'riqishni pasaytirish maqsadida ma'naviy dam olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'z-o'zini boshqarishda ruxiy tayyorgarlikning bir necha usullarini bajarish ham ahamiyatlidir. Jumladan, autogen mashg'ulotlar (AM), ruhiy boshqarish mashg'ulotlari (RBM), ruhiy mushak mashqlari (RMM)ni bajarib turish lozim. Bular esa ruhiy zo'riqishni qondirish va ruhiy yumshatishni ta'minlaydi. Emotsional zo'riqishni qondirish va dam olish uchun kurashchilarga qarmoq bilan baliq ovlash xam tinchlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan barcha ma'lumotlar ma'suliyatlari musobaqalar oldidan kurashchini shiddatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Kurashchining ruhiy tayyorgarligi, uning sog'ligi, jismoniy, texnik-taktik tayyorgargargligi hamda katta musobaqalarga tayyorlanish uchun foydalidir.

IV "O'yla, izla, top" o'yini

Savash bo'lsa, bu shubonib chiqqanga,
Kurash bo'lsa, to'qson aljni yiqqanga
Men tegaman nor bilakli polvonga,
Shu suvini aytib borgin to'ramga
Mazkur misralar kimga, kim uchun va nima haqidagi aytilgan,
uning manbasini toping?
Yiqolmasang bizga bergil navbatni,
Juda keldi Barchin yorning g'ayrati.
Ushlaganda, ko'kka aymay ne bo'tti,
Yiqolmasang to'ram, navbat tilayin.
Erkak libosini o'zim kiyayin.
Barchinning ushbu da'vati kimga qaratilgan va u kurashchining
ruhiy tayyorgarligiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Javobingizni izohlang!

V. O'z-o'zini tekshirish uchun savollar?

1. Kurashchining ruhiy tayyorgarligi deganda nima nazarda tutiladi?
2. Kurashchining umumiy ruhiy tayyorgarligi qanday vazifalarni hal qiladi?
3. Axloqiy tayyorgarlik nima va u qanday sifatlardan iborat?
4. Kurashchining irodaviy sifatlariga nimalar kiradi va ular qanday tarbiyalanadi?
5. Kurashchining kurash faoliyatidagi asosiy qiyinchiliklar darajasi qaysi sifatlarda namoyon bo'ladi?
6. His qilish, diqqat, taktik, fikrlash deganda nimalar nazarda tutilgan?
7. Kurashchi ma'suliyaqli musobaqalarda ishtirok etishi uchun qanday ruhiy tayyorgarlik vazifalarini bajarishi kerak?
8. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy tizimida ruhiy tayyorgarlikning o'rnini qanday?
9. Kurash bilan shug'ullanadigan kurashda irodaning umumiy va ixtisoslashgan yo'naliishi nimadan darak beradi?
10. Kurashda o'z-o'zini boshqarishning qanday ruhiy uslublari qo'llaniladi?

VI. Uyga vazifa:

"Musobaqalarda kurashchining ruhiy tayyorgarligining nazariy va amaliy ahamiyati" mavzusida referat yozish.

5-AMALIY MASHG'ULOT

MAVZU: OILADA BOLALARНИ MILLIY KURASHGA

O'RGGATISH TEKNOLOGIYASI

AJRATILGAN VAQT: 4 SOAT

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: talabalarga oilada bolalarni milliy kurashga o'rsgatish xususida ma'lumot berish, bolalarda kuch, tezkorlik, chaqqonlikni rivojlantirish, yakkama-yakka kurashish elementlari bo'yicha bilimlar berish va ularni amalda qo'llash ehtiyojlarini tarbiyalash.

Mashg'ulot jarayonida hal etiladigan vazifalar: Respublika Prezidenti I.A.Karimovning 2013 yil 25-fevraldagi "Bolalar sportini rivojlantirish, jamng'armasini homiylik kengashi" yig'ilishidagi ma'rurasida ta'kidlagan, "...farzandlarimizning sportga bo'lgan qiziqishini va intilishini, kerak bo'lsa sportga bo'lgan mehrini ayni bolalik davridan uyg'otish,... har bir ota-onaning orzusi bo'lmish

“sog’lom farzand o’stirish”, zero.... aynan yoshlik chog’idan sport bilan do’st bo’lish bolaning o’z ustida ishlashi, xarakterini toblanishi, musobaqlarga qatnashishi orqali qat’iyatlilik va mardik xususiyatarining shakllanishi, g’alabaga intilishi, o’z ustidan g’alaba qozonishi bir se’z bilan aytganda mustahkam irodaga ega bo’lishi uchun puxta zamin yaratadi”, shu bois.... bolalar sportini rivojlanirish... o’zbek sportining kelajagini ta’minlash, bir so’z bilan aytganda, bolalar sporti – o’zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydondagi obro’-e’tiborini yuksaltirishning poydevoriga aylanishi zarur” fikrlardan kelib chiqib, bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilariga:

1. Bolalar va o’smirlarning anatomik-, fiziologik va jismoniy rivojlanishi to’g’risida tushuncha berish.
2. Oilada o’smirlarni milliy kurashga o’rgatishda ota-onalarga jismoniy-pedagogik ma’lumotlar bilan tanishtirish.
3. O’smirlarda tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni rivojlaniruvchi hamda sherigiga nozik teri harakat signallarini idrok qila olish hissini uyg’otuvchi maxsus mashqlar haqida tushuncha berish.
4. Oilada kurash mashg’ulotlarini tashkil qilish va o’tkazish tartibi, vaqt hamda mashg’ulot mazmuni haqida ma’lumot berish.
5. Oilada o’smirlar jismoniy tayyorgarligi va milliy kurash turlari bilan shug’ullanishning xafalik mikrotsikli hamda nagruzkalar me’yori bilan tanishtirish bo’yicha bilim, ko’nikma, malakalar hosil qilishni nazarda tutadi.

Mashg’ulot jihozları: Ma’ruzalar matni (A.Q.Atoyevning (Farzandingiz barkamok bo’sim – T.: “Meditina”, 1990 yildagi o’quv qo’llanmasi, jadval, jurnal va gazeta materiallari).

Mashg’ulot jarayonida qo’llanuvchi interfaol metodlar: suhabat, savol-javob, “5x5x5” hamda “Qora quti” metodlari.

Mashg’ulot rejası:

1. O’zbekiston Rekspublikasi Prezidenti L’A.Karimovning bolalar sportini rivojlanirishda borasidagi nutqlari, g’oyalari, ma’ruzalar.
2. Bolalar va o’smirlarning anatomik-fiziologik va psixologik-pedagogik taraqqiyot bosqichlari.
3. Oilada o’smirlarni kurashga o’rgatish shartlari.

4. O'smirlarda tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilikni hamda sheringining nozik harakat signallarini idrok qila olish hissini rivojlantruvchi mashqlar.
5. Oilada kurash mshg'ulotlari va ularni o'tkazish tartibi.
6. Oilada milliy kurashga o'rgatishning haftalik mikrotsiklik mashqlar yuklamasi va vaqt me'yorlari.

Mashg'uilotning borishi:

I. $5 \times 5 \times 5$ metodi yordamida yangi bilimlarni o'zlashtirish. Guruh talabalarini 5 nafardan bo'lib, 5 ta guruhni tashkil qiladilar. Mavzu 5 qismiga bo'linib, har bir guruhga bitta qism topshirig'i beriladi.

Masalan:

1-qism- oiladagi turli yoshdagi bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanish bosqichari va uning psixologik-pedagogik xususiyatlari.

2-qism- bolalarda tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni rivojlantrish uchun qo'l va oyoqlar bilan bajariladigan mashqlar.

3-qism- tezkorlik, chaqqonlikni, kuchlilikni tarbiyalashda buyumlar bilan va ayrim usul, harakatlarni rivojlantruvchi mashqlar.

4-qism- oilada o'smirlarni kurashga o'rgatish bosqichlari va bosqichlarda o'tkaziladigan mashg'uotlar hamda ularning mazmuni.

5-qism- kurashchilarning mashg'uot mashqlarini o'tkazish tartibi va yuklama me'yorlari.

Mazkur topshiriqlarni o'rganib chiqish uchun ma'ruza matnidan tashqari quyidagi adabiyotlar tavsiya etiladi.

1. Karimov I.A. "Bolalar sporti – o'zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydonidagi obro'e'tiborini yuksaltirishning poydevoridir"- O'zbekiston ovozi, 2013, 26-fevral

2. Atoev A.Q. Kurash (O'quv qo'llamma)-T.: "O'qituvchi"1987, 293-314-betlar; Atoev A.Q. Farzandingiz barkamol bo'lsin – T.: "Meditina",1990;

3. Ismoilov M.N. Bolalar va o'smirlar gigienasi – T.: Ibn Sino, 1994

Guruhsizlar topshiriqni manbalardan o'rganib muhokama va tahlil qilganlaridan so'ng, har bir qismdagi topshiriq almashtiradi. Shunday qilib, besh qismdan iborat topshiriq besh guruh a'zolari tomonidan o'rganilib, tahlil qilinadi. Shu tariqa mavzu mazmuni talabalar tomonidan to'liq o'zlashtiriladi.

Guruhlarning javoblari bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarning qisqacha mazmuni. Oilada bolalarni milliy kurashga o'rgatish uchun

ota-onalar yosh davrlardan boshlab ularni jismoniy rivojlanishini yo'lga qo'yish, buning uchun esa erta yoshdan boshlab o'g'il-qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishga odatlantrishlari lozim. Zero, bolalikdan boshlab sport bilan shug'ullanish Prezident I.A.Karimov ta'kidlaridek, "... Ertalardan boshlab sport bilan muntazam shug'ullanadigan bolalarga jismonan sog'lom, baquvvat bo'lib voyaga etadi. Shu asosda har bir ota-onaning ezgu orzusi bo'lishi sog'lom farzand o'stirishi, aholimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish uchun katta imkoniyatlarni paydo bo'ladi".

Anatomik-fiziologik, ruhiy va jismoniy rivojlanish qonumiylarini va bolaning psixologik-pedagogik xususiyatiga ko'ra ularni 12-14 yoshdan boshlab kurashga o'rgatish mumkin. Oilada bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanish bosqichlarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini har bir ota-onan pedagogik o'quvlarda o'rnatadi. Chunki har bir yosh bosqichda bolalarning o'ziga xos asab, fe'l-atvori, stuyak, muskul, yurak-tomir, nafas, endokrin, kuch-qurvvat faoliyatları mavjud. Buni "Bolalar va o'smirlar gigienasi", "Psixologiya", "Pedagogika" fanlaridan bilib oladilar. Yosh bosqichlari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Maktabgacha tarbiya yoki yasli yoshi davri – 3 yoshgacha.
2. Maktabgacha tarbiya yoki bog'cha yoshi davri - 3-yosh.
3. Kichik mакtab yoshi davri -7-10 yosh.
4. O'smirlilik yoki umumiy o'ta maktab yoshi davri – 11-16 yosh.
5. O'spirialik yoki kasb-hunar ta'simi yoshi davri – 17-20 yosh.

Bu davrlarda bolalar tashqi alomatlar jihatdan emas, balki miqdor va sifat jihatdan tez rivojlanishda bo'ladi.

Ma'lumki, kurash bilan shug'ullanishga 12-14 yoshdan tavsija etiladi. Ammo o'zbek oilalarida bolalarni 8-9 yoshdan boshlab kurash tushishiga o'rgata boshlash mumkin degan xulosalar ham bor. Bunga ularning jismoniy, ruhiy, intellektual va irodaviy sifatlarining rivojlanganlik holati imkon bera oladi. Shunga ko'ra bolalarni oilada kurashga o'rgatishda, dastlab ularda tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilikning hamda raqibining nozik teri harakatlariga shikast yetkazmaslik hissini rivojlantiriladi. Bunda qo'l va oyoqlar bilan kurashish elementlari bo'lgan muvozanatni yo'qturivechi, tortib o'tkazuvchi, qo'l, oyoqlarni ushlab olish, qarshilik ko'rsatish mashqlari bilan shug'ullantrish tavsija etiladi. Bu o'rinda gavdani ushlab olish va surib chiqarishga kiruvchi gavdani ushlash,

tayanchdan ajratish, surib yoki itarib chiqarish mashqlarini bajartirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyumlar yordamida va buyum uchun kurash elementlari bo'lgan mashqlar ham bolalarda tezkorlik, chaqqonlik, kuchlilikni rivojlantiradi. Bunday mashqlarga to'p bilan, gimnastika tayoqchasi bilan turli buyumlar, ya'ni gugurt qutisi, o'chirg'ich, koptokcha bilan o'tirgan holatda, tik turgan va yotgan holatda bajariladigan mashqlar kiradi. Bundan tashqari, professor A.Q.Atoyevning ta'kidlashicha, oilada bolalarni milliy kurashga o'rgatishda milliy kurash elementlari bo'lgan mashqlardan foydalanish ham bolalarni tezkorlik, chaqqonlik va kuchlilikni tarbiyalashga katta yordam beradi.

Bunday mashqlarga kurashchilarining tik turgan holatdagi hiyla ishlatalishi, o'tirgan holatdagi orqaga va yon tomonga yiqilish, ya'ni dumalash mashqlari, tik turganda juft-juft bo'lib siljishlari, belbog'dan ushlab, beldan ushlab hiyla ishlatalish kabi mashqlar kiradi. Bu mashqlar bolalarda tezkorlik, kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik malakalarini rivojlantirish yordamida yosh kurashchilarini kurash texnikasi va taktikasini egallash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Ota-onalar yoki kurashchi-murabbiylar tomonidan kurash sporti mashhurlari, kuchli polvonlar texnikasi va taktikasi to'g'risidagi suxbatlar, musobaqalar xaqidagi esdaliklar ham yosh kurashchilar tomonidan kuchli polvonlarning taktikasini to'liq o'zlashtirishga katta yordam beradi.

II. Savol javoblar asosida suhbat tashkil etish. Talabalarga taxminan quyidagi savollar berilishi mumkin:

1. Oilada bolalarning jismoniy tarbiyasini yo'lga qo'yish uchun ota-onalar nimaga e'tibor berishi lozim?
2. Jismoniy rivojlanish nima?
3. Mutaxassislarning fikricha oilada bolalar necha yoshdan boshlab kurash mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin?
4. Bolalarni oilada kurash tushishiga o'rgatuvchi mashtiqlardan nimalarni hisobga olish zarur?
5. Qo'l va oyoqlar bilan kurashish elementlariga qanday mashqlar kiradi?
6. Gavdani ushlab olish va surib-chiqarish uchun qanday mashqlarni bajarish tavsiya etiladi?
7. Buyum yordamida va buyum uchun kurash elementlarining mashqlari qaysilar?

8. Ayrim usul va harakatlarga oid qanday mashqlar bajariladi?
9. Milliy kurash elementlarini qanday mashqlar yordamida bajarish mumkin?

10. Bolalarni oilada kurash tushishiga o'rgatish necha bosqichda amalga oshiriladi?

III. "Qora-quti" metodi yordamida "o'zlashtirilgan ma'lumotlarni mustahkamlash"

Ushbu metod orqali quyidagi ishchi harakatlar tashkil etiladi: talabalar juftliklarga birikadilar va ularga bolalarni milliy kurashga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlarini yorituvchi asosiy tushunchalarini kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi. O'qituvchi topshiriqning juftliklar tomonidan qanday bajarilganligini tekshiradi, topshiriqni to'g'ri bajargan juftlikning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajarib yozuv taxtasida quyidagi ma'lumotlarni yozadi:

bolalarni anatomik-fiziologik, jismoniy rivojlanish bosqichlari: 1-3 yosh, 4-7 yosh, 8-11 yosh, 12-15 yosh, 16-18 yosh, 19-27 yosh;

a) kichik mакtab yoshi (7-11 yosh) jismoniy va aqliy rivojlanish davri;

b) o'smirlik yoshi (11-15 yoshgacha) o'tish davri;

d) o'spirinlik yoshi (16-21 yoshgacha) rivojlanishning yakuniy davri.

1. Bolalarni oilada kurash tushishga o'rgatishning – birinchi bosqichi.

2. Bolalarni oilada kurash tushishga o'rgatishning – ikkinchi bosqichi.

3. Bolalarni oilada kurash tushishga o'rgatishning – uchinchi bosqichi.

4. Oilada bolalarni kurash tushishga o'rgatishning – to'rtinchi bosqichi.

So'ngra talabalar kurash tushishiga o'rgatishning har bosqichida bajariladigan mashqlar, o'tkaziladigan mashg'ulotlar to'g'risida qisqa ma'lumot beradilar. Masalan, birinchi bosqichda 7-8 ta maxsus mashg'ulot mashqlari, mashg'ulot 45 minutni tashkil qilishini, ikkinchi bosqichda kurash taktikasi elementlari 10 ta mashg'ulotda o'rgatilishi uchinchi bosqichda kurash texnikasining ayrim elementlari o'rgatilib kuch va nerv nagruzkalari oshirib borilishi, mashg'ulot ikki usulda, davomiyligi 60 minutgacha bo'lib orqadan

oshirib uloqtirish, oyoqdan ilib uloqtirish, oyoqqa chalish bilan uloqtirish va h.k.lar o'rgatilishi aytib o'tiladi.

To'rtinchi bosqich yakunlovchi bosqich hisoblanib, ikkinchi va uchinchi bosqichdagi mashqlar ayniqsa, uloqtirish mashqlarining murakkablarini bajarish hamda mustaqil qaror qabul qilish o'rgatiladi.

III. "Qora quti" yordamida o'zlashtirilgan milliy kurashni o'zgartirishga oid tushunchalar mustahkamlanadi.

Ushbu metod vositasida auditoriyada quyidagi ishlar amalga oshiriladi. Talabalar juftlikka birikib oilada bolalarni milliy kurashga o'rgatishga oid ma'lumotlarni kartochkalarda qayd etish vazifasini oladilar va bajaradilar. Vazifani to'g'ri bajargan talabalar juftligi yozuv taxtachalariga quyidagi ma'lumotlarni yozadi:

Kurash, milliy kurash, axloqiy muhit, ota-onas, murabbiy, oiladagi kattaroq bolalar, tomoshabin ishqibozlar, mashg'ulot, 12-14 yosh tezkorlik, chaqonlik, kuchlilik, chidamlilik, egiluvchanlik jismoniy chiniqish, kurashish elementlari, mashqlar, kurashga o'rgatish bosqichlari va h.k.

So'ngra guruh talabalaridan bu tushunchalar, ma'lumotlar nimani anglatishi so'raladi. Tushunchalar va ma'lumotlar mohiyatini to'g'ri izohlagan talabalar rag'batlantiriladi.

IV. "Tafakkur cho'qqisi" metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash. Mavzu yuzasidan talabalarga mantiqiy fikrlesh qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi quyidagi savollar bilan murojaat qilish tavsiya etiladi:

1. Sizlar qanday fikrda sizlar: nima uchun oilada bolalarni milliy kurashga o'rgatish kerak?
2. Sizning fikringizcha nima sababdan oilada bolalarni milliy kurashga o'rgatishni 12-14 yoshdan boshlash lozim?
3. Aytinlarchi, milliy kurash bo'yicha musobaqalar nima uchun va qanday maqsadda tashkil qilinadi?
4. Yakkama-yakka kurashishda sheringining nozik-teri signallarini idrok eta olish hissini rivojlantiruvchi kurash elementlari bo'lgan maxsus mashqlar qanday mashqlardan iorat?
5. Oiladagi kurash mashg'ulotlari necha bosqichda o'tkazilishi tavsiya etiladi va ularning muddati qancha bo'lishi lozim?

V Mashg'ulotni yakunlash: mashg'ulotda faol ishtirot etgan talabalar baholanadi. Ballar e'lon qilinadi va ular nazorat varag'iga qayd etiladi.

VI. Uyga vazifa: "Bolalar kurashi - o'zbek milliy kurashining poydevori" mavzusida uy inshosi yozib kelish.

6-AMALIY MASHG'ULOT **MAVZU: UMUMIY O'RTA VA Q'RITA MAXSUS, KASB-** **HUNAR TA'LIMI MAKTABALARIDA KURASH** **MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH TEKNOLOGIYASI**

Ajratilgan vaqt: 4 soat.

Amaliy mashg'ulot maqsadi: talabalarga umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktabalarida kurash mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha tushuncha berish. Kurash mashg'ulotlarining ta'limiy va tarbiyaviy xususiyatlarini tushuntirish. Milliy kurash vazifalari, mashg'ulotlar vaqtida kuraşchilarining yurish turishi, gigiyena qoidalari haqida ma'lumot berish. Shunigadek, kurash qoidalari, yo'l-yo'riqlarini o'zlashtirishga undash, bu bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish.

Mashg'ulot rejasisi: 1. Umumi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktabalarida kurash darslarini tashkil qilishning maqsad va vazifalari.

2. Umumi o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktabalarida milliy kurash dasturining hozirgi bosqichdagi masalalari.

3. Kurash mashg'ulotlarida o'quvchi-talabalarning tartib-intizomi.

4. Kurash mashg'ulotlaridagi gigiyenik qoidalari.

5. Umumi o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar maktabalarida kurash mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.

6. O'quv dasturi asosida kurash usullarini o'rganish tuzilmasi.

7. Umumi o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktabalarida milliy kurash va sportga rahbarlik qilish yo'llari.

Adabiyotlar: 1. Karimov I.A. Bolalar sporti-o'zbek sportining kelajagi, uning Xalqaro maydonidagi obro'e'tiborini yuksaltirishning poydevoridir. -T.: O'zbekiston ovozi. 2013-yil, 26-fevral.

2. Atoev A.Q. Farzandingiz barkamol bo'lsin. -T.: Meditsina, 1990. 104-b.

3. Atoev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. -T.: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005. -132 b.

4. Kerimov F.A.: Sport kurashi nazariyasi va usuliyati – T.: O'zDZTI nashriyot – matbaa bo'limi, 2005. -342 b.

5. Usmonxo'jayev T.S., Tursunov O', Meliyev N.A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. (O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun o'quv qo'l/.)-T.: "O'qituvchi" NMIU, 2008. -168 b.

6. Usmonxo'jayev T.S., Yusupov V.J., Akramov J.A. Jismoniy tarbiya –T.: "O'qituvchi" NMIU, 2008. -208 b.

7. To'ymurodov A.R. O'zbek milliy kurashi. –T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990. -126 b.

Mashg'ulot o'tkazilish joyi:- amaliy mashg'ulot xonasi.

Mashg'ulot tipi: aralashgan, andazalash.

Mashg'ulot usuli: interfaol, "kichik guruhlarda ishslash".

Mashg'ulot jihoz: jadvallar, BBB, kichik guruhlarda topshiriqlar ustida ishslash.

Mashg'ulotning borishi: amaliy mashg'ulot xonasi.

Tashkiliy qism (an'anaviy ishlardan tashqari 5-6 tadan guruh bo'lib o'tirishlari ta'minlanadi. Har bir guruhga topshiriqlar mavzu mazmunidan kelib chiqib tarqatiladi, uni bajarish bo'yicha tavsiyalar beriladi). Topshiriqlarning mazmuni quyidagicha:

1.Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar maktablarida kurash darslarining ta'limiy vazifalari va dastur ma'lumotlarining tahlili.

2.Kurash mashg'ulotlarida o'quvchi-talabalarning rioya qilishi lozim bo'lgan qoidalar.

3.Kurash mashg'ulotlarida amal qilinishi lozim bo'lgan gigienik qoidalar.

4.O'zbek milliy kurashi qoidalari.

5.Dars o'tkazish metodikasi.

II. Asosiy qism.

Har bir guruh tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalaniib, 10 daqiqa mobaynida o'zlariga berilgan topshiriqlarni guruhlarida bajaradilar va o'z daftarlarda kerakli belgilarni qo'yib chiqadilar.

A.Andazali mashg'ulotning da'vat bosqichi:

Bunda B(bilaman), B-(bilishni xohlayman), B (bilib oldim) jadvalining B (bildim) ustuni to'ldiriladi. Talabalar tavsiya etilgan aabiyotlardan foydalaniib, o'zlariga berilgan topshiriqlar bo'yicha umumiyl o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar maktablarda kurash darslarini tashkil etish bo'yicha bilganlarini yozib, uni guruh yozuv taxtasiga

yozib chiqadilar. So'ng B (bilishni xohlayman) degan ustun to'ldirilib, mavzu bo'yicha talabalar tushunmagan va bilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni yozib chiqadilar. Talabalar bilgan va bilishni xohlagan ma'lumotlar oldindan tayyorlangan matn bo'yicha bilgan ma'lumotlari va bilishni xohlagan savollari taqqoslanadi. Bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi.

Matnning qisqacha bayoni:

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limi muassasalarida 1965-yildan boshlab milliy kurashga o'rgatish darslari joriy qilindi. Kurashning milliy turlariga qiziqish O'rta Osiyo respublikalarida kuchli bo'lganligi sababli, bu respublikalarning umumiy o'rta ta'lim mакtablarining 8-sinfidan boshlab kurashga o'rgatish darslarini tashkil qilish nazarda tutilgan. O'quvchi-yoshlarning jismoniy, anatomik-fiziologik tayyorgarligini mobatga olib, 8-9 sinflarda kurashga o'rgatishga 8 soat ajratilgan. O'rta maxsus kasb-hunar mакtablarining har bir bosqichida o'zbek kurashi (o'smirlar va qizlar uchun) bu akademik litseylarning har bir o'quv bosqichida 26 soatdan va kasb-hunar kollejlarining 1-bosqichida 30 soat, 2-bosqichida 18 soat va 3-bosqichida 18 soat ajratilgan.

Akademik litseylar uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha o'quv soatlarining taxminiy yillik taqsimoti

№	Dastur bo'limlari	O'quv yili davomida ajratilgan soatlar	O'quv bosqichlari		
			1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich
I.	Nazariy bilim asoslari		Dars jarayonida		
II.	Amaliyat				
1.	Gimnastika	48	16	16	16
2.	Yengil atletika	72	24	24	24
3.	Sport o'yinlari	108	36	36	36
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) raqs elementlari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)	78	26	26	26

5.	Turizm	36	12	12	12
6.	Suzish	30	10	10	10
7.	Kross tayyorgarligi	30	10	10	10
8.	Harakatli milliy o'yinlar	30	10	10	10
9.	Tanlab olinadigan sport turi	42	14	14	14
Jami		444	148	148	148

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun jismoniy tarbiya fani bo'yicha o'quv soatlarining taxminiy yillik taqsimoti.

№	Dastur bo'limlari	O'quv yili davomida ajratilgan soatlar	O'quv bosqichlari		
			1-bosqich	1-bosqich	1-bosqich
I Nazariy bilim asoslari					
II.	Amaliyot				
1.	Gimnastika	34	18	8	8
2.	Yengil atletika	60	26	18	16
3.	Sport o'yinlari	96	46	24	26
4.	O'zbek kurashi (o'smirlar uchun) raqs elementlari va ritmik gimnastikasi (qizlar uchun)	64	30	18	16
5.	Turizm				
6.	Suzish	26	12	8	6
7	Kross tayyorgarligi	20	10	4	6
8.	Harakatli milliy o'yinlar	20	10	6	4

9.	Tanlab olinadigan sport turi	18	8	10	
9.	Jami	62	8	26	28
	ЖАМН	400	160	120	120

Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limidagi kurash darslarining vazifalari qilib quyidagilar belgilandi:

- botalar va o'smirlarni mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlash va ularni jismoniy tarbiya o'yinlarining 2- va 3-bosqich talablarini bajarishga tayyorlash;

- kurashga taalluqli harakat amallarini dastlabki elementlarini to'liq bajarish ko'nikma va malakalarini kurashchilarda hosil qilish;

- botalar va o'smirlarda kurash mashqlarini mustaqil bajarishga odatlantirish, jismoniy tarbiya hamda sportning boshqa turlariga shaxsiy qiziqishlarni hosil qilish;

- yosh kurashchilarning axloq madaniyati va irodaviy sifatlarining shakllanishiga yordam berish;

- jismoniy tayyorgarlik rivojlantiruvchi mashqlar bilan odatiy shug'ullanish ko'nikmalarini hosil qilish maqsadida o'quvchilarda tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuchlilik va egiluvchanlikni yuksaltirish;

- sport kurashining barcha turlariga qiziqish uyg'otish milliy kurash texnikasi, taktikasini egallahsga ko'maklashish, jismoniy tarbiya gigienasi va rejimiga rioya qilish ko'nikmalarini hosil qilish;

- bo'lajak kurashchilarga kurash tushish vaqtidagi qonun-qoidalariga to'liq rioya qilish va ularni so'zsiz bajarish malakalarini o'quvchilarda hosil qilish;

- kurashchilarda kurashning yangi usullari, tezkorlik, chidamlilik, kuchlilik, chaqqonlikning yangi usullarini izlab topish va qo'llashga o'rgatish.

Shuningdek, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar maktablari)da milliy kurashga o'rgatishning nazariy, amaliy bilimlar mazmuni, kurash darslarida kurashchi va ularning ustozlari rioya qilishi lozim bo'lgan qoidalar,

kurashchi amal qilishi lozim bo'lgan gigiyenik qoidalari, darslarni tashkil etish metodikasi bo'yicha tavsiyalar ham bayon qilingan.

Diqqatga sazovorli joyi shundan iboratki, umumiyl o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar maktablarida milliy kurash, ayniqsa, o'zbek milliy kurashining rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatlari, milliy kurash tushish qoidalari, musobaqa qoidalari, uning ishtirokchilari rioya qilishi lozim bo'lgan talablar, irodaviy sifatlar, harakat elementlari, kurashchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi, taktik harakatlariga taalluqli ma'lumotlar tavsiya qilingan. Bu tavsiya, ko'rsatmalar, kurash mashg'ulotidagi yurish-turish qoidalari, gigienik qoidalari, kurash darslarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasi professorlar A.Q.Atoev, F.A.Kerimov va K.Yusupovlar tavsiya etgan. Hozirgi milliy kurash qoidalari, kurash mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlar bilan hamohangdir.

Shuni e'tirof etish joizki, milliy kurashga o'rgatish uchun ham o'rgatuvchilar xam o'rganuvchilar o'zbek milliy kurashi qoidalarini bilishlari lozimligi talab etiladi. Bu qoidalarni bilmaslik kurash mashg'ulotlarida va kurash musobaqalarida xatoliklarga yo'l qo'yishlari va bu xatoliklari uchun musobaqani boy berishlari tabiiydir.

Buning uchun kurash mashg'uloti (nazariy va amaliy dasrlar)ni olib boruvchi va kurash tushuvchi o'zbek milliy kurashi bo'yicha mashg'ulot tashkil qilish hamda musobaqa o'tkazish turlari, usullari, yosh va vazn toifalari, baholash ballari hamda man etilgan usullarini bilishlari muhim. Bu mashg'ulotni muvaffaqiyatli o'tkazish, musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning turlari agar bir sportchining o'mni aniqlansa shaxsiy, bir komanda o'mni aniqlansa komanda musobaqasi yoki mashg'uloti, har bir ishtirokchining olgan o'mni va komanda o'mni aniqlansa shaxsiy-komanda, shaxsiy va komanda o'mni aniqlangandan toifa me'yorlari bajarilsa klassifikatsion deb aytildi.

Mashg'ulot yoki musobaqa o'tkazish davra usuli, ikki marta yutqazgandan so'ng kurashdan chiqib ketishi, aralash, yutqazgan polvonning chiqib ketish usuli yoki Olimpiya sistemasi kabi usullar tizimididan iborat. Musobaqada qatnashishi yoki kurash mashg'ulotlari tashkil qilishda o'spirinlar guruhi -12-13 va 14-15 yoshdagilar; o'rta yoshdagi o'smirilar guruhi -16-18 yoshdan iborat bo'ladi. Vazn toifalari (12-13 va 14-15 yoshlilar uchun) -35 kg gacha; 35-38 kg

gacha; Birinchi yengil vazn 38 kg-41 kg; ikkinchi yengil vazn 41-44 kg

IV. Birinchi yarim yengil vazn 44-47 kg gacha.

V. Ikkinci yarim yengil vazn 47-50 kg gacha.

VI. Birinchi yarim o'rtalash vazn 56-59 kg gacha.

VII. Ikkinci yarim o'rtalash vazn 59-62 kg gacha.

VIII. 1-o'rtalash vazn 62-65 kg gacha.

IX. 2-o'rtalash vazn 65-68 kg gacha.

Katta yoshdagisi o'smirlar guruhi (16-18 yosh).

1. 1-eng yengil vazn- 45 kg gacha.

2. 2-yengil vazn -45 kg dan -48- kg gacha.

3. 3-eng yarim yengil vazn 48 kg dan -52 kg gacha.

4. Yarim yengil vazn -52 kg dan -56 kg gacha.

5. Yengil vazn 56-kgdan 60 kg gacha.

6. 1-yarim o'rtalash vazn 60 kgdan 65 kg gacha.

7. 2-yarim o'rtalash vazn -65 kg dan -70 kg gacha.

8. 1-o'rtalash vazn 70 kgdan 75-kg gacha.

9. 2-o'rtalash vazn 75 kgdan 80 kg gacha.

10. Yarim og'ir vazn 81-kgdan 87 kg gacha.

11. Og'ir vazn 87 kgdan yuqorisi.

Kurash mashg'ulotlari va musobaqalar shahar (tuman), viloyat, respublikada o'tkazilganda o'rtalash umumiy va o'rtalash maxsus, kasb-hunar ta'limi maktablarida (Umid nihollari), "Barkamol avlod" sport o'yinlari hamda musobaqalarda yuqorida qayd etilgan yoshlardagi bolalar va o'smirlar guruhidagi inobatga olishi talabga muvofiq. Bu yoshdagisi hamda vazndagi bolalar va o'smirlar bilan tashkil qilinib, o'tkaziladigan mashg'ulotlar va musobaqalarda Xalqaro kurash qoidalariga muvofiq ballar bilan baholash quyidagicha bo'lishi nazarda tutildi:

1. Quyidagi hollarda sof g'alabaga erishildi:

-raqibini yiqitib ikki kuragini yerga tekkizsa;

-raqibi olishuv vaqtida jarohatlanib kurashni davom ettira olmasa;

-raqibi chaqirilganda 3 minut mobaynida gilangma chiqqasa;

-raqib 5 minutdan ko'p tibbiy yordamga muhtoj bo'lib, tibbiy xodim unga ruxsat bermasa;

-to'plangan ballarning birinchisi ikkinchisiga nisbatan 9 ball ko'p bo'lsa.

2. Quyidagi holatlarda kurashchi 3 ballga ega bo'ladi:

- raqib yerdan uzilib, uning gavdasi amplituda hosil qilinsa va chiroysi uslub ishlatsa;
- raqiblardan biri olishuvga 3 ta ogohlantirish olib, olishuvdan chetlatilsa.

3. Quyidagi hollarda kurashchi 2 ballga ega bo'ladi:

- kurashchi tik turib biron-bir usul ishlatis raqibini yonboshi bilan gilamga yiqitsa;
- kurashchi biron-bir usul ishlatis raqibini yoniga yoki bir kuragiga tashlab o'zi tik tursa;
- kurashchi biror usul ishlatis raqibini yoniga yoki bir kuragiga tashlab birgalikda yiqilsa;
- kurashchining raqibiga ikkinchi ogohlantirish berilsa.

4. Quyidagi hollarda 1 ball beriladi:

- kurashchi biror bir usul yordamida raqibining ikki chanog'ini tashlab o'zi tik tursa;
- kurashchi biror usul ishlatis, raqibini qorniga tashlab o'zi tik tursa;
- kurashchining raqibiga birinchi ogohlantirish berilsa.

Bu qoidalarni har jismoniy tarbiya mashg'ulotini o'tkazuvchi pedagog, murabbiy yoki musobaqadagi hakamlik qiluvchi shaxs yaxshi bilishi talab etiladi. Bundan tashqari, kurash olishuvchi vaqtida har ikkala kurashchi teng ball to'plagan bo'lsa-yu, kim birinchi baholi ball olgan bo'lsa o'sha g'olib hisoblanadi. Shuningdek, belgilangan vaqtida kurash tushuvchilar ball to'play olmasa, unda olishuv durang deb hisoblanadi.

Bulardan tashqari, Xalqaro kurash qoidalariiga, asosan, kurash olishushi vaqtida kurashchilar uchun man qilingan qoidalari mavjud. Bundan kurash tushuvchilar, o'qituvchilar, murabbiylar xabardor bo'lishlari lozim. Bular:

1. Bosh yoki qo'l bilan raqibni yuzini to'sish.
2. Raqib barmoqlaridan ushlash.
3. Raqibini og'zi va burnini berkitish.
4. Raqibini boshi bilan gilamga tashlash.
5. Uslubni bajarib bo'lgandan keyin raqib ustiga butun og'irlik bilan yiqilish.
6. Qo'l bilan raqib oyog'idan ushlash.
7. Raqib qo'lini elkasi tomon qayirish.

8. Raqibni tishlash, urish²⁷

Kurash mashg'ulotlarini o'tkazishda o'qituvchi yoki murabbiy kurash mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish metodikasini chuqur egallagan bo'lishi lozim. Ma'lumki, barcha jismoniy tarbiya darslari singari kurash mashg'ulotlari tayyorgarlik, asosiy qism va yakuniy qismlardan iborat. Mashg'ulotning tayyorgarlik qismida kurashchilar umumiyl rivojlantiruvchi mashqlarni bajaradilar. Bular yengil yugurish, gimnastika mashqlari, buyumlarsiz va buyumlar bilan mashqlar, sakrovezhilik, chidamlilik, qarshilikka qarshi mashqlar, muvozanatni saqlay olish mashqlari, maxsus akrobatika (umaloq tushish, bo'yin muskullarini mustahkamlovchi, egiluvchanlikni rivojlantiruvchi) mashqlari bajariladi.

Mashg'ulotning asosiy qismida kurashga oid usul va harakatlar mashq qilinadi. Bunda kurash usullariga o'rgatish mashqlari bajartirilib ular uch bosqichda amalga oshiriladi. Bu faoliyat mavzu doirasida olib boriladi. Masalan, darsda "Muvozanat holatidan chiqarish usullariga o'rgatish" mavzu bo'lsa, shunga oid harakatlar amalga oshiriladi. Ular bir necha topshiriqni bajarish orqali hal etiladi.

Mashg'ulotning yakuniy qismida bajarilgan ishlari tahlil etilib, kurashning dastlabki holatlarida qo'liga kiritilgan yutuqlar, yo'il qo'yilgan xatoliklar va ularning sabablari aniqlanib, kelajakda rejalar belgilanadi hamda xatoliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi.

Ma'lumki, umumiyl o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar maktablarida jismoniy tarbiya, sport va milliy kurashga umumiyl rahbarlik o'quv muassasasi rahbari tomonidan amalga oshirilsa-da kurashga bevosita rahbarlik jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki murabbiy tomonidan amalga oshiriladi. U nazariy ma'lumotlarga asoslanib, kurashchilarning mustaqil ishlashlari uchun topshiriq berish metodidan unumli foydalanadi. Bu metod mazmunida ijodiy mustaqil faoliyat mavjud bo'lib, kurash usullarini barchasini qo'llash uchun imkoniyat beradi. Zero, u uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida kurashchilarga nimani bajarishni tushuntiradi va qanday bajarishni ko'rsatadi, ikkinchi qismda, kurashchilarni topshiriqni bajarishga uyushtiradi, vaqtini, miqdorni belgilaydi, uni bajarishga ruxsat beradi, uchinchi qismda topshiriq bajarilishini kuzatadi, nimaga e'tibor

²⁷ Toymurodov A.R. O'zbek milliy kurashi -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1990. 115-bet.

berish, xatolarni tuzatish yo'llarini belgilaydi, kurashchi harakatini baholaydi. Bunda o'qituvchi uyuşdırış, usulni ko'rsatish va tushuntirish metod-topshiriqlarni, texnik, taktik harakat mashqlarini chuqur egallagan bo'lishi darkor. Bu holatda o'qituvchi usulni sinab ko'rish va uni baholash metod-topshiriqlarini bir juftlikni kurash maydoniga chaqirib namoyish etadi. Qolgan kurashchilar o'rindiqda, mashqning bajarilishini kuzatadilar.

B. Andozali mashg'ulotning anglash bosqichida tavsiya etilgan adabiyotlaridan o'rgangan ma'lumotlari bilan, boshqa manbalardan o'rgangan ma'lumotlari bilan mavzu matni ma'lumotlarini solishtiradilar va o'rganib, to'ldirib olingen ma'lumotlarni B (bilib oldim) ustuniga yoziladi. So'ngra o'rganilgan adabiyotlar va tavsiya etilgan matn mazmuni bo'yicha talabalar insert jadvalini to'ldiradilar, kerakli joyda "V", "+", "-", "?" belgilarini qo'yib chiqadilar.

Insert jadvali

"V" (ha)	"_" (manfly)	"+" (musbat)	"?" (savol)
Matnda o'qiganlaridan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa	Matndan o'qiganlari o'rgangan fikrlariga mos kelmasa yoki o'z aksini topmasa	Matnda o'qiganlaridan yangi ma'lumotlar paydo bo'lib, fikrini to'ldirsa	Matnda o'qiganlaridan tushunarli bo'Imagan yangi savollar ro'yobga kelsa

III. Mashg'ulotni yakunlash

V. Andozali mashg'ulotning fikrlash bosqichi. Bu bosqichda talabalar o'rganilgan adabiyotlar va tavsiya etilgan matn mazmunidagi fikrlarini umumlashtiradilar va o'rganganlarini mustahkamlaydilar.

Darsda faol qatnashgan kichik guruuhlar talabalari rag'batlanтиriladi. Bunda asosiy e'tibor bahoning tarbiyaviy ahamiyatiga qaratiladi.

IV. Uyga vazifa. "Milliy kurash mening taqdirimda" mavzusida uy ishi yozib kelish. Hajmi 5 bet. Bunday mashg'ulotlar talabalarda adabiyotlar bilan mustaqil ishlashni, mustaqil fikrlashni, o'rganganlarini mustaqil taqqoslash bilan birga, bilimlarni mustaqil egallaishi malakafarini hosil qiladi.

7-AMALIY MASHG'ULOT
MAVZU: MILLIY KURASH MASHG'ULOTLARIDA
TIKLANISH VOSITALARI

Ajratalgan vaqt: 4 soat.

Mashg'ulot maqsadi (shakllantirilayotgan o'quv elementlarining ro'yxati):

1. Milliy kurashda tiklanish vositalarini qo'llash va uning ahamiyati.
2. Tiklanishning pedagogik vositalari va uning milliy kurashda tutgan o'rni.
3. Tiklanishning tibbiy-biologik, farmokologik vositalari, ularni qo'llash yo'llari.
4. Uyquni me'yorlashtirish milliy kurashda muhim tiklanish vositasi sifatida.
5. Tiklanishning ruhiy – pedagogik vositalari.

Mashg'ulot davomida talabalar yuqorida qayd etib o'tilgan o'quv elementlarini o'zlashtirish yordamida milliy kurash mashg'ulotlarida tiklanish vositalarini qo'llash jarayonida o'zlarida oldingi holatlarini qayta tiklash, toliqish va zo'rniqishning oldini olish, kelajak mashg'ulotlar yoki musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishda ruhiy-fiziologik jihatdan texnik, taktik tayyorgarlikni puxta egallagan holatni ifodalaydilar. Shuningdek, o'z jismoniy tayyorgarliklari sog'liklariga zarar etkazmagan holda keyingi mashg'ulotlarga yoki musobaqalarga katta ishtiyoq bilan ishtirok etishda tiklanishning tibbiy-biologik, ruhiy, pedagogik omillarining qanchalik ahamiyatli ekanligini bilib oladilar. Mashg'ulotlar jarayonida uyquni me'yorlashtirish, tanaffusdagi massaj, funktional musiqaning tiklanishdagi ahamiyati talabalar e'tiboriga havola etiladi. Bu katta musobaqalar oldidan bo'lajak kurashchini asab energiyasini to'liq saqlanishiga, ruhiy-jismoniy zo'rniqishning oldini olishga, g'alabaga ishonchini uyg'otishga katta kuch bo'lib xizmat qiladi.

Mashg'ulotning borishi:

O'tkazish shakli: pedagogik press-markazda ishslash.
Markazda mavzuning har bir muammosi bo'yicha muayyan ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis –ekspertlar yig'iladi. (Bu mutaxassis-ekspertlar guruuning o'qituvchi tomonidan oldindan belgilangan va maxsus adabiyotlar asosida mavzuga oldindan tayyorlangan talabalar kiradi). O'qituvchi "Tiklanish vositalari nima

va ular milliy kurashdan mashg'ulotlar tashkil etish yoki milliy kurash musobaqalarida ishtirok etish uchun qanday ahamiyatga ega" mazmunida guruh oldiga muammo qo'yadi. Har bir ekspert mazkur muammo bo'yicha oldindan ko'rilgan, tayyorgarlikka asosan muammoni yechib chiqadi. Masalan:

1-ekspert: "Tiklanish vositalarining mohiyati va uning milliy kurash mashg'ulotlari hamda musobaqlari jarayonidagi axamiyati".

2-ekspert: "Tiklanishning tibbiy-biologik farmokologik va ruhiy-pedagogik vositalari".

3-ekspert: "Uyquni me'yorlashtirish milliy kurash mashg'ulotida faol ishtirok etish vositasi sifatida".

4-ekspert: "Mashg'ulot o'rtasidagi tanaffusda massaj, funksional musiqa tiklanishaing muhim vositasi sifatida".

5-ekspert: "Tiklanishda sekundantlik va uning mashg'ulot yoki musobaqa jarayonidagi ahamiyati".

Ekspertlarga muammolarni yechishlari va ular oldidagi topshiriqlarni hal etishi uchun, ularga quyidagi adabiyotlar tavsiya etiladir:

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bolalar sporti-o'zbek sportining kelajagi, uning Xalqaro maydonidagi obro'e'tiborini yuksaltirishning poydevoridir. - T.: O'zbekiston ovozi, 2013-yil, 26-fevral.

2. Ato耶ev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti. -T.: O'zDJTI nashriyoti-matbaa bo'limi, 2005.

3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. -T.: O'zDJTI nashriyot-matbaa bo'limi, 2005. 150-162-betlar.

4. Usmonxo'jaev T.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti: o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mutaxassisliklari uchun qo'l. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2008.

5. Arslonov Q.P. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi. (Ma'ruzalar matni.) -Buxoro, 2012.

Ekspertlar elingan topshiriqlar bo'yicha mavzuga oid masalalarni o'rgangan manbalaridan foydalangan holda belgilangan vaqtida bayon qildilar. Ularning javoblari tinglanadi va muhokama qilinadi.

1-ekspertaning javobi: Mashg'ulotni ko'ngilish o'tkazish, musobaqada muvaffaqiyatlari ishtirok etish uchun albatta tiklanish vositalaridan foydalanish zarur. Zero, u mashqlanishni o'sishi, shu

qobiliyatining ortishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tiklanishda organizm o'z funktsiyasidagi ish holatini gayta tiklab qolmasdan, organizmning kuch imkoniyatlarini yuqori darajaga ko'tarilishiga yordam beradi.

Ma'lumiki, V.A.Geselevich (1978) ma'lumotlariga qaraganda, skelet mushaklarida glikogen va adenozinrifosfor kislotosining dastlabki holatiga nisbatan ortiqcha to'planishi vujudga kelib, u kurashchilar mushak ishida tiklanishning etakchi va yakuniy bosqichi hisoblanadi. Yuklama og'irligiga qarab, glikogen va ATFning ortiqcha to'planishi har xil muddatiarda sodir bo'ladi va u sog'liqqa zarar yetkazmay, mashg'ulot jarayonini jadallashtiradi bunda pedagogik vositalarning asosiysi, yetakchi hisoblanadi. Chunki aynan ular har bir kurashchi rejimini va kurashchilar ko'p yillik tayyorgarligining hamma bosqichlarida yuklama hamda dam olishni oqilona uyg'unligini ta'minlaydi.

Tiklanishning bиринчи тuri farqlanib, shulardan biri kurashda tiklanishning pedagogik vositalari deb nomlanadi.

Tiklanishning pedagogik vositalari quyidagiarni o'z ichiga oladi:
- mashg'ulotni oqilona rejalashtirish, yuklananing kurashchi funktsional imkoniyatlariga mos keltirish; jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlikning umumiyl hamda maxsus vositalarini uyg'unlashtirish; ish va dam olishni to'g'ri rejalashtirish hamda moslashtirish yordamida ulardan tog'shareitlariдан mashqlardan foydalanish;
- toliqishni tez qoldirish maqsadida zarur tiklanish vositalaridan foydalangan holda mashqlar turkumini tuzish; badan qizdirishda va mashqlarda mashg'ulotlar joyi, snaryadlar to'g'ri tanlash, dam olish va bo'shashish uchun maxsus mashqlarni kiritish.

Milliy kurash mashg'ulotlari yoki musobaqalari jarayonlarida tiklanishning pedagogik vositalaridan tashqari tibbiy-biologik, farmokologik ruhiy-pedagogik vositalari ham mavjud. Ulardan o'z vaqtida foydalanish katta yutuqlarga erishishini ta'minlaydi.

2-ekspertning javobi: kurashchi o'z tayyorgarlik darajasini tiklashni uchun, dastavval salomatligi hisobga olishi, uni me'yorda bo'lishi ta'minlagan holda salomatligini doimiy muhofaza qifib turishi lozim. Buning uchun biologik qiymati yuqori bo'lgan dori-darmonlar va tabiiy mahsulotlardan foydalanishi, o'z vaqtida va oqilonan ovqatlanishi, fizioterapiya, sauna, massaj va boshqa muolajalarni o'z vaqtida olishi, iqlimiyl terapiya, sanatoriya-kurort uslublaridan

foydalaniishi, dopingga qarshi nazorat talablariga rioya qilgani holda farmokologiya vostalarini qo'llash kabi tibbiy-biologik vositalardan foydalaniishi zarur. Organizmni tiklanish vositalardan foydalarishni tezlashtirish omillaridan biri hisoblanadigan modda almashinuviga e'tibor qaratiladi. Buning uchun F.A.Kerimov tavsiya etgan farmokologik vositalar: dori-darmonlar va komplekslar, yuqori quvvatli biologik qiymatiga ega mahsulotlardan foydalaniish talabga muvofiq. Bunday biologik qiymatga ega mahsulotlar orasida eng muhim ahamiyatga egalari quyidagilar:

- energetik ta'sir etish dori-darmonlari (karnitinxlorid, panangin, glyutamin kisletasi, kalsiy gluifosfat, kaltsiy gluukonat, kaltsiy litsitin, aminolon);
- adaptogen dori-darmonlari (eleuterokkok, saparel, polli-tabas);
- qon hosil qiluvchi stimulyatorlar (turli tuzlar ko'rinishidagi temir).

Kimyoviy tarkibi va farmokologik ta'siriga ko'ra turlicha bo'lgan dori-darmonlar ma'lum bir tizimli yondashishni va ularni mutaxassis rahbarligi ostida oqilona, qo'llashni taqozo qiladi. Hozirgi paytda mutaxassilar turli farmokologik dori-darmonlarni "Aerovit", "Dekamevit", "Undivit" vitaminlari hamda yuqori biologik qiymatga ega mahsulotlar (ogsilli pechene, uglevodli-mineral i奇imliklar va boshqa) bilan qo'shib foydalaniishi tavsiya qilishdilar²⁸.

Dori-darmonlarni qo'llashda, albatta kurashchi (tegishli soha mutaxassislar, ya'ni vrachlar, biokimyochilar, fiziologlar, farmakologlarning qatiy nazorati ostida bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki me'yor, yaqt, ta'sir doirasasi tiklanish qiymati hisobga olimadi. Bu dori-darmonlar tiklanish uchun muhim omil hisoblanib, ularni:

1. Dori-darmonlarni mashg'ulot davrlari bo'yicha (o'tish, tayyorgarlik va musobaqa) va asosiy musobaqaqlarga bevosita tayyorgarlik davrida qo'llash.
2. Mashg'ulot mikrosikllarda vositalar kompleksini tayinlashning tamoyili sxemasini tuzish.
3. O'rtacha tog' shareitlarida tayyorgarlikning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish.
4. Yuklama oshirilganda asosiy dori-darmonlar dezasining ko'paytirilish nazarda tutiladigan alohida komplekslarni tanlash va

²⁸ Kerimov F.A. Sport konschi nazoriyasi va usuliysi - T: O'sDZTI nashriyoti matbaa bo'limi, 2003.152 b.

qo'shimcha dori-darmonlarni kiritish hamda ularni boshqasi bilan almashtirish.

5. Ma'lum bir tayyorgarlik bosqichida u yoki bu sportchi oldiga qo'yilgan maxsus pedagogik vazifalarni hal etish.

6. Sportchi yoshi va stajini hisobga olish.

7. Oldin qo'llanilgan dori-darmonlarga bo'lgan ta'sirni o'rganish.

Bu farmokologik vositalar kurashchining faoliyatini tiklashga kurash musobaqasiga ishtiyoq bilan munosabatda bo'lishini ta'minlashga yaxshi imkoniyatlar yaratib berishini tajriba tasdiqlagan.

3-ekspertning javobi: kurash nazariyasiga oid ma'lumotlar, tajriba shundan dalolat beradiki, kurashchi uchun pedagogik, tibbiy-biologik, farmokologik vositalar bilan xamkorlikda qo'llaniladigan uyquni me'yorlashtirish vositalari ham tiklanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlar, ayniqsa, musobaqalarga muvaffaqiyatsizliklar uyquning buzilishi bilan bog'liq ekanligini tajriba tasdiqlagan. Bunda katta yuklama mashqlar davrida uyqusizlikni 35% da sodir bo'lishi kuzatiladi.

Buning uchun uyquni me'yorlashtirish lozim. Bunday xollarda ko'proq ochiq xavoda sayr qilish, uyqudan oldin achchiq choy ichmaslik, yotish oldidan uyni shamollatish, oyoqqa paypoq kiyib yotish taysiya etiladi.

Uxlash oldidan archali ekstrakt bilan tayyorlangan varina qabul qilish ham uyquni me'yorlashtiradi. Professor F.A.Kerimovning tavsiyasiga ko'ra, ko'rsatib o'tilgan vositalar bilan bir qatorda medikamentoz dori-darmonlar, elektr uyqu, ruhiy boshqarish, ruhiy-mushak mashqlari kabilar qo'llaniladi.

Uyquni me'yorlashtirish uchun quyidagi farmokologik dori-darmonlar qo'llaniladi:

Valeriana-gipotalamusga ta'sir ko'rsatuvchi yengil dori-darmonlarga kiradi. Vegetativ asab tizimi tashvishni oladi, salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Valokordik - yurak urishi bilan asabiylashish holatlarida qo'llaniladi.

Startdan oldindi holatda foydalanish mumkin.

Turli uyqu dorilarining ta'sir ko'rsatishini kuchaytiruvchi vositalar, shuningdek, uyqu beruvchi samaraga ega dori-darmonlar sifatida dimidrol, suprastin, tavegil va boshqalar qo'llaniladi.

4-ekspertning javobi: mashg'ulotlar jarayonida va bevosita musobaqalar tanaffusida kurashchilar uchun yuqorida qayd etib o'tilgan tiklanish vositalaridan tashqari ular bilan o'tirganda olib boriladigan massaj, funktional mushak vositalaridan foydalanish xam tiklanish jarayonini tezlashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etajagini tajriba ko'rsatmoqda. Bir qator mutaxassislar V.A.Geselevich, T.K.Bakushyev, I.E.Davletshin, F.A.Kerimovlarning fikrlariga ko'ra, quyidagi tiklanish tadbirlari katta ahamiyat kasb etadi: «Bellashuv davri tugagandan so'ng kurashchi stulga o'tiradi va unga suyanadi. Oyoqlar tekislanadi bo'shashtiriladi, tovonlar polga (gilamga) tegib turadi.

O'qituvchi massajchi yoki tayyorlangan sportchi qo'lli bilan navbatma-navbat kurashchi oyoqlarini ko'tarib, elkasiga joylashtiradi, qo'llarni bo'shashtirishga esa ularga gorizontal holat berish bilan erishiladi. Buning uchun massaj qiluvechi iloji boricha stolga yaqin kelib, tizzalarida turadi.

Faoi va sust giperventilyatsiya hamda kurashchi yuzi va gavdasini ho'l sochiq bilan artingandan so'ng yuqori yelka kamaridan massaj qilishni boshlashi lozim. Asosiy usullar: yarim aylanali, navbatma-navbat uqalash. Usullar ikki qo'llab bajariladi (qo'l kaftlari bir-biriga parallel joylashtiriladi va qarama-qarshi tomonga harakatlantiriladi). Shu usul ikki va uch boshli yelka mushaklarini massaj qilish uchun xam foydalilanadi.

Yelkani bukuvchi va yozuvchi mushaklar uchun uqalash usuli qo'llaniladi. Massajchi uni tik turgan holda ikkala qo'l kaftini parallel holda uzatib, qarama-qarshi tomonga harakatlantiradi.

Ishlagan mushaklarning zo'riqish (shishib ketish) darajasiga qarab, ko'ndalangiga bitta yoki ikkita qo'l bilan to'xtovsiz uqalash qo'llaniladi. Muayyan holda (bellashuv davrida) asosan yuklamani ko'taradigan oyoq - qo'llarga (mushaklar guruhiга) yengil massaj qo'llaniladi. Yuzaki silashdan so'ng chuqur qamrovchi silashni bajarish mumkin. Oyoq-qo'lfa sezilarli darajada shishgan va mushaklar zo'riqqan paytda hamda vaqt yetarli bo'lsa, yelka yana bir bor uqalanadi. Uqalashdan so'ng siltash bajariladi. Yelkani bukuvchilar va yozuvchilar ko'proq shishiadi. Bu ko'pincha keskin og'riqlar va kuch imkoniyatlari hamda ish qobiliyatining susayishi bilan kuzatiladi. Ushbu holat kurashchilarda birinchi bellashuvdan so'ng, ayniqsa, ko'proq vaznni yo'qotish paytida hamda suv-tuz

almashinuvi buzilganda, kam harakatli bellashuvlarda, ushib olish uchun kurashishda yuzaga keladi. Qo'llarni massaj qilishdan so'ng (vaqt yetarli bo'lgan taqdirda) bo'yinni massaj qilish usullari bajariladi. Massaj qiluvchi kurashchi o'tirgan stul orqasida turib, qo'llarini olmasdan ensa va bo'yin yuzasini yelka usfi tomon shoshilmay silaydi (2-3 usul).

Keyin o'pkalarning sustgina giperventilyatsiyasi bajariladi. Stul orqasida turgan holda massaj qiluvchi bo'shashtirilgan ikkala qo'llarni tirsaklardan ushib, ularni yuqoriga ko'taradi (nafas ol deb) va pastga tushiradi (nafas chiqar deb).

Oyoqlarni massaj qilish tanaffuslarda kamdan-kam bajariladi. Alohiда hollarda uqalash va siltash usullari qo'llaniladi.

Bellashuv tanaffusidagi massaj juda nozik va murakkab ishdir. U massaj qilayotgan shaxsdan katta bilim, har tomonlama tayyorgarlik va muntazam ijod qilishi taqozo etadi.

Tiklanish tadbirlarining samaradorligi ikkita massajchining o'zaro kelishilgan ishi bilan kuchaytirilishi mumkin. Murabbiy sekundant ikkinchi massajchi bo'lishi mumkin. U bir vaqtning o'zida tegishli ruhiy terapiyanı olib boradi, bellashuvning keyingi taktikasi to'g'risida ko'rsatmalar beradi va x.k. Bundan tashqari, funksional musiqa xam tiklanishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Funksional musiqa kurashchilarining emotsiyal doirasi hamda ish qobiliyatiga ta'sir etish uslublaridan biri hisoblanadi.

Funksional musiqa sport faoliyatida turli sharoitlarida qo'llaniladi hamda kutib olish, hosil qilish, etakchi, tinchlantirish va kuzatish turlariga ajratiladi (Yu.G.Kadjasparov, 1976). Tiklanish maqsadida asosan yoqimli va past ohangdagi tinchlantiruvchi musiqa, qushilar kuyi, dengiz yoki irmoq shovqini, barglarning, yomg'irning shitirlashini bildiruvchi tovushlar hamda boshqa maromli ohanglar qo'llaniladi».

Tinchlantiruvchi musiqa bo'shashish va turli xil nafas olish jarayonlarini oromlashtirish, zo'riqqanlikni oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Bu tungi dam olish paytlarida yoki uyqudan oldin musobaqalar tanaffusi vaqtida o'tkaziladi. Uni ruhiy boshqarish ruhiy mushak mashqlari va ruhiy terapiya bilan qo'shib olib borish maqsadga muvofiq.

5-ekspert javobi: Mashg'ulotlar jarayonida va musobaqalar davrida ruhiy zo'riqishni oldini olish, dam olish va hordiq chiqarish

ishlarini tashkil qilish, ruhiy boshqarish mashg'ulotlari hamda ruhiy mushak mashg'ulotlarini tashkil etish muayyan rahbarlik hamda tashkilotchilik bilan bog'liq. So'z orqali ta'sir qilib, kurashchining yuqori asab tizimini tartibga solib turish, pedagogik maslahatlar va shu soxani yaxshi tushunadigan shaxslar-sekundantlar faoliyatini bilan amalga oshiriladi.

"Mohirlilik bilan sekundantlik qilish ham katta ahamiyatga ega. Sekundantlik qilish san'ati kurashchini o'ta ehtiyyotkorlik bilan boshqarish maqsadida uning ruhiy holatini tushunish va sezgirlik bilan diagnostika qilishni nazarda tutadi. Shuni hisobga olish lozimki, ba'zi kurashchilar sekundantlarga muhtoj emaslar va ularda bellashuvning borishi to'g'risida o'z fikrlari mavjud. Ba'zan bir qator kurashchilarda mazkur murabbiya moslashmaslik va unga ishonqiramaslik hosil bo'ladi. Sekundantlik qilishning asosiy qoidasi — kurashchiga bellashuv paytida mustaqil fikrlashga imkoniyat berish, o'ta ruhiy zo'rqliq yukini bartaraf etish, agar kerak bo'la, sportchini qo'zg'alishga yo'naltirishdir. Tanaffus paytida birinchi navbatda kurashchini tinchlantirish lozim va shundan so'ng, ya'ni uning holati me'yorlasha boshlagandan keyin oldinda turgan davrga aniq qisqa ko'rsatma berish lozim. Bunda sportching alohida xususiyatlari, uning holati hamda bellashuv davomida yuzaga keladigan vaziyatini hisobga olish zarur.

Shuni nazarda tutish lozimki, har bir kishi murabbiy-sekundant bo'la olmaydi. Bu ishda yuksak darajadagi sport madaniyati, tajriba va bilim, xotirjam, o'zini tuta olish, fikrlay olish, turnir bellashuvlaridagi murakkab vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'yinastik, start talvashasiga tushmaslik katta axamiyatga ega. Sekundant shu narsani aniq bilishi lozimki, "birovni boshqarshni bilish uchun birinehi navbatda o'zini boshqarishni bilishi zarur". Buning uchun tayyorgarlik va musobaqalarni o'tkazish jarayonida sekundantlik qilishga tayyorlanayotgan shaxs o'z-o'zini ruhiy boshqarish vositalaridan foydalanishi zarur.

Matbuot markaziga mavzu bo'yicha yuqorida ma'lumotlar uzatiligidan so'ng ekspertlarning uzatgan axborotlari tinglovchi talabalar e'tiboriga havola qilinib tahlil qilinadi. Ekspertlar ko'raatgan faoliyatlariga ko'ra rag'batlantiriladi. Tahlil davomida aniq bildirilgan fikrlar umumilashtiriladi.

Talabalarga mashg'ulot yakunida mantiqiy tafakkurni shakllantirish va mavzu mazmunini chuqurroq mustahkamlash maqsadiga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Siz qanday fikrda siz, "mashg'ulotlar jarayonida ayniqsa, musobaqalar davrida tiklanish vositalarini qo'llash kerakmi?
2. Nima sahabdani tiklanish vositalarini aniq tanlash va qo'llash musobaqalar davrida ko'proq zarur bo'lib qoladi?
3. Tabiiy+biologik, formokologik vositalardan sizningcha qaysi vaqtida foydalanish kurashchiga ko'proq foyda keltiradi?
4. Sportchi uyqusini me'yorlashtirish uchun qanday vositalardan foydalangani ma'qlid?
5. Kurashchilar tayyorligiga funktsional musiqaning qaysi usullari yaxshi imkoniyat yaratadi?
6. Mashg'ulottarda, ayniqsa, musobaqaqtar davrida sekundantlik qanday foyda keltiradi deb o'ylaysiz?
7. O'z-o'zini boshqarishning ruhiy-pedagogik usullariga nimalar kiradi va hik.

Guruh a'zolarining mazkur savollarga bergan javoblari tahlil qilinib, umumlashtiriladi. Ekspertlar keltirgan har bir javobning mazmuni qolgan talabalarga ochib beriladi. Mana shu tarzda mavziga oid bilimlar asoslarini o'zlashtiriladi.

L. Uyga vazifa: "Milliy kurashda tikkish vositalarining o'rni" mavzusida referat yozish.

eterni se han de tener en cuenta para la ejecución de las operaciones
diferentes, y esta memoria indica que es necesario que se establezca
en el distrito una comisión técnica que se encargue de la ejecución
de las obras. Al mismo tiempo se ha de establecer una comisión
que se encargue de la ejecución de las obras de construcción de
los edificios y dependencias que se necesiten.

XULOSA

Yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar qilib etishtirishda jismoniy tarbiya, ayniqsa, milliy kurashning o'rni beqiyosdir. Zero, u hammabop va ko'pchilik o'yinidir. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport singari milliy kurash ham davlat ahamiyatidagi ishga aylanmoqda. Chunki hammabop va ko'pchilik o'yini sifatida kurash mehnatkashlarning salomatligi, jismoniy tayyorgarligini ta'minlab ijtimoiy mehnat unumdarligini oshirishga va mamlakatning mudofaa tizimini mustahkamlashga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Milliy kurash bolalar va o'smirlarni ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-siyosiy tarbiyalash uchun ham katta imkoniyatlarga ega. Shuning uchun mamlakatimizning barcha shahar (tuman)larida milliy kurashga katta e'tibor qaratilib, bolalar va o'smirlar uchun kurash turlari bo'yicha mashg'ulotlar, musobaqalar, turnirlar, o'yinlar tashkil qilinib o'tkazilmoqda. Bular yoshlarimizning har tomonlama ma'lumotli, ma'naviy go'zal bo'lishlari bilan birga jismoniy barkamol, sog'lom, chiniqqan insonlar bo'lib etishishlari uchun katta imkoniyat tug'dirmoqda.

O'zbek milliy kurashi bugun jahon yuzini ko'rmoqda. U sportning muhim turi sifatiда jahon arenasiga kirib, ommaviylashib bormoqda, umuminsoniy qadriyatga aylanmoqda. Shu bois, mamlakatimizda mijhiy kurashni ilmiy jihatdan tadqiq qilish va shu asosda Xalqaro andazalarga mos yuksak saviyali mutaxassislarini tayyorlash zaruriyati vujudga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida milliy kurashimiz dovrug'ini oshirish, uning shon-shuhratini yuksaltirib bilimli, iqtidorli kurashchilar bilan bir qatorda milliy kurash murabbiylarini tayyorlash va ularni barkamol insonlar qilib tarbiyalash "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning bosh maqsadidir.

Ma'lumki, kurash uning xilma-xil turlari harbiy mashqlar, jangchilarning jangovar tayyorgarligini namoyish etish maqsadida ko'p asrlar qo'llanilib kelingan. Zero, u o'zini rang-barang va murakkab texnikasi bilan ajralib turgan. Bu xol hozirgi vaqtida o'z jozibadorligini va qiymatini yo'qotgan emas, aksincha, o'zining rang-barangligi bilan barchani rom etib kelmoqda.

Shu bois, qo'llanmada keltirilgan mavzularni va ularni o'rganish texnologiyalarini oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Milliy kurash turlari va ularni o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda qo'llash,

shuningdek, joylarda tashkil qilinadigan kurash to'garaklari murabbiylariga, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar maktablarida kurash darslarini tashkil etish, turli shahar, tuman, qishloqlarda an'anaviy xalq bayramlarida, milliy kurash dasturlarini tuzish, ularga yoshi kurashchilarini tayyorlash uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi deb o'yaymiz.

Binobarin, ko'pi millatli respublikamizda milliy kurashning o'zbek (buxerocha, farg'ona)cha turlarining gruzincha, qirg'izcha va boshqalarni, sambo, dzyudoni tashkil etish va ularni o'tkazishga yordam beradi.

Kurash barcha o'zbek xalqlari tantanlarining doimiy yo'loshi. Bu artna o'tmishdan qolgan meros. Navro'z tantanalarini, xalq sayllari, to'yu-tamosholar, albatta kurashsiz o'tmaydi. Bu kurash o'yinlarida bellashuvchilar o'zlarining kuchliliklarini, chaqqonliklarini, tezkorliklari, chidamliklарini namoyish etadilar, shunga ko'ra qo'llanmada keltirilgan kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklari, texnik tayyorgarliklari, taktik tayyorgarliklari, ruhiy tayyorgarliklari to'g'risidagi ma'lumotlar, ularni qo'llash texnologiyalari borasida keltirilgan namunalalar bo'lajak milliy kurash murabbiylariga yaqinlan turib yordam berib, bolalar va o'smirlarni kurash tushishga tayyorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'ngilli kurash to'garaklarda, bolalar va o'smirlar sport maktablaridan bo'lajak kurashchilarga ta'lim-tarbiya berishga ko'maklashadi. Ma'lumki, kurash eng qadimiy, ko'pchilik shug'ullanishi mumkin bo'lgan sport turlaridan biri sifatida, hozirgi bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Respublikada olib borilayotgan davlat miqyosidagi ishlar, mutasaddilarning sa'y-harakatlari bilan shahar (tuman) va qishloq joylaridagi madaniy-oqartuv muassasalari qoshlarida tashkil qilinayotgan kurash to'garaklari vaqtி-vaqtி bilan o'tkazilayotgan kurash musobaqalari davlat miqyosidagi ishga aylanmoqda. Shunday vaziyatlarda joylarda yoshlarni kurash tushishga o'rgatish bo'yicha olib borilayotgan ishlar uchun mutasaddi kishilarga mazkur qo'llanma amaliy yordam berib, kurash mashg'ulotlarini, kurash musobaqalarini o'tkazishni tashkil qilishda qo'l keladi. Chunki qo'llanmada jismoniy tarbiya, bolalar sportini rivojlantirish tizimida milliy kurashning vazifalari, kurash musoboqalarini tashkil qilish va o'tkazish qoidalari, kurash mazmuni, kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy

tayyorgarligi, kurash texnikasi, taktikasi to'g'risidagi fikrlar milliy kurashni tashkil qilish talablari asosida bayon qilingan.

Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sport insonni nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-axloqiy kamolotga erishitradigan vosita ekanligi barchaga ma'lum. Shu bois, respublika Prezidenti I.A.Karimov "...bolalar sporti o'zbek sportining kelajagi, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishning poydevoriga aylantirish zarur", -deb behuda ta'kidlamaydi. Shunday ekan, biz tarbiyachi pedagoglar ham, milliy kurashni milliy taraqqiyotimizning poydevoriga aylantirib, bolalar va o'smirlarni:

-mustaqil ijodiy tafakkur va dunyoqarashga, mutelik va ju'atsizlikdan xoli, o'z kuchi, bilimi, ma'naviyatiga ega bo'lgan;

-ijtimoiy manfaatlarini, shaxsiy manfatlardan ustun qo'ya oladigan;

-o'tmish ma'naviy mero simizga sodiq, o'zligini anglagan, ajdodlarimiz xotirasiga hurmat bilan qaray oladigan;

-lymon-e'tiqodli, insof-diyonatli, saxovatpesha, adolatparvar, xalqsevar, Vatanparvar, mehnatsevar insonlar qilib tarbiyalashda kamarbasta bo'la oladi;

FOYDALANILGAN ADABPYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "O'zbekiston" buyuk kelajak sari. - T.: "O'zbekiston", 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'anviyat - yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. -T.: "O'zbekiston", 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chiqqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'lli. -T.: "O'zbekiston", 2003.
5. Karimov I.A. Bolalar sporti - o'zbek sportining kelajagi, uning Xalqaro maydondag'i obro'-e'tiborini yuksaltirishning poydevoridir. // (O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi homiylik kengashida so'zlagan nutqi). -T.: O'zbekiston ovozi, 2013 yil, 26-fevral.
6. Alisher Navoiy. Asarlar. 14,17 jildlar. 1999, 2001.
7. Ato耶ev A.Q. Kurash. O'smir va yoshlarni kurashga o'rgatishning metod va vositalari. (Ped. oliv o'quv yurt. jismoniy tarbiya o'qituvchilar, BO'SM KSJ va SMOM o'qituvchi va murabbiylar) uchun o'quv qo'lli. - T.: "O'qituvchi", 1987.
8. Ato耶ev A.Q. Farzandingiz barkamol bo'lsin. -T.: "Meditina", 1992.
9. Ato耶ev A.Q. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyoti.-T.: O'zDJTI nashriyot- matbaa bo'limi, 2005.
10. Absattorov A.A., Istomin A.A. Dzyudo kurashi, (Fizkultura instituti talabalari uchun o'quv qo'llanma). -T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993.
11. Nurshin J. va boshqalar. O'zbekcha kurash usullari. O'quv qo'llanma.- T.:, 1987.
12. Nurillayev A. "O'zbek kurashi uslubiyoti" (O'quv uslubiy qo'llanma)- Navoiy, 201.1
13. Kerimov F.A. Kurash tushaman. -T.: 1990.
14. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati.- T.: O'zDJTI nashriyot matbaa bo'limi, 2005.
15. Kurash. Kurash Xalqaro assotsiatsiyasi jurnali.- T.:,2010.

16. Ibragimov X., Yo'ldoshev U., Bobomirzoyev X. Pedagogika-psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.
17. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalar va atamalar lug'ati. – T.: Akademnashr, 2007.
18. To'yumurotov A.R. O'zbek milliy kurashi. –T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot 1990.
19. Tolipov O.'Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. –T.: Fan, 2006.
20. Ismoilov M.N. Bolalar va o'smirlar gigiyenasi (Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik) –T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1994.
21. Yusupov K. Kurash Xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. – T.: G'afur Gulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uy, 2005.
22. Usmonxo'jaev T.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti (O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun o'quv qo'llanma) –T.: "O'qituvchi" NMIU, 2008.
23. Usmonxo'jaev T.S., Yusupov V.J., Akramov J.A., Usmonxo'jaev S.T. Jismoniy tarbiya. (Kasb-xunar kollejlari uchun darslik). –T.: "O'qituvchi", NMIU,2008.
24. O'zbek kurashi dovrug'i /Tuzuvchilar: X.Bobobekov, M.Sodiqov, Z.Ro'ziyev ya boshq. -T.: Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashri, 2002.

MUNDARIJA

1. SO'Z BOSHI.....	3
I BOB. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "MILLIY KURASH TURLARI VA UNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI" FANINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	5
1.1. «Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi» fanining jismoniy tarbiya fanlari tizimida tutgan o'rni va ahamiyati	5
1.2. O'qitish jarayonini zamонави та'lим texnologiyalari asosida tashkil etish — davr talabi	11
1.3. "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari	17
1.4. "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitishda qo'llaniladigan didaktik jarayonning interfaol usullari	25
II BOB. MILLIY KURASH TURLARI VA UNI O'QITISHGA OID TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	36
2.1 "Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi"fanidan nazariy mashg'ulotlarda foydalilaniladigan ta'lim texnologiyalari	36
1-mavzu: "O'zbek milliy kurashining umumiyl qonunlyatlari"	37
2-mavzu: "Erkin kurash qoidalari"	79
2.2 Amaliy mashg'ulotlarda ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish:.....	99
1-amaliy mashg'ulot. Umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlar ..	99
2-amaliy mashg'ulot. Texnik tayyorgarlik	117
3-amaliy mashg'ulot. Kurashchining taktik tayyorgarligi	136
4-amaliy mashg'ulot. Kurashchining ruhiy tayyorgarligi	165
5-amaliy mashg'ulot. Oilada bolalarni milliy kurashga o'rgatish texnologiyasi	176
6-amaliy mashg'ulot. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maktablarida kurash mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi ..	183
7-amaliy mashg'ulot. Milliy kurash mashg'ulotlarida tiklanish vositalari	193
XULOSA.....	202
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	205

Q.PARSILONOV

**MILLIY KURASH TURLARI
VA UNIÖ'QITISH TEKNOLOGIYALARI**

Muharrir: N.Egamqulova
Teknik muharrir: M.Rahmonov
Sahifalovchi: M.Muxamadiyeva

“Turon zamin ziye” nashriyoti

Litsenziya: A1 №171, 2010 yil 11 iyunda berilgan.

Toshkent sh. Yunusobod-14, 27/35.

2014-yilning 22 dekabrida terishga berildi. 2014-yilning 29 dekabrida
bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 13,0 shartli bosma tobog’.

13,25 hisob nashriyot bosma tobog’i. Ofset qog’oziga ofset
usulida chop etildi. Adadi 300 nusxa. 73-sonli buyurtma.

«Standart Poligraf» x/k bosmaxonasida chop etildi
Buxoro shahri, Navoiy shohko’chasi 6-uy.